Ahmad Qarshiyev



# SURXON VOHASI BEKLIKLARINING BUXORO AMIRLIGIDA TUTGAN O‘RNI



Ahmad Qarshiyev

# SURXON VOHASI BEKLIKLARINING BUXORO AMIRLIGIDA TUTGAN O'RNI

Ahmad Qarshiyev

# SURXON VOHASI BEKLIKLARINING BUXORO AMIRLIGIDA TUTGAN O‘RNI

Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi o‘rni arxiv manbalari asosida

GlobeEdit

**Imprint**
Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:
GlobeEdit
is a trademark of
Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom
Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe
Managing Directors: Ieva Konstantinova, Victoria Ursu
info@omniscriptum.com

Printed at: see last page
**ISBN: 978-620-9-67071-8**

Copyright © Ahmad Qarshiyev
Copyright © 2026 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

## MUNDARIJA

**Kirish** ........................................................................2
**I. BOB. MAVZUNING MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI** ........................................................................6
1.1§. Mahalliy muarrixlar asarlarida voha talqini ........................................................................6
1.2§. Mavzuning tarixshunosligi ........................................................................31
**II BOB. BUXORO AMIRLIGINING XVIII-XX ASR BOSHLARIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA'MURIY HUDUDIY HOLATI** ........................................................................54
2.1§. Buxoro amirligining siyosiy hayotida Surxon vohasining tutgan o'rni ........................................................................54
2.2§. Vohaning ma'muriy hududiy holati va boshqaruv tizimi ........................................................................76
**III BOB. BUXORO AMIRLIGI IQTISODIY HAYOTIDA VOHANING O'RNI** ........................................................................101
3.1§. Surxon vohasining agrar tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari ........................................................................101
3.2§. Hunarmandchilik va mahalliy ustaxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni (savdo aloqalari) ........................................................................114
**XULOSA** ........................................................................134
**FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI** ........................................................................136

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 36763

## KIRISH

Bugungi kunda jahon xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida milliy o'zlikni anglash, etnomadaniy jarayonlarni saqlab qolish, har bir davlat tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish kun sayin oshib bormoqda. Bu esa yozma manbalar, noyob Buxoro "Qo'shbegi" arxivi hujjatlari va joriy davriy matbuot materiallari asosida Buxoro amirligida Surxon vohasi beklari aholisining etnik tarkibi, ma'muriy boshqaruvi, soliq tizimi, agrar munosabatlari, savdo-sotiq, hunarmandchilik va mahalliy ustaxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni borasida BMTning maorif, fan va madaniyat masalalariga ixtisoslashgan hukumatlararo tashkiloti - YUNESKO ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga ko'maklashish yo'nalishida yozma manbalarni o'rganish, saqlash va davriy matbuot nashrlari zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yaratish borasida chora-tadbirlarini hayotga tadbiq etishni taqozo etmoqda.

Dunyoning rivojlangan ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan arxiv hujjatlarining tarixiy tadqiqotlardagi o'rni, madaniy meros sifatidagi jamiyat rivojidagi roli, hujjatli merosning madaniy qadriyatlar tizimidagi ahamiyatini o'rganish, O'zbekiston arxivlarining MDH davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixi, shuningdek, Buxoro "Qo'shbegi" arxivi hujjatlarining Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari tarixini o'rganish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilma obyektlarini yanada takomillashtirish, arxiv fondlarini elektron raqamlashtirish, sohaga oid innovatsion yangiliklarni keng joriy etish, arxiv sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha huquqiy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda tarixiy xotirani tiklash, o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratilayotgan bir sharoitda zamonaviy O'zbekistonda arxiv ishiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Aynan arxivlar



xalq xotirasi bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega va eng qimmatli tarixiy manbalar ombori hisoblanadi. Zero, "Surxon – ko'hna sivilizatsiyalar, boy tarix va madaniyatni mujassam etgan qadimiy zamin. Tarixda Boxtar, Toxariston, Chag'oniyon kabi davlatlar, Kushondek buyuk imperiyalar aynan shu hududda gullab-yashnagan"[1]. Ushbu o'lkaning noyob tarixini qayta tiklashda Buxoro "Qo'shbegi" arxiv hujjatlari alohida o'rin egallab, Surxon vohasining XVIII asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlaridagi bekliklarining ma'muriy boshqaruvi, xo'jalik faoliyati, agrar munosabatlari tarixiy-xronologik yangi ma'lumotlari bilan boyitish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari 2019-yil 20-sentyabrdagi PF-5834-son "O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, hamda sohaga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Mavzu bo'yicha adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi uchta guruhga bo'lish mumkin:

1) XIX-XX asr boshlarida Rossiya imperiyasidan o'lkaga kelgan elchilar, sayyohlar hamda boshqaruv ma'muriyati va harbiy idoralarning amaldorlari tomonidan e'lon qilingan xotira esdaliklari, hisobot to'plamlar, risola asarlari, davriy nashrlardagi maqolalar;

2) Sovet davri adabiyotlari;

3) Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar va nashr qilingan ilmiy adabiyotlar*.

[1] Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. – Б. 279.

* *Mavzuning o'rganilganlik darajasi dissertatsiyaning birinchi bobida batafsil yoritilgan.*

Mavzuning tarixshunosligiga doir adabiyotlar va materiallarning tahlili natijasi shuni ko'rsatadiki, Buxoro "Qo'shbegi" arxivi materiallari asosida Surxon vohasining Buxoro amirligi tarixida tutgan o'rni masalasi yaxlit, atroflicha hamda manbaviy tahlil bilan bog'liqlikda o'rganilmagan.

Mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, Buxoro amirligi tarixiga doir tadqiqotlar, asosan, markaziy hududlar va yirik siyosiy jarayonlarga qaratilgan bo'lib, Surxon vohasi bekliklarining siyosiy-administrativ faoliyati, iqtisodiy hayoti va mahalliy boshqaruv tizimi yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, amirlikning eng muhim manbalaridan biri — Buxoro "Qo'shbegi" arxivi materiallari — ilmiy muomalaga to'liq kiritilmagani ushbu hudud tarixini qayta tiklash jarayonida sezilarli bo'shliqni yuzaga keltiradi.

Avvalgi tadqiqotlarning ko'p qismi vohaning umumiy tarixiy jarayonlarini tasvirlash bilan cheklangan bo'lib, bekliklarning ichki ijtimoiy tuzilishi, agrar munosabatlar, mahalliy amaldorlar faoliyati, soliq tizimi, savdo aloqalari va aholi turmush tarziga oid masalalar manba asosida kompleks yoritilmagan. Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlarda Surxon vohasining amirlik markazi bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlari, bekliklararo aloqalarning o'ziga xosligi hamda vohaning mintaqaviy strategik ahamiyati bo'yicha yagona, tizimli konsepsiya shakllanmagan.

Mazkur holat, bir tomondan, vohaning geografik jihatdan markazdan nisbatan chetda joylashganligi, ikkinchi tomondan, tadqiqotchilarning e'tibori asosan Sharqiy Buxoro va amirlikning harbiy-siyosiy jarayonlariga qaratilganligi bilan izohlanadi. Ayniqsa, XVIII–XIX asrlarda voha hududida sodir bo'lgan siyosiy beqarorlik, mahalliy qo'zg'olonlar, beklik boshqaruvidagi o'zgarishlar tarixnavislikda yetarlicha manbaviy asosda tadqiq qilinmagan.

Shu bois mazkur tadqiqotda arxiv hujjatlari, mahalliy manbalar va rus manbalari ilk bor kompleks qo'llanib, Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi tarixidagi o'rni, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari to'liq tahlil etildi. Bu yondashuv nafaqat mavjud bo'shliqlarni to'ldiradi, balki vohaning



XVIII–XX asr boshlaridagi tarixiy rivojlanishini ilmiy-nazariy jihatdan qayta baholash imkonini yaratadi.

Mazkur tadqiqotda Surxon vohasi bekliklarining tarixiy taraqqiyotini o'rganishda hududning tabiiy-geografik sharoitlari, demografik holati, iqtisodiy resurslari va aholining an'anaviy xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ham alohida e'tiborga olingan. Vohaning tog'li va vodiy hududlaridan iborat murakkab relyefi bekliklarning siyosiy-administrativ boshqaruvi, resurslarni taqsimlash hamda aholi joylashuvi jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatgani manbaviy dalillar asosida asoslab berilgan.

Shuningdek, bekliklar faoliyatida harbiy-siyosiy omillarning o'rni, qo'shni hududlar bilan o'zaro ta'sir jarayonlari, beklik boshqaruvining o'ziga xos shakllari va amirlik markazi bilan munosabatlar tizimi mintaqaning ichki siyosiy dinamikasi nuqtayi nazaridan tahlil etilgan. Surxon vohasining chegara hududi sifatida strategik ahamiyatga ega bo'lgani, bekliklarning harbiy kuchi, qo'riqlash tizimi va xavfsizlik choralarining shakllanishida geografik va siyosiy omillar yetakchi rol o'ynagani ilmiy xulosalar bilan asoslangan.

Tadqiqot davomida voha aholisi ijtimoiy tarkibining o'zgarishi, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi guruhlarning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki, dehqonchilik va chorvachilikning o'zaro uyg'unlashuv jarayonlari ham qiyosiy tahlil qilindi. Ayniqsa, vohada qadimdan shakllangan sug'orish tizimining XVII–XIX asrlardagi holati, ariqlar va kanallarning beklik iqtisodiyotidagi ahamiyati, suv resurslari ustidan nazorat masalalari bekliklararo siyosiy muvozanatning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgani alohida yoritildi.

Bundan tashqari, Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi umumiy davlat tizimidagi mavqei, ularning davlat boshqaruvi, moliyaviy majburiyatlari, harbiy xizmat, soliq yig'ish va tartib-taomillarni amalga oshirishdagi o'ziga xos jihatlar ham izchil tahlil etilgan. Bekliklar faoliyatining ushbu ko'rinishlari vohaning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy o'sishi va aholining ijtimoiy hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatgani ilmiy dalillar bilan o'rtaga qo'yildi.

# I-BOB. MAVZUNING MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI

## 1.1§. Mahalliy muarrixlar asarlarida voha talqini

Mahalliy muarrixlar asarlari bu o'rganilayotgan hududda tug'ilib shu yerda yashab, tarixiy voqealar guvohi bo'lgan tarixchi olimlardir. Ular Surxon vohasining 1753-yildan 1920-yillar oralig'ida sodir bo'lgan voqealarini o'z asarlarida siyosiy muhit nuqtai-nazaridan yoritganlar. Dastlab Surxon so'zi haqida to'xtalsak, bu so'z fors-tojikcha "qizil" (fors-toj. surx – qizil) ma'nosini bildiradi, shuningdek, Surxondaryo so'zi ham — hozirgi O'zbekistondagi daryo nomi hisoblanib, Amudaryoning o'ng irmog'idir.

Surxondaryo odatda fors-tojikcha "qizil daryo" (fors-toj. surx — qizil, daryo — esa o'zbek tilida ham daryo) uchun qo'llanilgan[2]. Shuningdek, Surxon-(daryo)-Amudaryoning o'ng irmog'i; Jarqo'rg'on tumanidagi qishloq nomidir. Hozirgi adabiyotlarda Surxondaryo. Aslida esa, Surxondaryo chapdan Qoratog'daryo, Qorasuv, o'ngdan To'polondaryo, Tentaksoy qo'shilgach Surxon deb ataladi. Forscha "surx" qizil, qizg'ish (rang) on<ob-suv, daryo, surxob qizil suv, qizg'ish tuproqli suvdir. Surxi qabilasi nomi bilan ham surxiyon>surxondaryo daryosi deb izohlashadi. O'rta asr manbalarida u Chag'onrud deyilgan.

Surxondaryo—daryo (rasmiy nom). 1941-yil 6-martda viloyat nomiga aylangan[3].

Voha so'zi esa, cho'l va chala cho'llarda obod qilingan yer. Vohada namgarchilik qo'shni rayonlarga nisbatan ko'p bo'lgan joy. Yer osti suvlari yuza bo'lib, buloqlar chiqib yotadi, daryolar vaqt-vaqti bilan toshib turadi. Vohalar ko'pincha daryo, ko'l, kanal va quduqlardan suv bilan ta'minlanadi. Maydoni bir necha 10 (o'n) km² dan bir necha 10 (o'n) ming km² gacha bo'ladi. Masalan Shimoliy Afrika, G'arbiy Osiyo va Markaziy Osiyo cho'llarida mashhur vohalar mavjud. Toshkent, Murg'ob, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo, Farg'ona vodiysidagi

[2] Поспелов Е. М. Сурхандарья // Географические названия мира. Топонимический словарь: / отв. ред. Р. А. Агеева. — М.: Русские словари, 1998. — 503 с.

3 Турсунов С.Н. Сурхондарё вилояти топонимлари. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. –Б. 76.



vohalar ham ancha katta. Odatda, vohalarda aholi zich yashaydi[4].

Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan Surxon vohasi tarixini o'rganishda mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar alohida ahamiyatga egadir. Surxon vohasining o'rganilayotgan davr tarixiga oid manbalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. **Mahalliy tarixchilar asarlari** – Buxoro amirligi davrida yashab ijod qilgan muarrixlarning yilnomalari, tarixiy xronikalari.

2. **Arxiv hujjatlari** – Buxoro amirligi arxivlaridagi farmonlar, yorliqlar, maktublar va rasmiy yozishmalar.

3. **Rus manbalari** – Rossiya imperiyasining amaldorlari, harbiylari, sayyohlari va geografik tadqiqotchilarining xotiralari, hisobotlari va ilmiy yozilmalari.

Ushbu manbalar Surxon vohasining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Har bir manba turi o'z davri voqeliklariga yorqin nur tashlaydi, shu bilan birga ularning xronologik ketma-ketligi tadqiqotning ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishida mahalliy yozma manbalar, Buxoro amirligi va Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davri haqidagi tarixiy tadqiqotlardan unumli foydalanilgan[5]. Ushbu asarlar mualliflari o'sha davrning bevosita guvohlari yoki voqealarda ishtirok etgan shaxslar bo'lib, ular tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar zamonaviy tadqiqotlar uchun ayniqsa qimmatli manba hisoblanadi.

Jumladan, mahalliy yozma manbalardan محمد وفوی کرمیناگی. تحفة الخانی (هدیه خان) (Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685–1769)ning "Xonning tuhfasi") yoki ملاعبدالله و ملامحمد شریف "تاریخ امیرحیدر" (Mullo Ibodulla va Mulla Muhammad

[4] [Elektron resurs] https://qomus.info/encyclopedia/cat-v/voha-uz/ [Murojaat qilingan sana: 05.02.2021]

[5] ۱۹۶۲. میرزا عبدا العظمی سامی تاریخ سلاطین منغیتی (Мирза Абдулазим Сомий. Манғит султонлари тарихи ёки Бухоро хонлигининг инкирозги). 9 Шарк юлдузи № 3-4. Форс тожик тилидан Илҳом Султонов таржимаси. 129-бет.; O'zR FA ShI qo'lyozmasi, inv.№ 1836. میرزا سلیمبک بن محمد رحیم تاریخ سلیم ; Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи мутакаддимин ва мутааххирин / Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз, изоҳлар муаллифи Н. Ёлдошев. – Бухоро: Бухоро нашриёти, 2003. – 344 б.; Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). Тожик тилидан Ш.Воҳидов, З.Чориев таржимаси. –Тошкент: Академия, 2001. — Б.2; Mir Muhammad Hikmat. Tazkirat ash-shuaro. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, inv.№ 2727-76 а, б вв.; Покотило Н. Н. "Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г."; у

Sharif) ning "Amir Haydar tarixi" [6] , "Tarixi Rahimxoniy"[7], Ahmad Mahdumi Donishning "Tarjimayi ahvoli amironi Buxoro", "Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития" (Mang'itlar saltanati sulolasi tarixidan qisqacha risola)[8], Mir Olim Buxoriyning "Fathnomayi sultoniy" (Sulton fathnomasi)[9], "Mang'itlar sulolasi tarixi")[10] Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy (1839-1914-yildan keyin) ning ميرزا عبدا العظيم سامى تاريخ سلاطين منغيتى (Mirza Abdul Azim Somiyning Mang'itlar saltanati tarixi[11], Muhammad Ali Baljuvoniy qalamiga masub "Tarixi nofeiy" (Foydali tarix)[12]ميرزا سليمبک بن محمد رحيم تاريخ سليم (Mirza Salimbek)* ning (Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim) ning "Salimiy tarixi"[13], asarlaridan tarixiy manba sifatida qo'llanildi.

محمد وفوى كرميناگى. تحفة الخان (Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Xonning tuhfasi") yoxud "Tarixiy Rahimxoniy" ([Muhammad] Rahimxon tarixi) asari Buxoro xonligining 1722-1782 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi, mang'itlar sulolasining birinchi hukmdorlari va ularning olib borgan siyosatini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

"Xonning tuhfasi" asari saj' usulida yozilib, asarni ifodalashda muallif voqealarni davriy ketma-ketlik asosida yoritganligi, asarda geografik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va etnografiyaga oid ma'lumotlarning boyligi bo'yicha ancha qimmatlidir. Ushbu asar XVIII asrning 20-yillaridan boshlab Buxoro xonligida kuchayib ketgan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy tanglikni tarqoqlikning kuchayishi va buning natijasida esa markaziy davlat boshqaruvining zaiflashuvi, mang'it

---

[6] № ۱۸۳۶.تاريخ اميرحيدر ملاعبدالله و ملامحمد شريف (Mullo Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif)ning "Amir Haydar tarixi") № 1836
[7] №۱۴۲۶ (هديه خان) محمد وفوى كرميناگى. تحفة الخانى (Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Xonning tuhfasi") №1426
[8] Дониш. А. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе: Сарват, 1992.
[9] Аҳмедов Б.Д Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 2001.-Б.239.
[10] Дониш. А. История мангитской династии. – Душанбе: Дониш, 1967. – 274 с.
[11] ۳۳۱ ميرزا عبدا العظيمى سامى تاريخ سلاطين منغيتى ۱۹۶۲.ورق (Mirzo Abdulazim Somiy. Mang'tlar davlati tarixi, 1962.)
[12] Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). Тожик тилидан Ш.Воҳидов, З.Чориев таржимаси. –Тошкент: Академия, 2001. — Б. 2
* Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim (1850—1930) — tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat. Mirza Salimbek amirlikning Toshkentdagi savdo vakili (1873-1885); 1885 yilda amir Abdulahad jo'natgan elchilar tarkibida Peterburgda bo'lgan. Buxoro mirshabi (1889); Yakkabog' (1893-1898), Nurota (1898 1902), Boysun (1902 1905), Sherobod (1905—1909), Shahrisabz (1910—1913), Chorjo'y (1920) viloyatlari hokimi. [Elektron resurs] https://uztext.com/86514-text.html [Murojaat qilingan sana 07.07.2020]
[13] ميرزا سليمبک بن محمد رحيم تاريخ سليم (Mirzo Salimbek. Tarixiy Salimiy; Мирзо Салимбек. Кашкӯли Салимий. Таворихи мутақаддимин ва мутаахирин / Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so'z, izohlar muallifi N. Yo'ldoshev. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2003. – 344 б.



hukmdorlarining uluslar va qabilalarni bo'ysundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari hamda buning oqibatida ko'plab shahar va qishloqlarning vayron etilishi, mehnatkash xalq turmushining og'irlashib borishi va uning asosiy sabablarini aniq dalillar asosida o'rganishga yordam berishi mumkin bo'lgan daliliy ma'lumotlar mavjuddir[14]. تحفة الخان ("Xonning tuhfasi") asarida, Muhammad Rahimbiyning Surxon vohasi hududlariga uch marta yurish qilgani bayon qilingan[15].

Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqiy (XIX-asr) — Buxoro tarixnavislik maktabi namoyondasi bo'lib, Buxoro amirligi tarixiga oid "Toj ut-tavorix" (Tarixlar toji) asarini yozgan (1800-yil). Asarda Chingizxon va uning avlodlari, shayboniylar va ashtarxoniylar tarixi, mang'itlarning shajarasi, amir Haydar hukmronligining dastlabki yillaridagi voqealar xususida so'z boradi. Shuningdek, mazkur asarda 1757-yil 4-mayda Denovda ko'tarilgan yirik qo'zg'olon va uning 40 ming kishilik qo'shin bilan Muhammad Rahimxon tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgani qalamga olingan[16].

ميرزا عبدا العظمى سامى تاريخ سلاطين منغيتى (Mirzo Abdulazim Somiyning "Mang'itlar davlati tarixi") asarida Buxoro amirligida mang'itlar qo'l ostida bo'lgan hududlar geografik joylashuvi, joy nomlari, urug' nomlari, Surxon vohasining Buxoro amirligi siyosiy hayotida tutgan o'rni, aholining ijtimoiy holati, vohaning savdo-sotiqda iqtisodiy mavqeyi va madaniy munosabatlar qimmatli ma'lumotlar[17] mavjud.

**Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy** (1839–1908) — Buxoro amirligining taniqli tarixchisi, xattot va davlat arbobi. U hozirgi Qiziltepa tumani hududida joylashgan Bo'ston qishlog'ida tug'ilib, Buxoro madrasalarida yuqori darajadagi ta'lim olgan. Uning ustoz Qozi Sa'diddin Mohir[18] maslahati bilan "Somiy"

---

[14] Аҳмедов Б.Д Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўқитувчи, 2001.-Б. 237.
[15] №۱۴۲۶ (هديه خان) محمد وفوى كرميناگى. تحفة الخانى Muhammad Vafoi Karminagiy. Xonning tuhfasi. АН РТ. № 1426.
)
[16] Кобулов Э.А. Сурхон воҳаси хўжалиги (XVIII — XX аср бошларида) –Тошкент: 2012. –Б.17.
[17] ۱۹۶۲. ميرزا عبدا العظمى سامى تاريخ سلاطين منغيتى (Mirzo Abdulazim Somiyning "Mang'itlar davlati tarixi", 1962. – B.109)
[18] Mir Muhammad Hikmat. Tazkirat ash-shuaro. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, inv.№ 2727-76 a, b vv.

("olijanob, yuksak") taxallusini qabul qilgan[19].

Somiy Bo'stoniy Buxoro amirligi saroyida muhim lavozimlarni egallagan, xususan **Amir Muzaffar** (1860–1885) va **Amir Abdulahad** (1885–1910) davrlarida saroy munshiysi sifatida faoliyat ko'rsatgan. U o'z davrining siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlarini qayd etib, qimmatli tarixiy manbalar yaratgan.

Mirzo Somiy uzoq yillar davlat ishlari bilan band bo'lishiga qaramay, sermahsul ijod qilib, bir qancha asarlar yaratdi. Uning tarixiy asarlari sirasiga شاه دهمایی (Dahmayi shohon), توحفای سلطنتی (Tuhfai shohiy) va تاری سلاطین منغیتی (Tarixi salotini mang'itiya)[20] ni keltirish mumkin. Ushbu asarlar mang'it amirlari tarixiga bag'ishlangan. توحفای سلطنتی (Tuhfai shohiy) 1898-1903-yillarda, تاری سلاطین منغیتی (Tarixi salotini mang'itiya) esa undan biroz keyin, ya'ni 1906-1907-yillarda yozilgan. Mirza Abdul Azim Somiyning تاری سلاطین منغیتی (Tarixi salotini mang'itiya)asarida muallifning musulmon ilohiyoti ruhidagi ayrim tarixiy voqealar haqidagi qiziqarli dalillari, shuningdek, tasvirlangan voqealardagi roli ahamiyatsiz bo'lgan ba'zi zamondoshlarining xotiralari mavjud. Somiy asarida arab tilida Qur'ondan iqtiboslar yoki turli so'zlardan iborat alohida iboralar mavjuddir.

توحفای سلطنتی (Tuhfai shohiy) va تاری سلاطین منغیتی (Tarixi salotini mang'itiya)tarixiy asarlari bitta davr — mang'itlar sulolasi tarixiga bag'ishlansa ham, bir-biridan keskin farq qiladi. 1-asar rasmiy siyosat talablari darajasida yozilgan bo'lsa, 2-asarda muallif Buxoro amirligining mang'itlar hukmronlik qilgan davrini tanqidiy nuqtai nazardan baholaydi.

**Ikkala asar o'rtasidagi farqlar quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:**

1. **Hajm va xronologik doiradagi farqlar**

Birinchi asar ancha qisqa va muayyan davrni qamrab olgan bo'lsa, ikkinchisi kengroq tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

2. **Legitimatsiya masalasi**

*Legitimatsiya* (lot. *Legitimus* – "qonuniy, to'g'ri") jarayoni ijtimoiy-siyosiy

[19] [Elektron resurs] http://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mirzo-abdulazim-somiy-bostoniy-uz/ [Murojaat qilingan sana 08.07.2020]

[20] میرزا عبدالعظیم سامی. شاه دهمایی.( Mirzo Abdulazim Somiy. Dahmayi shohon. O'zR FA ShI qo'lyozmasi, № 2188. 141 б – 171 a vv); O'sha muallif. توحفای سلطنتی (Tuhfai shohiy) O'zR FA ShI qo'lyozmasi, №2091-298 в; O'sha muallif. ۱۹۶۲ تاری سلاطین منغیتی ( Tarixi salotini mang'itiya).



tartibning ham butunlay, ham alohida ijtimoiy guruhlar tomonidan tan olinishini ifodalaydi.

Birinchi manba bu jihatni cheklangan miqdorda yoritgan bo'lsa, ikkinchi asarda hokimiyatning qonuniyligi masalasi chuqurroq tahlil qilingan.

3. **Hukmdorlar va tarixiy shaxslarga baho**

Ikkinchi asarda mahalliy bek va amaldorlarning faoliyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan, bu esa Surxon vohasining siyosiy tarixini yanada kengroq o'rganish imkonini beradi.

Mirzo Abdulazim Somiyning ma'lumotlariga ko'ra, Amir Muzaffar Sharqiy Buxoro hududlarida Rossiya general-gubernatori bilan hamkorlik munosabatlarini mustahkamlagach, quyidagi strategik choralarni amalga oshirgan:

1. **Iqtisodiy jihatdan muhim hududlarni qaytarib olish**

Birinchi navbatda, Buxoro amirligidan yo'qotilgan Zarafshon vodiysi hududlarini qayta nazoratga olishga harakat qilgan.

2. **Siyosiy ittifoqchilarni qo'llab-quvvatlash**

Ikkinchi bosqichda Abdulmalik To'ra kabi mintaqaviy rahbarlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini olib borgan.

3. **Strategik harbiy choralar**

Hududning geosiyosiy ahamiyatini hisobga olib, harbiy ekspeditsiyalar uyushtirgan va mintaqaviy ta'sir doirasini kengaytirishga intilgan.

**Amir Muzaffarning Sherobod bekligidagi** ("1.1-jadvalga qarang") **siyosati**:

1. **Maqsad va choralar:**

- Avvalo, Sherobod mintaqasida Qo'ng'irot urug'i va saroy qabilalaridan qasos olish maqsadida quyidagi tayinlomalarni amalga oshirgan:
  - Qarshi begi etib **Abdulmo'minto'ra**ni tayinlash
  - G'uzor hokimligiga **Yoqub Qo'shbegi**ni tayinlash

2. **Harbiy chora-tadbirlar:**

- Tayinlangan amaldorlarga qurolli qo'shin bilan Sherobodga yuborilgan, bu:

- Hududda amirlik hokimiyatini mustahkamlash;
- Qabilaviy nizolarni bartaraf etish;
- Markaziy hukumatning mintaqadagi ta'sirini oshirish bo'lgan[21].

Somiy o'z asarining bir qator qismlarida mahalliy hukmdorlar, beklar va amaldorlar haqida ham muhim ma'lumotlarni bayon etadi. Shuningdek, mahalliy tarixnavislar tomonidan yozilgan manbalarda ayrim tarixiy shaxslar borasida ijobiy fikr-mulohazalarga duch kelish mumkin. Lekin aksariyat hollarda faqat subyektiv fikrlar aytilgan yoki umuman tilga olinmagan. Buxoro amirligining XVIII asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqidagi tadqiqotlar asosan markaziy hududlarga qaratilgan bo'lsa-da, uchinchi guruh manbalaridagi ma'lumotlar tanqidiy nuqtai nazardan qayta baholanishi zarur. Ayniqsa, Buxoro "Qo'shbegi" arxivi materiallarida Surxon vohasi bekliklarining amirlik tizimidagi o'rni yetarlicha yoritilmaganligi, bu hududlarning siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini tushunishda jiddiy bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi. Sovet davrida olib borilgan tadqiqotlarning asosiy qismi "Sharqiy Buxoro"* deb atalgan hududlarga, xususan amirlikning sharqiy chegaralaridagi jarayonlarga qaratilgan bo'lib, markaziy viloyatlar va Surxon vohasi kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan mintaqalarning o'rganilishi nisbatan e'tiborsiz qolgan. Bu holat mavjud manbalarning tanqidiy tahlilini, ularning ishonchliligini tekshirishni va ayniqsa mahalliy arxiv materiallari asosida yangi tadqiqotlar olib borishni dolzarb vazifaga aylantiradi[22].

XIX asr Buxoro tarixnavislik maktabining yorqin vakili Ahmad Donish

---

21 ۱۹۶۲. میرزا عبدا العظمی سامی تاریخ سلاطین منغیتی (Mirzo Abdulazim Somiyning "Mang'itlar davlati tarixi") 1962. B.109.

*Sharqiy Buxoro — asosan Tojikistonning janubi-sharqiy qismi va O'zbekiston Respublikasining janubidagi Surxondaryo viloyati hududining ilmiy nomi. https://ru.wikipedia.org/wiki/ [Murojaat qilingan sana 09.07.2020]

22 Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. Москва: МГУ, 1981.; Абдураимов М.А. Очерк аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI-первой пол. XIX века. Тошкент: Фан, 1966.; Семёнов А.А. К истории дипломатических отношений между Россией и Бухарой в начале XIX в. Тошкент: АП УзССР, 1951.; Хакимова К.З. Фонд Канцелярии кушбеги эмира Бухарского – источник изучения истории крестьянского движения в Бухарском эмире. Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. Ежегодник (1971-1977). Москва: Наука, 1984. С. 92-108; Хамраев А.Х. К вопросу о земельно-водных отношениях в Бухарском ханстве в XIX веке. Тошкент: САГУ, 1948.; Хамраев М. "Очерки истории Хиссарского бекства конца XIX-начала XX вв". Труды АН Тадж ССР. Душанбе. 1959.; Аминов А., Бабаходжаев А. Экономические последствия присоединения Средней Азии к России. Тошкент: Узбекистан. 1966.; Дониш Ахмади Махдум. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. Душанбе: Сарват. 1992. va boshqalar.



(1827-1897) (to'liq ismi Ahmad ibn Nosir ibn Yusuf al-Hanafiy as-Siddiqiy) nafaqat o'z davrining, balki keyingi avlodlar uchun ham namunali shaxs bo'lib qolgan barkamol olimdir. Mudarrislar oilasida tug'ilgan Donish dastlab Amir Nasrulloh (1826-1860) saroyida xattot sifatida faoliyat boshlab, keyinchalik bosh me'mor lavozimigacha ko'tarilgan bo'lsa-da, uning asosiy merosi Buxoroda taraqqiyparvar fikrlarning shakllanishidagi rolida namoyon bo'ladi.

Donishning ilmiy-ma'rifiy faoliyati uning diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirgan yondashuvida aks etgan. U nafaqat diniy-falsafiy asarlar muallifi, balki tasviriy san'at sohasida ham iz qoldirgan ko'p qirrali shaxs bo'lib, Buxoroda yangi fikrlanish maktabining asoschisi sifatida tanilgan. Ayniqsa, uning taraqqiyparvar qarashlari keyinchalik Buxoro jadidchilik harakatining intellektual poydevorini yaratishga muhim hissa qo'shgan.

Donish merosining ahamiyati shundaki, u nafaqat o'z davrining ilmiy va madaniy hayotiga ta'sir ko'rsatgan, balki XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Ahmad Donishning islohotchi g'oyalari va ilg'or ilmiy yondashuvlari Buxoro amirligida ma'rifatparvarlik harakatining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynab, o'zbek madaniy-ma'rifiy an'analarida yangi davrning boshlanishini belgilab berdi.

XIX asrning 80-yillarida Ahmad Donish tomonidan yozilgan "Risola dar nazmi tamaddun va taovun" ("Madaniyat va o'zaro ko'maklashuv haqida risola") asari Buxoro amirligida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu asarda Donish davlat tizimini qonuniylik, insonparvarlik va ma'rifat asosida isloh qilish zarurligini ta'kidlagan. Asarning ilg'or g'oyalari, jumladan, adolatli boshqaruv, ijtimoiy tenglik va ta'lim tizimini yaxshilash kabi takliflar amir Muzaffarga yoqmagan. Natijada, Donish 1882-yilda "aql o'rgatish"da ayblanib, G'uzorga qozilik lavozimiga jo'natilgan. Bu voqea, aslida, uning siyosiy qarashlari tufayli poytaxtdan chetlashtirilganligini ko'rsatadi.

Ahmad Donishning "Mang'itlar sulolasi tarixining risolasi yoxud qisqacha mazmuni" ("Tarixiy risola") asari uning yana bir muhim ilmiy ishi hisoblanadi. Bu asarda Donish Mang'it hukmdorlarining siyosati, jamiyatdagi nosog'lom holatlar

va ma'rifatning ahamiyati haqida o'tkir mulohazalar bildirgan. Asar yakunlanmagan bo'lsa-da, u Buxoro tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Amir Muzaffar vafotidan keyin Buxoroga qaytgan Donish hayotining so'nggi yillarini ijodga bag'ishladi va o'zbek ma'rifatparvarlik an'analarining shakllanishiga katta hissa qo'shdi. Uning asarlari zamonaviy tadqiqotlar uchun qimmatli manba bo'lib qolmoqda[23].

O'zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasida Ahmad Donishning tarix, astronomiya, geografiya va boshqa fanlar sohasidagi 20 ga yaqin asari saqlanmoqda. Uning "Navodir al-voqoe" ("Nodir voqealar") va "Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az Amir Doniyol to asri Amir Abdulahad" ("Amir Doniyoldan to Amir Abdulahadgacha bo'lgan Buxoro amirlarining tarjimai hollari") kabi asarlari uning ilmiy merosida alohida o'rin tutadi. Bu asarlarda falsafiy qarashlar, siyosiy tahlillar va tarixiy voqealarning chuqur talqini aks etgan.

Donishning "Risola yo muhtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya" ("Mang'itlar sulolasi tarixining qisqacha risolasi") asari XIX asrning 90-yillarida yozilgan bo'lib, uning so'nggi ilmiy ishlaridan biri hisoblanadi. Asarda quyidagi muhim masalalar yoritilgan:

- Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha takliflar
- Buxoro va uning atrofini suv bilan ta'minlash muammolari
- Rossiyaga qilgan sayohati davridagi kuzatish va tajribalari

Bu asar nafaqat tarixiy manba, balki Donishning ilg'or ijtimoiy-siyosiy qarashlarini anglash uchun ham muhim manbadir[24].

"Mang'itlar sulolasi tarixining risola yoki qisqacha mazmuni" asarini boblarga ajratmagan. Ushbu risola taxminan quyidagicha tuzilgan: kirish, asarning asosiy qismi bo'lib, Amir Doniyol davrida amirlik she'riyati (amirlik) ning barbod bo'lishi va amir Shohmurod hukmronlik uslubi, amir Haydar davridagi ayrim

[23] Elektron resurs]http://komron.info/cr/risolai-mangitiya/ [Murojaat qilingan sana 09.07.2020]
[24] Ахмад М. Д. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салотини хонадони манғитийа / Ба саъй ва ихтимом ва тасхехи Абдуғани Мирзоев. – Сталинобод. Нашриёти Давлатии Тожикистон, 1960; Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург / Подготовка текста и комментарий Р. Хади-Заде. Пер. с таджик. М.Н. Османова и Д.М. Демидчик. – Душанбе:, 1960; O'sha muallif. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. Тахяи Далер. – Душанбе: Сарват, 1992. – 92 с.



voqealar, amir Haydarning vafoti va amir Husayin va amir Umar hukmronligi, amir Nasrulloh saltanati va uning hukmdorlari uslubi, amir Muzaffar davridagi ayrim voqealar, uning hayot yo'li va davlatchiligi, amirlik she'riyati va amir Abdulahad saltanatining ayrim voqealari nomli sarlavhalar ostida asar yozib yakunlangan[25]. "Risolai tarixiy" nomi bilan mashhur bo'lgan "Таърихи салтанати хонадони манғития" asarida mang'itlar sulolasining 100 yillik hukmronligi tahlil va tadqiq qilingan[26].

Ahmad Donishning "Mang'itlar sulolasi tarixining risolasi" asarida Buxoro amirligida hukmronlik qilgan Mang'itlar sulolasi vakillari, ularning davlat boshqaruvidagi siyosati, amirlik hududidagi aholi hayoti va boshqa qiziqarli jihatlar batafsil yoritilgan. Asarda sulola a'zolarining shaxsiy fazilatlari, boshqaruv usullari, davlat tizimidagi islohotlar va ularning samaradorligi, aholining turmush darajasi hamda mintaqaviy siyosatning asosiy yo'nalishlari keng qamrovda talqin etilgan.

Buxoro tarixnavislik maktabi vakillaridan Mirzo Badi' Devonning "Majma' ul-arqom" nomli asarida esa Buxoro amirligidagi ma'muriy boshqaruv, moliya va soliqqa oid tizimlar, xazinaga tushum va xarajatlar, vasiqa hamda arizalarning tuzilish tartibi keng bayon etilgan. Muallif asarda amirlikdagi lavozim va mansablar, ular egalarining vazifalari va majburiyatlari haqida muhim ma'lumotlarni keltirgan. "Majma' ul-arqom" asari sharqshunos A.B. Vildanova tomonidan maxsus o'rganilib, kerakli izohlar, so'zboshi hamda boshqa tadqiqotlar bilan to'ldirilgan holda rus tilida nashr etilgan bo'lib, bu nashr matnning ilmiy tahlilini, tarixiy shaxs va hodisalarga izohlarni, shuningdek asarning zamonaviy tadqiqotlar kontekstidagi o'rnini belgilab beradi[27].

Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim – XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoroda yashab ijod qilgan mahalliy tarixchilardan biri bo'lib,

[25] Ахмад М. Д. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. Тахяи Далер. – Душанбе: Сарват, 1992. – 98 с.
[26] Мўминов И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан. Т., 1964. Yana qarang. https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/ahmad-donish-uz/
[27] Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ал-аркам. (XVIII аср Бухорода фискал кўрсатмалар, хужжатлаштириш усуллари). Қўлёзма факсимилеси кириш, таржима, А.Б. Вилданова томонидан тайёрланган изоҳлар ва иловалар. – Москва: Наука, 1981. – 122 (+198) бет.

1850-yilda tug'ilgan. Yoshligidanoq bilimdonligi bilan tanilgan Mirza Salimbek 20 yoshida Narpay, keyin esa Ziyovuddin hokimining kotibi lavozimiga tayinlangan.

Mirza Salimbek Buxoro amirligining taniqli davlat arbobi bo'lib, uning faoliyati ikki muhim bosqichni qamrab olgan. 1870-yillarda Amir Muzaffarning maxsus topshirig'i bilan u choyfurush savdogar qiyofasida Toshkentga yuborilgan, u yerda 12 yil davomida sovet ma'muriyati faoliyatini kuzatib, razvedka ma'lumotlarini to'plagan va mahalliy siyosiy-ijtimoiy jarayonlarni chuqur o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan.

1920-yilgacha Mirza Salimbek Buxoro amirligida turli yuqori lavozimlarda xizmat qilishni davom ettirgan. Amirlik qulagandan so'ng u yangi tashkil etilgan "Anjumani tarix" (Tarix Jamiyati) a'zosi sifatida mamlakat tarixini o'rganish va yozish bilan shug'ullangan. Uning hayotining bu ikkinchi bosqichi 1930-yilda vafotigacha davom etgan. Uning ilmiy merosi Buxoro va Markaziy Osiyoning XIX–XX asrlar boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

XIX-XX asrlar davomida Buxoroda faoliyat yuritgan olim Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim (1850-1930) o'zining tarixiy, adabiy va diniy mavzulardagi chuqur bilimlari bilan ajralib turadi. Uning ilmiy merosi ichida ikkita asar alohida e'tiborga loyiq:

1. "Kashkuli Salimiy"[28] - muallifning diniy-falsafiy qarashlarini aks ettiruvchi asar.

2. "Tarixi Salimiy"[29] - Buxoro amirligi tarixiga bag'ishlangan muhim manba.

2009-yilda olim N.Norqulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida "Tarixi Salimiy" asari rus tiliga tarjima qilinib, ilmiy hamjamiyat istifodasiga havola etilgan. Bu nashr o'zida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy

[28] Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий таворихи мутакаддимин ва муттаахирин / Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўз, изох ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Ёлдошев. –Бухоро: "Бухоро" нашриёти, 2003. – 344 б.

[29] Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: к.и. н. Н. К. Норкулов. Редактор перевода: д. ф. н. А. К. Арендс. Предисловие, редактор введения и примечаний: д.и.н. А. С. Сагдуллаев. – Ташкент: Akademiya, 2009. – 330 с.



hayotining noyob lavhalarini saqlab qolgan.

Asarning ahamiyati shundaki, u nafaqat o'tmishdagi voqealarni qayd etgan, balki Mang'itlar sulolasi davridagi mahalliy aholining turmush tarzi, madaniyati va ma'muriy tuzilmalarini ham yoritib beradi. Xususan, Surxon vodiysi tarixini o'rganishda bu asar nodir manba sifatida qimmatlangan.

Mirzo Salimbekning asarida muallifning o'zi bevosita ishtirok etgan voqealar, xususan Sherobod bekligi va unga qo'shni hududlarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar keng yoritilgan. U o'z faoliyati davomida Nurota, Yakkabog', Sherobod, Boysun va Shahrisabz kabi muhim bekliklarda hukmdorlik qilgan, bu esa unga turli mintaqalarning ijtimoiy tuzilishi va ma'muriy tizimini chuqur o'rganish imkoniyatini bergan[30].

Mirzo Salimbek o'z asarida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Surxon vohasi tarixini mohirlik bilan yoritgan. Mirzo Salimbek asarlarida ayniqsa Boysun va Sherobod bekliklarida shaxsan guvoh bo'lgan voqealarni jonli va tushunarli uslubda tasvirlaydi. Muallif o'z xotiralarida Boysun viloyatining ma'muriy tuzilishiga oid qimmatli ma'lumotlarni keltiradi: "Boysun viloyati to'rt **farsax*** maydondagi besh amlokdan iborat bo'lib, bundan tashqari o'n qishloqni o'z ichiga olgan uch amloklik hudud (o'n farsaxgacha cho'zilgan) va Kiyik tog'ida joylashgan yana uch amloklik (o'n farsax uzunlikdagi) hududlar mavjud edi". Ushbu tafsilotlar muallifning o'z davri haqidagi chuqur bilimini va hududlarning ma'muriy bo'linishini aniq ifodalash qobiliyatini ko'rsatadi.

Shuningdek, asarda mahalliy hukmdorlar, beklar va amlokdorlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Sherobod viloyatining uzunligi qibladan sharqqa qadar olti farsaxni, shimoldan janubga esa yetti farsaxni tashkil etardi. Ushbu viloyat besh amloklikdan iborat bo'lib, uning janub tomonida, qiblaga qarab Jayhun daryosi oqib o'tardi. Cho'chqaguzar va Pattakesar oralig'idagi masofa yetti farsax edi.

Mirzo Salimbekning "Tarixi Salimiy" asarida Sherobod daryosi bo'yida

[30] Мирза Салимбек. Тарих-и Салими. – Т., 2009. – С. 6.

* **Farsax**-6-7 km ga teng masofa. (Мухаммад Али Балжувоний. "Тарихи нафеий" -Т.: Академия. 2001. –Б.110.)



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 36763

yashovchi turkman qabilalari haqida qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Bu qabilalar yuqorida tilga olingan amlokliklardan tashqarida yashagan bo'lsalar-da, har yili belgilangan yer solig'ini Sherobod begiga muntazam to'lab turishgan. Asarda, shuningdek, voha aholisining dehqonchilik bilan shug'ullanishi va bu sohaga oid o'ziga xos jihatlar batafsil bayon etilgan. "Tarixi Salimiy" asari 1860-1920 yillardagi Buxoro amirligi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Mirzo Salimbek Boysun va Sherobod bekliklarida bek lavozimida ishlagan davrida olib borgan faoliyati haqida ham qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. U bekliklarning boshqaruv tizimi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan islohotlar, yangi yerlar o'zlashtirish va sug'orish tizimini takomillashtirish kabi muhim ishlar haqida batafsil yozgan. Ayniqsa, vohaning iqlim sharoiti va sug'orish tizimiga oid keltirilgan ma'lumotlar o'sha davr qishloq xo'jaligi tarixini o'rganish uchun ayniqsa qimmatlidir[31].

So'nggi Buxoro amiri Said Olimxon* (1910-1920) tomonidan yozilgan "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asari muallifning hayotining uchta muhim bosqichini qamrab oladi: birinchi navbatda, uning talabalik davri va ta'lim olish yillari; ikkinchidan, Buxoro taxtiga o'tirganidan keyingi amirlik davri; va nihoyat, bolsheviklar tomonidan Buxoroning bosib olinishi va undan keyingi muhojirlik yillari. Asarda bu tarixiy bosqichlarning barchasi yorqin va tushunarli tarzda aks ettirilgan bo'lib, o'quvchiga nafaqat amirning shaxsiy tajribasi, balki butun Buxoro xalqining o'sha murakkab davrdagi hayoti va qiyinchiliklarini ham tushunish imkonini beradi[32].

Buxoro amirligi davrida mamlakat 28 ta beklikka bo'lingan bo'lib, hozirgi Nurota, Chorjo'y, Qorako'l, Kitob, Shahrisabz, G'uzor, Yakkabog', Denov kabi hududlar mustaqil bekliklar sifatida boshqarilgan. Amir Olimxonning "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asarida keltirilishicha, amirlikning umumiy maydoni

---

[31] Мирза Салимбек . Тарих-и Салими – Т., 2009. – С. 330.

* **Sayid amir Olimxon ibn Abdulahad** (1881-1944) - Frunze boshchiligidagi qizil askarlar tomonidan 1920-yil 2-sentabrda Buxoro shahri bosib olingach, avval, Sharqiy Buxoroga, so'ngra Afg'onistonga jo'naydi. Amir umrining oxirigacha Kobulda muxojirlikda yashaydi. (Мухаммад Али Балжувоний. "Тарихи нафеий" -Т.: Академия. 2001. –Б.111.)

[32] Амир Саййид Олимхон. Бухоро халкининг хасрати тарихи. /Форсийдан таржима, мукаддима ва изохлар муаллифи Абдусодик Ирисов. –Тошкент, 1991.-Б. 1.



225 000 kvadrat kilometrni tashkil etgan va aholisi asosan o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik, yahudiy va arab millatlaridan iborat bo'lgan.

Mang'it sulolasiga mansub Buxoro amirlari o'zbeklar tarkibiga kirgan bo'lib, ularning taxtga o'tirish marosimida qadimgi turkiy an'analar saqlangan. Muallifning yozishicha, "Buxoro podshohlari mo'g'ul odatlariga ko'ra oq kigizdan tayyorlangan to'shak ustiga o'tqazilib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar tomonidan tabarrukona ko'tarilgan". Bu marosim turkiy xalqlar orasida qadimdan qolgan an'analardan biri hisoblanadi[33].

Shuningdek, asarning bolsheviklar bilan bo'lgan muhoraba hikoyasi bo'limida amirning Surxon vohasi hududidagi Boysun bekligiga ("1.2- jadvalga qarang") qarashli Bandar nomli joydan Darband nomli joygacha dushman oldini olish uchun istehkom qilganligi, o'sha yerdan urush boshlashni niyat qilganligi, so'ngra Buxoroning sharqiy viloyatiga qarashli Hisor viloyatiga kelib turganligi, Hisor viloyatida bolsheviklarga qarshi olti oy davomida kurash olib borganligi haqida hikoya qiladi.

O'sha jangda Sayid amir Olimxonning tog'asi Muhammad Saidbek parvonachi harbiy vazir va Abdulhafiz parvonachi muhoraba qo'mondoni, Ibrohimbek biy askar boshliqlari sifatida qo'shinni boshqarishgan. Urush olti oy davomida kurash va jang yuz berib, nihoyat bolsheviklar jamoasi o'zlari paydo qilgan mazkur urushga majbur bo'lishib, Moskvadan anchagina askar va harbiy qurollar yig'ib keldilar so'ngra ular birdan amir boshchiligidagi islom lashkari ustiga hujum boshlashgan. Amir qo'shinida harbiy qurol va anjomlar va harbiy texnikalar kam bo'lganligi jihatdan o'n ikki kun davomida jang qildilar, so'ng amir yordam va madad so'rash harakatida xorijiy davlatlarga murojaat qilgan. Hisor bekligidan Ko'lob bekligiga o'tib, bu viloyatda Buxoro sharqidagi o'zbeklar urug'idan bo'lgan Mulla Ibrohimbek devonbegi va Davlatmandbek devonbegilarni bolsheviklarga qarshi kurashish uchun lashkarboshilikka tayinlagan[34].

Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi Nofeiy" asari XX asr boshlaridagi

---

[33] O'sha asar. - B.2.

[34] Амир Саййид Олимхон. Бухоро халкининг хасрати тарихи. /Форсийдан таржима, мукаддима ва изохлар муаллифи Абдусодик Ирисов. –Тошкент, 1991.-Б. 10.

Buxoro amirligi haqida noyob tarixiy manba hisoblanadi. Asarda quyidagi muhim jihatlar yoritilgan:

1. Amirlikning davlat tuzilishi va ma'muriy boshqaruvi
2. 1918-1922 yillardagi siyosiy voqealar va ularning oqibatlari
3. Muallifning shaxsan guvoh bo‘lgan tarixiy hodisalar

Asarning ahamiyati shundaki, u nafaqat rasmiy hujjatlar, balki bevosita guvohning shaxsiy kuzatish va tajribalariga asoslangan. Asarda Boysun, Dehnov, Sariosiyo va Sherobod shaharlaridagi siyosiy vaziyatlar[35] haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Bu asar va tadqiqotlarning noyobligini hisobga olgan holda, ulardan ko‘proq ilmiy ishimizda manba sifatida foydalandik.

Ushbu ilmiy tadqiqotimizning fundamental manbalaridan biri arxiv hujjatlari hisoblanib, O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi) fondlaridagi Surxon vohasiga doir hujjatlardan tashkil topgan. Ilmiy tadqiqotda O‘zbekiston milliy arxivining quyidagi fondi: Buxoro amirligi qo‘shbegi arxivi (I-126-fond) materiallaridan foydalanildi.

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۴۸- کار.۲- ورق ; -(O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 48-ish, 2 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۴۹- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 49-ish, 1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۶۲- کار.۴- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 62-ish, 4 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۱۵- کار.۲- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 115-ish, 2 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۹۰- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 190-ish, 1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۹۲- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 192-ish, 1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۹۵- کار.۲- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 195-ish, 2 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۹۸- کار.۲۳- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 198-ish, 23 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۲۶۶- کار.۱۸- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat.226-ish,18 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۲۲۹- کار.۲- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 229-ish, 2 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۲۵۱- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma,

[35] Мухаммад Али Балжувоний. "Тарихи нафеий" -Т.: Академия. 2001. -Б.2.



1-ro‘yxat.251 -ish,1 varaq)-

۲۵۱- ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۵۳۴- کار.۱- ورق ; -(O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. –534ish,1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۵۸۰- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 580-ish,1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۵۹۲- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 592-ish,1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۵۹۴- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 594-ish,1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۶۱۶- کار.۲- ورق سال -۱۹۰۰ ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 616-ish, 2 varaq, 1900-y)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۶۲۶- کار.۱- ورق سال- ۱۹۰۷ ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 626-ish, 1 varaq, 1907-y)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۶۵۴- کار.۵- ورق سال- ۱۹۱۵ ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 626-ish, 5 varaq, 1915-y)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۸۸۱- کار.۱- ورق. ملا احمد. سال- ۱۹۱۷/۱۳۳۵ ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 881-ish, 1 varaq, Mullo Ahmad (xatni yozgan xattot), 1335/1917-y.y.)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۹۸۹- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 989-ish,1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۹۵۴- کار.۱- ورق سال- ۱۸۹۹ ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 954-ish,1 varaq, 1899 –y.)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۹۹۴- کار.۶۳- ورق. سال- ۱۹۱۷/۱۳۳۵ ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 994-ish, 63 varaq, 1335/1917 –y.y.)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۰۰۱- کار.۲۷- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1001-ish, 27 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۰۲۹- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1029-ish, 1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۰۳۵- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1035-ish, 1 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۰۴۱- کار.۱۲- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1041-ish, 12 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۰۸۰- کار.۲۷- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1080-ish, 27 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۱۲۲- کار.۱۲- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1122-ish, 12 varaq)-

ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, ۱- لیست. ۱۲۵۲- کار.۱- ورق ; - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma,

1-ro‘yxat. 1252-ish, 1 varaq)-

; ۱۹۱۴/۱۳۳۳ سال- ۱۴۸۶- کار.۵- ورق. ۱- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1486-ish, 5 varaq, 1333/1914-yy.)-

; ۱۵۴۰- کار.۳- ورق ۱- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1540-ish, 3 varaq)-

; ۱۹۱۵/۱۳۳۳ سال- حضرت شولگا. / کار.۱- ورق - ۱- لیست. ازم أ. ا -۱۲۶- سرمایه, -۱۶۰۷ (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1607-ish, 1 varaq. Hazrat Shulga (xatni yozgan xattot), 1333/1915-y.y.)-

; ۱۷۷۷- کار.۱- ورق ۱- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat. 1777-ish, 1 varaq)-

**; ۲۲- کار.۴- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه,** - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 22-ish, 4 varaq)-

; ۴۶- کار.۱- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 46-ish, 1 varaq)-

; ۷۱- کار.۸۵- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 71-ish, 85 varaq)-

; ۱۳۳- کار.۱۰- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 133-ish, 1 varaq)-

; ۱۸۰- کار.۱۰- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 180-ish, 1 varaq)-

; ۱۹۱۴ سال- ۲۶۵- کار.۵- ورق. ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 265-ish, 5 varaq, 1914-y.)-

; ۳۵۱- کار.۳۰- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 351-ish, 30 varaq)-

; ۵۹۹- کار.۳- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 599-ish, 3 varaq)-

; ۱۹۱۸ سال- ۸۳۶- کار.۵- ورق. ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 836-ish, 5 varaq, 1918-y.)-

; ۱۳۸۷- کار.۴- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 1387-ish, 4 varaq)-



; ۱۳۹۷- کار.۱- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 1397-ish, 1 varaq)-

; ۱۴۴۷- کار.۱- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 1447-ish, 1 varaq)-

; ۲۷۲۹- کار.۲- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 2729-ish, 2 varaq)-

; ۲۹۸۱- کار.۵- ورق ۲- لیست. ازم أ, ا -۱۲۶- سرمایه, - (O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 2-ro‘yxat. 2981-ish, 5 varaq)-

Masalan, Buxoro amirligi qo‘shbegisining arxivi (I-126-fond) materiallaridan O‘zR MA. 126-jamg‘arma. 1-ro‘yxat. 1-varag‘ida, Davlat xazinasining noqonuniy sarflanishi haqida ya’ni Ey o‘z bandalarini suyguvchi zot (1-ilovaga qarang) deya Buxoro amiriga Denov* bekligida amirga xizmat qilgan bir vakil shaxs quyidagi xatda ma’lum qilmoqda.

Himoyachi qo‘rg‘on bo‘lmish Dehnav viloyati va shahrining soliqchisi bo‘lmish Muhammad Ya’qub to‘qsoba o‘z g‘ulomlari bilan amirlik namunasi bo‘lmish donishmandlarning sarasi Almosbiy miroxur nomli amlokdorning hovlisiga kelib, u yerda uch kecha turganligi. Ushbu miroxur,* to‘qsoba* ketayotgan chog‘ida, uning g‘ulomiga (quliga) bir bosh yaxshi ot, bir to‘p ro‘mol, bir dona farangi (yevropacha) kiyim va bir dona hisoriy ipakdan to‘qilgan kiyim berganligi, Almosbiy g‘ulomishon Dehnov va Yurchi va unga qarashli joylarni aminonasini (ya’ni tazvin pulini — solig‘ini) Nazar miroxurga topshirganligi ammo shu pul (ya’ni soliqdan yig‘ilgan pullar) ni miroxur Nazarbiy ertani o‘ylamasdan sarfu-xarajat qilayotganligini, bunga misol qilib, har kecha uning uyiga 30 (o‘ttiz) ta otliq unikiga kelishi va otlarga Nazar miroxurning xizmatkorlari qarashlari haqida ushbu xatda xabar bergan.

Shuningdek, uchta mehmonxonasi borligi, hamisha mehmonxonasi

* Denov — Buxoro amirligining xuddi shu nomdagi bekligining ma’muriy markazi. Hozir O‘zbekiston SSR Surxondaryo viloyatining viloyat(tuman) markazi hisoblanadi. (۱۹۶۲. میرزا عبدا العظمی سامی تاریخ سلاطین منغیتی [Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа] (история мангытских государей). /Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л. М. Епифановой. – Москва: Восточная литература, 1962. –С.151.)

*Miroxur — bosh otliq, davlat otxonalariga mas’ul amaldor (Buxoroda VI darajali mansabdor). [Elektron resurs] (https://tadj_ru.academic.ru/) [Murojaat qilingan sana 14.12.2020]

* To‘qsoba, to‘qsabo (eski o‘zbekcha - o‘z tug‘iga ega bo‘lgan) - harbiy qism sarkardasi, tuqsaboshi.

xizmatkor va g'ayri xizmatkorlardan to'laligi, odamlar kechayu-kunduz shu yerda oshu-non yeyishlari, har kun bozorga borib ko'p narsalar olib kelishganligi, miroxur bunday o'ylamasdan xarajat qilsa davlatimizning xazinasiga ziyon yetishi aniqligi to'g'risida arz qilgan[36].

Voha hududi markazdan ancha uzoqda bo'lganligi, siyosiy g'alayonlardan holi bo'lishi uchun "Buxoro amaldorlarining amir Abdulahad (1885-1910)ga Andijon qo'zg'aloni yetakchisi Darvishxonning zindondan qochishi, qidiruvning paydo bo'lishi, Andijon fuqarosining Sharqiy Buxoroda qo'zg'olon uyushtirish uchun kelishi to'g'risida" (2-ilovaga qarang), ogohlik xatida, Ey bandalarini suyguvchi zot.

Qurboning bo'lay, Charikuf pochta orqali g'ulomiga xat berib yuborgan edi. Bu xat janobi oliylariga manzur bo'ldi. Hazratim siz yana ham yaxshiroq bilasiz. Xatning mazmuni shundan iboratki, Andijon fuqarosi Darvishxon to'ra eshon o'g'li o'tgan fevral oyida Jizzax zindonidan qochib, Buxoro amirligining Qorategin shahriga kelgan. Darvishxon yaqinda Kobuldan kelgan Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurinboy Umarqulining o'g'lini o'zi bilan birga olib kelgan. Bularning maqsadi, Buxoro davlatini mensimaslik bo'lgan. Gubernatorning noibi bergan topshirig'iga asosan sizni ogohlantiramanki, Darvishxonni qo'lga olib, bog'lab, baquvvat soqchini tayinlab, Rossiyalik amaldorga topshirmoqchiligimni menga telegraf orqali ma'lum qildi.

Yuqoridagi Darvishxonning belgilari: yoshi 45 da, bo'yi baland, bug'doy rang, soqoli uzun, yuzida dog'i bor, ko'zlari qisiq, rangi toza emas, oyoqlari yo'g'on deb, xat qilgan.

Qurboning bo'lay, uning xati bo'yicha Darvishxon Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurunboylar Qorategin tomon ketgan. Ularni mart oyida ushlash uchun askar Rahmonquli parvonachi yuborildi. Rahmonquli parvonachi Darvishxonni ikkita g'ulomi bilan sizning huzuringizga jo'natsinmi yoki Samarqandga jo'natsinmi, sizning roziligingiz bilan bo'ladi.

Sizning javobingizni umid qilaman. Sizga sadoqatimni namoyon etaman.

---

[36] ازم ا،ا-۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۵۳۴- کار، ۱- ورق . (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 534-ish. – V.1.)



Janobi oliy yana yaxshiroq bilguvchi, ixtiyorlidur[37].

Taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir.

Izoh: Buxoro amiri Amir Abdulahad (1885-1910) ga yuborilgan ushbu xatda Rossiya imperiyasi siyosiy agenti Charikufning noqonuniy harakatlari qayd etilgan. Xat mazmunida quyidagi asosiy fikrlar aks ettirilgan:

1. Charikuf pochta orqali Rossiya imperiyasi podshosiga xizmatkoridan xabar yuborganligi
2. Buxoro amirligi qonunlarini buzgan holda mahbusni qochirganligi
3. Qochoqlarning Sharqiy Buxoro bekliklariga yo'l olishi
4. Ular tomonidan mahalliy boshqaruvni tan olishdan bosh tortishi
5. Hudud aholisiga ma'naviy zarar yetkazishi mumkinligi haqida ogohlantirish

Xatda, shuningdek, bu voqea janobi oliylari (Amir Abdulahad) tomonidan ma'lum qilinganligi ta'kidlangan.

O'zbekiston milliy arxivida saqlanayotgan Buxoro amirligi qo'shbegisining arxivi fondi hujjatlarida vohadagi XVIII asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida bo'lgan tarixiy jarayonlar, ya'ni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va savdo sohalarida ro'y bergan ijobiy va salbiy o'zgarishlar shuningdek, amaldorlar o'rtasidagi aniq ma'lumotlar almashinuvi ularning qo'shbegiga yo'llagan hisobotlari o'z aksini topgan.

Bizga tarixdan ma'lumki har bir tarixiy voqeaning shakllanish jarayoni bo'lgani kabi Buxoro amirligi "Qo'shbegi" arxivining tarixi ham uzoq davrni bosib o'tgan bo'lib, Qo'shbegi arxivi haqida quyidagi ma'lumotlarda to'xtalib o'tamiz. Buxoro amirligida viloyatlar (bekliklar)dan Arkga haftalik hisobotlar chopardlar (elchilar) orqali yuborilgan. Qiziqarlisi shundaki, amir shaxsan hukmronlik qilgan davrda ham bu xatlar to'g'ridan-to'g'ri amirga emas, balki Qo'shbegi (bosh vazir) nomiga yuborilgan. Bu amaliyot markaziy hokimiyat tizimidagi an'anaviy boshqaruv tartibini ko'rsatadi.

---

[37] [illegible] ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat,192 -ish, -V.1.)

Buxoro amirligida viloyatlardan Arkga yuboriladigan rasmiy hujjatlar muntazam tizim asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ularning tuzilishi va mazmuni quyidagi jihatlarni o'z ichiga olgan:

Hujjatlarning yuqori o'ng burchagida "حضرت حق سبحانه و تعالى" (Hazrat Haqq [Alloh] pok va oliydir) iborasi, chap burchakda esa "هو الفايوز" (U fayz ulashuvchidir) yozuvi joylashgan. Markaziy qismida "جناب زلی الهی جناب مولای رحمت الله علیه" (Allohning [yerdagi] soyasi bo'lmish janob [Amir] oliy hazratim, Xojam, Alloh u [kishi]ni salomat qilsin) deb murojaat qilingan.

Bu hujjatlarda asosan bekliklardagi tinchlik holati, aholining amirga sadoqati va ularning doimo duo qilishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hujjatlar beklarning "تصدوق شوم" (yo'lingizda siz uchun tasadduq bo'lay) iborasi bilan sadoqat izhori va amir uchun duo bilan yakunlangan.

Bu hujjatlar tizimi Buxoro amirligining markaziy boshqaruv mexanizmining muhim qismi bo'lib, viloyatlardagi holat haqida vaqtida ma'lumot olish va amirning oliy hokimiyatini mustahkamlash vositasi hisoblangan. Hujjatlarning bir xil shaklda bo'lishi amirlikda yagona hukumat tizimining mavjudligini ko'rsatadi[38]. Shuningdek, xatlarning so'nggida murojaatchiga chuqur hurmat ma'nosida taqsir, taqsir, taqsir so'zlari yozilganligini kuzatdik.

Buxoro amirligida arxiv ishlarining tashkiliy rivoji 1865-yilda, Amir Muzaffar davrida boshlangan bo'lib, bu jarayonda rus ma'muriyatining ham ma'lum ta'siri bo'lgan. Tarixchi Musojon Saidjonovning ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro amirligi arxivi ikki alohida bo'limdan tashkil topgan edi: birinchi bo'lim amirning shaxsiy devonxonasiga tegishli hujjatlarni, ikkinchi bo'lim esa Buxoro Qo'shbegisining devonxonasi arxividagi materiallarni o'z ichiga olgan.

O'zbekiston Milliy arxivida Buxoro amirligiga oid besh mingga yaqin devonxona hujjati mavjud. Ushbu hujjatlarning barchasi Buxoro Qo'shbegisi ("1.3-jadvalga qarang") nomiga rasmiylashtirilganligi sababli, ular "Buxoro amirligi Qo'shbegisining kanselyariyasi" arxivida saqlanadi[39].

---

[38] Elektron resurs. https://shosh.uz/buhoro-amirligi-qushbegisi-arhivining-shakllanish-tarihi/ [Murojaat qilingan sana 08.03.2021]

[39] O'sha resurs [Murojaat qilingan saha 09.03.2021]



Masalan, ushbu arxiv hujjatlaridan biri 1914-yil sentabr-oktabr oylarida yozilgan Denov bekligiga ("1.4- jadvalga qarang") qarashli Yurchi qishlog'idagi unter-ofitser (zobit) Golovoshenko, Tashqi ishlar Vazirligi Buxorodagi Rossiya imperatorligining siyosiy agentligi va Mirza Nasrullobiy Qo'shbegi hamda Mirbegul qo'shbegilarga yuborilgan o'zaro yozishma xatida, Denov bekligiga qarashli Yurchi qishlog'idagi unter-ofitser (zobit) Golovoshenko o'z xizmat vazifasini o'tash jarayonida mahalliy aholi bilan nizolar kelib chiqayotganligi haqida ma'lumot beradi.

Tashqi ishlar Vazirligi Buxorodagi Rossiya imperatorligining siyosiy agentligidan 1914-yil 11-oktabr sanasida Mirza Nasrullobiy Qo'shbegi*ga yo'llangan xatda (3-ilovaga qarang), shoshilinch hurmatli Mirza Nasrullabiy Qo'shbegiga! Hurmatli Qo'shbegi, Sizga yuborayotgan Termiz harbiy rahbaridan olgan ikkita xatimda unter-ofitser Golovashenkoning Denov bekligidagi Yurchi qishlog'ida yashayotgan oilasining xavfsizligini ta'minlash maqsadida farmon chiqarishingizni Sizdan do'stona so'rayman va keyingi qaytadigan ilovada meni xabardor qiling. Amir janobi oliylari! Xatning javobini kutgan holda, Sizga sog'lik-salomatlik tilayman. Siyosiy agentlik boshqaruvchisi[40].

"Elchixonadan 8496-raqam bilan 1914-yil 11-oktabrda kelgan xatning javobiga binoan shunday ogohlik berildiki, Denov viloyatining hokimiga xat yozib tayinlandiki, Denov bekligiga qarashli bo'lgan Yurchi mavzuyidagi Rossiya imperiyasi fuqarosi unter-ofitser Golovoshenkoga xabar berilib, mazkur g'arazli odamlar (Ochilboy qushbegi, Qurbon samovarchi, Nazarqul nonvoy, Shohmardonqul G'ulomlar) ga jazo va tanbeh berilib, bundan keyin bunday boshqa

---

* **Qo'shbegi** - ( XIX asrda Buxoro amirligida mamlakatning birinchi arbobi va Buxoro shahrida bo'lmagan davrida amir noibi. ميرزا عبدا العظمى سامى تاريخ سلاطين منغيتى ١٩٦٢.ورق ٥٩ ) Mang'itlar hukmronligi davrida Qo'shbegi eng oliy grajdanlik mansabi hisoblanib, atamashunoslik fanida Qo'shbegi harbiy qo'noq, qo'sh, stavka va lager boshlig'i sifatida ham talqin etildi. Amirlikning moliya ishlarini, asosan soliqlarni undirib olish ishlarini qo'shbegidan keyin turadigan, oddiy xalq tilida qulli qo'shbegi deb ataluvchi, devonbegi bajargan. Bu amaldor Chorjo'y, Karmana va boshqa viloyatlar hokimlari huzuridagi barcha devonbegilarning boshlig'i ham edi. Bu atama ehtimol Buxoro amirligining tugatilishi ya'niy 1920-yilgacha amirlik boshqaruvida ishlatilgan (muallif. Q.A) Shuningdek, tarixiy atamashunoslikda Qo'shbegining Qushbegidan farqi quyidagicha izohlangan:

Qushbegi tushunchasi – ov va asbob uskunalari, ov qushlari, hayvonlarga mas'ul bo'lgan mansabdor sifatida ham talqin etilgan. (Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XX в.-Душанбе. 1963. – С 203).

[40] ازم ا،ا .١٢٦- سرمايه. ٢- ليست , ٢٦٥- كار, ١- ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, -V.1.)

odamlarni yo'ldan urmasin. Qo'shimcha xatlarni shu xatga qo'shib jo'natdik[41] mazmundagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Muxarram oyining 5-noyabr 1333-yili (hijriy), milodiy (4-ilovaga qarang) 1914-yil Mirbegul qo'shbegi nomiga yozilgan xatda esa, Janobi oliylari Mirbegul qo'shbegi janobi oliylariga! Sizga shuni ma'lum qilamizki, xudoning mehribonligi ila davlatimiz tinch osuda va xotirjammiz. Xatimiz mazmuni shuki, shoh vazirligining 3-raqam bilan 1914-yil 11-oktabrda elchixonadan kelgan № 8496-son xat yuzasidan ish olib borilmoqda, unter-ofitser Golovoshenko Rossiya imperiyasi boshlig'iga arz yetkazgan.

Denovga qarashli Yurchi mavzeyidagi fuqarolar ushbu ishni qasdan, qasdan va yana qasdan qilganliklari uchun qayta qayta ko'rilmoqda, bu ish yuzasidan Termizdagi harbiy boshliqga ikki marotaba xat yuborilgan. Yuborilgan xatning mazmunida sizlar musulmon bo'lingizlar, sizlarning dinlaringizning vaqti tugadi, deb so'zlagan fuqarolar haqida so'z boradi.

Shuningdek, xatda aybdor fuqarolar va jarimaga tortilganlari, jazolanganlari to'g'risidagi ma'lumot xatga qo'shib jo'natilsin, deya so'ralgan. Bu ma'lumotlar shohga ham yetkazilgan. Ishni to'liq o'rganish uchun shaxsan o'zim borib o'rgandim. Uch fuqarodan biri Yakkabog'lik musofir qassob, ikkinchisi Qarshilik kulol va ularning sheriklarini Yurchi bozorini aylantirib 25 tayoqdan urilib, boshqa bu ishni qilmasliklari tushuntirildi. Bu boradagi ma'lumot harbiy boshliqqa ham yetkazilgan. Bundan keyin biror inson bunday ishga jur'at qilolmasin deb, shu yuzasidan podsho tayin qildi. Xatga 5 nafar jazolangan fuqarolar yozilgan bo'lib, darxol boshqalarni aybdor fuqarolarning oldilariga bormasliklarini tayin qildim.

Shu sababli ancha yillar Yurchida mahalliy aholi bilan birga rus fuqarolari ham aralashib yashab yurdilar. Ruslar o'z e'tiqodicha Yurchi fuqarolari o'z e'tiqodicha ya'ni Yurchi fuqarolari boshlariga sallalarini bog'lagan holda ko'p xursandchilikda birga yashab yurdilar.

Shu jihatdan zikr qilinganlarga nasihat qilindi va har qanday voqealardan

[41] ورق ١- كار, ٢۶٥- ليست , ٢- سرمايه, ١٢۶- ازم ا,ا. ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, -V.1.)



habardor bo'lib turdim(5-ilovaga qarang)[42].

Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan Denov bekligiga qarashli Yurchi qishlog'ida Rossiya imperatorligining siyosiy agentligidan hududni nazoratda tutib turish uchun Golovashenkoning xatining mazmuni:

Muhtaram podshohga ma'lum bo'lsinki, biz barchamiz sog'-salomatmiz, sizlar ham sog'-salomat bo'lingizlar. Podshohga ma'lum bo'lsinki, bu taraf Yurchi fuqarolari bizga xavf solib, "Sizlar musulmon bo'lingizlar, sizlarning dinlaringizning vaqti tugadi"-deb bizning savdolarimizga zarar yetkazishmoqda va bizning mazhabimizni va podshohimizni tahqirlashib, bizlarni ko'p haqorat qilishmoqda. Shu sababli sizning ogohlantirishingizga muntazirmiz. Bizning savdomiz yomon bo'lib, pulga zoriqib qolyapmiz. Janobi oliylari, agar mumkin bo'lsa bizning ahvolimizni hokimga yetkazing, mazkur fuqarolarni Rossiya davlatiga zarar yetkazuvchi harakatlardan qaytarishlarini so'raymiz (6-ilovaga qarang)[43].

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrida chop etilgan adabiyotlarda asosan XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, Buxoro Rossiya munosabatlari, amirlikning imperiya vassaliga aylantirilishi bilan bog'liq siyosiy masalalar yoritilgan. Bu asarlarda ham Buxoro Xiva, Qo'qon xonliklari va Buxoro amirligi shuningdek, biz tadqiqot olib borayotgan Surxon vohasining siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotiga doir ma'lumotlarni yoritilgan bo'lib, ular Rossiya imperiyasi va Sovet davrining mustamlakachilik manfaatlari ruhida yozilgan hamda ularning manfaatlariga xizmat qilgan. Mustamlaka davri mualliflari xususiyatlaridan biri mahalliy xalq manfaatlarini hisobga olmaslik, Rossiya mustamlakachilik va zo'ravonlik siyosatini noxolis yondashib ko'rsatishdan iborat bo'lgan.

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda Rossiya imperiyasi siyosatining voha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotiga ta'siri ijobiy jihatlari bilan baholangan. Rossiya protektorati davrida vohaga kelgan olim va sayyohlarning asarlari, kundalik hamda

[42] O'sha arxiv hujjati 3-varaq.
[43] O'sha arxiv hujjati 4-varaq.

esdaliklari jumlasiga A.G.Ananyevning "Sherobod vodiysini Surxon daryosi suvlari bilan sug'orish", "Sherobod vodiysi", D.N.Logofetning "Unutilgan mamlakatda. Markaziy Osiyo bo'ylab sayohat ocherklari (insholari) ", "Buxoro xonligi Rossiya protektorati ostida", N.Mayevning "Buxoro xonligi haqidagi ocherklar" // (Turkiston o'lkasi statistikasi uchun materiallar), N.N. Pokotiloning "1886-yilda Markaziy va Sharqiy Buxoro bo'ylab sayohat haqida ma'lumot", "1886 yilda Markaziy va Sharqiy Buxoroga sayohat", G.A. Arendarenkoning "Turkistonda hordiq chiqarish faoliyati", A.Bornsning "Buxoroga sayohat", M.V.Grulev. "Amudaryoning Chorjuy va Patta-Kissor oralig'idagi qismlariga oid ba'zi geografik va statistik ma'lumotlar" nomdagi maqola va asarlarini kiritishimiz mumkin[44].

D.N.Logofetning "Бухарское ханство под русским протекторатом" asarida Buxoroga qarashli hududlarda olib borilgan harbiy izlanishlar, har bir hududning iqlimi, daryolari, yo'llari haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan arxiv materiallari, mahalliy muarrixlar asarlari va ularning sharhi asosida xulosa qilganimizda, biz o'rganayotgan davrda Buxoro amirligida mahalliy tarixnavislar, rus tadqiqotchilari, elchilari, sayohatchilarining asarlari, esdaliklari bilan tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu davr tarixnavislari ko'p asrlik tarix bitish an'anasini saqlab qola olganlar va ayni paytda, uni zamonaviy uslub va mavzular bilan boyitishga erishganlar.

Mualliflarning ko'pchiligi o'zi yashagan davr tarixi va voqeligi bayonida o'z shaxsiy kuzatuvlariga asoslangan. Ularning asarlarida haqqoniy tarixning yoritilishini ko'rishimiz mumkin lekin aksariyat hollarda faqat boshqa adabiyotlarda subyektiv fikrlar keltirilgan. Ushbu tadqiqot ishida qamrab olingan davrga oid manbalarda amir va beklar hamda amaldorlar faoliyati, amirlikning markazidagi voqealar xususan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy va madaniy hayot

[44] Ананьев А.Г. Шерабадская долина. – СПб., 1914. – 87 с. Shu muallif.; Орошение Ширабадской долины водами реки Сурхана. – Ташкент, 1911. – 56 с.; Маев Н. Очерки Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.5. – СПб., 1879. – 400 с.; Покотило Н.Н. Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г. // Записки РГО. – СПб., 1889. – С. 480–502. O'sha muallif. Отчет о поездке в пределы Центральной и Восточной Бухары в 1886 г. – Ташкент, 1888. – С. 113.



tarixi, o'zaro urushlar, qo'shni mamlakatlar bilan elchilik va tashqi savdo aloqalari, sulolalar tarixini yoritishga qaratilgan. Bu esa amirlik hayotida voha bekliklarining tutgan o'rnini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

### 1.2-§. Mavzuning tarixshunosligi

Surxon vohasi o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotida Buxoro amirligi tarkibida muhim o'rin egallagan. Hozirgi davrda amirlik tarixiga bag'ishlangan ko'plab asarlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyatida voha bekliklarining siyosiy hayotdagi o'rni arxiv manbalari asosida yetarlicha yoritilmagan.

Voha bekliklarining Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy hayotidagi o'rnini o'rganishda quyidagi manbalar asosiy ahamiyatga ega:

1. Mahalliy tarixchilarning asarlari
2. Arxiv hujjatlari
3. Vaqtli matbuot nashrlari (eski o'zbek tilidagi jurnallar)
4. Tarixiy-ilmiy adabiyotlar

Tadqiqotimizda muhim manba bo'lgan Buxoro amirligi Qo'shbegi arxivi O'zbekiston Milliy arxivida saqlanmoqda. Ushbu arxiv materiallari tarixchilar uchun noyob manba hisoblanib, uning shakllanish jarayoni uzoq davrni qamrab olgan.

**Buxoro amirligida Qo'shbegi arxivi tarkibi va tuzilishi.** Buxoro amirligida rasmiy xatlar muayyan tartibda tuzilgan. Xatlar shakli quyidagicha bo'lgan:

- Yuqori markazda "بنده نوازا" (Ey o'z bandalarini suyguvchi zot - Alloh va uning yerdagi vakili Buxoro amiri) iborasi
- Asosiy mazmundan oldin amirni ulug'lovchi iboralar
- Xat oxirida "تقصير تقصير تقصير تقصير تقصير" (Amir oldida hurmat bilan egilish) iborasi qo'llanilgan[45].

**Xat yozish va arxivlash tartibi.** Amirlik hududidagi bekliklardan kelgan

[45] ازم ا،ا-۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۵۳۴- کار، ۱- ورق . (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 534-ish. – V.1.)

maktublarda bir xillik saqlangan. Devonxonalarda ishlovchi kotiblar maxsus xat yozish uslublarini o'rgangan. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, kotiblarning dastxatlari o'xshash bo'lgan.

- Choparlar orqali Arkka yetkazilgan hujjatlar:
- Maxsus yo'nalishlar bo'yicha tasniflangan
- Qayd qilish daftariga kiritilgan
- Devonxonaning maxsus sandiqlariga joylashtirilgan

**Arxivning tarixiy rivoji.** Buxoroda tizimli arxiv ishlari Amir Muzaffar davrida (1860-1885) boshlangan. Arxiving asosiy xususiyatlari:

- Devonxona arxivi bevosita amir qo'l ostida bo'lgan
- Amir Muzaffar arxivni o'z qarorgohida saqlagan
- Said Abulahad (1885-1910) arxivni Karmanaga ko'chirgan
- Amir Olimxon (1910-1920) arxivni Buxoraga qaytargan
- Arxiving boshqaruvi parvonachi zimmasida bo'lgan

Buxoro amirligi devonxona arxivi bugungi kungacha saqlanib qolmagan. 1920-yilgi Buxoro inqilobi davrida:

- Arxiving sovet askarlari tomonidan egallanganligi taxmin qilinadi;
- Materiallarning Turk frontiga ko'chirilganligi aytiladi;
- Fondda Buxoro amiri va Afg'oniston shohi o'rtasidagi yozishmalar saqlangan[46].

**Buxoro amirligida Qo'shbegining o'rni va arxiv tizimi.** Qo'shbegi Buxoro amirligida muhim siyosiy lavozimni egallagan bo'lib, davlat boshqaruviga oid barcha hujjatlar uning nazorati ostida bo'lgan. Devonxona orqali o'tgan siyosiy, madaniy va iqtisodiy hujjatlar Qo'shbegi tomonidan qayta ishlangan.

Buxoro amirligida hujjatlarni saqlash tizimi o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan. Qo'shbegi lavozimi davlat boshqaruvida markaziy o'rni tutgan bo'lib, barcha rasmiy hujjatlar uning nazorati ostidan o'tgan. Dastlabki davrlarda, ayniqsa Mirzo Nasrulloh hukmronligi davrida (1826-1860), arxiv materiallari tartibsiz

[46] Elektron resurs. https://shosh.uz/buhoro-amirligi-qushbegisi-arhivining-shakllanish-tarihi/ [Murojaat qilingan sana 18.05.2023]



holatda saqlangan - ular asosan yer ostidagi maxsus joylashtirilgan sandiqlarda saqlangan. Keyinchalik Usmonbek Qo'shbegi bu ishga yetarlicha e'tibor bermaganligi sababli, hujjatlarning saqlanish sharoiti yomonlashgan.

1920-yil sentyabr oyida Buxoroda Sovet hokimiyati o'rnatilgach, Kuybishev boshchiligida amir va Qo'shbegi arxivini qidirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi. Bu ishlar natijasida militsiya xodimlari Ark binosining yer osti xonalarida maxsus jihozlangan sandiqlarda saqlangan hujjatlarni topishga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, devonxona binosining pol qismi va turli tokchalardan qo'shimcha hujjatlar ham qo'lga kiritildi.

Topilgan barcha arxiv materiallari quyidagi bosqichlardan o'tkazildi:

1. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida hujjatlar maxsus yozuvsiz qutilarga joylashtirildi va batafsil ro'yxatga olindi;

2. Keyinchalik bu materiallar Sovet Xalq Komissarligi omborxonalariga xavfsiz tarzda yetkazildi;

3. Vaqtincha saqlash uchun Buxorodagi Tashqi ishlar vazirligining maxsus ombor binolariga joylashtirildi;

4. 1924-yilga kelib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topgunga qadar ushbu hujjatlar shu omborlarda saqlanib turildi;

5. Nihoyat, respublika arxiv fondlariga topshirildi;

Bu jarayon davomida quyidagi choralar ko'rildi:

- Har bir quti maxsus muhrlar bilan mustahkamlandi;
- Materiallarni xavfsiz ko'chirish uchun maxsus tarkibdagi karvon tashkil etildi;
- Ombor binolarida doimiy qo'riqchilar xizmati tayinlandi.

Hozirgi vaqtda ushbu qimmatli arxiv materiallari O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivida maxsus sharoitlarda saqlanmoqda va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun keng foydalanishga topshirilgan. Bu hujjatlar Buxoro amirligi tarixini o'rganishdagi eng ishonchli manbalardan biri hisoblanadi[47].

[47] Elektron resurs. https://shosh.uz/buhoro-amirligi-qushbegisi-arhivining-shakllanish-tarihi/ [Murojaat qilingan sana 19.05.2023]

**Buxoro amirligi arxivining saqlanishi va tasnifi.** 1920-1921-yillarda Buxoro hukumati taklifi bilan bir guruh taniqli tarixchilar - V.V. Bartold, A.A. Semenov, Po'lat Soliyev, Fitrat va boshqalar Buxoroga kelishdi. Ular faqat o'z tadqiqotlari uchun zarur bo'lgan hujjatlarni o'rganish bilan cheklanishdi.

**Milliy hududiy chegaralash davri (1924-yil):**

1. M. Sayidjonov rahbarligida maxsus komissiya tuzildi;

2. To'plangan barcha hujjatlar qayta ishlanmagan holda Buxoro markaziy kutubxonasiga topshirildi;

3. Dalolatnomaga ko'ra, arxivda 69 o'ram, 52 daftar va 50 ta kitob mavjud edi.

**1931-yil voqeasi.** Arxiv materiallari Arkdagi berkitilgan binoda tasodifan topildi. Bu topilma Buxoro tarixini o'rganishda yangi bosqichni ochdi.

**Hozirgi holat (O'zbekiston Respublikasi Milliy davlat arxivi):**

1. "Buxoro Amirligi "Qo'shbegi" arxivi" I-126 fondida saqlanmoqda;

2. Taxminan 5000 ga yaqin hujjat mavjud;

3. Barcha hujjatlar "Qo'shbegi" nomiga yuborilganligi sababli shunday nomlangan.

**Hujjatlarning tasnifi:**

1. Ma'muriy hujjatlar;

2. Siyosiy mavzudagi hujjatlar;

3. Iqtisodiyot masalalariga oid hujjatlar;

4. Tashqi aloqalar haqidagi hujjatlar;

5. Harbiy ishlar hujjatlari;

6. Sud materiallari;

7. Madaniy-maishiy holat haqidagi hujjatlar;

8. Sog'liqni saqlash ishlari bo'yicha hujjatlar;

9. Diniy hujjatlar .

Har bir bo'lim o'z navbatida kichikroq bo'limlarga ajratilgan. Qayd raqamlariga berilgan so'zboshilar fondda saqlanayotgan hujjatlarning nusxalari



haqida to'liq ma'lumot beradi[48].

Buxoro amirligining mang'itlar sulolasi hukmronligi davri va ushbu davrda Surxon vohasi bekliklarining o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, tadqiqot olib borilayotgan davrning obyekti sifatida ilmiy va tarixiy jihatdan hamda Buxoro Qo'shbegi arxivi hujjatlari asosida kam o'rganilganini inobatga olib va ularni amaliyotga joriy qilishning ilmiy asoslaridan kelib chiqib mavzuga taalluqli adabiyotlar, sovet davrida yozilgan tadqiqot ishlari, monografiyalar, ilmiy risolalar, ilmiy to'plamlar, maqolalar, vaqtli matbuot nashrlari gazetalar, siyosat, ma'muriy hududiy holat, boshqaruv tizim, iqtisodiyot, soliq, qishloq xo'jaligi tizimi, voha toponimikasi, hunarmandchilik va savdo aloqalari bilan bog'liq asarlarning o'rni kattadir.

XVIII-XX asrlarda Buxoro amirligi va uning janubi-sharqiy qismi hisoblangan Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligida tutgan o'rni tarixini o'rganishda sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarlar sovet mafkurasi asosida yozilgan bir yoqlama xarakterdagi izlanishlar hisoblansa-da tadqiqot jarayonida ushbu manbalardan o'rinli foydalanildi. Sovet davrida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Buxoro amirligining barcha hududlarini, shu jumladan uning sharqiy qismlari (Sharqiy Buxoro)ni qamrab olgan holda o'tkazilgan.

Masalan, M.Xamrayevning "XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Hisor bekligi ("1.5-jadvalga qarang") tarixi bayoni" asarida XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Hisor bekligi va Buxoro amirligi xususan, Sariosiyo va Dehnov bilan olib borilgan savdo-sotiq aloqalari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yoritiladi[49].

Sovet tarixchisi sharqshunos M.A. Abduraimov XVI—XIX asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida dehqonchilik va agrar munosabatlarning ahvoli to'g'risidagi jamlangan monografiya yozgan. Olim Surxon vohasi qishloq xo'jaligi tarixi bo'yicha Buxoro xonligining ashtarxoniylar va mang'itlar davri siyosiy

[48] Elektron resurs. https://shosh.uz/buhoro-amirligi-qushbegisi-arhivining-shakllanish-tarihi/ [Murojaat qilingan sana 20.05.2023]
[49] Хамраев М. Очерки истории Хиссарского бекства конца XIX-начала XX вв// Тр. АН Тадж ССР. — Душанбе, 1959. - С.93.

hayoti, qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi texnikalari tarixini tadqiq qilib, feodal yer egaligi formalari, soliq va majburiyatlar hamda dehqonlar ahvoli va xalq qo'zg'olonlari sabablarini o'rgangan[50].

A.Aminov hamda A.Babaxodjayevlar Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi tarixiy shart-sharoitlari, Rossiya bilan iqtisodiy–siyosiy aloqalari, hududning ruslar tomonidan bosib olinishi, osiyoliklar ma'naviy qarashi, birinchi jahon urushigacha Markaziy Osiyo xalq xo'jaligining rivojlanishi masalalari haqida ma'lumotlarni yozib qoldirgan[51].

D.Y.Arapov XVIII asrning 60-yillari oxiri — XIX asrning 70-yillari boshigacha, ya'ni inqilobdan oldingi Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy tuzilmalaridan biri – Rossiya bilan azaldan savdo sherigi sifatida manfaatdor bo'lgan Buxoro xonligi (amirligi) o'rtasidagi olib borilgan elchilik munosabatlari tarixini o'rgangan. Shuningdek, monografiyada rus sharqshunoslarining Sovet ittifoqidan oldingi Markaziy Osiyo davlatlaridan biri – Buxoro xonligi haqidagi asarlari tanqidiy ko'rib chiqiladi, inqilobdan oldingi sharqshunoslikka xos bo'lgan turli ilmiy tushunchalarning vujudga kelishi va rivojlanishi sabablarini o'rganadi[52].

K.Z. Xakimova o'zining 1976-1977 yillardagi "Sharq yozma yodgorliklari" jurnalida chop etilgan maqolasida quyidagi asosiy fikrlarni bayon qilgan:

1. **Fond tarkibi**:

- Ikkita inventardan iborat.
- Birinchi inventar:
  - Qo'shbegi 1-bo'limining faoliyat hujjatlari;
  - Kiruvchi yozishmalar va mahalliy hisobotlar;
  - Arab alifbosidagi tojikcha-forscha matnlar.
- Ikkinchi inventar:
  - Rossiya imperatorlik siyosiy agentligi bilan yozishmalar.

2. **Statistik ma'lumotlar**:

[50] Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI — первой половине XIX века / АН УзССР. Ин-т востоковедения им. Беруни. — Ташкент : Фан, 1966. — 1 т.:- С.22
[51] Аминов А., Бабаходжаев А. Экономические последствия присоединения Средней Азии к России. — Т.: Узбекистан, 1966; - С.212.
[52] Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. — М.: МГУ, 1981.; - С.4.



- Jami 99,108 ta hujjat inventarizatsiya qilingan.
- Xronologik doiradagi davr:
  - Rossiya tomonidan Buxoroning bosib olinganidan keyingi davr;
  - 1920-yilgacha (amirlik qulaguncha).

3. **Qamrab olingan tarixiy davr**:

- Mang'itlar sulolasining so'nggi uch amiri davri:
  - Amir Muzaffar (1860-1885);
  - Amir Abdulahadxon (1885-1910);
  - Amir Olimxon (1910-1920)[53].

L.M.Yepifanovaning "Buxoro misolida O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilish jarayoni tarixini aks ettiruvchi qo'lyozma manbalar" monografiyasida O'zSSR FA sharqshunoslik instituti qo'lyozma fondidan tarixiy manbalarga asoslangan ta'rifi keltirilgan, XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro xonligi (amirligi) ning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plangan.

Shuningdek, qo'lyozmada ko'proq ma'lumotlar xalqlar holati va ularning — Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishga bo'lgan munosabatlarini aks ettirgan[54].

A.B.Vildanova asarida Buxoro xonligi (amirligi) ning XVIII — XIX asrlardagi ma'muriy-xo'jalik boshqaruviga oid qimmatli ma'lumotlar, fors – tojik tilidagi Buxoroga oid nashr etilgan nodir yodgorliklar, yozishmalar aks ettirilgan[55].

A.R.Muhammadjonov esa Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlari haqida geografik, tarixiy etnografik va lingvistik, xususan tarixiy joy nomlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan[56].

O.A.Suxareva Buxoro xonligi (amirligi) shaharlarining tarixiga doir (tarixiy etnografik ochekrlar) qadimgi davrdan XX asrning boshlarigacha Buxoro

[53] Хакимова К.З. Фонд «Канцелярии кушбеги эмира Бухарского» – источник изучения истории крестьянского движения в Бухарском эмире. Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. Ежегодник (1976-1977).- Москва. Наука. 1984. - С.204.
[54] Епифанова Л.М. Рукописьные источники по истории Средней Азии периода присоединения ее к России. (Бухара). — Т., 1965. - С.2.
[55] Мирза Бадиъ Диван. Маджмаъ ал-аркам («Предписная фиска»): приемы документации в Бухаре XVIII в. (Факсимиле рукописи. Введение, перевод, примечание и прил. А.Б. Вилдановой). — М., 1981. - С.4.
[56] Мухаммаджонов А.Р. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX-нач. XX вв.): Материалы к исторической географии Средней Азии) — Т.: Университет, 2001. — С.5.

shahrida shahar hayoti rivojlanishi haqida keng hikoya qilib, O‘rta Osiyo Rossiyaga bosib olingandan so‘ng O‘zbekiston shaharlarining rivojlanishiga ta’sirini aks ettirgan[57].

K.Z.Hakimova, L.N.Kravetslar Buxoro amirligi misolidagi monografiyasida, amirlikning Rossiyaga qo‘shib olingan davridagi o‘zgarishlarni o‘rganib chiqqanlar. Tadqiqot keng qamrovda o‘rganib chiqilganidan so‘ng ko‘rilganki, kapitalistik ishlab chiqarishning tug‘ilishi hamda rivojlanishi kuzatilgan[58].

Xususan, akademik V.V.Bartol’d O‘rta Osiyoning tarixiy madaniy hayoti va geografiyasi haqida ma’lumotlar yozgan. Unda Buxoro amirligidagi yuritilgan iqtisodiy va madaniy tizimdan yerli xalq va ruhoniylar noroziligi kelib chiqqanligini keltirib o‘tgan[59].

Shuningdek, V.V.Bartold XVIII asrda Termiz shahri, Sherobod shahrining asoschisi Sheralibek qo‘l ostida bo‘lishi, mang‘itlar davri ya’ni 1758-yilda yarim vayronaga aylangan Termizni tiklashga bergan buyrug‘i, shuningdek, Rossiya imperiyasi davrida Termiz qo‘rg‘onining hamda Termiz temir yo‘lining qurilishi “Termiz” maqolasida qayd qilingan[60].

Surxon vohasida dehqonchilik va bog‘dorchilikning rivojlanganidan tashqari Denov hududida dehqonchilikda ekinlarning ekilishi, dehqonchilikdan olinadigan hosildorlik va aholi soni jihatidan Chag‘oniyoning muhim o‘rinni egallashi, shuningdek, vohada Termizning tutgan o‘rni kabi masalalar “Turkistonning sug‘orilish tarixi” deb nomlangan maqolasida keng yoritilgan[61].

N.A.Yemelyanov “Turkiston viloyatidagi vaqflar soni” asarida Buxoro amirligidagi vaqf yerlari haqida ham ma’lumotlar bergan[62].

Olim I.Remez o‘z asarlarida Surxon vohasining Birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrdagi savdo-sotiq munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar

[57] Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Историко-этнографические очерки. — Т.: Изд-во АН УзССР, 1958. — С.145; Бухара в XIX — начале XX вв. (позднефеодальный город и его население). — М.: Наука, 1966. -С.4.
[58] Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально экономические отношения. - Т.: Фан, 1966. - С.7.
[59] Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестане // Сочинения. Т.II. Ч.1. – Москва: Наука, 1964. – С. 314.
[60] Бартольд В.В. Работы по исторической географии.// Сочинения. Т.III – Москва: Наука, 1965. – С. 3.
[61] Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана.// Сочинения. Т.III - Москва: Наука, 1965. – С. 159.
[62] Емельянов.Н.А. Численность вакфов Туркестанского края // Туркестанский сборник. Т.461. –С.3 – 6.



keltirgan. Uning tadqiqotlari asosan Buxoro amirligining tashqi savdo aloqalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, mintaqaning iqtisodiy hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

Remezning ishlarida ayniqsa quyidagi jihatlar diqqatga sazovor: mahalliy bozorlar tizimi, mintaqaviy va xalqaro savdo yo‘llari, asosiy savdo mahsulotlari turlari, shuningdek savdo-sotiq jarayonida qo‘llanilgan an’anaviy usullar va transport vositalari haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Bu tadqiqotlar Surxon vohasining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi iqtisodiy holatini tushunishda muhim manba hisoblanadi[63].

A.M.Aminov, A.X.Babaxodjayev, X.Inoyatov va N.A.Xal’finlarning ishlari bu davr tadqiqotlari orasida alohida ajralib turadi. Ushbu mualliflarning asarlarida XIX-XX asr boshlarida Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi haqida masalalar bo‘yicha ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin[64].

Vohaning XVIII–XX asrlar davri tarixiga doir ko‘plab ma’lumotlar nashr qilingan. Surxon vohasining uch bekligi Tojikistondagi olti beklik Buxoro amirligining sharqiy hududlari edi, tarixda bu yerlar “Sharqiy Buxoro yerlari” deb ataladi. *Sharqiy Buxoro*[*] shimolda Hisor tizmasi, janubda Amudaryo bilan o‘ralgan bo‘lib, sharqda Sharqiy Pomir platosi va g‘arbda Pomir-Oloy tizmalari bilan chegaralangan. Unda to‘qqizta beklik tashkil etilgan: Boljuan, Hisor, Darvoz, Denov, Qabodiyon, Qorategin, Ko‘lob, Qo‘rg‘ontepa va G‘arbiy Pomir, bular alohida beklik bo‘lmagan, bular Buxoro amiriga tobe bo‘lib, tovon puli to‘lab turganlar. Surxon vohasi bekliklarining XVIII–XX asrlarda siyosiy boshqaruvdagi o‘zgarishlar, soliq siyosati, dehqonchiligi, paxtachilik istiqbollari, suv yo‘li, savdo-

[63] Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент,1922. –С. 45.
[64] Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX столетия до первой мировой войны). – Тошкент, 1959. – 298 с. ; Аминов А., Бабаходжаев А.Х. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Тошкент: Узбекистан, 1966. – 210 с.; Иноятов Х. Очерки по истории Средней Азии XVII– середина XIX вв.. – Москва: Восточная литература, 1958. – 247 с.; Хальфин Н.А. Россия и Бухарский эмират на Западном Памире (конец XIX – начало XX вв). – Москва: Восточная литература, 1960. – 127 с; Shu muallif. Россия и ханства Средней Азии. – Москва: Наука, 1974. – 406 с; Shu muallif. Россия и Бухарский эмират на Западном Памире (конец XIX – начало XX вв). – Москва: Восточная литература, 1960. – 127 с;
[*] Tarixiy manbalarda Surxondaryo vodiysi hududlari “Sharqiy Buxoro”, “Markaziy Buxoro” va “Amudaryo Buxorosi” deb ataluvchi hududlarning tarkibiga kirgan. Sharqiy Buxoro asosan Tojikistonning janubi-sharqiy qismi hamda O‘zbekiston Respublikasining janubidagi hozirgi Surxondaryo viloyati hududlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, 1870-1880 yillarda yakuniy ravishda Buxoro amirligi tarkibiga qo‘shilgan hudud hisoblanadi. Николаева Л.Ю. Русские в Восточной Бухаре // Восточный архив. — 2008. — № 17.

"Surxondaryo viloyati tarixini o'rganish", "O'zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi", "Sherobodliklar", "Jarqo'rg'on", "Surxondaryo viloyati toponimlari" kabi monografiyalari nashr qilindi[80].

S.Tursunov Surxondaryo viloyatiga xos tarixiy etnologik toponimlarni umumlashtirib, ilmiy tahlil etgan. Shu bilan birga, vohaga tashqaridan kirib kelgan atamalarni ham ilmiy tahlil etib, tarixiy shaxslarning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini tarixiy manbalar asosida o'rgangan, ularning nomlarini joylarga qo'yish masalasi ham ushbu monografiyasida o'z aksini topgan. Monografiya viloyat hududiga oid joy nomlarini qanday va qay usulda qo'yish hamda tartibga keltirish masalalarini hal qilishga ham amaliy yordam berishga mo'ljallangan[81].

S.Tursunov, Q.Rashidovlar monografiyasida Boysunning ilk insoniyatning manzilgohi, muqaddas Onazamin beshigi, ilk ajdodlarimizning shakllanishi, voyaga yetishi, san'at va madaniyatga asos solganligi, xo'jalik, moddiy va ma'naviy madaniyati asoslarini yaratgan yurt ekanligi, bu o'lkada mardlik, jasurlik, or-nomus, vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlarga xos pahlavonlik ilm-tafakkur, shijoatli, mehnatkash xalq tarixini o'zida aks ettirgan voqea-hodisalar ilmiy, tarixiy tafakkur nuqtai-nazardan tahlil etilgan[82].

Jaloliddin Mirzo Termiz shahrining qadimgi davridan boshlab, XX asr oxirlariga qadar tarixini o'zining ilmiy risolasida yoritib o'tgan. Ushbu risola Termiz shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan[83].

Muhammad Azimov jahondagi eng qadimiy shaharlardan biri Termizning paydo bo'lishi, rivojlanishi, tanazzullari va bugungi kundagi hayoti, Termiz shahrida tug'ilib, shu yerda yashab ijod qilgan olim va shoirlar, shayx va hukmdorlar, rassomlar va boshqa tarixiy shaxslar hayoti, ijodi haqidagi

[80] Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти. – Тошкент: Жайхун, 1996. – 115 б.; Мирзаев З., Қобулов Э. Сурхондарёда пахтачилик ва пахта тозалаш заводи тарихи. – Термиз: Жайхун, 1996. – 85 б.; Турсунов С.Н., Қобулов Э. ва б. Сурхондарё тарих кўзгусида (ҳамкорликда). – Тошкент: Шарқ, 2001. – 384 б.; Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Тошкент: Алишер Навоий миллий кутубхонаси, 2007. – 388 б.; Турсунов С.Н., Пардаев Т. ва б. Ўзбекистон тарихи ва маданияти. Сурхондарё этнографияси. Тошкент – Тошкент: Алишер Навоий миллий кутубхонаси, 2006. – 267- б.; Турсунов С, Тўхтаев А.(марҳум) Жаркўрғон. : Фан, 2008. 303 б.

[81] Турсунов С.Н. Сурхондарё вилояти топонимлари. — Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси. 2008.; 149-б.

[82] Турсунов С, Рашидов Қ, Бойсун. – Тошкент: "Akademnashr", 2011.; 430-б.

[83] Жалолиддин Мирзо. Термиз тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 127-б.



ma'lumotlarni keltirgan[84].

Ziyodulla Muqimov Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi Buxoro amiri Shohmurodning islohotlari haqida ma'lumot berib o'tgan[85].

S.Tursunov, E.Qobulov, B.Murtazoyev va T.Pardayevlar[86] voha tarixining qadimgi davrlaridan hozirgi kunga qadar bosib o'tgan yo'lini keng yoritganlar.

S.Tursunov va T.Turdiyevlar tomonidan yozilgan monografiyada Denovning qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan moddiy-madaniy merosi, avlodlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti, shuningdek, Denovning dastlabki aholi punkti sifatida shakllanish jarayonida Chag'oniyon tarixi bilan bog'liq masalalar o'rganilgan. Asarda, shuningdek, mintaqaning an'anaviy dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va davlatchilik tarixi, Denov bekligi bilan bog'liq tarixiy voqealar, Sovet hokimiyati davridagi siyosatning oqibatlari va mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar yoritilgan. Mualliflar yoshlarni tarbiyalashda mintaqa tarixining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratganlar[87].

F.Ochildiyev tomonidan o'rganilgan Buxoro amirligi hukmronligi davridagi Surxon vohasi bekliklarining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi, tarixiy geografiyasi, aholining joylashuv xususiyatlari, ma'muriy boshqaruv tizimi, qishloq xo'jaligi va ichki-tashqi savdo aloqalari haqidagi tadqiqotlar asosida tahliliy ma'lumotlar keltirilgan[88].

E.Qobulov XVIII – XX asrlarda Surxon vohasidagi xo'jalik hayoti, dehqonchilik va chorvachilik xo'jaligi, me'morchiligi, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq munosabatlarini manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etgan[89].

Xushboq Rahim Surxon vohasining qadimiy tarixi, mang'itlar sulolasi davri, hukmdorlari, ular olib borgan siyosat haqida ma'lumot beradi[90].

Voha tarixini ilmiy tadqiq etish borasida ham tarix va etnografiya fanlaridan

[84] Azimov M. Termiz tarixi (eng qadimgi davrdan XXI asr boshlarigacha). – Termiz: Nasaf, 2001. – 193 b.

[85] Muqimov Z. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. – Toshkent. Adolat., 2003. -B.205.

[86] Турсунов С.Н., Қобулов Э. ва б. Сурхондарё тарихи (ҳамкорликда). – Тошкент: Шарқ, 2004. – 606 б.

[87] Турсунов С. ва Турдиев Т.. Денов. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.594.

[88] Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Абу матбуот консалт,- 2008.- 164 б.

[89] Қобулов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. — Тошкент: Академнашр. 2012. – 388 б.

[90] Хушбоқ Раҳим. Деновнома. Сурхон нашр МЧЖ. -Термиз. 2019. – 372 б.

bir qator nomzodlik dissertatsiyalar himoya qilindi. Bular jumlasidan Z. E. Xoliqovning "Termiz va Chag'aniyon so'nggi o'rta asrlarda (XVI – XIX asrlar, arxeologik va yozma manbalar asosida" nomli ilmiy tadqiqot ishlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, Z.E.Xoliqovning dissertatsiyasi Termiz va Chag'oniyonning so'nggi o'rta asrlar moddiy madaniyatini o'rganishda arxeologik va yozma manbalar ahamiyatiga qaratilgan. Unda Surxon vohasining XVI – XIX asrdagi siyosiy, ijtimiy-iqtisodiy tarixi, hunarmandchiligi va me'morchiligiga oid arxeologik ma'lumotlar tarixiy manbalarga asoslangan holda ilmiy jihatdan o'rganilgan[91].

A.To'xtayev XX asr boshlarida voha hunarmandchiligi xususida ma'lumotlarni "O'zbekistonda milliy hunarmandchilik va uni "sotsialistik" asosda sanoatlashtirishning ijtimoiy oqibatlari" mavzuyidagi dissertatsiyasida ilmiy tahlil etgan[92].

M.Ibragimova Surxon vohasi mahalliy sharoitida mato va uning turlarini tayyorlash, ularga bo'yoq bosish usullari kabi ma'lumotlar etnologik jihatdan ilmiy izohlagan[93].

Z.Daminova asosan Termiz shahrining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi haqidagi ma'lumotlarni yozgan[94].

Yusupjon Avazov dissertatsiyasida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligining janubiy-sharqiy bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, siyosiy jarayonlar, bekliklardagi ma'muriy boshqaruv tartiblari, xo'jalik hayoti, soliqlar tizimi, aholining etnik jihatdan kelib chiqishi, turmushi, madaniy va ma'rifiy hayoti, hududda Rossiya imperiyasi boshqaruvining oshib borishi va ular olib borgan siyosat hamda uning oqibatlari haqidagi ma'lumotlarni tarixiy ilmiy

[91] Холиқов.Э.З. Термиз ва Чаганиён сўнгги ўрта асрларда (XVI – XIX асрлар, археологик ва ёзма манбалар асосида): Тарих фан. номзоди ... дисс.– Самарқанд: ТерДУ, 2001. — 177 б.

[92] Тўхтаев А.Қ. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ва уни "социалистик" асосда саноатлаштиришнинг ижтимоий оқибатлари. (1917-1941 йиллар). Тарих фан. номзоди ... дисс.– Термиз: ЎзМУ, 2001. 159 б.

[93] Ибрагимова М.Й. Сурхондарё воҳаси аҳолисининг анъанавий кийимлари ва тақинчоқлари (XIX аср охири ва XX аср бошлари) : Тарих фан. номзоди ... дисс –Тошкент: ЎзРФАТИ, 2004. – 145 б.

[94] Даминова З.Ш. XIX аср охири – XX асрда Термиз шаҳри тарихи : Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ТерДУ, 2004. -183 б.



adabiyotlar va arxiv hujjatlari orqali yoritgan[95].

Tursunov Nurullo Narzullayevich dissertatsiyasida Janubiy Surxon vohasi aholisining etnik tarkibi va etnoxo'jalik xususiyatlari, vohadagi etnoslarning hududiy joylashuvi, voha aholisining moddiy madaniyatidagi etnik xususiyatlar, an'anaviy turar joylar va ulardagi etnik xususiyatlar, xalq kiyimlarida etnik va umummintaqaviy jihatlar, voha aholisining taomlari va ularni tayyorlash usullari, janubiy Surxon vohasi aholisining ma'naviy madaniyatidagi etnolokal xususiyatlar, voha aholisining oilaviy urf odatlari va marosimlaridagi etnik jihatlar, an'anaviy xalq bayramlari va sayillarining etnolokal ko'rinishlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan[96].

F.Ochildiyev dissertatsiyasida janubiy O'zbekistonning tarixiy geografik o'rni va aholisi, etnik tarkibi, ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy hayot, ijtimoiy munosabatlar va soliq turlari, XIX – XX asr boshlarida Surxon vohasining iqtisodiy ahvoli, hunarmandchilik turlari va an'anaviy rivojlanish xususiyatlari, savdo yo'llari, ichki va tashqi savdo aloqalari yoritilgan[97].

Soatmo'min Bo'riyev dissertatsiyasida XX asr boshlarida Surxon-Sherobod vohasi sug'orish tizimi va agrar siyosat, vohaning tarixiy – geografik joylashuvi, Chor Rossiyasining Surxon–Sherobod yerlarini o'zlashtirishga bo'lgan munosabati va harakatlari to'g'risida ma'lumotlar aks ettirilgan[98].

Shuningdek, so'nggi yillarda quyidagi ilmiy tadqiqotlar olib borildi. D.X. Razzaqovning "Buxoro xonligining tashkilot savdo aloqalari (XIX asrning 60–90 yillari)[99]" nomli nomzodlik dissertatsiyasida Buxoro xonligining iqtisodiy aloqalari mexanizmini atroflicha yoritib berilgan.

F.B. Ochildiyev "XIX asrning yarmi – XX asr boshlarida amirligida

[95] Авазов Ю.У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигининг жанубий-шарқий бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий хаёт. Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ТерДУ, 2005; -168 б.

[96] Турсунов Н.Н. Жанубий Сурхон воҳаси ахолисининг этник хусусиятлари: Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ЎзРФАТИ, 2007, -224 б.

[97] Очилдиев Ф. XIX – XX аср бошларида жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий хаёт (Сурхон воҳаси мисолида): Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: О'зМУ, 2007, -172 б.

[98] Бўриев С.Д. XX асрда Сурхон – Шеробод воҳасининг суғорилиши тарихи: Тарих фан. номзоди ... дисс. – Термиз, 2008, 177 б.

[99] Razzaqov D.X. Buxoro xonligining tashqi savdo aloqalari (XIX asrning 60-90 yillari).Tarix fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 1994 – 190 b.

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar"[100] mavzusidagi fan doktori (DSc) dissertatsiyasi eng fundamental asarlardan sanaladi. Unda aynan janubiy O'zbekistonning (jumladan, Surxon vohasining ) tarixiy-geografik o'rni, ma'muriy boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlarda atroflarida, XIX–XX asr boshlarida iqtisodiy ahvoli, hunarmandchilik turlari, ichki va savdo aloqalari tahlil qilingan .

Sh.H. Dovurovaning "Buxoro amirligi savdo munosabatlari tarixi"[101] nomli Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Bevosita Surxon vohasiga e'tibor qaratgan K.E. Kabilovning "Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rni"[102] nomli falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati vohaning Mang'itlar hukmronligi keyingi savdoda tutgan o'rnini ilmiy asoslangan asoslab berilgan.

Keltirilgan ilmiy asarlar Buxoro amirligining umumiy iqtisodiy tizimi va uning xususiy viloyat – Surxon vohasidagi ta'sirini oshirishda yuqori ilmiy baza bo'lib xizmat qildi . Ularning metodologik tadqiqotlari va ilmiy tadqiqotlari ushbu dissertatsiyaning tadqiqot doirasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi .

Ilmiy tadqiqotlarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarkibidagi Surxon vohasi bekliklarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy hayoti yoritilgan bo'lsa-da, mavzuni chuqurroq o'rganishda Buxoro Qo'shbegi arxividagi hududlararo yozishma hujjatlari hali yetarlicha ishlanmagan. To'rtinchi guruh xorijiy olimlar tomonidan yozilgan asarlar majmuasi. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini bosib olganidan so'ng bu o'lkalarga ko'plab yevropalik tadqiqotchilar kelib, o'z qiziqishlari bo'yicha izlanishlar olib bordilar. A.Berns[103], A.Vamberi[104], Mayev Nikolay Aleksandrovich* 1875-yilda Buxoro

[100] Ochildiyev F.B. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Tarix fanlari doktori (DSc) . – Тошкент, 2022. – 260 b.
[101] Dovurova Sh.H. Buxoro amirligi savdo munosabatlari tarixi. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 54 b.
[102] Kabilov K.E. Mang'itlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining tutgan o'rni. . Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2024. – 54 b.
[103] Борнс А. Путешествие в Бухару. -Т.1–2. –М.,1848 –1849.– 528/628 с.
[104] Вамбери А. История Бухары. Или Трансоксании с древнейших времен до настоящего.– СПб., 1873. – Т. 1–2. – 274/ 228 с.
*Mayev Nikolay Aleksandrovich (1835-1896 yy) – statist, yozuvchi, O'rta Osiyo tadqiqotchisi, 1855 yilda Sank-Peterburgdagi gimnaziyani tamomlagach, 1855-1863 yillarda Qirimdagi harbiy harakatlarda qatnashgan. 1869 yilda Sank – Peterburg universitetining fizika – matematika fakultetini tugatgan. 1869 yilda Turkistonga kelib, gvardiya



amirligiga tashrif buyurib, ilmiy ekspeditsiyaga rahbarlik qildi. Ular O'rta Osiyo, xususan, Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, o'lka tarixi va madaniyati, tabiati, hayvonot dunyosi, geografik o'rni haqida va boshqa ma'lumotlarni o'rgandi va bu ma'lumotlarni 1879-yilda Sankt-Peterburgdagi "Turkiston o'lkasining statistikasi uchun materiallar" nomli yilnomada chop ettirdi[105].

Pokotilo N.N. 1886-yilda Markaziy va Sharqiy Buxoroga qilgan safarida, Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan hududlar harbiy strategik joylashuvi, chegaralari, ma'muriy tuzilishi, daryolari, iqlim sharoiti, aloqa yo'llari, yo'llar yo'nalishi, aholisining etnik tarkibi va aholining e'tiqodlari, ularning turmush tarzi va kasbi-kori, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, ekin maydonlari va bog'lari, sanoati, ichki va tashqi savdo, qo'shini haqida ma'lumot bergan[106].

Shubinskiy P.P. Mang'itlar sulolasining kelib chiqishi va nasl-nasabi, Amir Muzaffar va uning oilasi, Amir davlati, xonlikning oliy ma'muriyati, ruhoniylar va armiya vakillari, amirlikning tashqi aloqalari, umuman mang'itlar sulolasi va amirlar olib borgan boshqaruv tarixi haqida hikoya qiladi[107].

Sharqshunos harbiy muhandis Ananyev Aleksandr Georgiyevich (1877–1935) Surxon vohasining iqlimi, bo'z hosildor, lekin suvsiz jazirama cho'llarini o'rganish bilan birga Pattakesar harbiy istehkomini qanday qilib suv bilan ta'minlash rejasini ham yaratdi. Termiz sug'orish majmui rus aholisi va garnizoni uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligi tufayli 1894-yilda Amudaryo bo'ylab Rossiya davlati tomonidan chegara va bojxona nazorati o'rnatilganligi, Termiz atroflarida katta maydonlarni egallab yotgan o'rmon mavjud (saksovulzor), uni Surxondaryo suvi bilan bemalol sug'orsa bo'lishi kerakligini Sherobod vohasi

qo'shinlari xizmatiga kirgan. "Turkestanskiye vedomosti" gazetasiga asos solgan va uning birinchi redaktori bo'lgan. 1879 yilda chop etilgan "Buxoro xonligi ocherklari" asarida Surxon vohasidagi xalqlarning XIX asrning ikkinchi yarmigacha oid ijtimoiy-iqtisodiy tarixi va turmush tarzi, etnografiyasi, o'sha davrdagi shaharlar, tumanlar va qishloqlar hamda u yerda hayot kechirgan voha xalqlarining tarixi yoritilgan.
[105] Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Санк-Петербург. 1879. –С. 180. Бухоро хонлиги очерклари. Рус тилидан Исмоил Ботиров таржимаси.-Тошкент: Fan va texnologiya, 2012. – Б.2. (Очерки Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.5. – СПб., 1879. – 400 с.)
[106] Покотило Н.Н. « Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г. ». – Ташкент: Окружного штаба, 1888–С.115.
[107] Шубинский П.П. Очерки Бухары. // Исторический вестник. – СПб, 1892. № 6-10. Yana qarang: ( Вамбери А. "Бухоро тарихи", Павловский таржимаси, Санкт-Петербург, 1873, II жилд), –120 б.,

yerlarini Surxon suvi yordamida sug'orish loyihasi asarida ko'rsatib o'tadi[108].

Buxorodagi rus elchixonasining kotibi G.Meyendorf 1820-yilda Buxorodan Eski Termizga sayohat uyushtirib, Afg'oniston bilan chegaradosh Eski Termiz haqida taassurotlarni yozar ekan, bu shahar Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashganligi, u yerda tosh va shag'al tosh, paxsadan qurilgan uylarning xarobalaridan boshqa hech narsa yo'qligi haqida yozadi[109].

Ye.Davidovich, A.Muxtarovlar XVII–XX asr boshlarida Hisor, Hisor qal'asi qo'rg'oni, Muhammad Rahimxonning hokimiyatni egallashi, uning Hisorga harbiy yurishi, XIX asrda Sherobod, Termiz va Boysun janubi-g'arbda Hisorga, janubda esa Qobadiyon, Qo'rg'on-tepa va Xuttalonning bir qismi (Ko'lob)ga tobe bo'lganligi, bek unvoniga ega bo'lgan Hisor hukmdori Said-biy bu ulkan hududni ushlab turish uchun Buxoro bilan ittifoq tuzib, o'zini amir Haydarning vassali (1800-1825) deb rasman tan olganligi haqidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan[110].

Shuningdek, G.Bonvalot, Jorj Fredrik Rayt, J.Kunit[111], Selim Serkan Ukten[112], Djalol Ikrami[113], h. k. tadqiqotchilar asarlari tashkil etadi. Mazkur olimlar ishlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarixi doirasida Sharqiy Buxoro hududlariga kirgan Surxon vohasi bekliklari haqida ham ayrim qaydlar mavjud bo'lib, jumladan, bekliklardagi davlat boshqaruvi masalalariga e'tibor beriladi.

D.I.Logofet Buxoro xonligining bosib olinishi va uning Rossiya protektorati ostidagi keyingi hayotining tarixiy sharhi, chegaralari, iqlimi, aholisi, muloqot usullari, ma'muriy birlik va armiyasi, sanoat va savdo, sud va qonunchiligi haqida ma'lumotlar berib o'tgan[114].

Shuningdek, u 2,5 oy ichida Surxon vohasi bekliklarini o'rganib chiqdi

---

108 Ананьев А.Г. Орошение Шерабадской долины водами Сурхана. – Т. 1911. Шеробод воҳаси ерларини Сурхон суви ёрдамида суғориш лойиҳаси / Тарж.: С.Турсунов. – Т.: "Шарк", 2002. – 32 b.
109 Meyendorf Voyage for Orenburg a Bouckaha fait en 1820.- Paris, 1826. –P.300.
110 Давидович.Е, Мухтаров.А. Страницы истории Гиссара. – Душанбе. Ирфон. 1969.
111 Holdsworth. Turkestan in the nineteenth century. A Briethistory of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. Introduction; Bonvalot G. Through the heart of Asia. Over the Pomir to India. Vol. II. – London, 1889. – 249 p.
112 Selim Serkan Ukten. Buhara hanlig'inin askeri teskilati (1500-1868). Anqara. 2018. –S.56
113 Икрами Дж. Двенадцать ворот Бухары. (Роман. Тожикчалан Васфий тарж.). - Т., Гафур Гулом. 1971. -448 б.
114 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.1-2 – СПб., 1911.; С.340



hamda ular haqida iqtisodiy-siyosiy ma'lumotlar to'pladi[115].

Anke fon Kyugelgen Mang'itlar davri siyosati, dinlari va madaniyati Buxoroning birinchi mang'it hukmdorlari davridagi tarixshunoslik (1747 — 1826), legitimatsiya ya'ni ijtimoiy-siyosiy voqelikning ham umumiy, ham uning alohida ko'rinish va tarkibiy qismlari bo'yicha ahamiyatini ijtimoiy subyektlar tomonidan tan olish jarayoni haqida ma'lumot bergan[116].

Buxoro amirligining sharqiy hududlari, xususan, Surxon vohasi bekliklari tarixiga oid ba'zi ma'lumotlar xorijiy tillardagi adabiyotlarda qisman yoritilgan. Ayniqsa, Angliya hukumatining O'rta Osiyoga nisbatan olib borgan siyosati natijasida ingliz tarixchilari Buxoro amirligi tarixiga taalluqli voqea-hodisalarni ham o'rganganlar. Ingliz tadqiqotchisi Meri Xoldsvort Markaziy Osiyo tarixini o'rganib, XIX asrda ikkita asosiy sabablarga ko'ra Buxoro, Qo'qon va Xorazm tarixini o'rganish zarur deb yozadi.

Meri Xoldsvortning asarida Buxoro amirligining tashqi iqtisodiy ahvoli Buxoro – Afg'oniston, Buxoro – Eron o'rtasidagi elchilik aloqalari, tashqi savdo munosabatlariga doir ma'lumotlar keltirilgan[117].

Surxon vohasi siyosiy tarixini o'rganishda fransuz sayyohi G.Bonvalot Denov begi Abdulkarim dodxohning o'z qo'shini orasida katta obro'ga ega ekanini, Buxoro amirligiga qarshi chiqib, unga soliq to'lashdan bosh tortgani, amir Denov xalqidan dahshatli o'ch olgani haqida ma'lumot beradi[118].

Jorj Frederik Rayt Markaziy Osiyoning moddiy madaniyatiga doir tarixiy manbalar, Buxoro – Rossiya, Buxoro – Afg'oniston, Eron – Hindiston munosabatlari haqida o'rgangan[119].

Xulosada ta'kidlash joizki, Buxoro amirligi Qo'shbegi arxivi nafaqat butun amirlik hududi, balki ayniqsa tadqiqot ob'yekti bo'lgan Surxon vohasi haqida ham boy ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Arxiv materiallari mintaqaning iqtisodiy,

---

115 O'sha asar. –B.3.
116 Анке Фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX веков). –Алматы: Дайк-Пресса, 2001. – С.272.
117 Holdsworth. Turkestan in the nineteenth century. A Briet History ofthe khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959- p.
118 Bonvalot. G. Through the heart of Asia. Over the Pomir to India, Vol. II. – London, 1889. – P. 220.
119 Wright George Fredorick. Asiatic Russia. – New York, 1903. 2 vols.

ijtimoiy va siyosiylik jihatlarini o'rganishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, xorijlik olim, sayyoh va harbiylar tomonidan yozilgan asarlarda Surxon vohasining siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalari tarixiga oid ma'lumotlar olinib, tadqiqotda mavzuni to'laroq yoritishda foydalanilgan. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda vohaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid manbalar qisman ilmiy tahlil etilishiga qaramay, Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi hayotida o'rni, Buxoro "Qo'shbegi" arxiv materiallari asosida o'rganilmagan.

Bugungi kunda ijtimoiy fanlar xususan, tarixiy ilmiy tadqiqotlarning nazariy asosida o'rganish O'zbekiston xalqi tarixining rivojlanishida fundamental nazariy uslubiy yo'nalish bo'lgan "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" konsepsiyasi dissertatsiya uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, tarixiy tadqiqotlarda qabul qilingan tarixiylik tamoyili, qiyosiy-tarixiy tahlil va muammoviy-xronologik, intervyu, shaxsiy kuzatuv hamda og'zaki tarix kabi tadqiqot uslublaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shakllantirishda o'zbek xalqining tarixi borasida samarali tadqiqotlar olib borgan Tadqiqotimizda S.P.Tolstov, N.Mayev, H.Ziyayev va boshqa mahalliy olimlarning nazariy ishlari, shuningdek N.N.Pokotillo, V.A.Tishkov kabi xorijiy mutaxassislarning tarixiy joy nomlari, etnografik xo'jalik shakllari va madaniy o'zlik masalalari bo'yicha metodologik yondashuvlari muhim nazariy poydevor vazifasini o'tadi. Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi hayotida o'rni mavzusining manbashunosligi va tarixshunosligi tahlili quyidagi xulosalarga kelishga imkon berdi:

– tadqiqot ishini yozishda Buxoro amiri va Qo'shbegi arxiv hujjatlari, aynan o'rganilgan davrda yashab, ijod qilgan mahalliy muarrixlar, Rossiyalik olim, sayyoh, harbiylar va o'lkashunoslarning asarlari, statistik to'plamlar, davriy matbuot materiallari, dala-etnografik materiallari muhim manba vazifasini o'tab, ulardagi ko'pgina ma'lumotlar tanqidiy tahlil asosida mavzuni yoritishda foydalanilgan;

– O'rganilayotgan davrda Buxoro amirligi va uning janubi-sharqiy qismi



hisoblangan Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi hayotida o'rnini o'rganishda sovet davrida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar muhim manba hisoblanadi. Sovet mafkurasi asosida yozilgan asarlar bir yoqlama xarakterdagi ya'ni hukmron siyosiy tuzim bosimi ostida yozilganligini inobatga olingan holda tadqiqot jarayoniga jalb qilindi;

– Xorijlik olim, sayyoh va harbiylar tomonidan yozilgan asarlarda Surxon vohasining siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalari tarixiga oid ma'lumotlar olinib, tadqiqotda mavzuni to'laroq yoritishda foydalanilgan;

– Ilmiy adabiyotlarda Surxon vohasining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga oid ayrim manbalar qisman tahlil qilingan bo'lsa-da, Buxoro amirligi tizimidagi bekliklarining o'rni, xususan Buxoro Qo'shbegi arxividagi nodir hujjatlar asosida hali yetarlicha o'rganilmagan.

Ali Baljuvoniy[126] asarlari muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Amirlik tarixchilarining asarlarida oliy hukmdorlarning nasl-nasabi, yaqin qarindoshlari, do‘st va dushmanlari, o‘zaro taxt uchun kurashlari hamda harbiy yurishlari, amir tomonidan mahalliy beklarning tayinlanishi haqida turli xil ma’lumotlarni uchratamiz.

Viloyat hukmdorlari o‘zlarini mustaqil xon yoki bek deb e’lon qilishdi, bunday hududlardan biri Hisor edi, u yerda Yuz qabilasi beklari hukmronlik qilgan. Shu davrda Hisor amalda mustaqil bo‘lib, mahalliy hukmdorlar amalda markaziy hokimiyat nazorati ostida bo‘lsa-da, lekin unga bo‘ysunishni istamas edi. Sharqiy Buxoro yerlarining mustaqil ravishda o‘zini o‘zi boshqarib kelishi Rossiya imperiyasi istilosigacha davom etadi.

Aslida, Rossiya elchilari Surxon vohasi yerlariga 1675-yili kelgan, elchilar Buxoro orqali Pattakesar – Termiz kechuvi orqali Afg‘onistonga o‘tish davrida Sherobod, Termiz, Boysun bekliklari(9-ilovaga qarang), uning hududi, tabiiy imkoniyatlari xususida ko‘plab ma’lumotlar to‘plagan[127]. Bu vaqtda Buxoroda ham siyosiy vaziyat izdan chiqqan edi. Hokimiyatda Muhammad Rahim ibn Muhammad Hakimbiy otaliq ibn Xudoyorbiy otaliq*ning o‘rni sezilib bordi. Muhammad Rahim 1715-yilda tug‘ilgan. Mahalliy muarrixlardan hisoblangan Miriy (Mir Husayin ibn Shohmurod) ning ma’lumotlariga ko‘ra, u Shahrisabzda mo‘g‘ullar quvg‘in qilingan paytda, amakisi Muhammad Doniyolbiy otaliqdan 5 yil keyin dunyoga kelgan. Ba’zi tarixchilar esa u 1709-yil tug‘ilganligini yozadi.

Muhammad Vafo Karminagiy (1685-1769-yy.) (u Qozi Vafo nomi bilan ham mashhur bo‘lgan) o‘zining “Tuhfat ul-xoniy” asarida yozishicha, Muhammad Rahim yoshlik va o‘spirin yillaridan boshlab chavandozlikka qiziqib usta chavandoz bo‘lgan hamda turli qurol-aslahalardan mohirlik bilan foydalangan. U dastlab, otasining ko‘magi bilan Ashtarxoniylardan Abulfayzxon (1711-1747-y.y.)

[126] Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий. Тожик тилидан Ш.Воҳидов, З.Чориев таржимаси. – Тошкент: Академия, 2001. –Б.122.

[127] Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Кн.III. Бухарско-афганская граница.-СПб., 1909. – С.6-7.

* Muhammad Rahimbiy (1709 — 1758.24.03) — mang‘itlar sulolasining asoschisi, Qo‘shbegi, Buxoro xoni (1756—1758). Muhammad Hakimbiyning o‘g‘li. [Elektron resurs] (https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/muhammad-rahim-uz/) [Murojaat qilingan sana 04.04.2021]



saroyida yuqori lavozimlarda xizmat qilgan. Eron hukmdori Nodirshoh*ning Buxoroga hujumidan keyin mamlakatda uning mavqeyi yanada oshgan va Abulfayzxonning qiziga uylangan. Tarixchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, u Nodirshoh hujumidan keyin, Buxoroning obro‘li kishilaridan 12000 nafarga bosh bo‘lib, ularni oq uylik sifatida Eron poytaxti — Mashhadga olib kelgan. Muhammad Rahim otasi vafot etganda Nodirshohning ruxsati bilan qiblagohining dafn marosimlarini o‘tkazish uchun 1743-yili Buxoroga kelib ketadi. 1745-yil kattaqo‘rg‘onlik Ibodullohbiy boshchiligida xitoy-qipchoq qavmlari ko‘targan isyonni bostirish uchun Nodirshohning buyrug‘i bilan Buxoroga qaytadi. Qo‘zg‘olonni bostirganidan so‘ng Qo‘shbegi (2.1- jadvalga qarang) — bosh vazir lavozimini egallaydi. Nodirshoh va Abulfayzxon unga otaliq unvonini berishadi. Aynan shu paytdan boshlab u Buxoro xonligining amaldagi hukmroniga aylangan.

1747-yilda Nodirshohning to‘satdan o‘ldirilishi haqidagi xabar Buxoroga yetib kelgach, Muhammad Rahim qo‘shbegining buyrug‘i bilan Mir Arab madrasasi hujralaridan birida yashiringan Abulfayzxon o‘ldiriladi. Ammo Muhammad Rahim otaliq taxtga o‘zi o‘tirishga hayiqib, taxtga marhum xon Abulfayzxonning 9 yoshli o‘g‘li Abdulmo‘minxonni (hukmronligi: 1747-1751), xon etib tayinlab bolakay “xon” ga o‘z qizini berib, uni o‘ziga kuyov qilib oladi. Shundan so‘ng Ubaydullaxon III ibn Abdulmo‘minxon (hukmronligi: 1751-1754), SHerg‘ozi (hukmronligi: 1754-1756) ni o‘tqazib, bu qo‘g‘irchoq xonlar davrida markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni xohlamayotgan Miyonkol, Nurota, Urgut, Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand, Toshkent, Shahrisabz, Boysun, Hisor, Qubodiyon va boshqa bekliklar ustiga yurish qilib, ularni bo‘ysundiradi[128].

1747-yil Ashtarxoniylar sulolasi faoliyatiga chek qo‘yilib hokimiyat an’anaga ko‘ra Abdulmo‘min va Ubaydullaxon qo‘lida bo‘lsa-da, biroq Buxoro hokimiyatini amalda mang‘itlarning yirik amaldorlaridan Muhammad Rahim otaliq (1747-1758-y.y.) boshqarar edi.

* **Nodirshoh Afshor** (1688.22.10, Де-perёз — 1747.20.6, Xabushon) — Eron shohi (1736—1747 yillar), qizilboshlilarning afshor qavmidan bo‘lgan. Xurosonda harbiy qo‘mondon sifatida o‘z faoliyatini boshlagan. [Elektron resurs] (https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/nodirshoh-uz/) [Murojaat qilingan sana 04.05.2021]

[128] Ражабов Қ. Бухоро мавжлари. 2005. № 3. – Т., -Б.36.

Muhammad Rahimbiy davlatni markazlashtirish maqsadida 1743-1748-yillarda Miyonko'l, Nurota, Hisor, Qubodiyon, Boysun, Shahrisabz, G'uzor va Urgutning o'zboshimcha zodagonlariga qarshi kurash olib bordi[129]. 1753-yil Buxoro xonligida Muhammad Rahimbiy boshchiligida mang'itlar sulolasi hokimiyatni egallaydilar. Ba'zi feodallarning bosh-boshdoqliklariga qarshi kurashish uchun Muhammad Rahimbiy Qo'qon xoni bilan ittifoq tuzdi[130].

1756-yilning 17-dekabrida Muhammad Rahimbiy qadimiy odatga ko'ra kigizga solinib (o'tqazib), uning to'rt tomonini yirik o'zbek urug'larini (*mang'it, saroy, qipchoq, baxrin*) vakillari ko'tarib taxtga o'tqazildi[131].

Muhammad Rahimxonning taxtga o'tirishi o'sha davr mahalliy muarrixlar tomonidan muhim siyosiy voqea sifatida baholangan. Urgutlik so'fiy va tarixchi Humuliy (1776-yil tug'ilgan) "Tarixi Humuliy" asarida, Muhammad Rahimxon Buxoroda xonlik taxtiga o'tirganidan so'ng, Samarqandga kelib, mashhur Ko'ktosh taxtiga ham o'tirgan[132].

XVIII – XIX asrlarda Buxoro amirligi o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan o'ziga xos mavqega ega bo'lgan.

Buxoro amirligining poytaxti sharqda eng mashhur shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoro shahri edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlikning yirik shaharlari va aholi manzillari hisoblangan.

Amirlikdagi ayrim hududlar markazga bo'ysunmas, mustaqil siyosat olib borishga intilar edi. Ular qatoriga Hisor, Shahrisabz, O'ratepa, Xo'jand, Panjikent, Qorategin, Darvoz, Rushon, Shug'non va boshqa hududlar kirgan[133].

Ushbu hududlardan biri Hisor o'lkasi edi. Muhammad Rahimbiy Buxoro amiri deb e'lon qilinganidan so'ng ham Hisor o'lkasi uning hokimiyatini tan olmadi. Natijada Muhammad Rahimbiy 1757-1758 yillari bo'ysunishni istamagan

[129] ميرزا عبدا العظمى سامى تاريخ سلاطين منغيتى. ١٩٦٢ / ٣٧- ورق (Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа. 1962. – С.47)
[130] Давидович Е, Мухтаров А. Страницы истории Гиссара. "Ирфон". Душанбе-1969. - С-32-34.
[131] Қабулов Э.А. XVIII асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. –Тошкент: 2019. –Б.49.
[132] Ражабов Қ. Бухоро мавжлари. 2005. № 3. 37
[133] Шукуруллаев Й.А. Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иши (1756-1920). ).: Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2006. – Б.20.



Hisor, Denov, Dushanbe, Boysun va Termizga qarshi navbatdagi harbiy yurishlarni uyushtirdi[134]. Shuningdek, boshqa asarda yuqoridagi holatni to'ldirib, Muhammad Rahimbiy 40 (qirq minglik) qo'shin bilan 1757-yili Denovga yurish qiladi. Bunga Denovdagi isyon sabab bo'lganligi haqidagi ma'lumot keltiriladi[135].

Bo'ysunishni istamagan hududlarga yurishlar qilib, ushbu hududlarni amirlikka bo'ysundirgan va qattiqqo'llik siyosatini yuritgan.

XVIII asrning boshlarida Buxoro amirligi siyosiy hayotida yana bir beklik Sherobod bekligi ham muhim o'ringa ega bo'lgan. Bu yerda yirik qo'ng'irot urug'ining vakili bo'lgan Sheralixon mustahkam harbiy siyosiy uyushmani vujudga keltirib, o'zaro urush-janjallarga chek qo'ydi. U Sherobod qal'a-qo'rg'onini tiklab, ma'muriy boshqaruvni o'z qo'liga oldi. U hokimiyatni mustahkamlash uchun Termizdan nufuzli sayyidlarni Sherobodga ko'chirib keltirib, ularga katta imtiyozlar berdi[136].

XVIII asrning o'rtalarida Sherobod, Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan. Muhammad Rahimbiy 1757-yilda Sherobod bekligiga asos solib, ma'muriy-siyosiy boshqaruvga o'ziga sodiq odamlarni tayinladi. Shu tufayli XIX asr boshidan Sherobod Buxoroning eng yirik iqtisodiy va madaniy markaziga aylandi[137].

Qo'ng'irot urug'idan chiqqan Sheralixon o'z ittifoqchilariga tayanib, Ashtarxoniy Ubaydulloxonga bo'ysunishdan voz kechadi. Uning maqsadi shayboniylar va ashtarxoniylar o'rtasidagi o'zaro kurashlar oqibatida tanazzulga yuz tutgan Termizni tiklash edi. Biroq, bu harakatlar muvaffaqiyatsiz yakunlangach, Sheralixon o'z mulki doirasida qal'a qurdirib, unga Sherobod nomini beradi. Ayni paytda, Ubaydulloxon Muhammad Rahimbiy maslahatiga ko'ra Termiz hokimligiga Nayman urug'idan bo'lgan Ne'matullo To'qsaboni tayinlaydi. Ne'matulloning kelishini kutmay, Sheralixon Sherobod qal'asiga chekinadi.

Bu vaziyatda qo'ng'irot urug'i o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keladi va

[134] История Узбекистана. Т. III. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 151.
[135] Хушбоқ Раҳим. Деновнома. – Термиз: Сурхон нашр МЧЖ. 2019. — Б. 104
[136] Турсунов С.Н. Шерободликлар. –Тошкент: А.Навоий номидаги ЎзМ кутубхонаси, 2007. –Б.56.
[137] Ўша асар. – Б.57.

ular ikki guruhga bo'linadi. Bir guruh Sheralixonni qo'llab-quvvatlab Sherobodga ko'chib o'tadi, ikkinchi guruh esa Termizda qoladi. Termiz o'z tarixining eng og'ir davrlarini boshdan kechirayotgan bir paytda, vohada yangi siyosiy markaz, ya'ni Sherobod bekligi shakllana boshlaydi. 1757-yilda Muhammad Rahimxon buyrug'i bilan tashkil etilgan bu beklikka Jarqo'rg'on hududi ham amlokdorlik sifatida birlashtiriladi.

XVIII asrning birinchi yarmidan boshlab Surxon vohasidagi siyosiy hayot Mang'itlar sulolasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Tarixchi Muhammad Vafoning yozishicha, Mang'itlar sulolasi asoschisi Muhammad Rahimxon vohaga uch marta yurish qilgan. Birinchi yurish Pashxurd qishlog'i atrofida bo'lib o'tgan bo'lsa, ikkinchi yurishda u Sherobod qal'asini egallab, katta miqdordagi boyliklarni Buxoroga olib ketadi[138].

Mang'itlar sulolasi hukmronligi yillarida Surxon vohasi to'liq Buxoro amirligi tarkibiga kirdi. Ma'lumki, Buxoro amirligi tarkibiga Sharqiy Buxoro va g'arbiy Pomir tumanlari kirib, qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar mamlakat edi. Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lgan ulkan hududga ega amirlikning ishlovga yaroqli yerlari kam edi. Bekliklardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat turlicha edi.

Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685-1769-y.y.) qalamiga mansub Tuhfat ul-xoniy (Xonning tuhfasi) asarining

بیان تعریف بویسون و تعابیر دیگر از فضلی حضرت و هیبو لاتیو

Voxib ulatoyo samxmi (yordami) bilan Boysun va boshqa joylarni bosib olinishi (istilo qilinishi) bobi (qismi) da

آوارگان عادی از قلعه شیرآباد به سرزمین بویسون رسیدند و بدون افزودن چیزی به داستان فتح شیرآباد و سیاست صدها به مردم ساکن در قلعه بویسون گفتند.

Oddiy qochqinlar Sherobod qal'asidan Boysun diyoriga yetib keldilar va Sherobod bosib olinishi voqeasini hamda yuzlar jamoasi siyosatini biror narsa qo'shmasdan nuqsonsiz boricha Boysun qal'asida yashovchi aholiga so'zlab berdilar, bundan xalq ko'ngliga vahima tushdi.

[138] Турсунов С, Тўхтаев А. (марҳум) Жаркўрғон. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.29.



سربازان (ارتش) محمد امینبی که از حصار به کمک بویسون امده بودند، هراسان سعی در فرار از بویسون داشتند.

Hisordan Boysun qal'asiga yordamga kelgan Muhammad Aminbiy askarlari (qo'shini) vahimaga tushdilar va Boysundan qochmoqchi bo'ldilar[139].

قبل از اینکه سربازان پادشاه به بویسون برسند، آنها (مردم حصار) از رئیس خود به دره حصار گریختند و آنچه را که برای محمد امینبی رخ داده بود گزارش کردند.

Podsho askarlari Boysunga yetib kelmasdan oldin ular (Hisorliklar) o'zlarining sardorlarini Hisor vodiysiga qochirdilar va bo'lgan voqeani Muhammad Aminbiyga yetkazdilar.

بدلبی والی بویسون با دیدن این وضعیت حصاریان قوم خود را جمع کرد و توضیح داد که از فرمانروای بزرگ اطاعت خواهند کرد و بدین وسیله به مردم خود نشان داد که او در کنار حاکم بزرگ است.

Boysun hokimi Badalbiy qo'ng'irot Hisorliklarning bu holatini ko'rib, o'zining bu aholisini bir joyga jamlab ulug' hukmdorga itoat qilishlarini tushuntirib, shu bilan u xalqini ulug' hukmdor tomonida ekanligini bildiradi[140]. ,

پادشاه آن را می پذیرد و فرماندار بویسون قوم خود را از اسارت (مرگ) نجات می دهد.

Podshoh buni qabul qiladi, Boysun hokimi shu bilan o'zining xalqini asirlik (o'lim) dan qutqarib qoladi.

هنگامی که محمد امینبی از آمدن لشکر شاه به حصار مطلع شد، مقر فرماندهی خود را به «حصاری بولو» (حصار علیا) منتقل کرد.

**Izoh:** Ushbu ma'lumotda Muhammad Rahimbiyning Sharqiy Buxoroga harbiy yurishi haqida ya'ni, 1757-yildan 1758-yilgacha bo'lgan voqealar bayon qilinmoqda.

Podshoh qo'shinini Hisorga yetib kelayotganligini bilgan Muhammad Aminbiy qarorgohini "Hisori bolo" (yuqori Hisor) ga ko'chiradi.

اما مردم با علم به اینکه عاقبتش بد خواهد بود، ترجیح می دهند از حاکم بزرگ اطاعت کنند

Lekin, aholi oxiri yomon bo'lishini bilib, ulug' hukmdorga itoat qilishni ma'qul ko'rishadi.

[139] محمد وفوی کرمینگی. تحفة الخانی (هدیه خان). №۱۴۲۶. ب.ب. ۲۵۶ (Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Xonning tuhfasi") №1426. – V.256.
[140] O'sha asar, — V. 257.

جوانان توانمند به ارتش حاکم می پیوندند و خدمت می کنند.

Qo‘lidan ish keladigan yigitlar hukmdor qo‘shiniga qo‘shilib xizmat qilishadi.

نایمان ها و دورمان های قبادیان با هدایایی نزد شاه آمدند و از محمد امینبی ابراز ناراحتی کردند که از او اطاعت کردند اما مورد ظلم او قرار گرفتند.

Qubodiyondan naymanlar va do‘rmonlar sovg‘a-salomlar bilan podsho huzuriga keladilar va unga itoat qilishlari lekin (shuningdek). Muhammad Aminbiydan zulm ko‘rayotganliklarini undan norozi ekanliklarini ma’lum qilishadilar.

پادشاه انها را می پذیرد و زمین های متعلق به منطقه کونگیرات به سرزمین های حاکم بزرگ اضافه می شود.

Podshoh ularni qabul qiladi va Qo‘ng‘irot viloyatiga tegishli yerlar ulug‘ hukmdor yerlariga qo‘shib olinadi[141].

شاه ماه رمضان را در شهرسبز می گذراند و قصد فتح حصار را دارد

Podshoh Ramazon oyini Shahrisabzda o‘tkazadi va Hisorni bosib olish rejasini tuzadi.

امام قلیبی را به فرمانداری بایسون منصوب می کند و ۱۵۰۰ سرباز مسلح به او می دهد تا از بایسون محافظت کنند.

Boysun hokimligiga Imomqulibiyni tayinlab, unga Boysunni qo‘riqlash uchun 1500 (bir yarim ming) nafar qurollangan askarlarni beradi.

ارتش کرشی و گوزور توسط شهریور توکسوبا و میرزوبوی توکسوبا رهبری می شوند.

Qarshi va G‘uzor qo‘shinlarini Shahriyor to‘qsoba va Mirzoboy to‘qsoba boshqaradi.

او حکم می کند که باید از فرمان عطامقلبی اطاعت کنند.

Ularning Atamqulibiy farmoniga bo‘ysunish kerakligini tayinlaydi.

اگر عطامقلیبی زنگ می زد باید سریع به بویسون می رسیدند

Atamqulibiy chaqirsa ular tezda Boysunga yetib kelishlari kerak edi.

پس از آن شاه محل اقامت خود را تغییر داد و از طریق قنش و جیکدالیک به کش رفت.

Undan so‘ng podshoh qarorgohini o‘zgartirib, Qo‘nsh va Jikdallik orqali



Keshga boradi[142].

Tuhfat ul-Xoniy (Xonning tuhfasi) asarining

شرح فتح منطقه حصار با فرمان

Hisor viloyatini amir farmoni bilan bosib olinishi bayoni bobi qismida esa,

امیر پس از پیروزی در بویسون به طاق آقسرای شهرسبز امد و در ماه رمضان با شادی به تلاوت قران و خواندن دعای تراویح پرداخت.

Boysundagi g‘alabasidan so‘ng amir Shahrisabzdagi Oqsaroy arkiga kelib, xursandchilik ila Ramazon oyida xatmi Qur’on qildirib, taroveh namozlarini o‘qib ibodat qilgan.

بنا بر اخبار دریافتی از بویسون توسط امام قلیبی، قلعه دهنوف متعلق به حصار بیکتی محل سکونت محمد امینبی است و محمد امینبی به جای لشکر کشی به سوی سپاهیان امیر، آن مکان را بدون مراقبت ترک کرده و به سوی قبادیان حرکت می کند.

Imomqulibiy tomonidan Boysundan kelgan xabarga ko‘ra, Hisor bekligiga qarashli Dehnov qo‘rg‘oni Muhammad Aminbiyning qarorgohi bo‘lib, Muhammad Aminbiy amir qo‘shinlari tomon yurish qilmasdan, u yerni qarovsiz qoldirib, Qubodiyonga yurish qiladi.

به فرمان امیر، دانیولبی، توگای مرادبی و جماقولتوکسبا با ۶۰۰۰ (شش هزار) سوار به بویسون رسیدند، امامقلیبی و سپاهش را در بویسون گرفتند و به دهنوف از توابع حصار لشکر کشید.

Amirning farmoni bilan Doniyolbiy, Tog‘aymurodbiy va Jumaqulto‘qsoba 6000 (olti ming) nafar otliq qo‘shin bilan Boysunga yetib kelib, Boysunda Imomqulibiy va uning qo‘shinini o‘zlariga qo‘shib olib, Hisor bekligiga qarashli Dehnovga yurish qiladi[143].

**Izoh:** Amir lashkarlari Dehnov atrofidagi qishloq va ovullardan yig‘gan o‘ljalarni amir xazinasiga topshirdilar. Bundan xabar topgan Muhammad Aminbiy Qubodiyon qamalini tashlab, qo‘shini bilan Hisor tomonga yo‘l oldi. Hisor bekligidagi vayronagarchiliklarni ko‘rib Muhammadaminbiy qayg‘uga botgandi.

Amir esa Keshda ramazon oyini xursandchilik bilan o‘tkazib, shavvol oyining juma kuni ramazon hayiti namozini xalq va g‘olib bo‘lib qaytgan askarlar

[142] O‘sha asar, – V. 258.
[143] محمد وفوی کرمیناگی. تحفة الخانی (هنیه خان). ب.ب-۲۵۶. №۱۴۲۶ (Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Xonning tuhfasi") №1426. – V. 259.

bilan nishonladi. Mehtar Qutlug'boy (Qilqboy) amirning ishongan kishilaridan edi. U qo'lga kiritilgan o'ljalarni Sangfurush qo'rg'onidan Shahrisabz tanobigacha bo'lgan joyda yig'ib olardi. Shavvol oyining oltinchisi chorshanba kuni amir sharafiga mehtar Qutlug'boy to'y (bazm) tashkil qilib, amirni Sangfurush qo'rg'oniga taklif qiladi. Butun noz-ne'matlar bilan bazm uyushtirib, bir hafta amirni mehmon qilganliklari haqida ma'lumot keltiriladi.

1758-yili esa, Hisor hukmdori Muhammad Amin boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Uni bostirish uchun Muhammad Rahimbiy Hisorga katta qo'shin tortib, Muhammad Aminni qatl qilib, o'rniga yangi hukmdor tayinladi. Xuddi shu yili o'zi ham vafot etdi[144]. Muhammad Rahimbiy o'limi haqidagi xabar markaziy hokimiyatga qarshi kuchlarning qo'zg'olon ko'tarishiga bahona bo'ldi. Mahalliy hukmdorlar o'rtasida o'zaro nizolar kuchayib ketdi. G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov va Hisor kabi shaharlar qo'zg'alonlarning markazlariga aylandi.

Hisor bundan foydalanib o'zini mustaqil bekmiz deb e'lon qildi. Bu beklik siyosiy jihatdan mustaqil harakatlarni amalga oshira boshladi. Ushbu harakatlar quyidagi misollarda keltirilgan. Hisorning O'ratepaliklarga yordami, ikkita yirik xonlik – Buxoro va Qo'qonning ustun kuchlariga qarshi mustaqillikni tiklash va boshqalar bilan jasoratli kurashi Hisorning XVIII asr o'rtalarida bo'lganligidan dalolat beradi. U nafaqat o'zini himoya qilish va mustaqilligini saqlab qolish, balki dushmanlariga qarshi hujum qilish va hatto ularga sezgir zarbalar berishga qodir bo'lgan Markaziy Osiyoning eng kuchli mulklaridan biri edi[145].

Shuningdek, Mirza Salimbekning yozishicha, Buxoro amiri Shohmurod (1785-1800) hukmronligi dastlabki yillarida, Haydar to'ra (mang'it hukmdori Shohmurodning o'g'li) hali Qarshida hokimlik qilib turgan vaqtda (1785-yil) Ko'lob hokimi Ollohberdibiyning Dehnovga (hozirgi Surxondaryo viloyatidagi Denov tumani) hujumi kuzatildi. Haydar to'ra Qarshidagi qo'shini bilan bu hujumni bartaraf etdi va uning boshlig'ini asir olib Buxoroga otasi – amir huzuriga

[144] Қабулов Э.А. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси. –Тошкент, 2018. –Б.50.
[145] Давидович Е, Мухтаров А. Страницы истории Гиссара. "Ирфон". Душанбе-1969. –С.35.



jo'natdi[146].

Amir Haydar (1800-1826) hukmronligi davrida qo'zg'olonlar va notinch markazlarning aksariyati barham topdi ammo shunday bo'lsa-da, u to'ng'ich o'g'li amir Nasrullohga xitoy-qipchoqlarni yo'q qilishni buyurdi va u Samarqandga borib, u yerda bo'ldi, keyin O'ratepani egallab oldi. U yerdan Hisoru-Shodmonga yurish qildi. Mahalliy hokim Ollohberdibiy jang maydonida halok bo'ldi. Ushbu voqeadan so'ng, Amir Haydar barcha tog'li hududlarni o'z mulkiga kiritdi[147]. U yigirma olti yillik hukmronlikdan keyin kasal bo'lib, o'g'illarining eng kattasi bo'lgan amir Mir Husayn (1797-1826) ni me'rosxo'r etib tayinladi.

Shuningdek, XIX asrda Sherobod, Termiz va Boysun janubi-g'arbda Hisorga, janubda esa Qubodiyon, Qo'rg'ontepa va Xuttalonning bir qismi (Ko'lob) ga tobe edi. Bek unvoniga ega bo'lgan Hisor hukmdori Said-biy bu ulkan hududni ushlab turish uchun Buxoro bilan ittifoq tuzib, o'zini amir Haydarning vassali (1800-1825) deb rasman tan oldi[148].

1826-1827 yillar Umar (Amir Haydarning ikkinchi o'g'li) (1826-yil dekabrdan 1827-yilgacha (taxminan to'rt oy)) taxtni boshqaradi.

1827-yil Buxoro taxtiga Amir Nasrullohxon* (1827-1860) o'tirdi. Amir Nasrullohxon davrida amirlikda 30 ta beklik bo'lgan. U Amudaryoning chap qirg'og'ini o'z qo'lida saqlash uchun harbiy harakatlar olib bordi va Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod va Denov bekliklarining strategik o'rniga alohida e'tibor bergan edi.

Amir Nasrullohxon davrida Buxoro amirligida 30 ta beklik mavjud bo'lib, Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod hamda Denov bekliklarining strategik o'rniga alohida e'tibor qaratildi va Amudaryoning chap qirg'og'ini o'z qo'lida

[146] Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми).: Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2008. – Б 41.
[147] میرزا عبدالعظیم سامی تاریخ سلاطین منغیتیه ۱۹۶۲ [Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатини мангитийа]. – Москва, 1962. – С.53-54.
[148] Давидович.Е, Мухтаров.А. Страницы истории Гиссара. – Душанбе, Ирфон. 1969. -С.36.
* Buxoro amiri Amir Nasrulloxon otasi Amir Haydar hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. 1826 yili Amir Haydar vafot etgach bir necha oy mobaynida Nasrulloning ikki akasi – Husayn va Umar almashinildi. Birinchisi zaharlandi, ikkinchisi esa o'ldirildi [Elektron resurs] (https://tarjumon.uz/buxoro-amiri-amir-nasrulloxon-u-kim-bolgan/) [Murojaat qilingan sana 05.06.2021]

bilan nishonladi. Mehtar Qutlug'boy (Qilqboy) amirning ishongan kishilaridan edi. U qo'lga kiritilgan o'ljalarni Sangfurush qo'rg'onidan Shahrisabz tanobigacha bo'lgan joyda yig'ib olardi. Shavvol oyining oltinchisi chorshanba kuni amir sharafiga mehtar Qutlug'boy to'y (bazm) tashkil qilib, amirni Sangfurush qo'rg'oniga taklif qiladi. Butun noz-ne'matlar bilan bazm uyushtirib, bir hafta amirni mehmon qilganliklari haqida ma'lumot keltiriladi.

1758-yili esa, Hisor hukmdori Muhammad Amin boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi. Uni bostirish uchun Muhammad Rahimbiy Hisorga katta qo'shin tortib, Muhammad Aminni qatl qilib, o'rniga yangi hukmdor tayinladi. Xuddi shu yili o'zi ham vafot etdi[144]. Muhammad Rahimbiy o'limi haqidagi xabar markaziy hokimiyatga qarshi kuchlarning qo'zg'olon ko'tarishiga bahona bo'ldi. Mahalliy hukmdorlar o'rtasida o'zaro nizolar kuchayib ketdi. G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov va Hisor kabi shaharlar qo'zg'alonlarning markazlariga aylandi.

Hisor bundan foydalanib o'zini mustaqil bekmiz deb e'lon qildi. Bu beklik siyosiy jihatdan mustaqil harakatlarni amalga oshira boshladi. Ushbu harakatlar quyidagi misollarda keltirilgan. Hisorning O'ratepaliklarga yordami, ikkita yirik xonlik – Buxoro va Qo'qonning ustun kuchlariga qarshi mustaqillikni tiklash va boshqalar bilan jasoratli kurashi Hisorning XVIII asr o'rtalarida bo'lganligidan dalolat beradi. U nafaqat o'zini himoya qilish va mustaqilligini saqlab qolish, balki dushmanlariga qarshi hujum qilish va hatto ularga sezgir zarbalar berishga qodir bo'lgan Markaziy Osiyoning eng kuchli mulklaridan biri edi[145].

Shuningdek, Mirza Salimbekning yozishicha, Buxoro amiri Shohmurod (1785-1800) hukmronligi dastlabki yillarida, Haydar to'ra (mang'it hukmdori Shohmurodning o'g'li) hali Qarshida hokimlik qilib turgan vaqtda (1785-yil) Ko'lob hokimi Ollohberdibiyning Dehnovga (hozirgi Surxondaryo viloyatidagi Denov tumani) hujumi kuzatildi. Haydar to'ra Qarshidagi qo'shini bilan bu hujumni bartaraf etdi va uning boshlig'ini asir olib Buxoroga otasi – amir huzuriga

[144] Қабулов Э.А. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси. –Тошкент, 2018. –Б.50.
[145] Давидович Е, Мухтаров А. Страницы истории Гиссара. "Ирфон". Душанбе-1969. –С.35.



jo'natdi[146].

Amir Haydar (1800-1826) hukmronligi davrida qo'zg'olonlar va notinch markazlarning aksariyati barham topdi ammo shunday bo'lsa-da, u to'ng'ich o'g'li amir Nasrullohga xitoy-qipchoqlarni yo'q qilishni buyurdi va u Samarqandga borib, u yerda bo'ldi, keyin O'ratepani egallab oldi. U yerdan Hisoru-Shodmonga yurish qildi. Mahalliy hokim Ollohberdibiy jang maydonida halok bo'ldi. Ushbu voqeadan so'ng, Amir Haydar barcha tog'li hududlarni o'z mulkiga kiritdi[147]. U yigirma olti yillik hukmronlikdan keyin kasal bo'lib, o'g'illarining eng kattasi bo'lgan amir Mir Husayn (1797-1826) ni me'rosxo'r etib tayinladi.

Shuningdek, XIX asrda Sherobod, Termiz va Boysun janubi-g'arbda Hisorga, janubda esa Qubodiyon, Qo'rg'ontepa va Xuttalonning bir qismi (Ko'lob) ga tobe edi. Bek unvoniga ega bo'lgan Hisor hukmdori Said-biy bu ulkan hududni ushlab turish uchun Buxoro bilan ittifoq tuzib, o'zini amir Haydarning vassali (1800-1825) deb rasman tan oldi[148].

1826-1827 yillar Umar (Amir Haydarning ikkinchi o'g'li) (1826-yil dekabrdan 1827-yilgacha (taxminan to'rt oy)) taxtni boshqaradi.

1827-yil Buxoro taxtiga Amir Nasrullohxon* (1827-1860) o'tirdi. Amir Nasrullohxon davrida amirlikda 30 ta beklik bo'lgan. U Amudaryoning chap qirg'og'ini o'z qo'lida saqlash uchun harbiy harakatlar olib bordi va Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod va Denov bekliklarining strategik o'rniga alohida e'tibor bergan edi.

Amir Nasrullohxon davrida Buxoro amirligida 30 ta beklik mavjud bo'lib, Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod hamda Denov bekliklarining strategik o'rniga alohida e'tibor qaratildi va Amudaryoning chap qirg'og'ini o'z qo'lida

[146] Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми).: Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2008. – Б 41.
[147] میرزا عبدا العظمی سامی تاریخ سلاطین منغیتی ۱۹۶۲ [Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатини мангитийа]. – Москва, 1962. – С.53-54.
[148] Давидович.Е, Мухтаров.А. Страницы истории Гиссара. – Душанбе, Ирфон. 1969. -С.36.
* Buxoro amiri Amir Nasrulloxon otasi Amir Haydar hukmronligi davrida Qarshida hokimlik qilgan. 1826 yili Amir Haydar vafot etgach bir necha oy mobaynida Nasrulloning ikki akasi – Husayn va Umar almashinildi. Birinchisi zaharlandi, ikkinchisi esa o'ldirildi [Elektron resurs] (https://tarjumon.uz/buxoro-amiri-amir-nasrulloxon-u-kim-bolgan/) [Murojaat qilingan sana 05.06.2021]

saqlash uchun harbiy harakatlar olib bordi[149].

1860-yil amir Nasrullohxon vafot etdi. Amir Sayyid Nasrulloh Bahodirxonning Amir Muzaffardan boshqa o'g'il farzandi bo'lmagan. Mamlakat amirlari, ruhoniylari va zodagonlari amir Muzaffar (1860-1885) ni o'z ixtiyori bilan Karmanadan olib kelib, otasi o'rniga hukumat taxtiga o'tqazdilar va unga xizmat kamarini bog'ladilar. Amir Muzaffar saltanatni adolatli tarzda boshqara boshladi. U amirlar, sipohlar va davlatning boshqa aholisiga turli in'omlar tortiq qilib, rahm-shafqat bilan munosabatda bo'lgan. Mamlakatdagi barcha tabaqalar undan minnatdor bo'lgan[150].

Oradan bir necha yil o'tgach, xazina tilla bilan to'ldirildi va butun Hisoru-Shodmon* hududi Darvoz*, Ko'lob* va Baljuvon*gacha bo'lgan hudud uning mulkiga kiritildi. Aynan, Muzaffar davrida Sharqiy Buxoro, xususan Surxon vohasi yerlariga qiziqish kuchaydi. Bu davrda vohada Boysun, Sherobod va Denov bekliklari mavjud edi.

Rossiya imperiyasining harbiy geografi N.A.Maev (1835-1896) o'z asarlarida Sherobod bekligi hududida yashovchi qo'ng'irotlar haqida yozgan. Uning qayd etishicha, 1868-yilga kelib Amudaryoning tekis qirg'oq hududlarida qo'ng'irot qabilasining vakillari istiqomat qilgan. Amirlik tarkibidan chiqib, mustaqil hukmronlik qilishga intilgan qo'ng'irotlar, amirning isyonkor o'g'li Kattato'ra siyosatiga bo'ysunmagan. Shundan so'ng Kattato'ra askarlari bilan qo'ng'irotlarning qishloqlariga o't qo'yib vayron qilib tashlaydi. Ushbu voqeadan

149 ازم ا.ا-۱۲۶-سرمایه, ۱-لیست, ۱۰۰۱-کار, ۲۷-ورق. ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 1001 -ish, -B.27.)

150 میرزا عبدا العظمی سامی تاریخ سلاطین منغیتی. ۱۹۶۲, ۵۶-ورق [Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа]. – Москва, 1962. – С.56.

* Hisor bekligi yoki Hisor viloyati — Buxoro amirligi tarkibidagi ma'muriy birlik, hozirgi Tojikiston hududida. Ma'muriy markazi Hisor shahri edi. Hisori-Shodmon Hisor bekligining asosiy shahri. Amudaryoga quyiladigan Kofirnigon daryosi vodiysining yuqori qismida joylashgan. Bu shahar unga "quvonchli" sifati berilganiga qaramay, zararli iqlimi bilan ajralib turgan. Ye. Reklu ma'lumotlariga ko'ra 1892 yilda aholi soni 10000 kishi, 1913-yilda esa aholi soni 3000 kishi bo'lgan. (میرزا عبدا العظمی سامی تاریخ سلاطین منغیتی. ۱۹۶۲ [Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа] (история мангытских государей). /Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л. М. Епифановой. – Москва: Восточная литература, 1962. – С. 134)

* Darvaz bekligi yoki Darvaz viloyati Buxoro amirligining Sharqiy Buxoro tarkibidagi ma'muriy birlik, hozirgi Tojikiston va Afg'oniston hududida. Ma'muriy markazi Kulay-Xumb bo'lgan.

* Ko'lob bekligi yoki Ko'lob viloyati — Buxoro xonligi tarkibidagi ma'muriy birlik, hozirgi Tojikiston hududida. Ma'muriy markazi Ko'lob bo'lgan.

* Baljuvon bekligi yoki Baljuvon viloyati — Buxoro xonligi tarkibidagi ma'muriy birlik, hozirgi Tojikiston hududida. Ma'muriy markazi Baljuvon shahri edi. Sharqiy Buxoro Buxoro amirligiga qo'shib olinganidan so'ng Baldjuan bekligiga aylangan va ko'p o'tmay bu yerda "Buxoro tartibi" joriy qilingan. Amir tomonidan tayinlangan hokimlar butun ma'muriy hokimiyatni o'z qo'llarida to'plashgan.



so'ng qo'ng'irotlar tog'ma-tog' ko'chib yurganligini va Amudaryo bo'ylariga esa asta-sekinlik bilan turli urug'larga mansub kambag'al turkmanlar kelib joylasha boshlaganliklari haqidagi ma'lumotni yozib qoldirgan[151].

Hisorni Salim dasturxonchi bek sifatida qisqa vaqt boshqarib, undan so'ng Hisor begi etib amirning o'g'li Said Abdul Mo'minxon (1871-1886) tayinlandi, Hisor va Qoratog' qishloqlari boshqaruv hududi qilib belgilandi. Amir Muzaffar Hisor muhim strategik hudud bo'lganligi uchun uning ichki boshqaruvini to'liq nazorat qildi[152].

Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo qa'riga yurishi yillarida Buxoro amirlarining Hisorni egallash uchun kurashi avj oldi. Buxoro amiri Muzaffar shimoldagi yirik shaharlar (Xo'jand va O'ratepa) larning yo'qotilishining o'rnini Hisor hisobidan to'lamoqchi edi. 1866-yil Sharqiy Buxoroga qarshi yurish muvaffaqiyat bilan yakunlandi. Hisor qo'shinlari Denovda mag'lubiyatga uchradi. Hisorda Abdulkarimbek Ko'lobdagi ittifoqchisi tomonga qochib ketdi. So'ngra Abdulkarimbek qo'lga olinib, 20 nafar tarafdorlari bilan birga qatl etildi. Hisor Buxoro hokimiyati tarkibiga o'tdi. Ammo bu beklikning oxirgi bo'ysunishi emas edi[153].

Mazkur davrda Buxoro amirligini amir Muzaffarxon ibn Nasrulloxon (1860-1885 yillar), amir Abdulahadxon ibn Muzaffarxon (1885-1910 y.y) va amir Olimxon ibn Abdulahadxon (1910-1920 yillar) boshqargan. Amirlik Hisor, Denov, Ko'lob, Baljuvon, Darvoz, Qorategin, Boysun, Sherobod, Kerki, Kelif, G'uzor, Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Yakkabog', Narazum, Chorjo'y, Qovoqli, Qorako'l, Xatirchi, Ziyovuddin, Karmana, Nurota, Qorabog', Qubodiyon viloyatlariga bo'linib, beklar tomonidan boshqarilgan[154].

Shuningdek, mazkur davrda siyosiy hokimiyatda ham turli xil voqealar yuz berib turgan. Masalan o'sha davr arxiv hujjatlarida quyidagi ma'lumotlar uchraydi. Buxoro amaldorlarining amir Abdulahadga Andijon qo'zg'oloni yetakchisi

151 Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Санк-Петербург, 1879. С. 180. Buxoro xonligi ocherklari. Rus tilidan Ismoil Botirov tarjimasi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B.82.

152 ازم ا.ا-۱۲۶-سرمایه, ۱-لیست, ۶۲-کار, ۱-ورق. ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 62 -ish, –V.1.)

153 Давидович.Е, Мухтаров.А. Страницы истории Гиссара. – Душанбе. Ирфон. 1969. - С.36.

154 ازم ا.ا-۱۲۶-سرمایه, ۱-لیست, ۷۴-کار, ۱-ورق. ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 74 -ish, –V.1.)

Darvishxon zindonidan qochish to‘g‘risida, “qidiruvning paydo bo‘lishi, Andijon fuqarosining Sharqiy Buxoroda u yerda qo‘zg‘olon uyushtirish maqsadida kelishi to‘g‘risida”.

Ey bandalarini suyguvchi zot. Qurboning bo‘lay, Charikuf pochta orqali g‘ulomiga xat berib yuborgan edi. Bu xat janobi oliylariga manzur bo‘ldi. Hazratim siz yanayam yaxshiroq bilasiz. Xatning mazmuni shundan iboratki, Andijon fuqarosi Darvishxon to‘ra eshon o‘g‘li o‘tgan fevral oyida Jizzax zindonidan qochib, Buxoro amirligining Qorategin shahriga kelgan. Darvishxon yaqinda Kobuldan kelgan Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurinboy Umarqulining o‘g‘lini o‘zi bilan birga olib kelgan. Bularning maqsadi, Buxoro davlatini mensimaslik bo‘lgan. Gubernatorning noibi bergan topshirig‘iga asosan sizni ogohlantiramanki, Darvishxonni qo‘lga tushurib, bog‘lab, baquvvat soqchini tayinlab, Rossiyalik amaldorga topshirmoqchiligimni menga telegraf orqali ma’lum qildi.

Yuqoridagi Darvishxonning belgilari: yoshi 45 da, bo‘yi baland, bug‘doy rang, soqoli uzun, yuzida dog‘i bor, ko‘zlari qisiq, rangi toza emas, oyoqlari yo‘g‘on deb, xat qilgan.

Qurboning bo‘lay, uning xati bo‘yicha Darvishxon Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurunboylar Qorategin tomon ketgan. Ularni mart oyida ushlash uchun askar Rahmonquli parvonachi yuborildi. Rahmonquli parvonachi Darvishxonni ikkita g‘ulomi bilan sizning huzuringizga jo‘nasinmi yoki Samarqandga jo‘nasinmi, sizning roziligingiz bilan bo‘ladi.

Sizning javobingizni umid qilaman. Sizga sadoqatimni namoyon etaman. Janobi oliy yana yaxshiroq bilguvchi, ixtiyorlidur[155].

Taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir. Bu xatning mazmunida Buxoro amirligining qonunlariga bo‘ysunmasdan bir gunohkor mahbusning zindondan ikkita sherigi bilan qochib ketib, olib borilgan boshqaruvni mensimaslik haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Izoh:** Ya’ni amir Abdulahad (1885-1910) ga murojaat qilinmoqdaki.

[155] ازم ا،ا- ۱۲۶- سرمایه ، ۱- لیست ، ۱۹۲- کار، ۱- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 192 -ish, -V.1.)



Rossiyalik siyosiy agent Charikuf pochta orqali Rossiya podshosiga o‘zining xizmatkoridan xat berib yuborganligi, xatning janobi oliylariga manzur bo‘lganligi haqida yozib, Hazratim (ya’ni amir Abdulahadga murojaat qilib), siz yanayam yaxshiroq bilasiz. Xatning mazmuni shundan iboratki, Andijon fuqarosi Darvishxon to‘ra eshon o‘g‘li o‘tgan fevral oyida Jizzax zindonidan qochib, Buxoro amirligining Qorategin shahriga kelgan. Darvishxon yaqinda Kobuldan kelgan Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurinboy Umarqulining o‘g‘lini o‘zi bilan birga olib kelgan. Bularning maqsadi, Buxoro davlatini mensimaslik bo‘lgan. Gubernatorning noibi bergan topshirig‘iga asosan sizni ogohlantiramanki, Darvishxonni qo‘lga tushurib, bog‘lab, baquvvat soqchini tayinlab, Rossiyalik amaldorga topshirmoqchiligimni menga telegraf orqali ma’lum qildi.

Yuqoridagi Darvishxonning belgilari: yoshi 45 da, bo‘yi baland, bug‘doy rang, saqoli uzun, yuzida dog‘i bor, ko‘zlari qisiq, rangi toza emas, oyoqlari yo‘g‘on deb, xat qilgan.

Qurboning bo‘lay, uning xati bo‘yicha Darvishxon Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurunboy Qorategin tomon ketgan. Ularni mart oyida ushlash uchun askar Rahmonquli parvonachi yuborildi. Rahmonquli parvonachi darvishxonni ikkita g‘ulomi bilan sizning huzuringizga jo‘natayinmi yoki Samarqandga jo‘natayinmi, sizning roziligingiz bilan bo‘ladi.

Sizning javobingizni umid qilaman. Sizga sadoqatimni namoyon etaman. Janobi oliy yana yaxshiroq bilguvchi, ixtiyorlidur.

Taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir.

M.A.Baljuvoniyning Tarixi nofeiy (Foydali tarix) asarida, Buxorodagi tobe shaharlar: Chorjo‘y, Karke, Kalif, Qarshi (uni Nasaf deydilar), Karmana, Nurota, Ziyovuddin, Xatirchi, G‘uzor, Shahrisabz (ya’ni Kesh), Kitob, Yakkabog‘, Chiroqchi, Jomchi va Sherobod, Boysun, Dehnov, Sariosiyo, ya’ni Sarijo‘y, Hisor, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Ko‘lob, ya’ni Xatlon, Qo‘rg‘ontepa, Anov, Qubodiyon shaharlarining nomlari eslatib o‘tilgan[156].

[156] Балжувоний М.А.. Тарихи нофеий (Фойдали тарих).-Тошкент: Академия, 2001.-В.32.

1890-1900 yil Buxoro amirligi davrida XVII asrda qurilgan Denov qo'rg'onida Denov begi turgan[157]. 1902-1908 yillarda Denov begi Qosimbek bo'lgan. Shuningdek, 1903-1908 yillarda Hisor, Baljuvon, Qubodiyon va Sherobodda 3 marta, Ko'lobda 5 martadan beklar almashtirilgan[158].

Buxoro amiri Muzaffarxon davrida Dehnov (hozirgi Denov tumani hududidagi markaziy shahar) bekligi va Denov xalqi bir necha yillar davomida har qanday soliqlarni to'lashdan bosh tortgan. Bundan g'azablangan amir Muzaffarxon Denovga o'zining saralangan askarlaridan bir necha yuzini jo'natadi. Amir lashkarlari Qizilsuv atrofida joylashgan Qoraxon manziliga joylashib oladilar. Dastlab, Qizilsuvdan o'tolmay daryodan o'tish yo'llari ustida bosh qotiradilar. Shundan so'ng, ular mahalliy aholi yordamida Qoraxondan Denov qo'rg'onigacha yer osti yo'lini qazishib, shu reja bilan to'satdan qorong'u tunda yer osti yo'lidan o'tib, qo'rg'onga hujum qilib, qo'rg'onni egallaydilar. Shundan so'ng, amirning topshirig'iga ko'ra zahmatkash xalqdan qaqshatqich o'ch oladilar.

Mingdan ziyod oddiy xalqning boshi tanasidan judo qilinib, "Kalla Minora"(Hozirgi Denov g'isht zavodi yonida) ni vujudga keltiradilar. Bu voqea xalqning nafratini yanada qo'zg'atadi[159].

XIX asr 80-yillariga kelib, Ostonaqul qo'shbegi Hisorga bek qilib tayinlanganidan so'ng (1886-1906) Hisor bekligining nufuzi yana ortadi. Boysun, Sherobod, Denov, Baljuvon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa va Qubodiyon bekliklari Hisor begi Ostonaqulbekka (u amirning qarindoshi bo'lgan) bo'ysunib, Ostonaqul faqat Buxoro amiriga hisobot bergan. Buxoro amiri tomonidan Ostonaqulga otaliq unvoni berilib, butun Sharqiy Buxoroni boshqarish unga topshiriladi. U bu bekliklardan barcha to'lov va soliqlarni yig'ib, ularning amir xazinasiga yuborilishini nazorat qilib turgan. Bekliklarni nazorat qilish Ostonaqul qo'shbegiga topshirilganiga qaramasdan, bekliklar o'zlarining yarim mustaqilligini saqlab qolgan edi. Amir Sharqiy Buxoroga nisbatan qanchalik qattiqqo'l bo'lmasin, bu

157 Исмоилов Н. Денов таронаси. – Тошкент: Наврўз, 1995.-B.9. (Yana qarang. И.А.Маев «Очерки Гиссарского края». стр., 178-180).
158 ازم ا-۱۲۶-سرمایه, ۲-لیست, ۲۵۱-کار, ۲۱-ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 251 -ish, -V.12.)
159 Исмоилов Н. Денов таронаси. – Тошкент: Наврўз, 1995.-B.10. (Yana qarang. Б.И. Искандаров. «Из истории за установление советской власти в Таджикистане»1953. - стр., 198).



yerdagi noroziliklarni kuch ishlatish yo'li bilan to'xtatib turolmasligini 1878-1879 yillar boshlarida Afg'onistondan Buxoroga kelgan sayohatchi I.Yavorskiy ham o'z kundaliklarida qayd qilgan. U amirlikda ahvol barqaror emasligini va Sherobod begi Qoratog'da ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirishga ketganligini yozadi[160].

1887-yil Afg'onistonda yirik qo'zg'olon ko'tarilib, Markaziy Osiyo hududlarida siyosiy vaziyat notinch edi. Surxon vohasida esa voha haqida ma'lumot yig'ish uchun inglizlar tomonidan yollangan afg'on josuslari paydo bo'lgan bir jarayon bo'lib[161] bu esa Rossiya imperiyasining Sharqiy Buxoro hududlari ayniqsa, asosiy savdo markazlari Kerki va Termizni egallash ishlarini tezlashtirdi[162].

Termizda 1897-yilda uzunligi 10 km, qalinligi 1,5 metr va balandligi 7 metr bo'lgan harbiy qal'a va umumiy maydoni 6 gektardan iborat Amudaryo harbiy brigadasi uchun Tuproqqo'rg'on barpo qilindi[163].

Shuningdek, amirlikka va amirlikdan unga tobe bo'lgan hududlardan doimiy ravishda siyosiy vaziyat haqida ma'lumotlar yozishmalar orqali yetkazib turilgan. Masalan, tashqi ishlar Vazirligi Buxorodagi Rossiya imperatorligining siyosiy agentligidan 1914-yil 11-oktabr sanasida Mirza Nasrullabiy Qo'shbegiga yo'llangan xatda, shoshilinch hurmatli Mirza Nasrullabiy Qo'shbegiga! Hurmatli Qo'shbegi, Sizga yuborayotgan Termiz harbiy rahbaridan olgan ikkita xatimda unter-ofitser Golovashenkoning Denov bekligidagi Yurchi qishlog'ida yashayotgan oilasining xavfsizligini ta'minlash maqsadida farmon chiqarishingizni Sizdan do'stona so'rayman va keyingi qaytadigan ilovada meni xabardor qiling. Amir janobi oliylari! Xatning javobini kutgan holda, Sizga sog'lik-salomatlik tilayman. Siyosiy agentlik boshqaruvchisi[164].

1908-yildan 1920-yilning sentabrigacha hozirgi Denovda Suvonqulibek beklik qilgan. Bu davrda hozirgi Denov savdo markazi sifatida yuksalgan[165].

160 Очилдиев Ф.Б. XIX-XX аср бошларида Жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий хаёт (Сурхон вохаси мисолида).: Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2007. – Б.68
161 ازم ا-۱۲۶-سرمایه, ۲-لیست, ۱۸۰-کار, ۱۰-ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 180 -ish, – V.10.)
162 Логофет Д.Н. Страна бесправия. – С. 75
163 ازم ا-۱۲۶-سرمایه, ۲-لیست, ۱۴۰۲-کار, ۱-۳۹-ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 1402 -ish, – V.1-39.)
164 ازم ا-۱۲۶-سرمایه, ۲-لیست, ۲۶۵-کار, ۱-ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, – V.1.)
165 Исмоилов Н. Денов таронаси (Денов ва деновликлар хаётидан лавхалар). –Тошкент: Наврўз, 1995. – Б.10

1890-1900 yil Buxoro amirligi davrida XVII asrda qurilgan Denov qo'rg'onida Denov begi turgan[157]. 1902-1908 yillarda Denov begi Qosimbek bo'lgan. Shuningdek, 1903-1908 yillarda Hisor, Baljuvon, Qubodiyon va Sherobodda 3 marta, Ko'lobda 5 martadan beklar almashtirilgan[158].

Buxoro amiri Muzaffarxon davrida Dehnov (hozirgi Denov tumani hududidagi markaziy shahar) bekligi va Denov xalqi bir necha yillar davomida har qanday soliqlarni to'lashdan bosh tortgan. Bundan g'azablangan amir Muzaffarxon Denovga o'zining saralangan askarlaridan bir necha yuzini jo'natadi. Amir lashkarlari Qizilsuv atrofida joylashgan Qoraxon manziliga joylashib oladilar. Dastlab, Qizilsuvdan o'tolmay daryodan o'tish yo'llari ustida bosh qotiradilar. Shundan so'ng, ular mahalliy aholi yordamida Qoraxondan Denov qo'rg'onigacha yer osti yo'lini qazishib, shu reja bilan to'satdan qorong'u tunda yer osti yo'lidan o'tib, qo'rg'onga hujum qilib, qo'rg'onni egallaydilar. Shundan so'ng, amirning topshirig'iga ko'ra zahmatkash xalqdan qaqshatqich o'ch oladilar.

Mingdan ziyod oddiy xalqning boshi tanasidan judo qilinib, "Kalla Minora"(Hozirgi Denov g'isht zavodi yonida) ni vujudga keltiradilar. Bu voqea xalqning nafratini yanada qo'zg'atadi[159].

XIX asr 80-yillariga kelib, Ostonaqul qo'shbegi Hisorga bek qilib tayinlanganidan so'ng (1886-1906) Hisor bekligining nufuzi yana ortadi. Boysun, Sherobod, Denov, Baljuvon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa va Qubodiyon bekliklari Hisor begi Ostonaqulbekka (u amirning qarindoshi bo'lgan) bo'ysunib, Ostonaqul faqat Buxoro amiriga hisobot bergan. Buxoro amiri tomonidan Ostonaqulga otaliq unvoni berilib, butun Sharqiy Buxoroni boshqarish unga topshiriladi. U bu bekliklardan barcha to'lov va soliqlarni yig'ib, ularning amir xazinasiga yuborilishini nazorat qilib turgan. Bekliklarni nazorat qilish Ostonaqul qo'shbegiga topshirilganiga qaramasdan, bekliklar o'zlarining yarim mustaqilligini saqlab qolgan edi. Amir Sharqiy Buxoroga nisbatan qanchalik qattiqqo'l bo'lmasin, bu

---

157 Исмоилов Н. Денов таронаси. – Тошкент: Наврўз, 1995.-B.9. (Yana qarang. И.А.Маев «Очерки Гиссарского края». стр., 178-180).

158 ازم ا/ا-۱۲۶-سرمایه، ۲-لیست، ۲۵۱-کار، ۲۱-ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 251 -ish, -V.12.)

159 Исмоилов Н. Денов таронаси. – Тошкент: Наврўз, 1995.-B.10. (Yana qarang. Б.И. Искандаров. «Из истории за установление советской власти в Таджикистане»1953. - стр., 198).



yerdagi noroziliklarni kuch ishlatish yo'li bilan to'xtatib turolmasligini 1878-1879 yillar boshlarida Afg'onistondan Buxoroga kelgan sayohatchi I.Yavorskiy ham o'z kundaliklarida qayd qilgan. U amirlikda ahvol barqaror emasligini va Sherobod begi Qoratog'da ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirishga ketganligini yozadi[160].

1887-yil Afg'onistonda yirik qo'zg'olon ko'tarilib, Markaziy Osiyo hududlarida siyosiy vaziyat notinch edi. Surxon vohasida esa voha haqida ma'lumot yig'ish uchun inglizlar tomonidan yollangan afg'on josuslari paydo bo'lgan bir jarayon bo'lib[161] bu esa Rossiya imperiyasining Sharqiy Buxoro hududlari ayniqsa, asosiy savdo markazlari Kerki va Termizni egallash ishlarini tezlashtirdi[162].

Termizda 1897-yilda uzunligi 10 km, qalinligi 1,5 metr va balandligi 7 metr bo'lgan harbiy qal'a va umumiy maydoni 6 gektardan iborat Amudaryo harbiy brigadasi uchun Tuproqqo'rg'on barpo qilindi[163].

Shuningdek, amirlikka va amirlikdan unga tobe bo'lgan hududlardan doimiy ravishda siyosiy vaziyat haqida ma'lumotlar yozishmalar orqali yetkazib turilgan. Masalan, tashqi ishlar Vazirligi Buxorodagi Rossiya imperatorligining siyosiy agentligidan 1914-yil 11-oktabr sanasida Mirza Nasrullabiy Qo'shbegiga yo'llangan xatda, shoshilinch hurmatli Mirza Nasrullabiy Qo'shbegiga! Hurmatli Qo'shbegi, Sizga yuborayotgan Termiz harbiy rahbaridan olgan ikkita xatimda unter-ofitser Golovashenkoning Denov bekligidagi Yurchi qishlog'ida yashayotgan oilasining xavfsizligini ta'minlash maqsadida farmon chiqarishingizni Sizdan do'stona so'rayman va keyingi qaytadigan ilovada meni xabardor qiling. Amir janobi oliylari! Xatning javobini kutgan holda, Sizga sog'lik-salomatlik tilayman. Siyosiy agentlik boshqaruvchisi[164].

1908-yildan 1920-yilning sentabrigacha hozirgi Denovda Suvonqulibek beklik qilgan. Bu davrda hozirgi Denov savdo markazi sifatida yuksalgan[165].

---

160 Очилдиев Ф.Б. XIX-XX аср бошларида Жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иктисодий хаёт (Сурхон вохаси мисолида).: Тарих фан. ном. ... дис. – Т., 2007. – Б.68

161 ازم ا/ا-۱۲۶-سرمایه، ۲-لیست، ۱۸۰-کار، ۱۰-ورق ( O'zMA. 126-fond. 2-ro'yxat, 180 -ish, – V.10.)

162 Логофет Д.И. Страна бесправия. – С. 75

163 ازم ا/ا-۱۲۶-سرمایه، ۲-لیست، ۱۴۰۲-کار، ۱-۳۹-ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 1402 -ish, – V.1-39.)

164 ازم ا/ا-۱۲۶-سرمایه، ۲-لیست، ۲۶۵-کار، ۱-ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, – V.1.)

165 Исмоилов Н. Денов таронаси (Денов ва деновликлар хаётидан лавхалар). -Тошкент: Наврўз, 1995. – Б.10

Insoniyat tarixidan ma'lumki bir necha hududni bosib olgan davlat albatta bosib olingan hududga boshqaruvchi sifatida o'z vakillarini tayinlagan. Rossiya imperiyasi ham istilo qilgan hududlarda hukumatni boshqarishga o'z vakillarini mas'ul qilib tayinlagan. Quyida, Rossiya imperiyasining Surxon vohasi ma'naviy hayotiga munosabatiga doir 1914-yil sentabr-oktabr oylarida yozilgan Denov bekligiga qarashli Yurchi qishlog'idagi unter-ofitser (zobit) Golovoshenko, Tashqi ishlar Vazirligi Buxorodagi Rossiya imperatorligining siyosiy agentligi va Mirza Nasrullabiy Qo'shbegi hamda Mirbegul qo'shbegilarga yuborilgan o'zaro yozishma xatlarining mazmuni haqida to'xtalib o'tamiz.

Denov bekligiga qarashli Yurchi qishlog'idagi unter-ofitser (zobit) Golovoshenkoning ikkinchi xatining mazmuni:

Yurchi qishlog'idagi unter-ofitser (zobit) Golovoshenko Buxorodagi Rossiya imperatorligi siyosiy agentligiga, quyidagi mazmunda xat yo'llagan edi: "Yurchi fuqarolari bizlarga xavf solmoqda, agar sizlar musulmon bo'lmasalaringiz sizlarni qatl qilamiz yoki sizlarni majburlab zo'rlik bilan musulmon qilamiz", deb aytishdi va bizning mazhabimiz va podshohlarimizni haqoratlab turishibdi. Yurchi fuqarolaridan Ochilboy qushbegi, Qurbon samovarchi, Nazarqul nonvoy, Shohmardonqul G'ulomlar bizlarga ko'p tashvish yetkazib turibdi, boshqalarining esa nomlari bizlarga ma'lum emas"[166].

"Elchixonadan 8496-raqam bilan 1914-yil 11-oktyabrda kelgan xatning javobiga binoan shunday ogohlik berildiki, Denov viloyatining hokimiga xat yozib tayinlandiki, Denov bekligiga qarashli bo'lgan Yurchi mavzuyidagi Rossiya fuqarosi unter-ofitser Golovoshenkoga xabar berilib, mazkur g'arazli odamlar (Ochilboy qushbegi, Qurbon samovarchi, Nazarqul nonvoy, Shohmardonqul G'ulomlar) ga jazo va tanbeh berilib, bundan keyin bunday boshqa odamlarni yo'ldan urmasin. Qo'shimcha xatlarni shu xatga qo'shib jo'natdik[167].

Muharram oyining 5-noyabr 1333-yili hijriy, milodiy 1914-yil Mirbegul qo'shbegi nomiga yozilgan xatda esa, Janobi oliylari Mirbegul qo'shbegi janobi

[166] ازم آ‚ا-۱۲۶-سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۱- ورق.. ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, – V.1.)
[167] ازم آ‚ا-۱۲۶-سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۱- ورق.. ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, – V.2.)



oliylariga! Sizga shuni ma'lum qilamizki, xudoning mehribonligi ila davlatimiz tinch osuda va xotirjammiz. Xatimiz mazmuni shuki, shoh vazirligining 3-raqam bilan 1914 yil 11-oktyabrda elchixonadan kelgan № 8496 xat yuzasidan ish olib borilmoqda, unter-ofitser Golovoshenko Rossiya boshlig'iga arz yetkazgan.

Denovga qarashli Yurchi mavzeyidagi fuqarolar ushbu ishni qasdan, qasdan va yana qasdan qilganliklari uchun qayta qayta ko'rilmoqda, bu ish yuzasidan Termizdagi harbiy boshliqqa ikki marotaba xat yuborilgan. Yuborilgan xatning mazmunida sizlar musulmon bo'lingizlar, sizlarning dinlaringizning vaqti tugadi, deb so'zlagan fuqarolar haqida so'z boradi.

Shuningdek, xatda aybdor fuqarolar va jarimaga tortilganlari, jazolanganlari to'g'risidagi ma'lumot xatga qo'shib jo'natilsin, deb so'ralgan. Bu ma'lumotlar shohga ham yetkazilgan. Ishni to'liq o'rganish uchun shaxsan o'zim borib o'rgandim. Uch fuqarodan biri Yakkabog'lik musofir qassob, ikkinchisi Qarshilik kulol va ularning sheriklarini Yurchi bozorini aylantirib 25 tayoqdan urilib, boshqa bu ishni qilmasliklari tushuntirildi. Bu boradagi ma'lumot harbiy boshliqqa ham yetkazilgan. Bundan keyin biror inson bunday ishga jur'at qilolmasin deb, shu yuzasidan podsho tayin qildi. Xatga 5 nafar jazolangan fuqarolar yozilgan bo'lib, darhol boshqalarni aybdor fuqarolarning oldilariga bormasliklarini tayin qildim.

Shu sababli ancha yillar Yurchida mahalliy aholi bilan birga rus fuqarolari ham aralashib yashab yurdilar. Ruslar o'z e'tiqodicha Yurchi fuqarolari o'z e'tiqodicha ya'ni Yurchi fuqarolari boshlariga sallalarini bog'lagan holda ko'p xursandchilikda birga yashab yurdilar.

Shu jihatdan zikr qilinganlarga nasihat qilindi va har qanday voqealardan xabardor bo'lib turdim[168].

Denov bekligidagi Yurchi qishlog'ida yashayotgan Golovashenkoning xatining mazmunida esa forsiy alifboda quyidagicha fikrlar bayoni keltirilgan.

[168] ازم آ‚ا-۱۲۶-سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۱- ۳- ورق. ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, – V.1-3.)



Shuningdek, o'zbek tiliga o'girganimizda qo'yidagicha mazmun kelib chiqdi:

Yurchi qishlog'ida yashayotgan Golovashenkoning xatining mazmuni:

Muhtaram podshohga ma'lum bo'lsinki, biz barchamiz sog'-salomatmiz, sizlar ham sog'-salomat bo'lingizlar. Podshohga ma'lum bo'lsinki, bu taraf Yurchi fuqarolari bizga xavf solib, "Sizlar musulmon bo'lingizlar, sizlarning dinlaringizning vaqti tugadi"-deb bizning savdolarimizga zarar yetkazishmoqda va bizning mazhabimizni va podshohimizni tahqirlashib, bizlarni ko'p haqorat qilishmoqda. Shu sababli sizning ogohlantirishingizga muntazirmiz. Bizning savdomiz yomon bo'lib, pulga zoriqib qolyapmiz. Janobi oliylari, agar mumkin bo'lsa bizning ahvolimizni hokimga yetkazing, mazkur fuqarolarni Rossiya davlatiga zarar yetkazuvchi harakatlardan qaytarishlarini so'raymiz[169].

Tashqi ishlar Vazirligi Buxorodagi Rossiya imperatorligining siyosiy agentligidan 1914-yil 11-oktyabr sanasida Mirza Nasrullabiy Qo'shbegi ("1.5-

[169] ازم ا ا- ۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۴- ورق . ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, – V.4.)



jadval") (Qo'shbegi-Mang'itlar hukmronligi davrida Qo'shbegi eng oliy grajdanlik mansabi hisoblanib, atamashunoslik fanida Qo'shbegi harbiy qo'noq, qo'sh, stavka va lager boshlig'i sifatida ham talqin etildi. Amirlikning moliya ishlarini, asosan soliqlarni undirib olish ishlarini qo'shbegidan keyin turadigan, oddiy xalq tilida qulli qo'shbegi deb ataluvchi, devonbegi bajargan. Bu amaldor Chorjo'y, Karmana va boshqa viloyatlar hokimlari huzuridagi barcha devonbegilarning boshlig'i ham edi. Shuningdek, tarixiy atamashunoslikda Qo'shbegining Qushbegidan farqi quyidagicha izohlangan:

Qushbegi tushunchasi – ov va asbob uskunalari, ov qushlari, hayvonlarga mas'ul bo'lgan mansabdor sifatida ham talqin etilgan.)[170] ga yo'llangan xatda, shoshilinch hurmatli Mirza Nasrullabiy Qo'shbegiga! Hurmatli Qo'shbegi, Sizga yuborayotgan Termiz harbiy rahbaridan olgan ikkita xatimda unter-ofitser Golovashenkoning Denov bekligidagi Yurchi qishlog'ida yashayotgan oilasining xavfsizligini ta'minlash maqsadida farmon chiqarishingizni Sizdan do'stona so'rayman va keyingi qaytadigan ilovada meni xabardor qiling. Amir janobi oliylari! Xatning javobini kutgan holda, Sizga sog'lik-salomatlik tilayman. Siyosiy agentlik boshqaruvchisi[171].

1920-yil 2-sentyabrda Buxoroda bo'lib o'tgan to'ntarishdan so'ng, Amir taxtdan ag'darilgach, Amir bilan Denov begi Suvonqulibek ham Hisor tog'lariga birga ketgan.[172]

1922-yili Sovet hukumati hukmronlikni egallab, keyinchalik o'zlarining g'oyalarini yo'lga qo'yish maqsadida Rossiya vakillari tomonidan Yurchida maxsus maktab ochildi. Unga Denov va shu atrofdagi shahar va qishloq yoshlari jalb qilina boshlandi[173].

Sovet hukumati vakillari maxsus maktabda yoshlarni o'qitib yaqin atrofdagi qishloqlarga rahbar etib tayinlardi.

Umuman olganda, Surxon vohasi mang'itlar sulolasi hukmronligi yillarida

[170] Кобулов Э. О. XVIII аср – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Дисс. т.ф.д., (135 б). -Термиз-2019 й. – Б.59

[171] ازم ا ا- ۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۵- ورق . ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, -V.5.)

[172] Исмоилов И. Денов таронаси (Денов ва деновликлар хаётидан лавҳалар). –Тошкент: Наврўз, 1995.-Б.10

[173] Хабибулла Гафур. Ватан тупроғи. - Тошкент: "Замин нашр". 2018. -Б.107.

Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan. Amirlar bo'ysundirilgan hududlarga o'z qarindoshlari va o'ziga sodiq kishilarni boshliq sifatida tayinlab, siyosiy tinchlikni saqlab turishga harakat qilgan. Bekliklardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat turlicha edi, sababi amirlikdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi to'g'ridan-to'g'ri hududlar siyosiy boshqaruviga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Voha hududi, qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar hudud edi. Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XVI asr oxiriga kelib hozirgi Surxon vohasi hududidagi Qizilsuvning yuqori havzasida Deh-i-nau (Denov) shakllandi va vaqt o'tishi bilan hudud iqlimi tabiiy sharoitiga mos ravishda hukumatni boshqarayotgan shaxslarning boshqaruviga bog'liq holda rivojlanib bordi.

Rossiya imperiyasi istilosi arafasida hozirgi Surxon vohasidagi Denov bekligi Buxoro amirligining "Sharqiy yerlari" yoki Sharqiy Buxoro deb atalgan hududiga kirgan. 1914-yilda yozilgan Denov bekligiga qarashli Yurchi qishlog'idagi unter-ofitser (zobit) Golovoshenko bilan Rossiya imperiyasi siyosiy agentligi o'rtasidagi yozishmalarda Rossiya imperiyasining Surxon vohasi ma'naviy hayotiga munosabati hududdagi boshqaruv, aholining ma'naviy hayotga bildirayotgan fikrlari va unga Rossiya imperiyasi siyosiy agentligining aholiga nisbatan qat'iy ko'rgan choralari haqida to'xtalib o'tilgan.

Shuningdek, hozirgi Surxondaryo vodiysi hududi XVIII asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha bo'lgan davrda Buxoro amirligi tarkibida bo'lsa-da, siyosiy jihatdan bir butun tizimga ega emas edi va markazlashgan ma'muriy boshqaruvning yo'qligi bilan ajralib turardi.

## 2.2§. Vohaning ma'muriy hududiy holati va boshqaruv tizimi

Buxoro xonligi O'rta Osiyodagi boshqa xonliklarga nisbatan alohida mavqega ega bo'lgan yirik davlat hisoblanadi. U o'ziga xos boshqaruv tizimi va keng hududlarni qamrab olgan. Mang'itlar sulolasidan bo'lgan Muhammad Rahimbiy hukmronligi davrida (1756-1758) davlat boshqaruvi markazlashuvchi yakka shaxs tomonidan amalga oshirila boshladi.



Muhammad Rahimbiyning hududiy markazlashtirish siyosatiga o'sha davrda nafaqat Buxoro ruhoniylari, balki mahalliy hokimlar, hunarmandlar tayanchi va savdogarlarning boy tabaqalari ham qo'llab-quvvatlovchi munosabat bildirganlar.

**Davlat boshqaruvi ikki bosqichli tizim asosida shakllangan edi**:

1. **Markaziy boshqaruv** - amir, saroy amaldorlari, o'zbek qabilalari vakillari, beklik rahbarlari va nufuzli diniy arboblar.

2. **Mahalliy boshqaruv** - viloyat va tuman darajasidagi idoralar[174].

Buxoro amirligi tarkibidagi hududlar ma'muriy jihatdan bekliklarga bo'lingan[175]. Tarixiy manbalarga ko'ra, XVIII asr o'rtalarida amirlikning ma'muriy tuzilishida sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan. XX asr boshlarida amirlik tarkibida Surxon vohasi bekliklari bilan birga 24 ta mustaqil beklik (8-ilovaga qarang), 7 ta amloklik va 10 ta tuman[176] mavjud bo'lsa, 1915-yilgi arxiv hujjatlarida bu ko'rsatkichlar 27 ta beklik va 11 ta tuman[177].ga yetganligi qayd etilgan.

Buxoro amirlarining hokimiyati yuritayotgan siyosatiga ko'ra birin ketinlikda kuchayishi bilan XIX asrning 50-80 yillarida amirlik siyosiy, ijtimoiy jarayonlar natijasida mustaqil bo'lishga harakat qilgan bekliklari bo'ysundirilib, ularning hudud va mulklari Buxoro amirligiga qo'shib olindi. Amirlar amaldorlar o'rniga amir xonadoniga mansub, o'zlari ishongan kishilarni bek lavozimiga tayinlaganlar. Hozirgi kunda bek lavozimini boshqaruv vazifasiga ko'ra tuman va viloyat hokimlariga, bekliklarni esa viloyat va tumanlarga tenglashtirish mumkin.

D.N. Logofet o'zining "Rossiya protektorati ostidagi Buxoro xonligi" asarida Buxoro amirligining ma'muriy bo'linishi haqida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. Amirlik hududi 27 ta beklikdan iborat bo'lib, ularning markaziy shaharlari quyidagilar edi: Buxoro, Qorako'l, Nurata, Qabaklin, Chardjuy, Burdaliq, Karki, Kelif, Sherobod, Qarshi, Chiroqchi, Karmana, Ziyovutdin, Xatirchi, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, G'uzor, Boysun, Hisor, Denov, Qo'rg'on-Tyuba, Boljuvon, Ko'lob, Qubodiyon, Darvoz va Qorategin[178].

174 Кобулов Э.А. Сурхон вохаси хўжалиги. Б.69

175 ازم ا.ا-۱۲۶-سرمایه، ۱-لیست، ۲۵۱-کار، ۹۹-ورق ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 251 -ish, -V.99.)

176 ازم ا.ا-۱۲۶-سرمایه، ۳-لیست، ۸۹۱-کار، ۳۲-ورق ( O'zMA. 126-jamg'arma, 3-ro'yxat. 891 -ish, -V.32.)

177 ازم ا.ا-۱۲۶-سرمایه، ۱-لیست، ۵۱-کار، ۴۳-ورق ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 51 -ish, -V.43.)

178 Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. - СПб., 1911. - Т.I. -С. 240.

Hisor bekligi, Ko'lob va Qubodiyon hamda Surxon vohasidagi Sherobod, Boysun, Denov bekliklari XIX asrning 80-yillarigacha Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Sharqiy Buxoro hududiga kirgan. Buxoro Qo'shbegi arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, XIX asrning oxirlarida Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan 29 ta beklikdan iborat bo'lgan [179].

N.N.Pokotilo o'zining "1886-yilda Markaziy va Sharqiy Buxoroga sayohat" asarida Buxoro shimolda Turkiston general-gubernatorligining Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlari bilan chegaradosh ekanligini qayd etgan. Chegara Amudaryoning Uch-Uchoq traktidan boshlanib, sharqqa, cho'l hududlari orqali o'tadi. Sirdaryo viloyatining janubiy qismi Nurota tog'larigacha cho'zilgan bo'lib, u yerdan tik yonbag'ir orqali janubga, Shahrisabz tizmasiga buriladi. G'arbda Samarqand viloyati bilan chegaradosh bo'lib, Jom dovoni va Qoratyubinsk (To'xta-Qoracha) dovoni orqali sharqqa davom etadi. Mazkur tizma, keyinroq Hisor va Oloy tizmalari bo'ylab Bobosh dovonigacha cho'ziladi. Oloy tizmasidagi Bobosh dovonidan Buxoroning sharqiy chegarasi boshlanadi va u to'g'ri janubga, Amudaryogacha boradi.[180].

Oloy tizmasi Garm shahri meridianida joylashgan bo'lib, uchta tizmaga bo'linadi (shoxlanadi): shimoliy qismida Turkiston, o'rta qismida Zarafshon va janubiy qismida Hisor tizmalari mavjud. Turkiston va Zarafshon tizmalari Rossiya Turkistonining butun uzunligi bo'ylab cho'zilgan.

Hisor tizmasi dastlab Buxoro amirligining shimoliy chegarasi bo'ylab g'arbiy yo'nalishda davom etadi. Keyinroq, Shahrisabz bekligiga yaqinlashgach, janubga qarab buriladi va mayda tepaliklar shaklida ko'tarilib, Amudaryoga yaqinlashadi. Bu hudud Cho'chqaguzar traktidan (Sherobodning janubida) biroz pastroqda joylashgan. Hisor tizmasining g'arbiy qismidan ajralib chiqqan past tog'lar Shahrisabz tog'lari nomi bilan yuritilib, hozirgi Samarqand viloyati hududiga tomon cho'zilgan. Bu tog'lar Buxoro amirligining Samarqand viloyati bilan tabiiy chegarasini tashkil etgan. Hisor tizmasining dovonlari g'arb tomonga

[179] ازم ا,ا-۱۲۶-سرمایه، ۱-لیست، ۶۹-کار، ۱-۲-ورق. ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 69 -ish, -V.1-2.)

[180] Покотило Н.Н. Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г. – Ташкент: Окружного штаба, 1888-с.27.



qarab borgan sari asta-sekinlik bilan pastlashib boradi.

Hisor tizmasi janubga tomon Kofirnihon va Surxon vohasining Surxob (Vaxsh yoki Qizilsuv) oqimidan hosil bo'lgan Hisor vodiysiga tik pastga tushadi. Bu vodiy janubdan Kofirnihon va Surxob (hozirgi Surxon daryosi) daryolari hududlarini ajratib turuvchi, shimoldan janubga umumiy yo'nalishga ega bo'lgan tog' tizmalari (mahalliy tilda Bobotog' tizmalari) bilan chegaralangan[181].

Fayzobod shahri yaqinidan boshlanuvchi Hisor vodiysi dastlab sharq tomonda tor daryo darasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Vodiy g'arb tomonga qarab asta-sekin kengayib boradi va balandligi pasaygan holda Hisor shahri atrofida eng katta kengligiga - 20 verst[182*] (taxminan 21,3 km) ga yetadi.

Mintaqaning asosiy daryo tizimlari quyidagilardan iborat:

- Surxon daryosi;
- Kofirnihon daryosi;
- Vaxsh daryosi;
- Qizilsuv (Kulob daryosi).

Ushbu daryolarning vodiylari Hisor vodiysidan boshlanib, quyi oqimda Amudaryo va Panj daryolari havzasidagi past tog' tizmalari orqali bir-biridan ajralib chiqadi[183].

Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Surxon vohasi umuman Sharqiy Buxoro nomini olgan hududlardagi bekliklar joylashish o'rniga ko'ra tog'lar orasidagi tog'lar ya'ni ikki yoki uch tomoni tog'lar bilan o'ralgan. Hududlar orasidagi tog' tizmalari quyidagicha taqsimlanadi: Surxon va Kofirnihon oralig'ida — Bobotog', Kofirnihon va Vaxsh oralig'ida — G'ozi-Malik, Vaxsh va Qizilsuv o'rtasida esa — Qoratog' tizmasi joylashgan. Ushbu tog' tizmalarining dovonlari, odatda, 3000–4000 futdan oshmaydigan balandlikda joylashgan bo'lib, ular orasida Bobotog' eng baland nuqtaga ega.

Buxoro tog'lari, xususan, butun O'rta Osiyo tog' tizmalari uchun xos

[181] O'sha asar. B. 29.

* Verst — 1066,8 metr. [Elektron resurs] (https://ru.wikipedia.org/wiki) [Murojaat qilingan sana 07.07.2021]

[183] Покотило Н.Н. Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г. – Ташкент: Окружного штаба, 1888-С.30.

bo'lgan umumiy xususiyat - o'rmonlarning deyarli mavjud emasligidir. Ayni paytda bu hududlarda faqat alohida joylarda kichik bog'lar, pista va archa daraxtlarining siyrak uchraydigan zaxiralari mavjud. Qattiq o'rmonlar esa umuman kuzatilmaydi. Masalan, Kavkaz tog'larida keng tarqalgan o'rmonlar mazkur tog' tizmalari uchun xos emas.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr davrida Buxoro amirligining boshqa hududlari singari Surxon vohasi ham ma'muriy jihatdan bir necha bekliklarga bo'lingan edi. Jumladan, vohaning Buxoro amirligiga qarashli sharqiy qismi Sherobod, Boysun, Denov va Yurchi bekliklariga ajratilgan. Har bir beklik o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega bo'lib, Sherobodda 6 ta, Boysunda 10 ta, Denovda 6 ta va Yurchi hududida 4 ta amlokdorlik faoliyat yuritgan[184]. Boshqaruvda amir tomonidan tayinlangan beklar tomonidan boshqarilgan. 1868-yilda Boysun bekligida Muhammad Yusuf tortuvli[185] Sherobod bekligida 1885-yil Sodiqbekbiy, 1905-1909 yillarda Mirzo Salimbek[186] beklikni boshqargan bo'lsa, Denov bekligida 1880-1885 yillarda Abdurahmonbek, 1885-yil Olmosbiy beklikni boshqargan.

1868-yilda Rossiya va Buxoro o'rtasida tuzilgan shartnoma natijasida, XIX asrning 50-60 yillarigacha yarim mustaqil bo'lgan Surxon vohasi hududlari Buxoro amirligining eng muhim strategik mintaqasiga aylandi. Amirlik siyosatidan norozi bo'lgan aholining bir qismi Hisor va Surxon vohasi hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi.

1870-yillarga kelib, Hisor bekligi va Surxon vohasi hududlari butunlay Buxoro amirligiga qo'shib olindi. Amir Muzaffar bu hududlarni quyidagi yetti beklikka bo'lib boshqarishni joriy qildi:

1. Sherobod;
2. Boysun;
3. Denov;

[184] Холиқов З. Термез и Чаганиян в позднем средневековье. Афтореф. дисс... канд. ист. наук. Самарқанд. 2001. – С. 17.
[185] ٨٠١ ورق،١٩٦٢ ميرزا عبدا العظمى سامى تاريخ سلاطين منغيتى [Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатини мангитийа]. – Москва, 1962. – С.108.
[186] Рдвеладзе Э, Турсунов С,Никитенко Г. Термиз – буюк йўллар чорраҳасидаги кўҳна ва янги шаҳар. Альбом. Т. Шарк. 2001. - Б. 41.



4. Yurchi;
5. Qubodiyon;
6. Hisor;
7. Qo'rg'ontepa[187].

1870-1890 yillarda Rossiya imperiyasi Sharqiy Buxoroning barcha hududlarini harbiy yordam ko'rsatish shaklida amalga oshirilgan siyosiy bosim orqali Buxoro amirligiga to'liq bo'ysundirishga erishdi. Biroq, bu jarayon mahalliy aholining ijtimoiy-siyosiy mavqeida sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqarmadi[188].

Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi tarkibiga qo'shilishi bilan mahalliy beklar lavozimlaridan chetlashtirilib, ularning o'rniga amirga sodiq bo'lgan harbiy rahbarlar tayinlandi. Bu yangi tizimda bekliklar ustidan to'g'ridan-to'g'ri markaziy nazorat o'rnatildi. N.Maevning qayd etishicha, "Denov endilikda Buxoro xonligining chekkadagi shahriga aylangan bo'lib, uni amirning ishonchli kishilaridan biri boshqargan".

M.R.Abduvahobovaning tadqiqotlariga ko'ra, Rossiya imperiyasiga qaram bo'lgan davrda Buxoroda Rossiyaning siyosiy agentligi tashkil etilgan. Ushbu institut orqali amirlikning tashqi siyosati va ichki ijtimoiy hayoti nazorat qilina boshladi. Siyosiy agentlik amirlikning ichki ishlariga aralashish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Rossiya bosqini davrida ham Sharqiy Buxoroda qadimgi ma'muriy birliklar - viloyat, tuman, qishloq va guzar kabi tuzilmalar o'z kuchini saqlab qoldi. Bu tizim mahalliy aholining turmush tarzi va ijtimoiy tuzilishi bilan uzviy bog'liq edi. Markaziy hokimiyatga qaram bo'lishiga qaramay, mintaqada an'anaviy boshqaruv usullari saqlanib qoldi[189].

Buxoro amirligida viloyat beklari to'g'ridan-to'g'ri amir tomonidan tayinlanar va faoliyati davomida sustkashlik yoki loqaydlik ko'rsatgan taqdirda lavozimidan ozod etilar edi. Tayinlangan beklar o'z hududlarini nisbatan mustaqil

[187] Surxondaryo VDA, 252-jamlanma, 2-ro'yxat, 109-ish, 19 varaq.
[188] Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата ( Восточная Бухара и Зап Темур в конце XIX в).-М.: Восточ. Лит, 1958.-С.7.
[189] Абдувахобова М.Р. Қушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-ҳудудий тизими. – Тошкент, 2006. – Б. 3.

boshqarish huquqiga ega bo'lib, bekliklar amlokliklarga bo'lingan ma'muriy birliklar tizimida faoliyat yuritgan.

Amirlik tizimida viloyat boshliqlari bo'lgan beklarning hokimiyati merosiy emas edi. Bek vafot etgan taqdirda, uning barcha mol-mulki davlat xazinasiga qaytarilar, qonuniy merosxorlarga bu mulkdan hech qanday ulush berilmasdi. Bu amaliyot amir hokimiyatini mustahkamlash va beklarning mustaqilligini cheklash maqsadida joriy etilgan edi.

Beklik tizimining asosiy xususiyati shundan iboratki:

1. Beklar amir tomonidan tayinlanar va lavozimdan ozod etilar edi;

2. Beklar o'z hududlarida nisbatan mustaqil boshqaruv huquqiga ega bo'lgan;

3. Bekliklar yirikroq amlokliklarga bo'lingan;

4. Hokimiyat merosiy emas, balki tayinlovchi xarakterga ega bo'lgan;

5. Bek vafot etganda uning mulki davlat xazinasiga o'tkazilgan[190].

Tarixchi A.B. Xoliqulovning ma'lumotlariga asosan, Buxoro amirligidagi bekliklar ularning siyosiy-iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'lingan:

• *Asosiy strategik bekliklar*:

• Shahrisabz bekligi;

• Hisor bekligi;

• Qarshi bekligi.

*Ikkinchi darajali bekliklar*:

• Sherobod bekligi;

• Denov bekligi;

• Kitob bekligi;

• Chiroqchi bekligi;

• G'uzor bekligi;

• Kerki bekligi;

• Karmana bekligi;

[190] Холикулов А.Б. XIX-XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. -Тошкент, 2011. -Б.120.



• Chorjo'y bekligi.

Amirlikda yuqoridagi bekliklarni boshqarish uchun odatda quyidagi shaxslar tayinlangan:

-Amirning yaqin qarindoshlari;

-Hukmdorga mutlaq sodiq bo'lgan shaxslar;

-Harbiy va ma'muriy sohalarda tajribali amaldorlar[191].

Buxoro amirligi davrida Boysun bekligi Surxon vohasidagi uchta beklikdan biri bo'lgan[192]. Muhammad Rahimxon 1758 yilda Boysun va uning atrofidagi tog'li qishloqlarni o'ziga bo'ysundirib, Boysunni Sherobod bekligiga qo'shdi. Boysun savdo yo'lida joylashgan asosiy harbiy-strategik markaz sifatida mashhur bo'ldi, Bu davrda Boysuntog' va Ko'hitang tog'laridagi temir konlari mavjud edi, shuningdek, Darbandda esa marmar ishlab chiqarilgan. Boysunda to'qimachilik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlangan. XIX asrda Buxoro amirligi tomonidan Termiz va Chag'oniyon hududi to'liq istilo qilindi, Boysun bekligi tashkil etildi, ma'muriy boshqaruv tizimi mustahkamlandi. Amir Shohmurod (1785-1800-yillar) davrida Sharqiy Buxoroning bo'ysundirilgan hududlarida *tarxon yorlig'i* (Amir tomonidan yirik mulk egalariga yaxshi xizmati uchun berilgan yorlig'. Tarxonlik yorlig'ini olgan mulkdorlar barcha soliq, to'lov va majburiyatlardan ozod qilingan. Tarxonlik yorlig'i odatda, beklar, saroy amaldorlari, saidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan. Bunday yorliqni olgan mulkdor ismiga "tarxon" martabasi qo'shib aytilgan) joriy etilib, o'zaro urush-janjallarga chek qo'yildi, soliq, tizimi tartibga solindi. Surxondaryo hududidagi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish inshootlarini qurish, amirlik uchun soliq to'lashni ko'paytirish masalasiga jiddiy e'tibor berishga harakat qilindi. Amir Shohmurod odilona siyosati, tadbirkorligi, darveshona hayoti bilan xalq o'rtasida katta obro' topdi. Surxondaryo, Hisor, Bobotog' etaklaridagi o'zaro janjallarga chek qo'ydi[193].

Amir Shohmurod hukmronlik davrida Boysun shahrida madrasalar qurdirdi,

[191] Холикулов А.Б. XIX-XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. -Тошкент, 2011. -Б.120.
[192] Ртвеладзе Э. Аминов М. Сурхондарё. - Тошкент Қомуслар, 1996. -Б. 162.
[193] Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун. - Тошкент: Akademnashr, 2011-Б.70-71.

yoshlarni Qur'on tilovat qilishga, ilm olishga chorlab, o'z nomidan bu o'lkalarda xayr-sadaqalar o'tkazdi. O'zaro urushlar natijasida vayronaga aylangan Boysun qal'alarini tiklab, madrasa va masjidlarni ta'mirlash ishlariga ma'lum miqdorda yig'ilgan soliq hisobidan mablag'lar ajratdi. Boysun markazidagi bosh masjidlarda o'z tarafdorlarini yig'ib, yorliqlar orqali darveshlar jamiyatini tuzib, odamlarni oddiy, samimiy, kamtarona yashashga, din yo'lida borishga, axloqsizlik, qalloblik, o'g'rilikning oldini olishga chaqirdi. Buxoro amirligining ma'muriy-hududiy tuzilishi va idora etilishi sharqona bo'lib, yakka hukmronlikka asoslangandi. Boysun bekligi nazorati xususida ish yurituvchi amirga yozma hisobot berib turgan. Amirlik boshqarish davlat apparati ma'muriy, moliya, sud, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lgan. Ularning har biriga amir tomonidan oliy darajali mansabdorlar tayinlangan va ularga katta huquqlar berib qo'yilgan edi.

Amirlikning 20000 ming $verst^2$ sug'oriladigan yerlari bor edi. Aholisining soni 250 ming kishi bo'lib, qishloq xo'jaligida band har bir erkakka (300 - 400 ming) 4-5 desyatinadan yer to'g'ri kelgan. Boysun bekligi iqtisodiyotida ham qishloq, xo'jaligi yetakchi o'rinni egallagan. Buni quyidagi ko'rishimiz mumkin aholi soni 30 ming kishi, bug'doy 40 ming botmon, arpa 20 ming botmon.

Surxon vohasi Sharqiy Buxoro yerlari deb atalgan, bu yerda dehqonchilikdan keyin chorvachilik yetakchi mavqeyini egallagan. Albatta, chorvachilik uchun qulay ob-havo va keng yaylovning bo'lishi uning rivojiga keng imkon bergan. Chorvachilik nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari, balki vohaning ichki va tashqi savdosida muhim o'rin tutuvchi soha sanalgan. Savdogar S.Mazovning ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro amirligining 6000000 bosh qo'y va echkilari bo'lgan. Mazkur davrda Boysun bekligida quyidagi miqdorda chorva mollari bo'lgan:

-1000 bosh tuya;

- 30 ming bosh shoxli mol;

-25 ming bosh otlari bo'lgan[194].

Surxon vohasi bekliklari ichida Sherobod bekligi hududiy kengligi va aholi

[194] Турсунов С, Рашидов К. Бойсун. – Тошкент: Akademnashr, 2011-Б.73.



zichligi jihatidan alohida o'rin tutgan. Beklikning chegaralari quyidagilardan iborat edi:

• Sharqiy chegarasi: Surxondaryo daryosining o'ng qirg'og'i;

• Shimoli-g'arbiy chegarasi: Istara arig'i, Tallashqon va Xo'jayianho tog' etaklari;

• Janubiy chegarasi: Amudaryoning Qorakamar kechuvidan Pattakesargacha bo'lgan hududlar.

**Ma'muriy tuzilishi.** XIX asrda Sherobod bekligi tarkibiga quyidagi 7 ta amloklik kirgan:

1. Tallashqon amlokligi;
2. Saidobod amlokligi;
3. Gilambob amlokligi;
4. Salavot amlokligi;
5. Jarqo'rg'on amlokligi;
6. Tallimaron amlokligi;
7. Sherobod shahri va uning atrofidagi aholi punktlari.

**Asosiy xususiyatlari:**

• Hududiy jihatdan Surxon vohasining eng katta bekliklaridan biri;

• Aholi soni bo'yicha yetakchi o'rinda turgan;

• Strategik jihatdan muhim geografik joylashuvga ega;

• Qishloq xo'jaligi va savdo yo'llari uchun qulay sharoitlarga ega;

• Amlokliklar tizimi orqali samarali boshqarilgan[195].

Tarixchi N.A. Maev o'z asarlarida Dahqorakent dovoni va Serob (Sayrob) yo'nalishi orasida joylashgan Buzg'oloxona bulog'ining mavjudligini qayd qilgan. Bu tabiiy suv manbai mintaqa aholisi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Sherobod shahri XIX asrda ikki qirrali ahamiyatga ega edi: bir tomondan - vohaning ma'muriy markazi, ikkinchi tomondan - yirik savdo markazi. Shaharning bu holati uning mintaqaviy ahamiyatini yanada oshirgan.

Maevning 1868-yilga oid ma'lumotlarida Amudaryo qirg'oqlarida qo'ng'irot

[195] ازما ۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست، ۷۱- کار، ۹۳- ورق (O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 71-ish, -V 93.)

qabilasining yashaganligi haqida qayd etilgan. Bu kuzatishlar mintaqaning etnik tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.[196].

XVIII asrning ikkinchi yarmida Termiz shahri qabila urushlari natijasida deyarli butunlay vayron qilingan. Bu vayronagarchilikdan faqat Pattakesar va Solihobod qishloqlari omon qolishga muvaffaq bo'ldi. 1894-yilda rus harbiy qo'shinlari Termiz xarobalaridan 8 kilometr uzoqlikdagi Pattakesar qishlog'i yaqinida yangi qal'a qurishni boshladilar. Mahalliy aholi bu qal'ani "Tuproqqo'rg'on" deb atashgan. Hozirgi zamonaviy Termiz shahrining rivojlanishi aynan shu Tuproqqo'rg'on atrofida boshlangan bo'lib, u mintaqaning yangi ma'muriy va iqtisodiy markaziga aylangan[197].

Termiz shahrida birinchi kasalxona tipidagi davolash muassasasi 1902-yilda tashkil etilgan bo'lib, u dastlab kichik qabulxona va 10 o'rinli bitta bo'limdan iborat bo'lgan. Muassasaning doimiy xodimlari orasida ikkita feldsher ishlagan, shu bilan birga harbiy gospital vrachlari har haftaning yakshanba kunlarida bepul konsultatsiya berishgan. Bu tibbiy muassasa mintaqada zamonaviy tibbiyot xizmatlarining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan[198].

1910-yilda Termizda birinchi sanoat korxonasi - paxta tozalash zavodi faoliyat boshlagan, shu bilan birga bir qancha yirik ustaxonalar ham tashkil etilgan. Shaharning iqtisodiy rivojlanishidagi muhim burilish nuqtasi 1916-yilda yuz bergan bo'lib, Buxoro-Qarshi-Termiz temir yo'l liniyasining qurilishi yakunlangan. Bu transport yo'lining ochilishi Termizning obodonlashish jarayoniga kuchli turtki bo'lib xizmat qilgan va shaharni mintaqaviy savdo-sotiq markaziga aylantirishga yordam bergan[199].

Sherobod bekligidagi o'zbek qishloqlari asosan tog'li hududlardagi daryo bo'ylarida joylashgan bo'lib, bu hududlarda turkmanlarning yarim ko'chmanchi guruhlari ham istiqomat qilgan. Beklikning mudofaa tizimi baland tog' etagida qurilgan mustahkam qal'adan iborat bo'lgan. Uch qator himoya devorlari bilan o'ralgan bu qal'a murakkab arxitekturaga ega bo'lib, uning markaziy qismida

[196] Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Санк-Петербург, 1879. -С. 180.
[197] Ртвеладзе Э. Аминов М. Сурхондарё. – Тошкент: Комуслар, 1996-Б.127.
[198] O'sha asar. -B 128.
[199] O'sha asar. -B 127.



bekning qarorgohi joylashgan. Bu qarorgoh bir vaqtning o'zida hokimiyat markazi hamda kichik harbiy istehkom vazifasini o'tagan[200].

Harbiy ofitser N.A.Maev o'zining ilmiy qiziqishlari natijasida Sherobod shahrining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumotlar to'plagan. Uning tadqiqotlarida shahar juda qadimiy bo'lib, rivoyatlarga ko'ra, Aleksandr Makedonskiy davriga oid devorlar saqlanganligi qayd etilgan. Maev shaharning ilk nomi "Haybar" bo'lib, bu nom afsonaviy asoschi Otaullo eshon Mir Haybar sharafiga berilganligini aniqlagan. Olimning yozishicha, bu hududda qadimgi zamonlarda otashparastlik diniga e'tiqod qilgan etnik guruhlar yashagan[201].

Islom dinining mintaqaga kirib kelishi davrida Sherobod hududi to'rtinchi xalifa Ali ibn Abu Tolib (656-661) faoliyatining muhim markazlaridan biriga aylangan. Tarixiy rivoyatlarga ko'ra, Ali qo'shinlari Shahri Haybarni jangovar usul bilan egallaganlar, bu jarayonda Ali o'zi jang maydonini kuzatuvchi sifatida nazorat qilgan. Uning o'tirgan joyida keyinchalik musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan tug' joylashgan bo'lib, bu an'ana Sharq musulmonlari orasida keng tarqalgan.

Ali ibn Abu Tolib bu jangda ko'rsatgan jasorati tufayli "Allohning sheri" unvoniga sazovor bo'lgan. Shu sababli avvalgi "Shahri Haybar" nomi o'rniga "Sherobod" (ya'ni "sher shahri") nomi qabul qilingan. Shahar asoschisi Otaullo eshon Mir Haybarning qabri hozir ham shahar markazidan ikki verst (taxminan 2.1 km) sharqda joylashgan tog' tepasida saqlanib qolgan.

N.A.Maev o'z tadqiqotlarida Sherobod tarkibidagi ma'muriy tuzilmani yoritib, shaharda 5 ta amlokdorlik mavjudligini qayd etgan. Har bir amlokdorlik tarkibiga 3-5 ta qishloq kirgan[202].

Taniqli sharqshunos olim V.V. Bartoldning tadqiqotlariga ko'ra, Sherobod shahri hozirgi nomini XVIII asrning boshlarida qabul qilgan. Bu nom qal'a qurgan qo'ng'irot urug'idan chiqqan hukmdor Sher Ali (Sheralixon) nomi bilan bog'liq deb hisoblanadi. Bartoldning fikricha, shahar nomi shu hukmdor nomidan olingan

[200] Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Санк-Петербург, 1879. (Buxoro xonligi ocherklari. Rus tilidan Ismoil Botirov tarjimasi.-Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B.83)
[201] O'sha asar. – B.5
[202] Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – Санк-Петербург, 1879. С.180

bo'lishi mumkin.

Shaharning nomi haqida yana bir alternativ nazariya mavjud bo'lib, "Sherobod" atamasi "bosh rabot" (asosiy bekat yoki markaziy stansiya) ma'nosini anglatishi mumkin. Bu taxmin shaharning mintaqadagi muhim transport va savdo yo'llarining chorrahasi bo'lgan strategik ahamiyatiga asoslanadi[203].

Sherobod daryosi oqib o'tadigan tog' darasi bo'ylab o'tgan savdo yo'li Turkistonni Afg'oniston va Hindiston bilan bog'lovchi muhim transport arteriyasi hisoblangan. Shahardan taxminan 3 kilometr shimolda joylashgan Nondahana ("non yo'li") istehkomi bu yo'ldagi asosiy nazorat punkti bo'lib xizmat qilgan. XIX-XX asr boshlarida bu inshoot boj yig'ish markazi sifatida faoliyat yuritganligi sababli shunday nom olgan.

Suv taqsimoti va strategik ahamiyati. Nondahana hududi Sherobod daryosidan ajralib chiqadigan ko'plab kanal va ariqlarning boshlanish nuqtasi bo'lgan. Bu xususiyat uni nafaqat savdo yo'llarining muhim tuguni, balki mintaqaviy suv resurslarini taqsimlash markaziga ham aylantirgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Sherobod Buxoro amirligining eng yirik va ahamiyatli bekliklaridan biriga aylangan bo'lib, bu uning geosiyosiy va iqtisodiy o'rni bilan bog'liq edi[204].

Sherobod bekligidagi kabi amirlikning strategik hududlaridan biri Denov bekligida ham amloklik soni ijtimoiy-siyosiy vaziyat tufayli o'zgarib turgan. XVIII asr ikkinchi yarmidan XIX asr o'rtalariga qadar beklikda Sino, Qarluq, Po'stindara, Xidrasha (Xidirsho), Do'rmon va Gardiqo'rg'on[205] amlokliklar bo'lgan.

XVIII asrdan XX asr boshlarigacha Denov Buxoro amirligining alohida bekligi bo'lgan.

Bek (o'ziga biriktirilgan ma'lum bir tumanni boshqarib, to'qsoba (hozirgi vaqtda podpolkovnik) unvonidan dodxoh (h.v. general leytenant) unvonigacha ko'tarilish mumkin bo'lgan(_-ilova). Buxoro amirligida 25 ta beklik mavjud

[203] O'sha asar.- B 205. (Yana qarang. Ртвеладзе Э. Аминов М. Сурхондарё. – Тошкент: Қомуслар, 1996-Б.127.)
[204] Ртвеладзе Э. Аминов М. Сурхондарё. – Тошкент: Қомуслар, 1996-Б. 206.
[205] ازم آ،ا-۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۷۱- کار، ۹۴- ورق. ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 71 -ish, –V.94.)



bo'lib, bekliklarni katta huquqqa ega bo'lgan bek boshqargan[206]. Amirlik xizmatida faoliyat yuritgan barcha mansabdorlarga ham xazinadan maosh to'lanmagan.

Bekning huzurida shaxsan o'zi tomonidan tayinlangan quyidagi mansablar bo'lgan:

1) Mirza – kotib, mavjud bo'lgan har bir beklikda ularning soni bittadan uchtagacha;

2) Yasovulboshi – bekning o'ng qo'li, uning eng yaqin va ishonchli yordamchisi, harbiy unvon bo'yicha miroxurdan to'qsobagacha bo'lgan lavozim. Katta bekliklarda ularning soni ikkita bo'lib, birinchi va ikkinchi yasovulboshi deyilgan;

3) Yasovul – yasovulboshining yordamchisi, bittadan uchtagacha ba'zida undan ham ko'p;

4) Shogirdpesha* – mulozimlar, qo'rg'onda ularning soni 50 nafardan 200 nafargacha bo'lib, navkar darajasidan miroxurgacha ko'tarilgan;

5) Devonbegi – kirim chiqim ishlari bilan shug'ullangan;

6) Mirshab – shahar aholisi tinchligini himoya qilgan. Uning qo'l ostida shogugard – tungi qorovullar bo'lgan;

7) Aminonachi – soliq yig'ish ishlariga boshchilik qilgan, uning qo'l ostida bozorlardan soliq yig'uvchi almagirlar bo'lgan;

8) Mahramlar – bek qarorgohida alohida xizmat topshiriqlarini bajaruvchilar, bu lavozimga bekka yaqin xizmatchilar tayinlangan;

9) Sharbatdor – kunlik yoki bayram va marosimlar vaqtida bekning dasturxonchisi;

[206] Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Т., 2006. – Б.54
* "Shogirdpesha" Buxoro amirligining ma'muriy xizmatchilari tarkibida alohida o'rin tutuvchi guruh bo'lgan. Ularning yoshi cheklanmagan bo'lib, xizmatchilar orasida 20 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan shaxslarni uchratish mumkin edi. Arkda, asosan, 300 dan 400 nafargacha shogirdpesha xizmat qilgan. Ular, odatda, qo'shbegi (bosh vazir) tomonidan beriladigan turli topshiriqlarni bajarish va zaruriyat tug'ilganda jo'natish uchun jalb qilingan. Shogirdpeshalarning 40 nafari doimiy ravishda amir huzurida bo'lib, uning safarlari va ko'chishlarida hamrohlik qilgan; bu guruh har 15 kunda almashtirilgan. Har bir shogirdpesha o'ziga shaxsiy ot (uloq) tutgan, chunki berilgan topshiriqlarni bajarish uchun otda harakatlanish zarur edi. Ularning maoshi xizmat muddati va ko'rsatgan xizmatlariga qarab 40 dan 100 tangagacha miqdorda berilgan. (Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (кремль) Бухары в конце XIX – начале XX вв. Душанбе, 1972.-С.78.)

10) Darg'aboshi – bekning tuyaxonasi boshlig'i;

11) Miroxurboshi – bekning otxonasi boshlig'i;

12) Farroshboshi – oshxona boshlig'i;

13) To'pchiboshi – beklikdagi jinoyatchi mahbuslar saqlanadigan zindonga, favqulodda hollarda esa harbiy ahamiyatga ega bo'lib, u o'qchilar va qal'aga boshchilik qilgan;

14) Tarjimon (rus tilidan) – u faqatgina rus qo'shinlari yoki harbiy qismlari joylashtirilgan bekliklarda mavjud bo'lgan;

15) Bozor oqsoqollari – ular asosan haftasiga bir kun bo'lgan bozorlarda sotilgan chorva mollaridan soliq yig'ishgan;

16) Navkarlar – ularning soni 200 nafardan 300 nafargacha bo'lib, qorovulbegi lavozimigacha ko'tarilgan;

17) Yuqoridagi mansablardan tashqari beklikda quyi pog'onadagi xizmatchilar ham bo'lgan. Ular saislar (otboqarlar), bakovullar (oshpazlar) va dekshular (idish-tovoq yuvuvchilar) hisoblangan[207];

18) Bekliklar amlokliklarga bo'linib, hududni beklar tomonidan tayinlangan amlokdorlar tomonidan boshqarilgan[208].

S.N.Tursunov bekliklar ma'muriy tuzilishi bo'yicha quyidagicha boshqarilishini yozadi: bek, beklik yoki viloyat ijrochisi, bek dasturxonchisi-iqtisodchi yordamchi, har bir beklikda ikkitadan zakotchi, soliq xizmatchilari, birinchisi bek saroyida rezident, keyingisi aholi xonadonlaridan soliq yig'uvchi. Navkar- mirshab xizmatchisi, tunda navbatchilik qiluvchi.

Shuningdek, dorug'a-mavsumda hosil yig'ish va soliq to'plash choralarini bajaruvchi, amlokdor uning vazifasi o'z amlokligidagi aholidan turli-tuman soliq va yig'imlarni yig'ishdan iborat bo'lgan[209]. Amlokdorlar dehqonlar yetishtirgan hosilni hisoblash jarayonida soliq to'lamagan dehqonlarni jazolash, ularga jarima solish kabi ishlarni bajarganlar. Ular qo'l ostida kotib, mirob, amin va oqsoqollar

[207] Холикулов А.Б. XIX-XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. -Тошкент, 2011. -Б.122. (Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом...- С.242).
[208] O'sha dissertatsiya. -B. 125.
[209] Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Т., 2006.- Б.54.



xizmat qilgan.

Kotib amlokdor yozuvchisi ya'ni, amlokdor dehqonlar tomonidan yetishtirilgan hosildan soliq undirib olganidan so'ng, uning miqdorini hujjatga tushirish va soliqlarni bek ixtiyoriga jo'natishda xatlarning ijrochisi hisoblangan. Amin lavozimidagi mansabdor amlokdor yordamchisi bo'lib, aholidan soliq yig'ish va ularni nazorat ostida saqlab turishda yordam bergan. Ular mahalliy mayda mansabdorlardan tayinlangan. Bu mansabdagi shaxslar o'z vazifasini olib borayotgan hududidagi barcha yo'llar, dovonlar, daryolar kechuvlari, aholining turmush sharoitini boshqa mansabdorlarga nisbatan yaxshi bilganlar[210].

Oqsoqol (hozirgi vaqtda mahalla raisi lavozimiga teng) lavozimidagi mansabdor esa har bir qishloqda katta e'tiborga ega bo'lgan shaxs hisoblangan. U saylash yo'li bilan bek tomonidan tayinlangan. Arboblar — tojiklar yashaydigan qishloqlarni, elbegi esa ko'chmanchi chorvador aholi yashaydigan aholini boshqaradigan oqsoqollar tomonidan idora qilingan.

Oqsoqollar lavozim bo'yicha qorovulbegidan biy darajasiga ko'tarilgan. Ular har bir beklikda 5 nafardan 10 nafargacha bo'lishgan. Bundan tashqari ular bekning turli xil topshiriqlarini bajarishib, o'z lavozimlarida muntazam va doimiy faoliyat ko'rsatib, beklikda bek almashgan taqdirda ham ular o'z lavozimida qolgan[211]. Oqsoqolning vazifasi aholining kundalik ichki ishlarini hal etish, marosim va urf-odatlarning bajarilishini nazorat qilish hamda qishloq aholisi o'rtasidagi har-xil nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, oqsoqol soliqlar yig'ilayotganda o'z hududidagi yerlarning unumdorligi va hosilning miqdoriga qarab, iloji boricha dehqonlar tarafini olib, zakotchi tomonidan qilingan insofsizliklarga qarshi kurashgan.

Bekliklardagi yuqoridagi lavozimlardan tashqari har bir amlokdorda mirob, zakotchi va darg'aboshi lavozimidagi shaxslar bo'lgan. Bu lavozimdagi shaxslarning ham ishlari taqsimlangan bo'lib, amlokdorliklardagi muhim lavozimlardan biri bu miroblik bo'lib, u hududda suv taqsimoti va sug'orish tizimi

[210] Қобулов Э.А. Сурхон воҳаси хўжалиги. Б.73.
[211] Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – СПб., 1911. – Т.I. –С. 241.

ustidan nazorat qilgan. Mirobboshi-bosh sug'orish tizimi hisoblangan magistral kanallardan katta ariqlarga suv taqsimlash ishlari bilan, ariq oqsoqollari-katta ariqlardan qishloq ariqlariga suv taqsimlash ishi bilan, qishloq mirobi esa qishloq ariqlaridan shox ariqlariga va dahanalarga suv taqsimlash ishlari bilan shug'ullangan. Miroblar kuz faslida dehqonlardan mirobona solig'ini olganlar[212]. Zakotchi va darg'aboshi soliqlarning to'lanishi to'g'risida ma'lumot yig'ishgan. Bekliklarning har birida ikki nafardan zakotchi bo'lib, birinchisi qo'rg'onda yashab bek yonida bo'lgan, ikkinchisi beklikka bo'ysunuvchi hududlarga borib, mulkka ega bo'lgan shaxslarga zakot miqdorini belgilagan. 1900-yillarda har bir beklikda amaldorlar soni o'rtacha 200-300 kishiga etgan.

1903-yilda Ko'lobda 5 yil davomida beshta, Baljuvon, Hisor, Qubodiyon va Sherobodda esa uchtadan bek almashtirildi[213]. U.A.Boris I.T.Poslavskiylar Buxoroni tasvirlab, u yerda turli millatga mansub aholi yashaganliklarini keltirib o'tadilar. I.T.Poslavskiy shunday yozadi: «O'zbeklar va tojiklar (eroniylar) asosiy qismini tashkil qiladi, aralash bo'lsa ham, ko'rinadiki, o'zbeklar asosan sharqiy, eroniylar esa g'arbiy qismida yashagan.

Shuningdek, O.A.Suxareva aholining etnik tarkibi muammosini hal qilish uchun statistik materiallar birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Aholini ro'yxatga olish Buxoroda inqilobdan keyingina paydo bo'ldi. Agar Rossiyada Turkistonda 1897-yildan boshlab aholini ro'yxatga olish qayta-qayta o'tkazilgan bo'lsa, inqilobgacha Buxoro va Xiva xonliklari hududida demografik aholi ro'yxati o'tkazilmagan, etnik tarkibni o'rganish inqilobdan keyingina milliy chegaralash vazifalari bilan bog'liq holda tashkil etilganligini ta'kidlaydi[214].

XVIII asr boshlaridagi manbalarda Termiz qo'ng'irot urug'idan chiqqan Sheralixon tasarrufida bo'lganligi eslatib o'tiladi. Keyinchalik Joniylar( davlati ijtimoiy –iqtisodiy va siyosiy tanazzulga uchrab, ko'plab shaharlar singari Termiz

[212] Чориев З. Тарих атамаларининг киска изохли луғати. -Т.:Шарк, 2002. – Б. 150.
[213] Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и западный Памир в конце XIX века). –Москва.: 1958. -С.14.
[214] Сухарева О. А. Бухара XIX –начого XX-в. (Позднефеодальнны город и его население). — М.:1966.-С. 120-121.



ham xarobaga aylanadi. 1758-yil Muhammad Rahimbiy Termizni tikladi[215].

XIX asrning ikkinchi yarmida ikkita qishloq Amudaryo bo'yida Pattakesar hamda mo'g'ul Termizining shimoli sharqiy chekkasida Solihobodlar mavjud edi. Solihobod qishlog'ida Termiz sayyidlari istiqomat qilardi. Eski shaharlar o'rnidagi joylarni mahalliy aholi Termiz (shahar, qal'a) Shahri G'ulg'ul (shaharning janubiy qismi) va shahri Somon (o'sha shaharning shimoliy qismi) deb atardilar. XIX asrning 90-yillarida Pattakesar yaqinida rus harbiylari "Termiz chegarasi" istehkomini barpo qilishgan, hamda katta bo'lmagan, lekin yaxshi rejalashtirilgan chegara shaharchasi bunyod etildi. Shundan so'ng hozirgi Termiz uning negizida vujudga keldi[216].

A.F.Gubarevich-Radobilsko ma'lumotlariga ko'ra, deya yozadi B.Iskandarov XX asr boshlarida ya'ni, Buxoro amirligi hududiga Surxon vohasi qo'shib olinganidan keyin, amirlik aholisi 2,5-3 mln. kishini tashkil etgan, qariyb 1 mln kishi yangi qo'shib olingan yerlar aholisi edi[217]. Pokotiloning bergan ma'lumotlariga qaraganda Surxon vohasi hududidagi bekliklardan Boysunda-30 ming, Sherobodda-45 ming, Denovda-50 ming nafardan aholi istiqomat qilgan[218] (Bu davrda Yurchi, Denov bekligining amlokdorliklaridan biri bo'lgan).

Masalan XIX-XX asr boshlarida Sherobod bekligiga tobe bo'lgan amlokliklar nomlari va hovlilar soni quyidagilardan iborat bo'lgan:

-Tallashqon amlokligi Sherobod daryosi bo'ylarida joylashgan bo'lib, hovlilar umumiy soni 2,800 ta;

- Said-obod amlokligi Ko'hitang cho'lida joylashgan bo'lib, hovlilar umumiy soni 3,300 ta;

- Tallimarjon amlokligi Qiziriq cho'lida joylashgan bo'lib, hovlilar umumiy soni 2,600 ta;

- Jarqo'rg'on amlokligi Surxondaryo bo'yida joylashgan bo'lib, hovlilar

[215] Ртвеладзе Э, Пидаев Ш, Кочнев Б. Термиз. Шарк.Тошкент, 2001. Б. 34 (Yana qarang: Бартольд В.В. Термиз // Соч. Т. III. М., 1965. -С. 159)
[216] O'sha asar. B. 35
[217] Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и западный Памир в конце XIX века). -Москва. 1958 -С.9
[218] Покотило.Н.Н. Отчет о поездке въ пределы центральной и Восточней Бухары въ 1886 году. –Тошкент, 1888. -С. 60.

umumiy soni 2000 ta;

- Salovot (Saliobod) amlokligi Surxondaryo bo'yida joylashgan bo'lib, hovlilar umumiy soni 300 ta;

- Sherobod shahri Sherobod daryosi yonida joylashgan bo'lib, hovlilar umumiy soni 1000 ta;

- Har bir xo'jalikka 3 kishi to'g'ri kelgan. Aholi soni 45 000 nafar kishi bo'lgan.

Denov bekligi amlokdorliklari qishloqlari nomlari va aholi soni haqida ham ma'lumotlar mavjud (2.1-jadvalga qarang).

Gardiqo'rg'on amlokdorligi Denov shahrining rabotini ham o'z ichiga olgan. Shuning uchun Denov shahrida qal'a ahli bilan qo'shib hisoblaganda 30 xo'jalik aholi yashagan[219].

Denov bekligi tarkibiga kirishi arafasida Yurchi bekligida 5 ta amloklik bo'lib, aholi joylashuvi bo'yicha Sangardakda 48 ta hovlida 240 nafar kishi, Poshorda 48 ta hovlida 240 nafar kishi, Chambuloqlarda 16 ta hovlida 80 nafar kishi, O'rtaqurida 16 ta hovlida 80 nafar kishi, Yurchi shahrida 200 ta hovlida 1200 nafar kishi istiqomat qilgan[220].

Yurchi shahri o'rta asrlardagi Sangardak o'rnida, ya'ni Qizilsuvning chap qirg'og'ida barpo etilgan. XIX asr ikkinchi yarmidan beklik Denovga qaram amloklik sifatida mavjud edi.

Fuqaro Andreyevning Sariosiyo bekligi haqidagi maqolasida, Hisordan Sariosiyo shahrigacha 90-100 verst masofa bor. Bu shahar yaqin-yaqingacha bevosita Hisor bekligi tarkibiga kirgan. Hisor begi qo'shbegiga Sariosiyoni Hisordan ajratib, unda maxsus mulk qilib bergan. Hisor begi esa bularning barini Sariosiyo begi etib tayinlangan o'g'li uchun qildi. Sariosiyo — rus tiliga tarjima qilinganda — bosh tegirmon. Ilgari, ruslar Turkistonga kelgunga qadar, shaharni hisobga olmaganda, Sariosiyoning atrofdagi barcha qishloqlari juda katta

[219] Қобилов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. (XIX – XX аср бошларида). –Тошкент: Akademnashr, 2012. – B. 84-86. (Yana qarang. Сборник географических, типографических материалов по Азии. -С.Петербург, 1894.- С.134.)

[220] ازم‌ا، ا-۱۲۶-سرمایه، ۲-لیست، ۷۱-کار، ۸۵-ورق. (O'zMA.I-126-jamg'arma, 2-ro'yxat, 71-ish, V-85.)



maydonlarga bug'doy va sholi ekishgan[221].

1868-yildan Boysun alohida mustaqil beklik sifatida qayd etiladi. Beklikning tashkil topishi va hududiy kengayishi amir oldida ko'rsatgan xizmatiga ham ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. 1868-yilda Muzaffarxon tomonidan Abdulmalik Kattato'ra isyonini bostirishda ko'rsatgan sadoqati uchun amirning sadoqatli beklaridan biri bo'lgan Boysun begi Muhammad Yusuf tortuvliga hududdan uzoqda joylashgan bo'lsa-da Zarabog', Buzravot, Poshxo'rd va Kakaydi amloklari unga olib berilgan. Bu davrda Boysun bekligi Boysun, Yayumchi, Rabot, Darband, Sayrob, Xatak, Zarabog', Poshhurd, Buzravot va Kakaydi amlokdorliklaridan iborat edi[222].

Darband (forscha. "yopiq eshik") go'yoki tartibsiz joylashgan tog'lar o'rtasida tep-tekis makonlar ustida ajoyib bog'lari va ekin maydonlari yastanib yotgan qishloqdir. Aholisi tojiklar bo'lib, uncha boy bo'lmagan tog' qishlog'idir. Darbandda ikki dara o'rtasida 500 ta xonadon mavjud bo'lgan[223].

N.A.Maev 1869-yilgi sayohatida Serob (suv mo'l) qishlog'ida 200 ta xonadon mavjudligi, Darband qishlog'idan qolishmasligi, bu qishloq aholisi ham boshdan oyoq tojiklar bo'lganligini keltirgan. Shuningdek , qishloqning ko'rki bo'lib turgan ulkan chinorlar haqida to'xtalib, aylanasi 20 qadam, yon tomondan chiqqan shohlarning uzunligi 3-4 metr kelishi, chinor tanasining ichida uzunligi va eni 10 qadamdan keladigan kattagina va shinam xonada maktab joylashganligi, uning yonida kattaligi xuddi shuncha keladigan boshqa ulkan chinor ham ko'rganligini keltiradi[224].

Sharqiy Buxoro arablarining so'zlashuv tili o'zbek yoki tojik tili bo'lib, Sherobod (132 nafar kishi), Boysun (6 nafar kishi) shaharlarida jami 741 nafar kishi, Denov shahrida (150 nafar kishi) istiqomat qilgan. Buxoro amirligi hududida amirlik aholisining kichik qismini arablar tashkil etib, ular asosan Sherobod bekligida

[221] Туркестанские ведомости. 1916., 30 (13 май) апрель. – В.3.

[222] میرزا عبدالعظیمی سامی تاریخ سلاطین منغیتیه. ۱۹۶۲، ۱۰۸ - ورق (Mirza Abdal Azim Sami. Tarix-i salatin-i manghitiya. 1962.-V.108)

[223] Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – С.78.

[224] O'sha asar. – B.79.

joylashgan Rabatak qishlog'ida o'zbekzabon arablar istiqomat qilishgan[225]. Shuningdek, Buxoro amirligi hududida forsiylar, yahudiylar, hindlar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiqlar ham yashashgan. Qalmiqlar Buxoro shahrida qoraqalpoqlar esa Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, qozoqlar esa Buxoro amirligining shimoliy-sharqiy qismida istiqomat qilishgan.

Buxoroda nihoyatda oz miqdorda Rossiya fuqaroligiga mansub bo'lgan va asosan savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lgan tatarlar ham istiqomat qilishgan.

Rossiya Davlat Harbiy tarix arxivi jamlanmalarida saqlanayotgan Buxoro qo'shbegisi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga qaraganda, "XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisining umumiy soni 2 mln. 153 ming 240 kishini" tashkil etib, ushbu davrda Buxoro amirligi poytaxti Buxoro bilan bir qatorda 20 ta beklik va 9 ta mustaqil tumanlar mavjud bo'lgan[226].

XIX asr boshlarida Denov bekligida jami 48 400 nafar aholi istiqomat qilgan bo'lib, uning markazi hisoblangan Denov shahrida 6 ming kishi yashagan. Beklik tarkibidagi oltita amloko'rdan iborat hududlarda aholining taqsimlanishi quyidagicha bo'lgan:

- **Sina amlokdorligi** – 1 130 ta xo'jalikda 5 650 nafar kishi;
- **Qarluq amlokdorligi** – 610 ta xo'jalikda 3 050 nafar kishi;
- **Po'stindara amlokdorligi** – 365 ta xo'jalikda 1 775 nafar kishi;
- **Xidirsho amlokdorligi** – 485 ta xo'jalikda 2 425 nafar kishi;
- **Do'rmon amlokdorligi** – 295 ta xo'jalikda 1 475 nafar kishi;
- **Gardaqo'rg'on amlokdorligi** – 325 ta xo'jalikda 1 475 nafar kishi.

Umumiy hisobda, ushbu amloko'rliklar bo'yicha 4 595 ta xo'jalikda 25 523 nafar aholi istiqomat qilgan[227].

Hududning markazi o'zgargandan so'ng hozirgi Denov atrofi gavjum aholi yashaydigan maskanga aylangan. Bekliklarda sud ishlari amir tomonidan tayinlangan qozi tomonidan olib borilgan[228].

225 Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана,-М.: Наука,1977.-С.111-112
226 Холиқова Р. Россия-Бухоро: тарих чорраҳасида. -Т.: Ўқитувчи, 2005,-Б.80.
227 Турсунов С., Турдиев Т. Денов -Тошкент. "Фан" 2009 й. -Б.151.
228 ازم ا، ١٢٦- سرمایه، ١- لیست، ٤٩- کار، ١- ورق. ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 49 -ish, -V.1.)



Qozilar odatda ma'lumot bo'yicha oliy madrasani tugatgan, shariat qonunlarini yaxshi biladigan va boshqa tajribali kishilar orasidan amir tomonidan tayinlangan. Beklikdagi boshqaruv tizimining o'rta bo'g'ini bosh qozi – qozikalonga bo'ysunuvchi qozining zimmasida bo'lib, beklikdagi meros, tovar-pul munosabatlari, jinoiy hamda fuqarolik ishlarini olib borgan. Qozilar qoida bo'yicha bekka bo'ysunmagan, lekin ba'zi hollarda sud ishlarini maslahat tariqasida bek va raisga yuborganlar. Beklar qo'shbegiga bo'ysungan[229].

Amirlik viloyatlarini amir tomonidan tayinlangan qo'shbegi, biy, dodxoh, sudur, devonbegi, to'qsoba unvonidagi amaldorlar boshqargan. Masalan, Sharqiy Buxoro bekliklaridan Hisorda Ostonaqulbek biy kulli qo'shbegi, Boysunda Mirza Salimbek, Sherobodda Abdulhofizbek biy dodxoh va boshqalar hokimlik qilganlar[230].

Amirlik ma'muriy boshqaruv tizimida nafaqat bek, balkim amlokdorlarga oz bo'lsa-da mablag' ajratilgan. Masalan: Sherobod bekligi amlokdorlariga bir yilga 50 rubl va 400 pud bug'doy va sholi ajratilgan. Bu mahalliy narxda 220 rublni tashkil etadi. Ba'zi holatlarda beklikdagi zakot olish, jumladan zakoti savoim – sotib beradigan moldan olinadigan zakot ijaraga berilgan[231].

Daryolar. Markaziy Buxoro xonlikning boshqa hududlariga nisbatan mo'l ko'l sug'oriladi. Hisor tizmasining qorli cho'qqilari Amudaryo tomon umumiy yo'nalishga ega bo'lgan ko'plab daryolarni keltirib chiqaradi. Ulardan asosiylari Shahrisabz vodiysini sug'oradigan Qashqadaryo, so'ngra Surxon, Kofirnihon, Vaxsh va eng so'nggi paydo bo'layotgani Qizilsuv (Ko'lob) Qorategin va Darvoz tog'larida joylashgan bir qancha irmoqlardan tashkil topgan.

**Amudaryo.** Yuqorida keltirilgan daryolarning asosiysi, o'zining kattaligi va suvining ko'pligi jihatdan ham albatta (Afg'oniston bilan chegarada oqadi) Amudaryodir. Vaxsh daryosining quyilish joyida joylashgan Amudaryo yuqori qismi Panj deb ataladi[232].

229 Холикулов А.Б. XIX-XX аср бошларида Кашкадарё бекликлари. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. -Тошкент, 2011 -Б.127.
230 ازم ا، ١٢٦- سرمایه، ١- لیست، ٤٨- کار، ١- ٢ورق ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 48 -ish, -V.1-2.)
231 ازم ا، ١٢٦- سرمایه، ١- لیست، ٧٦٧- کار، ١- ورق ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 767 -ish, -V.1.)
232 Покотило Н.Н. Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г. – Ташкент: Окружного штаба,

Pomir tog'laridan oqib o'tuvchi irmoqlar 5 ta "Panj (Oksa) o'zanlarini to'ldiradi. 1) Vaxondaryoning eng janubiy irmog'i Kichik Pomirda Chammaktinko'l ko'li yaqinida boshlanib, deyarli to'g'ri g'arbiy yo'nalishda oqadi 130 verst. 2) Yana bir manba — katta Pomir daryosi — Zorko'l ko'lidan oqib chiqib, janubi-g'arbga, Zung qishlog'i yaqinida Vahondaryo bilan tutashadigan tomonga 85 verst oqadi. U yerdan shimolga keskin buriladi va meridian yo'nalishi bo'yicha 140 verst Qala i-Vamaragacha oqadi. 3) 80 verst "Ishkashinskdan pastda Gunt daryosini o'ng tomondan qabul qiladi" va undan 60 verst pastroqda 4) Murg'ob Gunta daryosi "Yashil ko'li"dan boshlanadi. -Ko'l Alichur bo'yida joylashgan bo'lib, u chap tomondan muhim irmoqlar — Koitesyak va Shoh-dara bilan to'ldiriladi. Guntaning uzunligi 135 verst, Murg'ob — Panjning baland irmog'i Chammaktin-ko'lidan oqib chiqadi. Katta Pomir va Oq mulki ostidan oqadi 5) Birinchi shimoli-g'arbiy yo'nalishda 70 vers.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Surxon vohasining ma'muriy-boshqaruv tizimida an'anaviy tuzilmalarning asosiy elementlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, mahalliy tarixchilarning tadqiqotlari va arxiv hujjatlarining ko'rsatishicha, bu tizim sezilarli o'zgarishlarga duchor bo'lgan. Ushbu transformatsiya jarayonlari asosan amirlik markaziy hukumatining ichki siyosati va iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan.

**Xulosa.** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligi ma'muriy tizimida an'anaviy bekliklar saqlanib qolgan bo'lsa-da, markazlashuv siyosati natijasida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. 1915-yilga kelib amirlik 27 ta beklik va 11 ta tumanga bo'lingan bo'lib, bek tayinlashda meros emas, balki amirga sodiqlik asosiy mezon bo'ldi. Aholi punktlari asosan Surxondaryo, Sherobod va Zarafshon daryolari bo'ylarida shakllangan bo'lib, ularning nomlanishi mahalliy madaniy an'analarni aks ettirdi.

Ushbu ma'muriy tizimning evolyutsiyasi markaziy hokimiyatning kuchayishi, iqtisodiy o'zgarishlar va mintaqaviy boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'ldi. Bugungi kunda bu tarixiy tuzilmani viloyatlar va

1888-C.32.



tumanlar tizimi bilan taqqoslash mumkin bo'lib, u O'zbekistonning hozirgi ma'muriy-hududiy bo'linishiga asos bo'lgan an'analarni saqlab qolgan.

XVI asr oxiriga kelib hozirgi Surxon vohasi hududidagi Qizilsuvning yuqori havzasida Deh-i-nau (Denov) shakllandi va vaqt o'tishi bilan hudud iqlimi tabiiy sharoitiga mos ravishda hukumatni boshqarayotgan shaxslarning boshqaruviga bog'liq holda rivojlanib bordi;

- Rossiya imperiyasi istilosi arafasida hozirgi Surxon vohasidagi Denov bekligi Buxoro amirligining "Sharqiy yerlari" yoki Sharqiy Buxoro deb atalgan hududiga kirgan. 1914-yilda yozilgan Denov bekligiga qarashli Yurchi qishlog'idagi unter-ofitser (zobit) Golovoshenko bilan Rossiya imperiyasi siyosiy agentligi o'rtasidagi yozishmalarda Rossiya imperiyasining Surxon vohasi ma'naviy hayotiga munosabati hududdagi boshqaruv, aholining ma'naviy hayotga bildirayotgan fikrlari va unga Rossiya imperiyasi siyosiy agentligining aholiga nisbatan qat'iy ko'rgan choralari haqida to'xtalib o'tilgan;

- Shuningdek, XVIII asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlariga qadar Buxoro amirligi tarkibiga kirgan hozirgi Surxon vohasi hududi siyosiy jihatdan bo'linib, barqaror va markazlashgan ma'muriy boshqaruv tizimiga ega emas edi.

-Mazkur davrda amirlik hududlaridagi amaldorlar o'rniga amirlar ko'pincha o'zlarining yaqin qarindoshlari yoki ishonchli shaxslarini beklik lavozimiga tayinlagan. Hozirgi davr kontekstida bek lavozimini faoliyat jihatidan hokim lavozimiga, bekliklarni esa viloyatlarga qiyoslash mumkin.

- Buxoro amirligi davrida yangi aholi punktlari asosan sug'orish qulay bo'lgan daryo bo'ylari va vohalarda shakllangan. Bu hududlarda qishloq xo'jaligi uchun qulay sharoit mavjud bo'lib, aholi punktlari daryolar va savdo yo'llari atrofida strategik tarzda joylashtirilgan. Shaharlar ko'pincha savdo yo'llari kesishgan joylarda, qishloqlar esa suv taqsimoti tizimiga mos ravishda barpo etilgan. Bekliklar tizimi bu aholi punktlarining tartibli rivojlanishini ta'minlagan bo'lib, natijada mintaqada muvozanatli aholi taqshomoti shakllangan.

-Surxondaryo, Sherobod, Zarafshon, Amudaryo kabi daryolar asosiy va tarmoq daryolardan hisoblanib, ushbu daryolar atrofida aholi manzillarining

mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

- Aholi manzillari nomlanishida o'zaro farqlar mavjud bo'lishi ularning mahalliy an'analarga bog'liq bo'lganligida kuzatiladi.

Shuningdek, hozirgi kunda ma'muriy birlik bo'yicha tumanga tenglashtiriladigan amloklarning toponimik ma'no doirasi juda keng bo'lgan bo'lib, ularda hududlarning relyef tuzilishi, inshootlar, daryo va kanallar, lavozim va daraja nomlari, urug' va elat nomlari, kasblarning nomlanishi, aholi uchun muqaddas hisoblangan ziyoratgohlar bilan bog'liq qarashlar, xo'jalikda ishlab chiqarish, hunarmandchilikdagi kasbiy tushunchalar va boshqa ko'plab unsurlar shakllantiruvchi, ma'no tashuvchi vazifasini o'tagan. Bu tushunchalar, o'z navbatida, Buxoro amirligining shu bilan birga Surxon vohasi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy tarixiga xos dalillardir.

Buxoro amirligi va Surxon vohasiga oid tarixiy joy nomlarini tizimli o'rganish mintaqaning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv nafaqat amirlik tarkibidagi Surxon vohasi aholisining etnik va ijtimoiy tarkibi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi, balki hududning ma'muriy tuzilishi va davlat boshqaruvining geografik asoslarini tahlil qilish imkonini ham yaratadi. Toponimik tadqiqotlar mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixini yoritishda muhim manba vazifasini o'tadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, Surxon vohasining Buxoro amirligi Qo'shbegi arxivi manbalari asosida ma'muriy tizimiga oid tarixiy toponimlarni tasnif asosida tahlil etishga harakat qilamiz.



# III BOB. BUXORO AMIRLIGI IQTISODIY HAYOTIDA VOHANING O'RNI

## 3.1§. Surxon vohasining agrar tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari

Hozirgi kunda O'zbekistonda har bir hududning tarixiy merosini o'rganishga qiziqish kuchayib bormoqda. Ayniqsa, Surxon vohasining qishloq xo'jaligi sohasidagi soliq tizimi - bekliklar davridagi soliq to'lash tartibi, soliq turlari va undirish usullari haqidagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Buxoro amirligi tarkibidagi bekliklarda qo'llanilgan soliq tizimining o'xshash va farqli jihatlarini o'rganish uchun Buxoro Qo'shbegi arxividagi materiallar va O'zbekiston Milliy arxivining I-126 fondidagi hujjatlar muhim manba hisoblanadi. Bu mavzuda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish mintaqaning iqtisodiy tarixini yoritishda muhim qadam bo'ladi[233].

Buxoro amirligi davrida Surxon vohasi xo'jaligi to'g'risida E.A. Qobulov[234] janubiy O'zbekistonning tarixiy geografik o'rni va aholisi, ma'muriy boshqaruv va ijtimoiy-siyosiy hayoti, XIX-XX asr boshlarida Surxon vohasining iqtisodiy ahvoli borasida F. Ochildiyev[235] va Buxoro amirligida soliq tizimi va soliq boshqaruvida rasmiy hujjatlarning o'rni, zakot undirish tartiblari va uning amaliyoti, yerdan olinadigan daromad solig'i va boshqa to'lovlar haqida I.Azizov[236] kabi olimlarning tadqiqotlarida uchratamiz.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligi shaharlarida aholi sonining keskin o'sishi va tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi savdo-sotiq faoliyatining yirik miqyosda kengayishiga olib keldi. Bu jarayon aholining shaharlarga oqimi, hunarmandchilik markazlarining faollashishi va bozor

[233] ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۱۰۸۰- کار، ۲۷- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 1080 -ish, -V 27 )
ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۱۰۵۸- کار، ۲- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 1058 -ish, -V 2 )
ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۱۵۱- کار، ۱- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 151 -ish, -V 10 )
ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۷۶۱- کار، ۲- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 761 -ish, -V 2 )
ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۷۵۱- کار، ۶- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 751 -ish, -V 6 )
ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۶۰۶- کار، ۶- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 606 -ish, -V 5-6 )
ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۷۶۱- کار، ۱- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 761 -ish, -V 1 )
ازم ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۵۳۴- کار، ۱- ورق ( O'zMA. 126-fond, 1-ro'yxat, 534 -ish, -V 1 )

[234] Кобулов Э.А. Сурхон вохаси хўжалиги- 390 б.

[235] Очилдиев Ф. Сурхон вохаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошлари). -Тошкент: Абу матбуот консульт, 2008. - 168 б.

[236] Азизов И.Ш. XIX асрнинг сўнгги чораги ва XX аср бошида Бухоро амирлигида солик тизими. Тарих фан ном. ... дис. - Тошкент, 2018.

infratuzilmasining takomillashuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, mintaqaning an'anaviy iqtisodiy tizimidan zamonaviyroq ishlab chiqarish va savdo munosabatlariga o'tish davrini belgilab berdi. Shaharlarning iqtisodiy markazlarga aylanishi pul muomalasining kuchayishiga, bozorlar va do'konlar tarmog'ining rivojlanishiga, shuningdek turli sohalarda ixtisoslashuvning kuchayishiga sabab bo'ldi. Buxoro amirligi, xususan, Sharqiy bekliklarning Rossiya imperiyasi va boshqa chet el davlatlari bilan savdo aloqasining kuchayishi mahalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishga ta'sir etib, bekliklarning jahon bozoriga intilish rivojiga turtki berdi[237]. Bu esa soliq tizimida ham bir qator o'zgarish va rivojlanishga sabab bo'ldi.

Buxoro amirligida soliq tizimini boshqarishda muayyan toifadagi davlat mulozimlarigina emas, balki, amirlik mulozimlarining deyarli barchasi ishtirok etgan. Amirlikdagi mulozim va amaldorlarning nomlanishi va asl xizmat lavozimlari boshqa sohaga qaratilgan bo'lishi bilan birga soliq tizimini boshqarishda ham bevosita va bilvosita xizmat vazifalari bo'lgan. Ular o'zlarining birlamchi xizmat vazifalarini bajarish bilan birga soliq tizimida ham o'zlariga topshirilgan vazifalarni bajargan. Shu tartibga binoan Surxon vohasida ham amirlikdagi mulozim va amaldorlar o'z xizmat vazifalari bilan birga soliq tizimini boshqarishda ham ishtirok etishgan.

A.Olsufev va V.Panayevlarning ma'lumotiga ko'ra, hokimning boshqaruvi asosan amirlik xazinasi va viloyat uchun soliq yig'ishdan iborat bo'lgan. Odatda soliqlar aholidan natural ko'rinishda yig'ilgan. Hokim ham o'z o'rnida yig'ilgan soliqlarni to'n, ot, bug'doy kabilarni o'z holicha natural ko'rinishda yuborgan. Naqd pul ko'rinishidagi soliqlarni odatda savdogarlar to'lagan[238].

XIX asrda bekliklarda turli xil soliqlar nihoyat darajada ko'p bo'lib, amirlik belgilaganidan tashqari beklar ham o'z lavozimlari va huquqlaridan foydalanib, xalqni qo'shimcha soliqlarga majburiy tarzda tortgan. Surxon vohasida dehqonlardan kelishuv asosida yig'iladigan soliq turi *kafsan* bo'lib, uning miqdori

[237] Ashurov A. S. Craft and trade relations in eastern beks of the bukhara emirate //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 1376-1380.
[238] Азизов И.Ш. XIX асрнинг сўнгги чораги XX аср бошида Бухоро амирлигида солиқ тизими.: Тарих фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2018. - Б.18.



dehqon va yer egasi kelishuvi asosida belgilangan. Yer egasi tomonidan xirmonni muhrlash uchun-*muhrona* solig'i yig'ilgan. Mehnatkash xalq zimmasidagi soliq turlaridan yana biri mahalliy oqsoqollar tomonidan olingan *mushtak* (kichik musht) solig'idir. Har bir dehqon hosildan 2 kg miqdorida to'lagan.

Surxon vohasi bekliklarida *maktab puli* ota-onalar farzandlarining o'qishi uchun o'quvchilarga qo'shbegi hujjatlari asosida 15-20 tanga to'lashi qayd etilgan. Xalq ommasi ariq puli, tegirmon puli, maysa puli va xashak puli yig'imlari kabi soliqlar ortiqcha olinganidan ancha jabr ko'rgan va amirga murojaat qilishgacha borib etgan[239].

Soliqda ko'rsatilgan mahsulotlardan haq olish doimiy o'zgarib turgan. Buxoro amirligi Qo'shbegi mahkamasining hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Dehnav bekligida soliq xarajatlari yig'ilgan hosilga nisbatan 15 % miqdorda belgilangan. Masalan, Dehnav bekligida har bir mann*dan 20 funt*, ya'ni 15 barobar olingan[240]. 1885-yilda Dehnav bekligida Buxoro Qo'shbegisi hujjatlarda ko'rsatilganidan ortiqcha soliq olingan. Ayniqsa, bog' solig'i va meva solig'i kabi soliqlar ham bo'lgan. Masalan, 1 tanob* *(* – atamalar izohiga qarang)* yer 18 tangaga baholangan[241]. Buning natijasida zulmga va ortiqcha soliqqa qarshi 1885-1886-yillarda Dehnav bekligida xalq g'alayonlari bo'lib o'tgan[242]. Buxoro amiri Muzaffarxon (1860-1885) ushbu qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi.

Dehnav qozisi Mir Imomiddin amirga yozgan hisobotida haqiqatdan ham amaldorlar aholini vijdonsizlarcha talagani, eng hosildor yerlarga biror ekin ham ekilmay qolayotgani, og'ir soliqdan qiynalgan kishilar o'z joylarini tashlab ketayotganligi haqida yozadi[243].

Darhaqiqat, 1903-1904 yillarda Buxoro bekliklarida unumdor yer va suv bo'lishiga qaramay, Hisor, Dehnav, Ko'lob va Baljuvon bekliklarida aholi qishloqlarni tashlab, Afg'onistonga o'tib ketganligi haqida ma'lumotlar

[239] Кобулов Э.А. Сурхон воҳаси хўжалиги. – Б.106.
[240] اوزما ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۱۰۸۰- کار، ۲۷- ورق (O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 1080-ish, V.27.)
[241] Балжувоний М.А. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 118.
[242] Турсунов С.Н., Турдиев Т. Денов. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.147.
[243] اوزما ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۱۰۵۸- کار، ۲- ورق (O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 1058-ish, V.2.)

keltirilgan[244].

Amirlikning soliq ma'muriy hujjatlari XIX asr so'nggi choragi – XX asr boshlaridagi rus tilidagi adabiyotlar va sovet davri tadqiqotlari bilan solishtirib tahlil qilinganda, amirlik soliq tizimini boshqarishda amirlik ma'murlarining bevosita va bilvosita ishtiroki aniqlandi. Unga ko'ra, viloyat hokimi, qozi va raislarning asosiy vazifalari bilan birga bilvosita soliqlar yig'ilishi jarayonidagi mas'uliyatlari ham bo'lgan. Ular o'zlari soliq yig'ishmasa-da, yer o'lchovi, soliq haqidagi buyruqni yetkazish, soliq yig'ish jarayonini nazorat qilish, yig'ilgan soliq turi va miqdori haqida amirni xabardor qilib turish vazifalarini bajarishgan. Shu bilan birga hokim, qozi va rais o'rtasida o'zaro nazorat tizimi o'rnatilgan. Ular bir-birlarining xizmat vazifalarini qanday bajarayotganliklari haqida ham amirga hisobot berib turishgan[245].

Amirlik soliq tizimini tadqiq qilishda hujjatshunoslikning huquqiy-me'yoriy turiga mansub qonun osti hujjatlari bo'lgan hisobot shaklidagi maktublar alohida ahamiyatga egadir. Bu kabi hujjat turiga amirga bekliklardagi mulozimlar tomonidan yuborilgan xatlarni kiritishimiz mumkin.

Quyida amirlikka hisobot tarzda yuborilgan hujjatni keltirib o'tamiz. Hujjatning asl matnlari eski o'zbek yozuvi va fors alifbosida keltiriladi:

سند 2

تصدق سر مبارک جناب عالیحضرت مولا زاده ام هزاران هزار مرتبه شوم موافق مرحمت جناب عالیحضرت مولا زاده ام غایب نظر قراوول بیگی غلامشان را بحویلی آورده از املاک چولی و ترکستان استیفا کرده گی اش را خوب دقت نموده علی قدر حال از خراجات آن دخل و خرج نموده شد که

Hujjatning tarjimasi: Janobi a'lo hazrat mavlonozodamning muborak boshlaridan minglar va ming marotaba qurbon bo'lay. Janobi a'lo hazrat mavlonozodamning marhamatiga muvofiq G'oyibnazar qorovulbegi* g'ulomishonning hovlisiga kelib, Cho'li va Turkiston mulklaridan zaminlaridan hisob olganini xo'b diqqat bilan ko'rdik. Aloqadarhol (shunday ko'rinishicha)

244 ازم ا/ا-۲-سرمایه، ۱-لیست، ۲۵۱-کار، ۱۰-ورق .. ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 251 -ish, – V.10.)

245 Азизов И.Ш. XIX асрнинг сўнгги чораги XX аср бошида Бухоро амирлигида солиқ тизими.: Тарих фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2018. – Б.32.



kirim chiqimdan hisobot olindi[246].

| جمع کل | جمله شد | مقدار تنگه | وجه مصرف |
|---|---|---|---|
| نزده هزار و شش صد و چار و نیم تنگه Umumiy jami 1964,5 tanga | هشتصد و پنجاه و دو تنگه Jami 852 tanga | شب سه تنگه گی Har kechasi 3 tanga | پنجسیر گندم تیرماهی مع کاه مالی Besh serr* termohi (bug'doy navi) bug'doy mollar somoni bilan |
| سه هزار و سیصد و نود و دو تنگه Umumiy jami 3392 tanga | یک صد و نود و نه تنگه Jami 199 tanga | هفده تنگه گی 17 tangadan | پنجسیر جو Besh ser arpa |
| پنجهزار و هفتصد و نود و چهار تنگه Umumiy jami 5794 tanga | سه صد و بیست و چهار Jami 324 tanga | هژده تنگه گی 18 tangadan | پنجسیر جواری Besh ser jo'xori |
| نزده هزارو هشتصد و پنجاه و سه تنگه Umumiy jami 19853 tanga | چهار صد و هشتاد و چهار Jami 484 tanga | چهل و یک تنگه گی 41 tangadan | کنجد غوره Kunjut g'o'za |
| دو هزار و یک صد شصت تنگه Umumiy jami 2160 tanga | یکصد و شصت و شش تنگه Jami 166 tanga | سیزده تنگه گی 13 tangadan | پنج سیر ارزن Besh ser tariq |
| پنجصد و پنجاه و سه تنگه Umumiy jami 553 tanga | بیست و پنج تنگه Jami 25 tanga | دو تنگه گی 2 tangadan | پنج سیر ماش Besh ser mosh |
| | | | چار سیر کنجد 4 ser kunjud |
| سیصد و سی تنگه Umumiy jami 330 tanga | سیزده تنگه Jami 13 tanga | بیست و پنج تنگه گی 25 tangadan | پنج سیر شالی Besh ser sholi (guruch) |
| --- | یک هزار و دو صد و شصت و پنج تنگه Jami 1265 tanga | بیست تنگه گی 20 tangadan | شصت و سه طناب و چهار یک باغ و چهارباغ 63 tanob bog'u chorbog' |
| --- | دو هزار و هشت صد و سی و دو تنگه Jami 2832 tanga | نه تنگه گی 9 tangadan | سیصد و پنجاه و چهار طناب علف 354 arqa* o'tin |
| --- | --- | یک هزار و چهار صد تنگه 1400 tangadan | اجاره قوش پلی Qo'sh puli ijorasi |
| --- | پنجاه و سه هزار و دوصد و بیست و نیم | دو هزارو هشتاد و شش تنگه | نادرو ده غله O'rilmagan g'alla |

246 ازم ا/ا-۲-سرمایه، ۱-لیست، ۲۵۱-کار، ۱۰-ورق .. (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 251-ish, V.1.)

keltirilgan[244].

Amirlikning soliq ma'muriy hujjatlari XIX asr so'nggi choragi – XX asr boshlaridagi rus tilidagi adabiyotlar va sovet davri tadqiqotlari bilan solishtirib tahlil qilinganda, amirlik soliq tizimini boshqarishda amirlik ma'murlarining bevosita va bilvosita ishtiroki aniqlandi. Unga ko'ra, viloyat hokimi, qozi va raislarning asosiy vazifalari bilan birga bilvosita soliqlar yig'ilishi jarayonidagi mas'uliyatlari ham bo'lgan. Ular o'zlari soliq yig'ishmasa-da, yer o'lchovi, soliq haqidagi buyruqni yetkazish, soliq yig'ish jarayonini nazorat qilish, yig'ilgan soliq turi va miqdori haqida amirni xabardor qilib turish vazifalarini bajarishgan. Shu bilan birga hokim, qozi va rais o'rtasida o'zaro nazorat tizimi o'rnatilgan. Ular bir-birlarining xizmat vazifalarini qanday bajarayotganliklari haqida ham amirga hisobot berib turishgan[245].

Amirlik soliq tizimini tadqiq qilishda hujjatshunoslikning huquqiy-me'yoriy turiga mansub qonun osti hujjatlari bo'lgan hisobot shaklidagi maktublar alohida ahamiyatga egadir. Bu kabi hujjat turiga amirga bekliklardagi mulozimlar tomonidan yuborilgan xatlarni kiritishimiz mumkin.

Quyida amirlikka hisobot tarzda yuborilgan hujjatni keltirib o'tamiz. Hujjatning asl matnlari eski o'zbek yozuvi va fors alifbosida keltiriladi:

سند 2

جناب مرحمت موافق شوم مرتبه هزار هزاران ام زاده مولا عالیحضرت جناب مبارک سر تصدق
عالیحضرت مولا زاده ام غایب نظر قراوول بیگی غلامشان را بحویلی آورده از املاک چولی و ترکستان
استیفا کرده گی اش را خوب دقت نموده علی قدر حال از خراجات آن دخل و خرج نموده شد که

Hujjatning tarjimasi: Janobi a'lo hazrat mavlonozodamning muborak boshlaridan minglar va ming marotaba qurbon bo'lay. Janobi a'lo hazrat mavlonozodamning marhamatiga muvofiq G'oyibnazar qorovulbegi* g'ulomishonning hovlisiga kelib, Cho'li va Turkiston mulklaridan zaminlaridan hisob olganini xo'b diqqat bilan ko'rdik. Aloqadarhol (shunday ko'rinishicha)

244 ازم ا.ا-۲- سرمایه، ۱- لیست ، ۲۵۱- کار، ۱۰- ورق .. ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 251 -ish, – V.10.)
245 Азизов И.Ш. XIX асрнинг сўнгги чораги XX аср бошида Бухоро амирлигида солиқ тизими.: Тарих фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2018. – Б.32.



kirim chiqimdan hisobot olindi[246].

| جمع کل | جمله شد | مقدار تنگه | وجه مصرف |
| --- | --- | --- | --- |
| نزده هزار و شش صد و چار و نیم تنگه<br>Umumiy jami 1964,5 tanga | هشتصد و پنجاه و دو تنگه<br>Jami 852 tanga | شب سه تنگه گی<br>Har kechasi 3 tanga | پنجسیرگندم تیرماهی مع کاه مالی<br>Besh serr* termohi (bug'doy navi) bug'doy mollar somoni bilan |
| سه هزار و سیصد و نود و دو تنگه<br>Umumiy jami 3392 tanga | یک صد و نود و نه تنگه<br>Jami 199 tanga | هفده تنگه گی<br>17 tangadan | پنجسیر جو<br>Besh ser arpa |
| پنجهزار و هفتصد و نود و چهار تنگه<br>Umumiy jami 5794 tanga | سه صد و بیست و چهار<br>Jami 324 tanga | هژده تنگه گی<br>18 tangadan | پنجسیر جواری<br>Besh ser jo'xori |
| نزده هزارو هشتصد و پنجاه و سه تنگه<br>Umumiy jami 19853 tanga | چهارصد و هشتاد و چهار<br>Jami 484 tanga | چهل و یک تنگه گی<br>41 tangadan | کنجد غوزه<br>Kunjut g'o'za |
| دو هزار و یک صد شصت تنگه<br>Umumiy jami 2160 tanga | یکصد و شصت و شش تنگه<br>Jami 166 tanga | سیزده تنگه گی<br>13 tangadan | پنج سیر ارزن<br>Besh ser tariq |
| پنجصد و پنجاه و سه تنگه<br>Umumiy jami 553 tanga | بیست و پنج تنگه<br>Jami 25 tanga | دو تنگه گی<br>2 tangadan | پنج سیر ماش<br>Besh ser mosh |
| | | | چار سیر کنجد<br>4 ser kunjud |
| سیصد و سی تنگه<br>Umumiy jami 330 tanga | سیزده تنگه<br>Jami 13 tanga | بیست و پنج تنگه گی<br>25 tangadan | پنج سیر شالی<br>Besh ser sholi (guruch) |
| --- | یک هزار و دو صد و شصت و پنج تنگه<br>Jami 1265 tanga | بیست تنگه گی<br>20 tangadan | شصت و سه طناب و چهار یک باغ و چهارباغ<br>63 tanob bog'u chorbog' |
| --- | دو هزار و هشت صد و سی و دو تنگه<br>Jami 2832 tanga | نه تنگه گی<br>9 tangadan | سیصد و پنجاه و چهار طناب علف<br>354 arqa* o'tin |
| --- | --- | یک هزار و چهار صد تنگه<br>1400 tangadan | اجاره قوش پلی<br>Qo'sh puli ijorasi |
| --- | پنجاه و سه هزار و دوصد و بیست و نیم | دو هزار و هشتاد و شش تنگه | نادر وده غله<br>O'rilmagan g'alla |

246 ازم ا.ا-۲- سرمایه، ۱- لیست ، ۲۵۱- کار، ۱۰- ورق .. (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 251-ish, – V.1.)

| | | | |
|---|---|---|---|
| | تنگه Jami 53220,5 tanga | 2086 tangadan | |

جمع الجمع : غله مع نقد مع سه هزار هفت صد و پنج تنگه تنخوار و بازیافت از تنخواه بفرمایش عالی گرفته شد : پنجاه هشت هزار هفتصد بیست تنگه . امیدگاها
تصدق شوم خرج آن:

Umumiy jami: G‘alla va naqda (naqd pul) hammasi 3705 tanga tanhoxo‘r (oylikxo‘r)lardan Oliyjanobning farmoyishlari bilan olingan 58720 tanga. Umid dargohi qurboningiz bo‘lay uning xarj (xarajatlari)larining ro‘yxati:

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| سیصد چهل تنگه 340 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | چهار صد تنگه 400 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | دو هزار تنگه 2000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | یک هزار تنگه 1000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | دو هزا ر تنگه 2000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | یک هزار تنگه 1000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad |
| یک هزار 1000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | دو هزار تنگه 2000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | یکهزار تنگه 1000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | یکهزار بنجصد تنگه 1000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | یک هزار تنگه 1000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | دو هزا ر تنگه 2000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad |
| نه هزار تنگه 9000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | سه هزار تنگه 3000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | سه هزار 3000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | دو هزار 2000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | دو صد چل 240 sanad | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad | یک هزار 1000 tanga | یک سند مبارک عالی Bir muborak oliy sanad |

تارتق به دولتخانهٔ عالی سپاریده گی : هفده هزار چارصد هفتاد تنگه بوده / / / پنجاه سه هزار نه صد پنجاه تنگه

*Oliy davlatxonaga jo‘natildi: 17470 tanga /// 53950 tanga.*

بقیه: هفت هزار هفت صد تنگه . راضیانهٔ او هزار تنگه
ذره پرورا
تصدق شوم ، بقیهٔ ذکوره را قراول بیگی مذکور غلامشان به دولتخانهٔ عالی می سپارد.
امید گاها! پارسالهٔ عظیم قلی بیگ قراوول بیگی غلامشان حسابی داده گی اش هفتاد هزار چهارصد و چهل و سه تنگه . . . نزده هزار چهار صد

Qolgani: 7700 tanga. Uning roziyonasi (roziligi bilan) 1000 tanga. Ey



zarriparvar qurboningiz bo‘lay. G‘ulomishon qorovulbegidan hisob olingandan so‘ng, davlatxonayi oliyga topshirildi. Umid qilamizki! Azimqulibiy qorovulbegi g‘ulomishondan hisob olinganidan so‘ng, 70443 tanga ... 19400 tanga.

**Izoh**: Janobi alo hazrat mavlonozodam bu amirga nisbatan berilayotgan nisbat. Amirning farmoniga muvofiq tayinlangan tekshiruvchi vakil G‘oyibnazar qorovulbegi G‘ulomishonning hovlisiga kelganlari, Turkiston mulklaridan zaminlaridan hisob olganligi hamda kirim chiqimdan hisobot olinib, oliy dargohga qo‘shimcha xat bilan qo‘shib jo‘natilganligi bayon etilgan

سند ٥)

بنده نوازا!

تصدق شوم انچه نقده و غله برداشته شده گی را از ادمان خلص میدانسته گی پرسیده بتحقیق دانستم که نقده و لایت دهنو سوای و لایت بورجی مع سبزی مالی چهل و هشت هزار تنگه می شده است و غله برداشته شده از سپیدی و لایت سوای و لایت بورجی پنجصدسی من گندم چارصد من جو یکصد و بیست وپنجمن زغیر سه من شالی سی سیرتماکو . جمع اجناس برداشت شده مذکوره یکهزارو شصت من غله میشده دیگر اجناس نابرداشته ایستاده است. از روی علامی از روی غلامی و خدمتکاری معلوم شود گفته عرض بنده گی نمودم حضرت سلطانم نور سلطنت بهتر میدانند. الهی سلامت باشند.

التقصیر التقصیر التقصیر التقصیر

*Ey bandalarini suyguvchi zot!*

*Qurbon bo‘layin*

*Naqda va g‘allaning qanchaligini, biladigan va ishonarli odamlardan so‘rab bilib oldim. Dehnav viloyatining naqdasi (puli)- Burji viloyatidan boshqa sabzi moli bilan 48000 tanga bo‘lar ekan. Viloyatning oqliq mahsuloti-Burji viloyatidan boshqa-530 mann bug‘doyi, 400 mann arpasi, 125 mann zig‘iri, 3 mann sholisi, 30 ser tamoku(tamaki) bor ekan. Butun olingan mahsulot 1066 mann g‘alla bo‘lar ekan. Jamlanmagan mahsulot turgan.*

*Qullik va xizmatkorlik yuzasidan arz etildi. Hazrati sultonim saltanat nurining barakasidan yaxshi biladilar. Iloho salomat bo‘lsinlar*[247].

**Izoh.** Dehnav bekligida aholidan olingan soliq puli va dehqonlardan mahsulot sifatida olinadigan oqliq solig‘i qancha miqdorda olinganligi haqida

[247] ازمبا، ۱-۱۲۶ سرمایه، ۱ لیست، ۷۵۱ کار، ۶ ورق (O‘zMA, I-126 fond, 1 ro‘yxat, 751 ish – V.6.)

hisobot shaklida amirlikka jo'natma xat bilan yuborilgan.

سند مرحمت پناها

مرحمت پناها!

از دولت عالی سه هزار پانصد تنگه از وجه امینانه ولایت قورغان تپه شادمان بی فرستادهگی و پانصد سی تنگه از وجه سقط وفازاده قاضی محمد شریف قاضی ینغی قورغان از تومان خیر آباد جمع چهار هزار سی تنگه 1535 میشده بود که یک هزار سی تنگه آن را بفاضل خدا قل از وجه خراجات دوت خانهٔ عالی دادیم . بدض(؟) فاضل مذکور نوشته شود. الحال همراه عبدالرحمن قراول بیگی سه هزارتنگه بخذمت فرستاده شد دیگر از شرف دولت عالی از هر وجه خاطر جمعی میسر است. باقی السلام و علیکم

1311

*Marhamat panoho!*

*Shodmonbiy, davlati oliy uchun 3500 (uch ming u besh yuz) tanga Qo'rg'ontepa viloyatining "aminona*" vajhi (puli)dan, yuborgan, besh yuz tanga Xayrobod tumanidan Yangiqo'rg'on qozisi – qozi Muhammad Sharif Vafozadaning "saqat" [tushib qolgan] vajhidan. Jami 4030 (to'rt ming o'ttiz) tanga bo'lar edi. 1030 (bir ming o'ttiz) tangasi Fozil Xudoyqulga – davlatxonai oliyning xirojoti uchun – berildi. Fozilning daxliga yozilsin. Hozir esa Abdurahmon qorovul begining qo'lidan uch ming tanga yuborildi*[248].

*Boshqasi, davlati oliy sharafidan- har tomondan xotirjamlik muyassar.*

*Assalomu alaykum 1311 H. Q*

**Izoh.** Ushbu xatda "Marhamat panoho" atamasi hujjatning yuqori qismida yozilgan va bu qatorda boshqa so'z yozilmagan bo'lib, amirni "Himmatli, marhamatli himoyachimiz" davlatimizning suyanchi va doim xalqiga yordam beruvchi ma'nosini beradi. Buxoro amirlari tomonidan chiqarilgan farmonlar tuzilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hujjat ijrosiga qaratilgan shaxs hujjatning birinchi qismida keltirilgan. Keyingi qismida chiqarilgan farmonning mazmuni va xat yakunida farmon ijrosini nazorat qilish kimlarga yuklatilgani haqidagi ma'lumot berilgan. Farmonning ijrosi yuzasidan Oliy dargohga yuborilgan javob maktublari ham yuqoridagi namuna asosida yozilganligini ko'rishimiz mumkin.

[248] ازم أ،ا-۱۲۶-سرمایه، ۱-لیست ، ۶۰۶-کار، ۶-ورق . (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 606-ish. – V.6.)



Shu bilan birga farmonni ijro qilishda xatoga yo'l qo'ymaslik ta'kidlangan va "Assalomu alaykum", ya'ni doimo yaratgandan tinchlik tilayman ma'nosidagi so'zlar bilan tugallanib, barcha hujjatlarda hujjat bitilgan sana raqamlar bilan yozilgan.

سند ...

حضرت اله

جناب عالیحضرت سید و سلطانم سلمه الله تعالی

امارت پناه وزارت انتباه عزتحده احوی مقامی میربی پروانچی حفظه الهی زاده شرفه والا جاه پیوسته سریر دولت اقبال بوجود بهبود میمنت نمود ان عزت پناه و امارت و ایالت دستگاه عزیز الانامی ذوی النفس و الاحترامی ... ارامسته و مزین بوده از مراحم سلطانی سر افراز دایمی باشند. بعد از طی مراسله صداقتمندی نموده میدارد که الحمد الله و المنه طریقهٔ احوالات این جانب بمهروبانی و نعم دولت خداداد ندرجه حریت قرین عافیت مندی درگذر بوده بسلامتی ذات عالی ابرومندی دوستان مرجو و مدعی است قری سعادت! ثانیاً حقی مباد که درین اوان امنید توامان از وجه پول امینانهٔ ولایت حصار مبلغ پانزده هزار تنگه شش ماهه ولایت سرجوی چهار هزار و دو صد و پنجاه تنگه جمع نزده هزار و ده صد و پنجاه تنگه جمع شده بود که مبارزت پناه اسماعیل بیگ قراولبیگی زکوتچی از برای ماهانه سربازیه دسته امارت پناه ملا دولت شاه بی مبارزت پناه ملا احمد توقسابهٔ ایلغریه و ولایت درواز به جوان نگاه داشته سند داده بودند که مع عرصه علامی سند منکور را همراه عقیدت اطواری میرزا فتح الله چنچی فرستاده شد ترصد از جناب گرامی جنانکه برابری را انجا اورده سند مبارک عالی را گرفته می فرستاده باشند موجب حرسندی و ازدید محبت اینجانب گردیده دعا می کنم و دیگر همیشه مدعا بوده از دعای قرین الاجابت گرامی امیدواری داریم ایام شادکامی ممدود باد.

السلام و الاکرام

*Hazrat iloh*

*Janobi oliyhazrat sayyidim sultonim. Alloh ta'olo salomat saqlasin!*

*Amoratning panohi, vazoratning ogohligi, a'zzat, maqomi, og'alik Mirbiy parvonachi Alloh omon saqlasin, sharafingizni ziyoda qilsin.*

*Omad davlatning taxti-izzat panoh, amorat (amirlik, viloyat) va avolat (amirlik, viloyat) maqomli, baland martabali insonlar va zinda jonlarning (tirik jonlarning) hurmatiga sazovarning-muborak vujudi bilan-hamishalik-bezanib tursin va sultonning marhamatidan doimo sarafroz bo'lsin. Bu sadoqatmanlik*

*nomani yozmoqdan so'ng, aytiladi kim Alhamd va alminna (xudoga shukur), bu tamonlarning ahvoloti–xudo bergan davlatning barokati, mehrubonligidan-xayru ofiyat(tinchlik) bilan hamroh va salomatlik bilan o'tib boradi. Zoti oliylarining sog'ligi va do'stlarning obrumanligi bizning istag va mudda'mizdir. Muborak bo'lsin munday bizlarga xushbaxtlik!*

*Ikkinchidan, maxfiy qolmasinki bu amniyat(tinchlik) bilan hamroh davronda, Hisor viloyatining olti oylik aminonasining(xarajati), jahatidan (tarafidan) 15000 (o'n besh) ming tanga; Sarijuy viloyati (beklik nazarda tutilgan)dan 4250 (to'rt ming ikki yuz ellik) tanga, yig'ilgan edi. Barchasi, 19250 (o'n to'qqiz ming ikki yuz ellik) tanga bo'lardi. Uni, muborizat panoh Ismoilbeg qarovulbegi zakotchi, amorat panoh askarlarining oyligi uchun, muborizat panoh Mullo Davlatshohbey, muborizat panoh Mullo Ahmad Darvoz viloyati Ielg'ariya tumanining to'qsobasi, asradilar. Sanad berdilar. Ularning sanadlari, bu kaminaning g'ulomlik a'rizasi bilan, a'qidatmand (xolisligi bilan), Mullo fathulloh jabochining qo'lidan yuborildi. Janobi giromi (hurmatli)dan kutamizki ini-o'galikni (aka-ukalik), bajo keltirib, muboraki oliyning sanadini olib yuborgaylar. Bu ish mening mahabbatimning ortishiga sabab bo'ldi. Boshqa, mudda'miz shulki ijobatga yaqin duolaridan, umidimiz bor. Xushlik ayyomi hamishalik bo'lsin*[249].

*Assalomu va alikrom*

**Izoh.** Amirning unvon va martabalari ba'zi hujjatlarda "bandayi navozo" (Ey o'z bandalarini suyguvchi zot deya Alloh va uning yerdagi suyukli bandasi Buxoro amiri), "al-mo'miniyn" (mo'minlar amiri), "imom al-muslimiyn" (musulmonlar imomi), "zilli Allohu Ta'olo fi al-arzayn" (Allohu Ta'oloning yerdagi soyasi), "qutbu ad-dunya va ad-diyn" (din va dunyo qutbi), "umdat as-salotiyn" (ibodat ustuni), "qudratu al-havoqiyn" (nufuzlilar peshvosi), "mavloi muluki al-olamiyn" (Yaratgan mulklarining xizmatkori), "moliki aqobi ummat" (ummatlarning podshohi), "bois olamiyn va alamon" (tinchlik va xotirjamlik

249 ازم ا،ا-۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۶۰۶- کار، ۷- ورق . (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 606-ish. – V.7.)



keltiruvchi), "noshir al-adl va al-ehson" (yaxshilik va adolat yoyuvchi) kabi keltirilgan[250].

سند اول

بنده نوازا

تصدق شوم مبارزت پناه محمد یعقوب توقسابه باج گیر بقورغان ولایت دهنو آمده بحولی آدم امارت پناهی الماس بی غلامشان صاحب نظر میر آخور نام املاکدار معزول فرامده سه شب خواب کرده و صاحب نظر میر آخور مذکور در وقت رفتن توقسابه غلامشان یک اسپ خوب توی رومال یک جامهٔ فرنگی و یک جامهٔ شاهی حصاری داد. حقیقت آن را این پیر غلام دعاگوی که بی غلامشان فرموده باشد یا خودش داده باشد. تصدق شوم الماس بی غلامشان امینانه ولایت دهنو و یورچی را با ضم توابعش بصاحب نظرمیرآخور مذکور سپاریده مانده است که از پلی [پل] دولت خانهٔ عالی میراخور منکور بی ملاحظه خرج و خراجات کرده هر شب تخمیناً در سی اسپ غیر از آمد و رفت ات یمی داده و سه مهمان خانه دارد و علی الدوام سه مهمان خانهٔ آن ز خدمتکار و غیرخدمتکار پر از ادم شباً و روزاً اش نان میخورند. و از وجه خراجات حویلی درونش اکثر روز از بازار چیزی بسیار خریده ایستاده است. تصدق شوم میرآخور مذکور اینچنین خراجات بی اندازه کردن گیرد به فهم این دعای گوی نادان نقصان به پلی دولت دولتخانه می شود. باز جناب عالی مولایم بهتر و خوبتر میدانند. این دعاگوی از روی نادانی دیده و شنیدهٔ خود را از روی غلامی و دعاگویی مسموع عالیمولایم [عالی مولایم] گفته عرض بندگی نمودم. الهی سلامت باشند.

التقصیر التقصیر

التقصیر التقصیر التقصیر التقصیر التقصیر التقصیر

التقصیر

*Ey o'z bandalarini suyguvchi zot.*

*Sadaqang ketay (qurboning bo'lay), himoyachi qo'rg'on bo'lmish Dehnav viloyati va shahrining soliqchisi Muhammad Yo'qub to'qsoba o'z g'ulomlari bilan amirlik namunasi bo'lmish donishmandlarning sarasi Almosbiy miroxur nomli amlokdorning hovlisiga qo'nib (kelib), uch kecha tunadilar.*

*Donishmandlarning sarasi bo'lmish ushbu miroxur (Almosbiy), to'qsoba (Muhammad Yo'qub) ketayotgan chog'ida, uning g'ulomiga (quliga) bir bosh yaxshi ot, bir tup ro'mol, bir dona farangi (yevropacha) kiyim va bir dona hisoriy ipakdan to'qilgan kiyim berdi. Ammo rostini aytganda, shunisini aniq bilmadimki, bularning barchasini o'sha keksa duogo'y (to'qsoba Muhammad Yo'qub) g'ulomga topshirdilarmi yoki ul janobning o'zlari avvaliga olib, so'ngra*

250 ازم ا،ا-۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۷۶۳- کار، ۱- ورق . (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 763-ish. – V.1.)

*g'ulomlariga topshirdilarmi. Qurboning bo'lay. Almosbiy g'ulomishon Dehnav va Yurchi hamda unga qarashli joylarni aminonasini (ya'ni tazvin pulini-solig'i yig'ish ishini) Nazar miroxurga topshirgan. Shu pulni miroxur Nazarbiy muloxiza (o'ylamasdan) qilmay xarju-xarajat qilmoqda, har kecha 30 (o'ttiz) ta otliq unikiga keladi va otlarga yemlarini beradi. Uchta mehmonxonasi bor, hamisha mehmonxona xizmatkor va g'ayri xizmatkorlardan to'la, odamlar kechayu-kunduz shu yerda oshu-non yeydilar. Agar oilaning ichki xarajatidan so'zlasak, har kun bozorga borib ko'p narsalar olib keladi. Qurboning bo'lay mazkur miroxur bunday o'ylamasdan xarajat qilaversa mening fikrimcha kibrnodon va duogo'yman davlatimizning xazinasiga ziyon yetadi*[251]. *Yana ham oliy mavloyim yaxshiroq biladilar. Bu duogo'y nodonlik ko'zim bilan ko'rgan va eshitganlarimni g'ulomlik va duogo'ylik yuzasidan mavloi olamga buyuk mavlomga arz qildim. Ilohim salomat bo'ling. At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir.*

**Izoh:** Ushbu maktubda davlat xazinasining noqonuniy sarflanishi haqida, ya'ni, Ey o'z bandalarini suyguvchi zot, deya Alloh va uning yerdagi suyukli bandasi Buxoro amiriga Dehnav bekligida amirga xizmat qilgan bir vakil shaxs ushbu xatda ma'lum qilmoqda. Himoyachi qo'rg'on bo'lmish Dehnav viloyati va shahrining soliqchisi bo'lmish Muhammad Ya'qub to'qsoba o'z g'ulomlari bilan amirlik namunasi bo'lmish donishmandlarning sarasi Almosbiy miroxur nomli amlokdorning hovlisiga kelib, u yerda uch kecha turganligi, Almosbiy g'ulomishon Dehnav, Yurchi va unga qarashli joylarni aminonasini (ya'ni, tazvin pulini — solig'ini) Nazar miroxurga topshirganligi, ammo shu pul (ya'ni, soliqdan yig'ilgan pullar) ni miroxur Nazarbiy ertani o'ylamasdan sarfu-xarajat qilayotganligi haqida xabar bergan.

Shuningdek, uchta mehmonxonasi borligi, hamisha mehmonxonasi xizmatkor va g'ayri xizmatkorlar bilan to'laligi, odamlar kechayu-kunduz shu yerda oshu-non yeyishlari, har kun bozorga borib ko'p narsalar olib kelishganligi, miroxur bunday o'ylamasdan harajat qilsa, davlatimizning xazinasiga ziyon yetishi

[251] ازم ا۱-۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۵۳۴- کار، ۱- ورق. (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 534-ish. – V.1.)



aniqligi to'g'risida arz qilgan.

D.N.Logofet Sharqiy Buxorodagi bekliklarning davlatga to'laydigan soliqlarining miqdori (rubl) hisobini quyidagicha keltirib o'tadi[252].

Ko'lob bekligi 350,000 r, Hisor bekligi 600,000 r, Boysun bekligi 150,000 r, Sherobod bekligi 150,000 r, Denov bekligi 200,000 r, Qobadiyon bekligi 100,000 r, Kelif bekligi 50,000 r ni tashkil etgan.

Mang'itlar hukmronligi davrida Jarqo'rg'on to'liq Buxoro amirligi tarkibiga kiritilib, agrar amlakdorlikka aylanadi. Aholining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lgan. Amlakdorlik markazi sifatida dastlab Minor qishlog'i, XIX asrning ikkinchi yarmidan esa Jarqo'rg'on aholi markazi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markaz sifatida rivojlanadi[253].

Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlar, tahlillar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

-Amirlikdagi barcha hududlar singari Surxon vohasi bekliklarida ham soliq yig'ish ishlari va uni nazorat qilishda amirlikning deyarli barcha mulozim va amaldorlari bevosita ishtirok etgan. Soliq tizimini qonuniy va amaliy jihatdan mutanosibligini amir boshchiligida qo'shbegi va viloyat hokimlari va unga bo'ysunuvchi amaldorlari nazorat qilgan. Shu bilan birga qo'shbegi va viloyat hokimlari bevosita soliq yig'ish amaliyotiga ham aralashgan;

-bekliklarda soliq ijrosini amalga oshiruvchi amaldorlar amlokdor va zakotchilar hisoblangan. Ushbu amaldorlarga o'z sohalariga ko'ra soliq obyektlari biriktirilgan;

-soliq hujjatlarida soliq tizimi qonuniy va amaliy jihatdan mutanosibligi o'z aksini topgan. Soliq miqdorini amirlikda belgilanib, aholiga e'lon qilishdan to xazinaga topshirilgungacha bo'ladigan amaliyot hujjatlarda qayd etilgan. Viloyatdagi soliq ma'murlarining ishlari nazorat organlarining arizalari asosida maxsus jo'natma xatlar orqali amirga yozma hisobot berilgan;

-Amir ham viloyatdagi vaziyat haqida o'zi tayinlagan mulozimlaridan

[252] Логофет Д.Н. Бухарское ханство подъ русскимъ протекторатомъ. Т.II.С.-Петербургъ, 1911.- С. 65.
[253] Турсунов С, Тўхтаев А. (мархум) Жарқўрғон – Тошкент: Фан, 2008. – Б-27.

yozma hisobotlar orqali xabardor bo'lib turgan va markaziy nazoratni hujjatlar asosida amalga oshirgan;

-Hozirgi kunda O'zbekiston Milliy arxivida saqlanib kelinayotgan Buxoro Qo'shbegi arxiv materiallarini o'rganish natijasida Buxoro amirlari viloyatlardagi bekliklardan yig'iladigan soliq yig'imlari haqida markazga yetkazib turiladigan manbalar mavjudligi aniqlandi;

-Soliq tizimining yo'lga qo'yilganligi ijobiy holat albatta. Ammo amirlikning Rossiyaga qaramligi barcha boyliklarning mamlakatdan chiqib ketishiga olib kelgan.

## 3.2§. Hunarmandchilik va mahalliy ustaxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni (savdo aloqalari)

Qadimdan vujudga kelgan karvon yo'llari, daryo va dengiz suv yo'llari orqali savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi natijasida Sharqiy Buxoro bekliklari aholisining xo'jalik va hunarmandchilik faoliyati va mahalliy ustaxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni hamda Sharq davlatlari bilan savdo-sotiq ishlarining ahvolini o'rganish yurtimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sharqiy Buxoro bekliklarida hunarmandchilikning ahvoli, mahalliy ustaxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni hamda olib borgan ichki va tashqi savdo aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Milliy arxivining bir qator jamg'arma (fond) laridagi hujjatlarda, aynan tadqiq qilingan davrda yashagan sovet davri olim, sayyoh, harbiylar, o'lkashunoslarning asarlari, statistik to'plamlar, davriy matbuot materiallari, shuningdek, sovet va mustaqillik davri olimlarining tadqiqotlarida uchratamiz. Mustaqillik davrida mamlakatimizda ushbu mavzu R.Qilichev[254], R.Xoliqova[255], E.Qobulov[256], F.Ochildiyev[257], G.A.A'zamova[258] F.

[254] Киличев Р. Бухоро шахрида хунармандчилик. –Тошкент.: Фан .1996.
[255] Холикова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида. (XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошлари). – Тошкент. Ўкитувчи 2005. -240 б.
[256] Кобулов Э.А. Сурхон вохаси хўжалиги. Тошкент: Akademnashr, 2012. - 408 б.
[257] Очилдиев Ф. Сурхон вохаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий ўзгаришлар. (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари) Т. Абу матмуот-консалт. 2008. - 166 б.
[258] Аьзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шахарларида хунармандчилик ва савдо. – Тошкент. "Ўзбекистон". 2000. 144 б



Qosimov (marhum) kabi olimlarning tadqiqotlarida ham yoritilgan.

Buxoro amirligida shaharlar asosiy hunarmandchilik markazlari bo'lishiga qaramasdan, bekliklar tarkibidagi yirik qishloqlarda ham kundalik turmush ehtiyojlarini qondiruvchi hunarmandchilik sohalari rivojlangan edi. Amirlik davrida, xuddi o'rta asrlardagi kabi, hunarmandlar kasaba uyushmalari va sexlar tizimi mavjud bo'lib, bu tashkilotlar mahsulot ishlab chiqarishini tartibga solish, talab va taklif muvozanatini saqlash hamda raqobatni nazorat qilish vazifalarini bajargan. Bekliklar bo'ylab tarqalgan hunarmandchilikning barcha turlarida faoliyat ko'rsatgan bu uyushmalar saylanadigan rais yoki oqsoqol tomonidan boshqarilgan. Uyushma raislari mahsulot narxlarini belgilash, soliqlarni yig'ish, usta-shogird munosabatlarini tartibga solish va umumiy xo'jalik ishlarini yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalarni amalga oshirgan.

Hunarmandchilik qadimdan Surxon vohasi aholisi xo'jalik hayotining muhim tarmog'i bo'lib kelgan. Sharqiy Buxoro bekliklarida hunarmandchilikning rivojlanishi boshqa hududlardan ancha farq kilgan. Bunga vohaning tabiiy-geografik joylashuv o'rni, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Surxon vohasini hunarmandchilik bilan shug'ullanish darajasiga ko'ra kuyidagi mintaqalarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tog'li hududlar, shaharlar va aholi zich yashaydigan qishloqlarda hunarmandchilikka ixtisoslashuv kuchaygan.

2. Daryolarning yuqori va o'rta oqimi hududlarida yashagan aholi o'rtasida uy ro'zg'or hunarmandchiligi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

3. Dasht oldi va keng dasht hududlarida yashaydigan aholi o'rtasida uy-ro'zg'or, ya'ni har bir xo'jalik o'zlari uchun mahsulot ishlab chiqarish shakllari taraqqiy etgan. Hunarmandchilik turlari ko'proq tog' oldi va katta daryolar Surxondaryo hamda Sherobod daryolarining yuqori va o'rta oqimlarida yaxshi rivojlangan bo'lib, bu yerda ko'proq aholi talabiga qarab, bozorgir mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Vohaning dasht oldi va dasht hududlarida uy ro'zg'or hunarmandchiligiga xos ishlab chiqarish shakllari ko'proq taraqqiy etgan[259].

[259] Очилдиев Ф. Сурхон вохаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий ўзгаришлар. (XIX асрнинг

F.Ochildiyev polkovnik Galkinning ma'lumotlari asosida, voha shaharlarida yashovchi aholining asosiy mashg'uloti kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlashdan iborat bo'lgan. Hunarmandchilikning paxta, ipak, teri mahsulotlariga ishlov berish, metall va kulolchilik idishlari, egar-jabduq, poyabzal, matolarni bo'yash va gul bosish, cho'yan va temirga ishlov berish, misgarlik, zargarlik va tegirmonsozlik kabi turlari yaxshi rivojlanganligini yozadi[260].

Hunarmandchilik - milliy an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi hisoblanadi.

Hunarmandchilik qadimdan insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida mehnat taqsimoti orqali asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi. Bizga ma'lumki, Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibidagi hudud bo'lgan bo'lib, amirlikning eng ko'hna shaharlaridan biri bo'lgan qadim Boysunda XVIII - XIX asr va XX asrning 50-yillarigacha hunarmandchilik keng rivoj topdi. Kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, tosh taroshlik, o'ymakorlik, kashtaduzlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, tunukasozlik va boshqa hunarmandchilik turlari rivojlandi.

**Kulolchilik** sanoati o'z tashqi bozorda yordamga erishishdi. Ushbu hunarmandchilikning asosiy markazlari sifatida boshqa G'ijduvon, Qarshi, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on kabi shaharlar va aholi punktlari alohida ega edi. Mazkur davr kulolchilik mahsulotlarining bezak uslubida Osiyo mintaqalariga xos bo'lgan ko'plab badiiy motivlar o'z aksini topgan. Jumladan, turli xil gul va o'simlik shakllari, murakkab geometrik naqshlar, shuningdek, hayvonlar, qushlar, hasharotlar hamda ularning shartli yoki stilizatsiyalashgan tasvirlari kulolchilik san'ati namunalarida keng qo'llangan. Bu tasviriy elementlar o'sha davr kosiblarining nafaqat san'atga bo'lgan estetik yondashuvini, balki ular orqali

иккинчи ярми – XX аср бошлари).-Тошкент:. Абу матмуот-консалт. 2008. - Б. 121.
[260] O'sha asar. – B.122.



timsollar, ramziy ma'nolarni ifodalashga bo'lgan intilishini ham ko'rsatadi[261].

Amirlik davrida metallga ishlov berish hamda turli metall buyumlar tayyorlash yo'nalishi ancha yuqori darajada rivoj topgan edi. Xonlikning tog'li hududlari – Shahrisabz, Boysun va Sherobod atrofida qadim zamonlardan boshlab turli xil foydali qazilmalar qazib olinib, ularning ishlatilishi ayrim uzilishlarga qaramay, XX asr boshlariga qadar davom etgan. 1841-yilda Buxoroga tashrif buyurgan K.F. Butenev o'z qaydlarida bu yerda oltita cho'yan quyish qozonlari mavjud bo'lganini yozib qoldirgan. O'sha davrda amirlikda barpo etilgan ilk metall quyish ustaxonalarda harbiy maqsadlar uchun o'q-dorilar, shuningdek, dehqonchilikda foydalaniladigan qurollar ishlab chiqarilgan. Mis metalli qimmatbaho va kamyob bo'lganligi sababli, Buxoro amirligida to'p quyishda mis o'rniga asosan cho'yan ishlatilgan. Umuman olganda, metallga ishlov berish hamda metall buyumlar tayyorlash jarayoni ichki tarmoqlarga ajralib, to'rtta asosiy yo'nalishda shakllanganini ta'kidlash mumkin.

Temirchilik: Qishloq xo'jaligi va kundalik turmushda zarur bo'lgan mehnat qurollarini yasashga ixtisoslashgan hunarmandchilik sohasi bo'lib, bu kasb egalari shaharlarda o'ziga xos mahallalarda (masalan, Temirchi, Guzari chilangaron) istiqomat qilganlar. Bu esa temirchilikning o'sha davrda ancha rivojlanganidan dalolat beradi.

Misgarlik: Asosan yirik shaharlarda keng tarqalgan bu kasbda misgar ustalar turli idishlar, chilim va boshqa buyumlar yasashgan. Mis xomashyosi asosan Rossiyadan keltirilgan bo'lib, misdan yasalgan idishlar nafis naqshlar bilan bezatilib, nafaqat ichki bozor ehtiyojini to'liq qondirgan, balki qo'shni mamlakatlarga ham eksport qilingan.

Cho'yan quyish (Degrezlik): Metallga ishlov beruvchi oddiy sanoat turlari ichida degrezlik katta ahamiyatga ega bo'lgan. Degrezlar, asosan, shaharlarda maxsus guzarlarda yashab, cho'yan qozon, chiroq, manqal va boshqa buyumlar yasash bilan shug'ullanganlar.

[261] Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalari) uslubiy qo'llanma. "Tamaddun". T., 2022. B. 161.

Rixtagarlik: Bronzadan quyma buyumlar yasash Buxoro amirligining ko'pgina shaharlarida rivojlangan hunar turi edi. Rixtagar ustalar turli buyumlar va taqinchoqlar yasaganlar. Ba'zi mis idishlarning qismlari, jumladan bo'ynichi va dastasi ham bronzadan yasalgan[262].

Hunarmandchilik tabiiy xom ashyoning mavjudligiga qarab rivojlangan. O'rta asrlarda ham hozirgi Boysun tumanida, ayniqsa, qishloqlarda hunarmandchilik taraqqiy etgan.

Cho'yanli va Munchoqtepa (Xomkon hududi), Xoja Qashqaron, Oqtepa va Alamlidagi Munchoqtepalar temirchi-konchilarning yirik qishloqlari va ustaxonalari bo'lgan. Bu qishloqlarda bir necha yuzlab metrlarga cho'zilgan temir va cho'yan eritish pechlari va ruda uyumlari Boysunning o'rta asrlar hunarmandchiligi rivojidan dalolat beradi. Pillachilik rivojlanishi evaziga to'qimachilik, kashtado'zlik (zardo'zlik), do'ppi va chopondo'zlik, chorvachilik ravnaqi tufayli ko'nchilik va to'qimachilik (jun va teri), Boysuntog'ning o'rmonga burkanishi evaziga yog'ochsozlik, duradgorlik yuksalgan.

Sherobod bekligida hunarmandchilik milliy talablar darajasida bo'lib, hunarmandlar o'z mahsulotlarini ishlab chiqarishda oddiy kosibchilik an'analariga amal qilgan. Temirchilik ustaxonalari o'zlarini mahsulot bilan ta'minlash, konlarda ruda, chet ellardan zargarlik uchun mahsulot olib kelishni o'z zimmalariga olib, dastlab amirlik tomonidan hech qanday moddiy-ma'naviy qo'llab quvvatlashga ega emasdilar. Hunarmandlar og'ir sharoitga qaramay milliy urf-odatlarga mos buyumlar tayyorlab, ular o'zining mustahkamligi, go'zalligi, bozor talablariga xos bo'lishi bilan ajralib turar, usta va shogirdlar hurmat-e'tibori sinovlardan o'tish orqali obro'ga erishilar edi. Milliy urf-odatlar talabi asosida tikilgan kiyimlar, gilamlar, taqinchoqlar jahon bozorlarida o'z xaridorlarini topgan[263].

Buxoro amirligida **zardo'zlik** san'atining rivojlanishi. Sharq mamlakatlarida bo'lgani kabi, O'rta Osiyoda ham qadim zamonlardan beri zardo'zlik san'ati rivojlanib kelgan. XVIII asr oxiriga kelib Buxoro shahri mintaqadagi yagona

[262] O'sha asar B. 162.
[263] Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Б. 65.



zardo'zlik markaziga aylangan bo'lib, bu rivojlanishda amirlik hukmdorlarining homiyligi muhim rol o'ynagan. Amir Shohmurod (1785-1800) va Amir Haydar (1800-1826) davrlarida nisbatan sust rivojlangan bo'lsa-da, keyingi hukmdorlar - Amir Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffarxon (1860-1885), Amir Abdulahadxon (1885-1910) va Amir Sayyid Olimxon (1910-1920) davrida zardo'zlik san'ati yuksak darajaga ko'tarilgan. Bu davrlarda zardo'zlik nafaqat amirlik saroyi, balki butun mintaqa uchun muhim badiiy va madaniy merosga aylangan.

Zardo'zlik yopiq kasb hisoblanib, bu hunar asosan ustaning o'z farzandi yoki eng yaqin qarindoshiga o'rgatilgan. Shahar zardo'zlari boshqa hunar egalari kabi o'z sexlari va pirlariga ega bo'lganlar. Ular Hazrati Yusufni o'z pirlari deb hisoblashgan.

Amir Muzaffarxon davrida Buxoro arkida bitta zardo'zlik ustaxonasi bo'lgan bo'lsa, Abdulahadxon davrida bu yerda yana bitta zardo'zlik ustaxonasi tashkil etilgan[264].

Shuningdek, Sharqiy Buxoro hududidagi yirik qishloqlarda ham hunarmandchilik rivojlanib, har bir hunarmand ustaning o'z ustozi, piri bo'lib, avvalo xudoga so'ngra piriga sig'inib, Ollohdan marhamat, rizq-nasiba, kasblariga baraka tilab, sadaqa o'tkazib turganlar. Masalan, Sherobod bekligi hunarmandlari kulollar piri Sayyid Amir Kulol, charmgarlar piri Ali, rangdezlar piri hazrati Jabroil, kosiblar piri Boboi Shavqi Porado'z, buyum va matoga naqsh beruvchi naqqoshlar piri hazrati Bahouddin Naqshbandlarga sig'inib, ushbu pirlar arvohiga bag'ishlab – "arvohi pir" marosimlarini o'tkazib turganlar[265].

Sherobod bekligida metallni qayta ishlash sohalaridan biri zargarlik san'ati keng rivojlangan. Zargarlik ustaxonalarida xotin-qizlar uchun chiroyli taqinchoqlar kumush, mis, oltindan tayyorlanib, har-xil rangli toshlar bilan bezatilgan tumorlar uchun g'iloflar tayyorlangan. Zargarlik buyumlari "zebi sina", "tilla bargak", "aqiq", "qo'ltiq tumor", "zarkokil", "xalqai Muhammadi", "xalqai sepoya", "xalqai beshoyoq", "bibishoh" kabi nomlari bilan ajralib turgan. Zargarlik kasbini

[264] Киличев Р. Бухоро шахрида хунармандчилик. –Тошкент.: Фан .1996. - Б. 11-12.
[265] Турсунов С.Н. Шерободликлар. . – Тошкент:, 2006. - Б. 70.

egallagan ustalar turli xil buyumlar tayyorlashda o'z mahoratlarini ko'rsatib, el orasida alohida nufuzga ega bo'lganlar. Iste'dodli ustalarga boy-amaldorlar maxsus uzuklar tayyorlatib qo'llariga taqib yurgan, eng qiziq tomoni uzuklarga alohida muhr tushirilib, o'z ismlarini yozdirib qo'yishgan. Masalan, Sherobod begi, qozisi, shayxi, me'rosxo'ri degan nom ism bilan qo'shib yozib qo'yilgan. Muhr tayyorlaydigan ustalar alohida ro'yxatda bo'lib, bu sohada ishlayotgan ustalar har bir ishga mas'uliyat va e'tibor bilan qaragan. Ularning ish qurollari tarozi, buta, o'choq, sandon, bolg'a, otashgirak, qaychi, ombir, shikanja, dahandom, zirdam, ombiri damashtez, suvon, muhraqalamdan iborat bo'lgan. XVIII-XX asr boshlarida hatto Hindiston, Eron va Misrdan sun'iy toshlar olib kelinib, oltin va kumushlar aralashtirilib, qimmatbaho toshlar tayyorlangan[266].

O'zbek xalqining milliy iftixori sanalgan do'ppi va chopon asrlar davomida xalqimiz tomonidan ardoqlanib kelingan. Do'ppining ko'plab turlari bo'lib, ular tayyorlangan joyiga qarab Boysun, Shahrisabz, Kitob, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Chust do'ppi deb atalgan. Do'ppining Iroqi, Chust, Gilam do'ppi, Chakma tur do'ppi, Qizil gul, Piltado'zi, Baxmal, Tagdo'zi, To'ldirma, Zardo'zi kabi xillari bo'lgan.

Do'ppido'zlar baxmal, satin, sidirg'a shohiga oddiy, ipak, zar iplar ishlatib do'ppi tikishgan. Buxoro do'ppilari inqilobga qadar o'zining rang-barang matolarga tikilishi bilan boshqa hududlardagi do'ppilardan ajralib turgan[267].

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda xunarmandchilikning uch turi shakllangan:

1) Uy hunarmandchiligi;

2) Buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;

3) Bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Uy hunarmandchiligi eng keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan edi[268].

Buxoroda, xususan, Boysun hududida hunarmandchilikning barcha turlari XX asrning 20-yillarigacha saqlandi. Boysunning o'zida hunarmandchilikning 30

[266] O'sha asar . – B. 67.
[267] Қиличев Р. Бухоро шаҳрида хунармандчилик. –Тошкент.: Фан .1996. - Б.15.
[268] Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун. -Т.: Akademnashr, 2001. - Б. 295.



ga yaqin turi rivoj topgan edi. Boysun shahristonidagi yopiq timda (bozor) hunarmandlarning 53 ta do'koni bo'lgan. Terini qayta ishlash sohasida ko'nchilar, etikdo'zlar, maxsido'zlar, kovushchilar, egar - jabduqchilar, telpakchilar, po'stinchilar, kamarchilar, to'qimachilik sohasida bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar, taqachilar, miskarlar, chilangarlar, zargarlar bo'lgan. Ular hunarmandchilikning tarmoq tuzilishini belgilagan. Sharqda usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo'lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalari bor edi. Avloddan-avlodga o'tuvchi odatlar va udumlarga rioya etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin usta o'z pirini yodga olib, undan madad so'rashi, shogirdga fotiha berishi kabi odatlarga amal qilingan.

Surxon vohasi Rossiya mustamlakasiga aylangach, hunarmandchilik sanoat raqobatiga duch kelib, o'zining ilgarigi mavqeini yo'qotgan bo'lishiga qaramay, uning ko'p tarmoklari saqlanib qolgan. Chunki u milliy ehtiyojni qondiradigan tovarlarni, chunonchi, kiyim - kechak, idish-tovoq, turli uy-ro'zg'or buyumlari, mayda mehnat qurollarini yaratib, ularni mahalliy bozorlarga yetkazib berdi. Hunarmandchilikning yashovchanligini ta'minlashda chet eldan keltirilgan xom ashyo, materiallar, kichik uskunalar muhim o'rin o'ynagan[269].

Surxon vohasi tarkibida bo'lgan Sherobod bekligida yakka tartibda ishlovchi ustalar "Ustoi xudbof" deb atalib, ular faoliyati davrida ko'plab shogirdlarni usta darajasiga yetkazgan. Ustoi xudboflar o'z do'konlari va tayyorlagan mahsulotlarining xo'jayini hisoblanib, biron-bir ishga qaram bo'lmaganlar. Xalfa shogirdlikdan yuqori darajaga ko'tarilgan hunarmand bo'lib, o'z ustasi qo'lida mehnat qilgan. Uning shogirddan farqi, u birinchi navbatda ancha erkin bo'lgan, ikkinchidan usta bilan kelishuvga muvofiq ish haqi olgan. Ushbu darajaga etgan shogird istagan paytda o'z ustasidan alohida ishlashi yoki boshqa ustaga yollanib ishlashi mumkin bo'lgan. Ustaxonada xalfa ustaning eng ishonchli yordamchisi hisoblanib, usta bilan birga teng miqdorda mehnat qilgan[270].

Shuningdek, S.Tursunov Boysunda cho'yanchilar bo'lganligini hozirda ham

[269] Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун. -Т.: Akademnashr, 2001. - Б. 296.
[270] Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Б. 65.

ularning mahallalari mavjudligini keltiradi. Cho'yan har xil buyumlar kuyish uchun mo'rt material. Cho'yan kulrang, oq va oraliq turlarga bo'linadi. Quymalar olish uchun ishlatiladigan kulrang cho'yan quymakorlik cho'yani deb ataladi.

Degrez (fors - quymoq.) - qozon quyuvchi, umuman, cho'yandan turli buyumlar quyuvchi usta. Degrezlik (cho'yangarlik) - cho'yan eritib, undan turli buyumlar quyish kasbi. Boysunda qadimdan cho'yandan jang qurollari, hunarmandchilik, qishloq, xo'jalik va uy-ro'zg'or buyumlari yasalgan. Cho'yangarlar qozon, qorachiroq, chiroqpoya, miltiq kabi buyumlar, hatto zambarak va to'p ham quyganlar. XX asrda og'ir sanoatning rivojlanishi tufayli degrezlik kasbi barham topgan[271].

Cho'yan quyish juda murakkab jarayon hisoblanib, bir turkum cho'yan eritish uchun 30 nafarga yaqin kishi: 3 nafar usta, 10 nafar yorgir (yordamchi), 10 nafar damgir, 5 nafar qolipga quyuvchi bo'lgan[272].

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida Buxoro amirligida to'qimachilik hunarmandchilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, bu rivojlanishga mahalliy xom ashyoning yetarlicha mavjudligi (paxta, jun, ipak) hamda ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarga bo'lgan yuqori talab sabab bo'lgan. Amirlik shaharlarida, xususan Qarshi, Hisor, Baljuvon, Denov, Samarqand, Buxoro va Shahrisabzda bo'z, chit, olacha kabi matolar va ipak gazlamalar keng miqyosda ishlab chiqarilgan. Bundan tashqari, amirlikning boshqa hududlarida ip yigirish, mato to'qish, tayyor kiyimlar tikish va gilamchilik kabi sohalar ham yaxshi rivojlangan. Buxoro zarbof to'nlar, Shahrisabz iroqi do'ppilari, Termiz harir matolari, Samarqand va Boysun ipak gazlamalari kabi mahsulotlar nafaqat amirlik bo'ylab, balki uning chegaralaridan tashqarida ham keng shuhrat qozongan.

XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlariga kelib, Sherobod, Denov, Termiz, Boysun, Yurchi va boshqa shaharlar amirlikning hunarmandchilik markazlariga aylangan. Bu shaharlarda hunarmandchilik turlarining barcha

271 Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун. -Т.: Akademnashr, 2001. – Б. 297.
272 Қиличев Р. Бухоро шаҳрида хунармандчилик. –Тошкент.: Фан .1996. - Б.19.



sohalari yaxshi rivojlangan edi. Hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda har bir shahar o'zining ishlab chiqargan mahsulotlari bilan ajralib turgan. Masalan, Buxoro shahri paxta va boshqa mahsulotlardan to'qilgan gazlamalari, Denov shahri esa ipakdan to'qilgan gazlamalari bilan mashhur bo'lgan[273].

**Surxon vohasining an'anaviy hunarmandchilik tarmoqlari**

Surxon vohasi hunarmandchiligida kulolchilik muhim o'rin tutgan bo'lib, bu kasb vohaning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Termiz, Sherobod, Boysun va Denov kabi shaharlar kulolchilikning yirik markazlari hisoblangan bo'lib, ularning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda yuqori talabga ega bo'lgan. Voha kulolchiligida O'rta Osiyo kulolchilik maktablariga xos bo'lgan badiiy uslub namoyon bo'lgan: gullar va o'simliklar tasvirlari, hayvonlar va qushlar shakllari, shuningdek turli shartli naqshlar keng qo'llanilgan.

Voha iqtisodiyotining yana bir muhim tarmog'i - metallga ishlov berish sohasi ham yaxshi rivojlangan edi. Boysun va Sherobod kabi tog'li tumanlardan qazib olingan metall konlari XX asr boshlarigacha foydalanib kelingan. Bu davrda metallsozlikning quyidagi asosiy yo'nalishlari rivoj topgan:

1. Temirchilik (temir buyumlar yasash)
2. Miskarlik (mis idishlar tayyorlash)
3. Cho'yan quyish (og'ir sanoat buyumlari yaratish)

Bu hunarmandchilik tarmoqlari nafaqat mahalliy ehtiyojlarni qondirgan, balki mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirishga ham hissa qo'shgan.

**Temirchilik.** "Abu Muslimnoma" qo'lyozmasida (fors tilida) va "Pahlavon Admadiy Zamchi" nomli kitobda (Toshkent, 1904) Abu Muslimning hayot yo'li haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Unda aytilishicha, Abu Muslim Marv shahrida usta Xurdaki Xubqori boshchiligida hunarmandlar, temirchi ustalarni Darbandga keltirgan, bu ustalar Temir darvoza (dunyoning bir necha yerida bor, aslida tor daralar shunday deb atalgan*) va qo'rg'onlarda xizmatda bo'lgan

273 Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий ўзгаришлар. (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).-Т. 2008.- Б. 122.
* 1) Kaspiy bo'yidagi Darband — Kavkaz Temir darvozasi;
2) Dunay daryosidagi eng tor dara;
3) Boysun tog'laridagi (Dehqonoboddan Darbandga o'tadigan) Buzg'olaxona urxun yozuvlarida ham tilga olingan);

soqchilar va askarlarga kamon, qilich, otlarga kerak bo'lgan barcha asboblarni yasab beradilar va Darbanddagi Qapchig'ay qo'rg'onida yashaydilar. Abu Muslim shu yerda turib qo'zg'olonga rahbarlik qilgan ekan. Arxeologik izlanishlar natijasida Qapchiray qo'rg'oni VI asrda qurilganligi ma'lum bo'ldi. Bu qo'rg'on Zaxxon qo'rg'oni ham deb yuritiladi. Qo'rg'onning pastki qismida dam olish va yashash xonalari qurilgan, yuqori qismida temirchilik ustaxonalari bor, xonalar soni 16 ta, bu yerda turli asboblar, harbiy qurollar tayyorlangan. Boysunda temirchi ustalarning bizgacha uchta avlodi yetib kelgan. Bular Chorchinorda yashab o'tgan usta Ashur sandiqchi, temirchi, kandakorning avlodlari, ikkinchisi Obi mahallasi temirchilar guzarida yashab o'tgan usta Qurbon avlodlari, uchinchisi Chorchinorda yashab o'tgan usta Qosim avlodlaridir[274].

Amirlikning Boysun, Qorategin, Hisor, bekliklari temir rudasiga boy hududlar hisoblangan. XX asr boshlarida Boysun bekligida 25 ta ruda eritish pechlari bo'lgan, ularda 50 nafar kishi faoliyat ko'rsatgan. Darvoz (Janubiy Tojikistondagi baland tog'lik viloyatining tarixiy nomi[275].), Qorategin (hozirgi Tojikistonda, Dushanbedan shimoli sharq tomondagi tog'li rayon, hozirgi G'arm atroflari[276]) va Hisor (Tojikistonda, hozirgi Dushanbe shahri yonidagi qadimiy qal'a va viloyat. Hisori Shodmon - shu shaharning bir nomi[277]. (Shodmon so'zi qadimiy Shumon nomining o'zgarganidir, degan mulohaza ham bor) bekliklarida 1910-yilda 3000-4000 pud (1 P=16,3805 kg) temir va yana shu miqdordagi cho'yan eritilgan.

Boysun bekligida qazib olingan temirning bir pudi 91 tiyindan sotilsa, Rossiya metall mahsulotlarining bir pudi 7-8 so'm bo'lgan[278].

Sherobod bekligidagi temirchilar ustara yasashda mashhur bo'lib, ustara oddiy temirdan yasalib, unga boshqa joylardagi kabi yaltiroq tus berilmagan. Ustara tig'i qayroq tosh va charm tasma yordamida o'tkirlashtirib turilgan. O'tkir

4) Toshkent shimolida, Qalas yaqinidagi o'tkil ham shunday deb atalgan. "Temir darvoza— Qalas cho'li bilan Isbijop o'rtasida, Shosh chegarasida, Shoshdan Temir darvozagacha 2 mil".

[274] Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун. -Б. 298.

[275] Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. –Тошкент.: Фан .1965. -Б. 64.

[276] O'sha asar,.- B. 79.

[277] O'sha asar,- B. 80.

[278] Қиличев Р. Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик. - Б. 19.



bo'lmagan, qurol tarzida tayyorlangan ustaralar sifati past bo'lganligi uchun bozordagi narxi 5-10 tiyin bo'lgan.

Sherobod bekligi qishloqlarida aholi turli xil kasb-hunar bilan shug'ullanib borishi natijasida temir buyumlarga ehtiyoj ko'p bo'lgan. Shu sababli shaharda o'nga yaqin temirchilik ustaxonalari mavjud bo'lgan. Ustaxonalarda qilich, nayza, qalqon, pichoq va turli xil katta-kichik qurollar hamda mayda buyumlar ishlab chiqarilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasiga moslashgan Sharqiy Buxoro bekliklarida ko'proq qishloq xo'jaligida ishlatiladigan mehnat qurollari, tepkili bel, ketmon, o'roq omoch, so'qa tishli omoch, arra, qaychi, shoxa va boshqa mehnat qurollari tayyorlangan. Qishloq joylardagi ustalar ham oddiy mehnat qurollari tayyorlashni o'zlashtirib olganlar. Ustaxonalarda ustalarning doimiy ish quroli bo'lgan bolta, tesha, arra, ombir, katta qalpoqli mixlar muntazam tarzda tayyorlangan. Uy quruvchi ustalar uchun tayyorlangan bolta 60 tiyin, ombir 1 so'm 40 tiyin, arra 30 tiyin, tesha 30 tiyin, katta qalpoqli mixning bir donasi 5 tiyindan sotilgan[279].

**Pichoqsozlik** - pichoq, ustara, xanjar va boshqa keskir asboblar yasash. Ilk paleolit davridan ma'lum. Dastlabki keskir qurol toshdan yasalgan. Jez davrida mis va jezdan pichoqlar yasalgan. Temirning kashf etilishi pichoqsozlik taraqqiyotida katta burilish bo'ldi. Sharq mamlakatlari, xususan, O'rta Osiyoda pichoqsozlik qadimdan rivojlangan. Boysun hududida (Tumanqo'rgon, Munchoqtepa) olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida mil.av. III-I asrlarga oid pichoq namunasi topilgan. VI-XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib, uni bezash texnologiyalari o'zgargan. XV-XVII asrlarda yonda olib yuriladigan pichoq turlari paydo bo'ldi. Keyinchalik pichoqsozlikning o'ziga xos maktablari paydo bo'lgan.

Boysun pichoqsozlik maktabi Surxon vohasining boshqa joylaridagi pichoqsozlikdan keskin farq qiladi. Bu yerda pichoqsozlik o'ziga xos san'atga aylangan. Pichoq, asosan, temirchilik do'konlarida yasalgan. Temirchi Normamat Shoyimqulovlar sulolasi pichoqlari, usta Rayimnazar pichoqlari, usta Qosim bobo sulolasi pichoqlari, Machayda usta Turdimurod pichoqlari, Dehiboloda usta

[279] Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Б. 66.

Nuriddin pichoqlari, Obi mahallasida usta Odil bobo va usta Murtazoqul Jabborovlar sulolasi pichoqlari yasalish uslubi bir-biridan farq qiladi. Chorchinor mahallasida yashovchi Qodir xoji Xakimovning uyida bobosi Mirzo Abduxoliqning pichoqlari saqlangan. Pichoq 1875-yilda yasalganligi yozilgan[280].

Surxon vohasida Boysun, Sherobod, Denov, Sharqiy Buxoroda Hisor, Qoratog' va Qubodiyon kulolchilik maktablari mavjud bo'lgan.

Buxoro kulolchilik maktabi vakillari kabi janubiy viloyatlar kulol ustalari ikki guruhga ya'ni kosagar va ko'zagarlarga bo'lingan. Usta kosagarlar kosa, nimkosa, taqsimcha, lagan, tovoq kabi turfa rangli sirkori, rang-barang naqshlarga bezalgan sopol buyumlar yasaganlar. Eski Termiz, Jarqo'rg'on vohasida Kultepa, Sherobod vohasidagi Qayrog'ochota kabi yodgorlik va maqbaralarni o'rganish jarayonida to'plangan rang-barang sirkor idishlar namunalari buning isbotidir. Ko'zagar ustalar don, yog', suv va h.k. mahsulotlar saqlanadigan va tayyorlanadigan ko'za, hum, xumcha, qozon kabi idishlar yasaganlar.

Buxoro amirligi hududida mahalliy hunarmandlar tomonidan yaratilgan kundalik turmush ehtiyojlari uchun zarur hisoblangan har xil mahsulotlar hunarmandchilikning asosiy markazlarida, turli hunarmandchilik sohalari uchun kerak bo'lgan xom ashyolar yasalgan. Bekliklar markazi hisoblangan shahar bozorlarida hunarmand usta, kosib, zargar, temirchilar uchun alohida boshqa sotuvchilar kabi maxsus rastalar ajratilgan. Shuningdek, hunarmandlarning o'zlari ustaxona do'konlarida ham hunarmandchilik buyumlarini sotishgan. Rossiya hukumatining Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi maxsus Siyosiy agentlik vakilidan yozma ravishda ruxsatnomasi bo'lgan savdogarlar mahalliy bozorlarda do'kon ochishlari mumkin bo'lgan[281].

Amirlik hududidagi quruqlikdagi tranzit va mahalliy savdo yo'llari ham bu davrda betinim faoliyat ko'rsatgan. Hindiston, Afg'oniston va Eron hududlaridan Amudaryodagi kechuvlar orqali choy, qand, guruch kabi mahsulotlar olib kirgan. Amudaryodagi amirlik hududi bilan bog'liq kechuvlar Chorjo'y, Kelif, Qorakamar,

[280] Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун. - Б. 299.
[281] Алламуратов Ш. Жамият ва инновациялар –Общество и инновации –Society and innovations Journal home - page: 107.



Cho'chqaguzar, Sho'rob, Pattakesarlar hisoblanib, bulardan Qorakamar, Cho'chqaguzar kechlari serqatnov hisoblangan[282].

Bu kechuvlardan o'tgan karvonlar Sherobod va Sheroboddaryoning yuqori havzasi bo'ylab "Temir darvoza" orqali G'uzor va undan so'ng Qarshi va Shahrisabzga tomon, undan so'ng bu bosh karvon yo'lining biri Qarshi orqali Buxoroga, Jom va Taxta Qoracha orqali Samarqandga yo'nalgan bo'lgan.

N.A.Maev asarining Hisor o'lkasi ocherklari (Qarshidan Darbandgacha) qismida Qarshi bilan G'uzor o'rtasidagi yuk yo'li dashtning tep-tekis, ravon qismidan o'tishi, Sheroboddan paxta, Denovdan, Yurchidan, Dushanbedan zig'ir va bug'doy, Poshxurtdan tuz olib kelayotgan tuya va otlarning karvonlarini uchratgani keltirilgan[283].

N.A. Maev Sherobod shahriga ta'rif berib, shahar Sherobod vohasining ma'muriy va qisman butun Sherobod vohasining savdo markazidir. Shahardagi bozorga Buxoro va Balxning savdogarlari kelishi, shu yerdan Buxoro va Qarshiga jo'natiladigan qo'ylar va paxta toylari sotib olinishi, savdo ahamiyatiga qulay joyda joylashganligini yozib qoldirgan[284].

Amudaryo o'z oqim qirg'oqlarining tez-tez o'zgarib turishi, loyqaligi sabab o'tish yo'llarida qum, gruntlarning to'planib qolishi kema hamda qayiqlarning harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun mahalliy kema va qayiqlar suvga chuqur botmasligi uchun yassi tagli, kuchli oqimga qarshi suzish uchun tor bortli qilib yog'ochdan yasalgan. Bu davrda Amudaryoda bir xil o'lchamli kema va qayiqlarni topish qiyin edi, ya'ni ular turli o'lchamlarda yasalardi. Chunki mahalliy kema va qayiqlar aniq bir fizik, texnik va kemachilik qoidalari bo'yicha emas, balki mahalliy ustalar tajribalariga asoslangan holda yasalgan.

Bundan tashqari, kemasozlikda ishlatiladigan yog'ochlar o'lchami turli xil bo'lgani uchun qayiqlar o'lchami har xil uzunlik va qalinlikda bo'lib, ularning suvga botishi ham turlicha edi. Shuning uchun ham manbalardagi kema - qayiqlarning tuzilishi, o'lchami va yuk tashish hajmi haqidagi ma'lumotlarni

[282] Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – С. 168-169.
[283] O'sha asar – B.67.
[284] Маев Н.А. Очерки Бухарского ханства. – С. 82.

umumlashtirib, ularni katta, o'rta hamda kichik qayiqlarga ajratish mumkin: 2000-5000 pud yuk ko'taruvchi – katta qayiqlar, 100-500 pud yuk ko'taruvchi – o'rtacha qayiqlar, 100 pudgacha yuk ko'taruvchi – kichik qayiqlar. Buxoro qayiqlari esa asosan 2 xil o'lchamda bo'lgan: katta qayiqlar (1500 pudgacha yuk ko'taradigan) va o'rtacha qayiqlar (300-400 pud yuk ko'taruvchi). Bundan tashqari 100 pudgacha yuk ko'taruvchi kichik qayiqlar haqida ma'lumotlar kam edi.

XIX – XX asr boshlarida Xiva xonligining Pitnak, Xonqa, Gurlan, Xazorasp, Toshhovuz bekliklari hamda Qoramaz va Jalandi qishloqlari aholisi qayiqsozlik bilan shug'ullangan. Xorazmda hunarmandlar xon ruxsatisiz, buyurtma evaziga kema va qayiqlar yasab berishi mumkin edi. Xivadan farqli tarzda Buxoro amirligida kema va qayiqlar faqat amir ruxsati bilan tayyorlanib, kechuvlardagi kema va qayiqlar ham doimiy nazoratda bo'lgan. Amirlikning Chorjo'y, Burdaliq, Narazim, Karki, Kalif, Sherobod, Qubodiyon, Qarshi bekliklari va Qaboqli, Bashir, Makan, Qorako'l, Kakaydi qishloqlari hamda Vaxsh, Surxondaryo va Kofirnihon daryolari bo'yida turli xil o'lchamdagi kema, qayiqlar yasalgan. Bu davrdagi mahalliy kemalar yasalishida, asosan, qattiq va suvga chidamli daraxtlardan foydalanilgan. Xususan, tol (qoratol va oqtol), terak ("patta"), to'rangil – yovvoyi to'qay teragi, qayrag'och, tut, archa, jiyda, gujum daraxtlari kemachilikda asosiy xomashyo bo'lgan[285].

Amirlikning sharqiy va janubiy hududlari savdo ishlarida markaziy shaharlari bilan "Temir darvoza" orqali Boysun, Denov, Hisori-Shodmon va Qoratog'lar o'zaro bog'langan.

Termiz orqali Denov va Hisori Shodmonga Surxondaryo yoqalab o'tgan yo'l orqali savdo aloqalari amalga oshirilgan bo'lsa, Qubodiyon va undan sharqda joylashgan viloyatlar Termiz bilan Amudaryo yoqalab o'tgan yo'l orqali muntazam bog'liq bo'lgan[286].

1908-yildan 1920-yilning sentabrigacha Denovda Suvonqulbek hokimlik qilgan. Bu davrda Denov savdo markazi sifatida taraqqiy etgan. Beklikda yettita

[285] ها ورق -۲۴ ،۱۷ ،کار -۸۳۲ ، لیست -۲ ،سرمایه -۱- ا،ا ازم. (O'zMA. I-126-jamg'arma. 2-ro'yxat. 832-ish. – V.24.)
[286] Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавхалар.- Т., 1997, - Б. 92-93.



karvonsaroy mavjud bo'lgan. Savdo aloqalarida asosiy o'rinni kulolchilik, boshoqli ekinlar va ho'l mevalar alohida o'rin egallagan. Savdo aloqalari Dushanbe, Ko'lob, Termiz, Buxoro va Samarqand kabi shaharlar bilan olib borilgan. Denov markazida yirik savdo aloqalarini amalga oshiradigan uchta yo'l mavjud bo'lgan. Suvonqulbek davrida esa Denovni Yurchi va Qorliq bilan bog'lovchi yo'llar yanada rivojlangan[287].

Buxoro amirligi aholisi savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga e'tibor qaratib, qo'shni davlatlar Qo'qon va Xiva xonliklari, Afg'oniston, Eron, Hindiston hamda Rossiya imperiyasi kabi mamlakatlar bilan savdo ishlarini olib borgan[288]. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Sharqiy Buxoroda 9 ta beklik bo'lib, ularda 470 ming kishi istiqomat qilishgan[289].

Tadqiqot obyekti bo'lgan hudud hisoblangan Sharqiy Buxoro bekliklarini amirlik va uning markaziga olib boruvchi quruqlik, suv yo'llari mavjud bo'lgan. Ushbu davrda amirlik markazi va bekliklarni bir-biri bilan bog'laydigan transport qatnovi yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. Bu esa o'z navbatida, hududda savdo-sotiq ishlariga qiyinchilik tug'dirardi. Surxon vohasining G'arbiy Buxoro bekliklari bilan olib boriladigan savdo aloqalarida Termiz, Boysun, Darband va Sherobod shaharlari muhim ahamiyat kasb etgan. Vohaning qo'shni bekliklar, G'arbiy Buxoro bekliklarining Afg'oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida eng qulay yo'l Hisor tog'i tizmalari hisoblanib, ushbu tog' tizmalari orqali o'tuvchi to'rtta yo'l muhim ahamiyat kasb etgan[290].

Sharqiy Buxoro bekliklari (7-ilovaga qarang) ichki va tashqi savdo rivojining asosiy omillari dehqonchilik sohasi vakillari tomonidan tayyorlangan tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmi bilan belgilangan. Bu bekliklar hayotida butun amirlikda bo'lgani kabi, xo'jalikning eng yuqori ulushi agrar soha yetakchilik qilgan. Xalqning asosiy boyligi hisoblangan yer davlatning va boy

[287] Исмоилов Н. Денов таронаси (Денов ва деновликлар ҳаётидан лавҳалар). –Тошкент. Наврўз. 1995. -Б. 10.
[288] Алламуратов Ш. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Journal home-page: 106.
[289] Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и Западный Памир в конце XIX века.). – Москва, 1958. - С.9.
[290] Кабулов Э.А. Место долины Сурхан в торговых сношениях России с восточными странами // Universum: Общественные науки: ЭНЖ. 2015. № 1-2(12).

xonadon vakillarining qo'lida to'plangan yerga ishlov berish texnikasining qoloqligi, vaqti –vaqti bilan bo'lib turgan feodal urushlar xo'jalik hayotiga ham albatta salbiy ta'sir o'tkazgan. Shaharlar aholisining asosiy qismi hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanib, dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaligi doimiy tarzda bir-biri bilan uzviy tarzda rivojlangan. Shuningdek, bu ikki soha aholining iqtisodiy ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga, ichki va tashqi savdoning taraqqiyotini ham belgilab bergan[291].

Hunarmandlarning asosiy mashg'uloti, xalq udumlari va an'anaviy mashg'ulotlariga mos holda mahsulotlar tayyorlash, bozor talab- ehtiyojlariga e'tibor berish bo'lgan. Surxon vohasi hududida istiqomat qilgan o'troq va ko'chmanchi urug'larning har birining alohida o'ziga xos e'tiqodlari, urf-odatlari, mehnat qurollari, milliy kiyimlari va an'anaviy turmush tarzi bir-biridan ma'lum jihatlari bilan ajralib turgan. Hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ichki va tashqi bozorlarni imkoniyat darajada ta'minlashi talab darajasida bo'lsa-da, ammo ularning turmush darajasi ancha quyi va achinarli ahvolda edi.

Chunki mahalliy bekliklar va beklikdagi ish boshqaruvchilar hunarmandchilikning rivojlanishiga moddiy –ma'naviy jihatdan amaliy yordam bermagan. Tadqiqot olib borilayotgan davr arxiv manbalarida aniqlanishicha, o'sha davr kosib va hunarmandlari soliq va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lab turganlariga qaramay, ko'pincha qo'shimcha soliqlarga, noqonuniy majburiyatlarni bajarishga jalb etilgan.

Masalan, Sharqiy Buxoro bekliklarida ham hunarmandlar barcha musulmonlar uchun farz hisoblangan zakot solig'i to'lashgan. Bu soliq hunarmand, dehqon, savdogar va boylardan yillik daromadning qirqdan bir qismi miqdorida olingan. XIX asr o'rtalarida Sherobod bekligidan 1 000 000 tanga zakot yig'ib olinib, ushbu zakotning ma'lum miqdori hunarmandlar hissasiga to'g'ri kelgan[292].

Shuningdek, aholidan yig'ilgan soliqlarning hisob-kitobi amirlik va

---

[291] Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Б. 70.
[292] O'sha asar. – B. 68.



markazga maxsus yozma xat tarzda hisobot berib turilganligini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin.

هو الحی
جناب عالی مولایم مدظله
جناب والا مرتبه معتمد تعالی میر دیوان بیگی سلمه الله تعالی
بعد الحمد و الصلوة و تبلیغ الدعوات وافیات
مشهود خاطر خطیر و ملحوظ ضمیر منیر مودت تخمیر عمدة الامرا قدوة الکبرا رفعت میر دولتجاه بوده باشد که الحمد الله و المنه بمهربانی و شرف دولت روز افزون قوی بنیاد سلامتی قرین آبرومندی بوده بدعا مقیدیم.
ثانیاً اینکه امارت پناها محمود بیک نام مستأجر اراضی اوقاف موضع سلوان تومن سامجن دعوی حصة الوقف بر مزارات اوقاف نموده بدروازهٔ ارگ عالی آمده التماس نموده بوده است. از اینوجه یوسف خواجه میرزاباشی بخط کرامی مأمور گردیده و از مزارعین چند نفر دیده بمحمود بیک مذکور دعوی ایذا و اهانت نمودنی شده التماس نموده بوده اند ازینوجه عاشوربیک چهره آقاسی بخط کرامی مامور گردیده بوده است که بانها ملازم همراه کرده بتومان مذکور فرستاده شد هر دو جانب نزد قاضی تومان از دعوی شان محابا داشته بهردو مأمور پانزده تنگه گی سی تنگه خذمتانه داده اند. که آگاهی نموده شد
باقی السلام و علیکم 1313

Huval-hay

Janobi oliy mavloyim, soyangiz uzun bo'lsin. Oliy martabali mir devonbegi Alloh taolo sizni salomat asrasin. Hamd va salovot cheksiz duolarni taqdim etishdan so'ng.

Mashxudi xotira xatir va malhuzi zamiri muniri muaddat taxmir umdatul umaro qudvatul kubaroning mu'lumi bo'lsinki, alhamdulillo val minna Alloh taoloning mehribonlik va karamidan bunyodi kuchlik va kun sayin oshib boradigan davlatning sharafidan salomatlik va obromandlik muyassardir va duo qilib o'tirganmiz.

Amoratning panohi ikkinchidan, Somjan va Salvon tumanining vaqfiyot zaminlarini ijorachisi Mahmudbek ark darvozasiga kelib, avqof mazorotlaridan hissatul vaqf davo qilib iltimos etgan edi. Shuning uchun Yusufxo'ja mirzaboshi giromi (muborak) xatingizdan so'ng ma'mur (topshiriq) bo'ldi, dehqonlardan necha kishi ko'rib Mahmudbekni bezovta va ihonat (haqorat) qilish niyatida bor emishlar, shuning uchun Oshurbek chehraboshi sizning xatingiz tufayli ma'mur bo'lgan ekanki, ularga mulozim hamroh qilib tumanga jo'natsinlar. Ikki tomon ham qozining oldida da'volaridan voz kechibdilar va ma'mur bo'lgan kishiga 15 tanga beribdilar. Xabar berildi boqey (qolgani) assalomu alaykum 1313. Hijriy

qamariy[293].

Hozirgi Termiz shahri ichidagi arxeologik topılmalardan Afg'ontepani ko'rsatish mumkin. Bu tepa Termiz – Aeroport yo'lining janubi – sharq tomonida, shahar kasalxonasi atrofida joylashgan. Qal'a ancha shikastlanganligi uchun aniq ko'lami belgilanmagan.

Pattakesar bozori yaqinidagi Afg'onsaroy XX asr boshlarida Afg'onistondan kelgan savdogarlar mollarini saqlash, savdo-sotiq ishlari maqsadida qurilgan.

Imom Olimboy uyi ham Termizdagi me'moriy binolar qatorida sanaladi. Bu joy Pattakesar bozoridan bir km chamasi uzoqlikda joylashgan bo'lib, Buxorolik yirik savdogarlardan Olimboyga tegishlidir. Uy turar joy, mehmonxona, savdo – sotiq maqsadida 1905-1910 yillarda qurilgan[294].

Xulosa o'rnida o'rganilayotgan davrda Buxoro amirligi shaharlarida hunarmandchilikning ishlab chiqarish sohalari bo'lgan zardo'zlik, metalsozlik, poyyabzaldo'zlik, ko'nchilik, kulolchilik, do'ppi chopondo'zlik va boshqa sohalari davr va aholi talabiga mos ravishda rivojlanib borgan. Xuddi shu sohalarning hududlar bo'yicha biz o'rganayotgan Surxon vohasida ham, rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Sharqiy Buxoro bekliklarida ishlab chiqarilgan hunarmandchilik va dehqonchilik mahsulotlari nafaqat amirlik doirasida, balki hududga yaqin qo'shni davlatlarda ham mashhur bo'lib, xorijga ham savdogarlar tomonidan ko'plab mahsulotlar chiqarib turilgan. Xo'jalik yuritishning qadimgi tartiblariga tayanib ish ko'rish, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni o'zlari kashf qilib yoki xorijdan olib kelib jalb etmaslik, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi qoloqlik, vaqti vaqti bilan ya'ni hukmdorlarning almashinuvi va soliqlar miqdorining oshirilishi natijasida yuzaga keladigan ichki nizolar hunarmandchilik va savdo munosabatlariga jiddiy putur yetkazdi. Lekin shunga qaramasdan, voha ahlining bunyodkorlik salohiyati, fidoiyligi, jonkuyarligi, mehnatsevarligi natijasi sifatida amirlikda xo'jalik hayoti ma'lum darajada ishga tushgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy

293 ازم ا،ا-۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۶۰۶- کاز، ۱۷، ۴- ورق . (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 606-ish. – V.4.)

294 Ртвеладзе Э. Аминов М. Сурхондарё. – Тошкент: Қомуслар, 1996-Б.127.



hayot ravnaqiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida dissertatsiyaning III bobi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

XVIII asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi shaharlarida hunarmandchilikning ishlab chiqarish sohalari bo'lgan zardo'zlik, metalsozlik, poyabzaldo'zlik, ko'nchilik, kulolchilik, do'ppi chopondo'zlik va boshqa sohalari davr va aholi talabiga mos ravishda rivojlanib borgan.

Xuddi shu sohalarning hududlar bo'yicha biz o'rganayotgan Surxon vohasida ham, rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Sharqiy Buxoro bekliklarida ishlab chiqarilgan hunarmandchilik va dehqonchilik mahsulotlari nafaqat amirlik doirasida, balki hududga yaqin qo'shni davlatlarda ham mashhur bo'lib, xorijga ham savdogarlar tomonidan ko'plab mahsulotlar chiqarib turilgan.

Ammo xo'jalik yuritishning qadimgi tartiblariga tayanib ish ko'rish, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni o'zlari kashf qilib yoki xorijdan olib kelib jalb etmaslik, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi qoloqlik, vaqti vaqti bilan ya'ni hukmdorlarning almashinuvi va soliqlar miqdorining oshirilishi natijasida yuzaga keladigan ichki nizolar hunarmandchilik va savdo munosabatlariga jiddiy putur etkazdi. Lekin shunga qaramasdan, voha ahlining bunyodkorlik salohiyati, fidoiyligi, jonkuyarligi, mehnatsevarligi natijasi sifatida amirlikda xo'jalik hayoti ma'lum darajada ishga tushgan bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy hayot ravnaqiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

## XULOSA

"Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligida tutgan o'rni (Buxoro "Qo'shbegi" arxiv materiallari asosida) mavzusini o'rganish asosida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro amirligida mahalliy tarixnavislar, rus tadqiqotchilari, elchilari, sayohatchilarining asarlari, esdaliklari bilan tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu davr tarixnavislari ko'p asrlik tarix yozish an'anasini saqlab qola olganlar va ayni paytda, uni zamonaviy uslub va mavzular bilan boyitishga erishganlar.

2. Mualliflarning ko'pchiligi o'zi yashagan davr tarixi va voqealari bayonida o'z shaxsiy kuzatuvlariga asoslangan. Ularning asarlarida haqqoniy tarixning yoritilishini ko'rish mumkin, lekin aksariyat hollarda ma'naviy va madaniyatga munosabat ruhida yozilgan adabiyotlarda subyektiv fikrlar keltirilgan. O'rganilayotgan davrga oid manbalarda yirik hukmdor va amaldorlar faoliyati, amirlikning markazidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayot tarixi, tashqi aloqalar, o'zaro urushlar, qo'shni mamlakatlar bilan elchilik va savdo aloqalari, sulolalar tarixini yoritishga qaratilgan. Bu esa amirlik hayotida voha bekliklarining tutgan o'rnini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

3. XVIII asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarigacha Buxoro amirligi va uning janubi-sharqiy qismi hisoblangan Surxon vohasi bekliklarining amirlik hayotida o'rnini o'rganishda sovet davrida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar muhim manba hisoblanadi. Sovet mafkurasi asosida yozilgan asarlar bir yoqlama xarakterdagi ya'ni hukmron siyosiy tuzum bosimi ostida yozilganligini aniqlandi.

4. Xorijlik olim, sayyoh va harbiylar tomonidan yozilgan asarlarda Surxon vohasining siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalari tarixiga oid ma'lumotlarning tarixiy haqiqatga yaqinligi isbotlandi.

5. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda vohaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid manbalar qisman ilmiy tahlil etilishiga qaramay, Surxon vohasi bekliklarining Buxoro amirligi hayotida o'rni, Buxoro "Qo'shbegi" arxivi materiallari asosida o'rganilmagan.



6. Surxon vohasi mang'itlar sulolasi hukmronligi yillarida Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan. Amirlar bo'ysundirilgan hududlarga o'z qarindoshlari va o'ziga sodiq kishilarni boshliq sifatida tayinlab, siyosiy tinchlikni saqlab turishga harakat qilgan. Bekliklardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat turlicha edi, sababi amirlikdagi siyosiy vaziyatning o'zgarishi to'g'ridan-to'g'ri hududlar siyosiy boshqaruviga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Voha hududi, qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar hudud edi. Aholisining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lgan.

Tadqiqotda umumlashtirilgan tarixiy ma'lumotlar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Xorijiy davlatlar (Tojikiston va Rossiya) ning ilmiy tadqiqot-institutlari va markazlari bilan hamkorlikda Surxon vohasi tarixini mukammal o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar (loyihalar, ekspeditsiyalar) ni tashkil qilish, Buxoro amirligi tarixini chuqur tadqiq etgan holda to'plangan materiallar asosida ilmiy monografiyalar chop etish;

2. XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Surxon vohasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy tarixi, ichki va tashqi savdo yo'llarini bog'lovchi quruqlik hamda suv yo'li, shuningdek, daryo bo'yidagi yodgorliklar, aholi manzillarini aks ettiruvchi mukammal tarixiy-geografik xaritalarni yaratish hamda ularni o'quv adabiyotlariga tegishli davr yoki mavzulari mazmunini yorituvchi material sifatida kiritish;

3. Mamlakatdagi markaziy va viloyat o'lkashunoslik muzeylaridagi eksponatlarni Surxon vohasining (Buxoro "Qo'shbegi" arxiv materiallari asosida) tarixini ochib beruvchi ham fors va arab tilidagi ham o'zbek tilidagi jo'natma xatlar, tarixiy xarita, suratlar hamda bekliklar tarixiga oid materiallar bilan boyitish;

4. Hozirgi kunda vohada mavjud bo'lgan tumanlardagi bekliklar qo'rg'onlaridagi tarixiy yodgorliklar, qadimiy shaharlar, ularga olib boruvchi yo'llar bo'ylab yangi turistik marshrutlar tashkil qilish va ularni tavsiflovchi turli tillarda maxsus sayyohlik xaritalari, bukletlar, ma'lumot ko'rsatgichlar hamda albomlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. 279-b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.


### II. Manbalar


1. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халкининг хасрати тарихи. /Форсийдан таржима, мукаддима ва изохлар муаллифи Абдусодик Ирисов. – Тошкент, 1991.-Б. 1.

2. Ахмад Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе: Сарват, 1992.-98 с.

3. Ахмад Дониш. История мангитской династии. – Душанбе: Дониш, 1967. – 274 с.

4. Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург / Подготовка текста и комментарий Р. Хади-Заде. Пер. с таджик. М.Н. Османова и Л.М. Демидчик. – Душанбе, 1960.

5. Балжувоний М.А. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). –Тошкент: Академия, 2001. 118. б.





6. ۱۹۶۲. میرزا عبدا العظمی سامی. تاریخ سلاطین منغیتی (Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqiroz. Sharq yulduzi № 3-4).1962. -B.109

7. میرزا عبدالعظیم سامی. شاه دهمایی.( Mirzo Abdulazim Somiy. Dahmayi shohon. O'zR FA Shl qo'lyozmasi, № 2188. 141 б – 171 a vv)

8. میرزا سلیمبک بن محمد رحیم تاریخ سلیم (Mirzo Salimbek. Tarixiy Salimiy; Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий. Таворихи мутақаддимин ва мутааххирин / Fors-tojik tilidan tarjima, kirish so'z, izohlar muallifi N. Yo'ldoshev. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2003. – 344 b.

9. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: к.и. н. Н. К. Норкулов. Редактор перевода: д. ф. н. А. К. Арендс. Предисловие, редактор введения и примечаний: д.и.н. А. С. Сагдуллаев. – Ташкент: Akademiya, 2009. – 330 с.

10. Mir Muhammad Hikmat. Tazkirat ash-shuaro. O'zR. FA. SHI. qo'lyozmasi, inv.№ 2727-76 a, b vv.

11. O'zR FA Shl qo'lyozmasi, inv.№ 1836

12. № ۱۸۳۶.ملاعبدالله و ملامحمد شریف تاریخ امیرحیدر (Mullo Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif)ning "Amir Haydar tarixi") № 1836.

13. №۱۴۲۶ محمد وفوی کرمیناگی. تحفة الخانی (هدیه خان) (Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Xonning tuhfasi") №1426


### III. Arxiv hujjatlari.


1. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست -( O'zMA (O'zbekiston Milliy arxivi). I-126-fond, 1-ro'yxat – Buxoro amirligi "Qo'shbegi" arxivi).

2. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۴۸- کار، ۱- ۲ورق ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 48 -ish, -V.1-2.)

3. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۴۹- کار، ۱- ورق . ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat, 49 -ish, -V.1.)

4. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۵۱- کار، ۴۳ - ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 51 -ish, -V.43.)

5. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۶۲- کار، ۱- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 62 -ish, -V.1.)

6. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۶۹- کار، ۱-۲ - ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 69 -ish, -V.1-2.)

7. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۷۴- کار، ۱ - ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 74 -ish, -V.1.)

8. ازم آ. ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست. ۱۹۲- کار.۱- ورق ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat,192 -ish, -V.1.)

9. ازم آ.ا -۲- سرمایه، ۱- لیست ، ۲۵۱- کار، ۱۰- ورق .. (O‘zMA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 251-ish, –V.1.)

10. ازم آ.ا -۲- سرمایه، ۱- لیست ، ۲۵۱- کار، ۱۰- ورق .. ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 251 -ish, -V.10.)

11. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۵۳۴- کار، ۱- ورق . (O‘zMA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 534-ish. – V.1.)

12. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۶۰۶- کار، ۱۷، ۴- ورق . (O‘zMA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 606-ish. – V.4.)

13. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۶۰۶- کار، ۶- ورق . (O‘zMA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 606-ish. – V.6.)

14. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۶۰۶- کار، ۷- ورق . (O‘zMA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 606-ish. – V.7.)

15. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۷۵۱- کار، ۶- ورق . (O‘zMA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 751-ish. – V.6.)

16. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۷۶۳- کار، ۱- ورق . (O‘zMA, I-126-fond, 1-ro‘yxat, 763-ish. – V.1.)

17. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۷۶۷- کار، ۱- ورق ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 767 -ish, -V.1.)

18. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۱۰۰۱- کار، ۲۷- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 1001 -ish, -B.27.)



19. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۱۰۵۸- کار، ۲- ورق . ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 1058 -ish, -V.2.)

20. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست ، ۱۰۸۰- کار، ۲۷- ورق . ( O‘zMA, 126-fond, 1-ro‘yxat, 1080 -ish, -V.27.)

21. **ازم آ. ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست -۱۰.کار ورق ; -- (O‘zMA. I-126- fond, 2-ro‘yxat – Buxoro amirligi “Qo‘shbegi” arxivi).**

22. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۷۱- کار، ۹۳- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 71 -ish, -V.93.)

23. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۷۱- کار، ۹۴- ورق.. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 71 -ish, -V.94.)

24. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۱۸۰- کار، ۱۰- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 180 -ish, -V.10.)

25. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۵۱- کار، ۲۱- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 251 -ish, -V.12.)

26. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۵- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 265 -ish, -V.1.)

27. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۲- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 265 -ish, -V.2.)

28. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۳- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 265 -ish, -V.3.)

29. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار، ۴- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 265 -ish, -V.4.)

30. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۲۶۵- کار. ۵ - ورق . ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 265 -ish, -V.5.)

31. ازم آ.ا -۱- سرمایه، ۲- لیست ، ۸۳۲- کار، ۱۷، ۲۴- ورق. (O‘zMA. I-126-jamg‘arma. 2-ro‘yxat. 832-ish. – V.24.)

32. م آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۲- لیست ، ۱۴۰۲- کار، ۱-۳۹- ورق. ( O‘zMA, 126-fond, 2-ro‘yxat, 1402 -ish, -V.1-39.)

33. ازم آ.ا -۱۲۶- سرمایه، ۳- لیست ، ۸۹۱- کار، ۳۲ - ورق. ( O‘zMA. I-126-jamg‘arma, 3-ro‘yxat. 891 -ish, -V.32.)

34. ازم ا/ ا -۱۲۶- سرمایه، ۳- لیست ، ۸۹۱- کار، ۳۲ - ورق. ( O'zMA. I-126-jamg'arma, 3-ro'yxat. 891 -ish, -V.32.)

35. SVDA (Surxondaryo viloyat davlat arxivi). S-81- fond – O'zbekiston Respublikasi davlat Bojxona qo'mitasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi. 252-jamlanma, 2-ro'yxat, 109-ish, 19 varaq.

### IV. Monografiya, ilmiy maqola, ilmiy to'plamlar

1. Абдувахобова М.Р. Кушбеги архивида тарихий топонимлар ва Бухоро амирлигининг маъмурий-худудий тизими. – Тошкент, 2006. –59-б.

2. Абдураимов М.А. Очерк аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI-первой пол. XIX века. Тошкент: Фан, 1966.

3. Алламуратов Ш. Жамият ва инновациялар –Общество и инновации – Society and innovations Journal home -page: 106-107.

4. Ананьев А.Г. Шерабадская долина. – СПб., 1914. – 87 с.

5. Ананьев А.Г. Орошение Шерабадской долины водами Сурхана. – Т. 1911. Шеробод вохаси ерларини Сурхон суви ёрдамида суғориш лойиҳаси / Тарж.: С.Турсунов. – Т.: "Шарк", 2002. – 32 b.

6. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (кремль) Бухары в конце XIX – начале XX вв. Душанбе, 1972. 163.

7. Арапов Д.Ю. Бухарское ханство в русской востоковедческой историографии. Москва: МГУ, 1981.

8. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar.- T., 1997. - B.92-93.

9. Аъзамова Г.А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида хунармандчилик ва савдо. – Тошкент, "Ўзбекистон", 2000. - 399-б.

10. Азимов М. Термиз тарихи (энг кадимги даврдан XXI аср бошларигача). – Термиз: Насаф, 2001. – 193 б.

11. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX столетия до первой мировой войны). – Toshkent, 1959. – 298 с.



12. Аминов А., Бабаходжаев А. Экономические последствия присоединения Средней Азии к России. - Т.: Узбекистан, 1966; -210 с.

13. Аминов А., Бабаходжаев А.Х. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Toshkent: Uzbekistan, 1966. – 210 с.

14. Абдураимов М.А Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI - первой половине XIX века / АН УзССР. Ин-т востоковедения им. Бируни. - Ташкент : Фан, 1966. - 1 т.; 22 с.

15. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.: Ўкитувчи, 2001.-Б. 237.

16. Ахмаджонов Г.А. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент, 2003. – 270-б.

17. Аминов А., Бабаходжаев А. Экономические последствия присоединения Средней Азии к России. Тошкент: Узбекистан. 1966. - 211с.

18. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (кремль) Бухары в конце XIX – начале XX вв. Душанбе, 1972.- 163с.

19. Ashurov A. S. Craft and trade relations in eastern beks of the bukhara emirate //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1376-1380.

20. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестане // Сочинения. Т.II. Ч.1. – Москва: Наука, 1964. – С. 314.

21. Бартольд В.В. Работы по исторической географии.// Сочинения. Т.III – Москва: Наука, 1965. – С. 3.

22. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана.// Сочинения. Т.III – Москва: Наука, 1965. – С. 159.

23. Басов Д. Пайкалы Шерабадской долины // За реконструкцию сельского хозяйства. – Самарканд, 1929. – №11.

24. Батраков В. С. Особенности развития сельского хозяйства Бухарского ханства с половины XVIII до 70-х г. – XIX вв // Труды ТашГУ. Вып. 193. – Ташкент, 1962. – С. 154-184.

25. Борнс А. Путешествие в Бухару. -Т.1–2. –М.,1848–1849.– 528/628 с.

26. Бунаков Е.В. К истории отношений России со среднеазиатскими ханствами в XIX в. // Советское востоковедение, вып. 2. 1941. – С. 24-26.

27. Давидович.Е., Мухтаров.А. Страницы истории Гиссара. – Душанбе. Ирфон. 1969. С.36.

28.

29. Епифанова Л.М. Рукописьные источники по истории Средней Азии периода присоединения ее к России. (Бухара). — Т., 1965. - С.2.

30. Емельянов.Н.А. Численность вакфов Туркестанского края // Туркестанский сборник. Т.461. –С.3 – 6.

31. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. –Тошкент.: Фан .1965. Б. 64-80.

32. Ҳабибулла Ғафур. Ватан тупроғи. –Тошкент: "Замин нашр". 2018. - Б-107.

33. Ҳушбоқ Раҳим. Деновнома.–Термиз. Сурхон нашр МЧЖ. --372 б.

34. Иноятов Х. Очерки по истории Средней Азии XVII– середина XIX вв.. – Moskva: Vostochnaya literatura, 1958. – 247 с.

35. Исмоилов Н. Денов таронаси (Денов ва деновликлар хаётидан лавҳалар). –Тошкент. Наврuз. 1995. Б. 10.

36. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Ч. I. – Душанбе, 1962. – 355 с.

37. Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века. Ч. II. – Душанбе, 1963. – 351 с.

38. Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата (Восточная Бухара и Западный Памир в конце XIX в.). – Москва: Восточная литература, 1958. – 232 с.

39. Искандаров Б.И. О некоторых изменениях в экономике восточной Бухары на рубеже XIX – XX вв. – Сталинабад, 1958. – 141 с.

40. История Узбекистана. Т. III. – Ташкент: Фан, 1993. – С. 151.



41. Жалолиддин Мирзо. Термиз тарихи. – Тошкент: Шарк, 2001. – 127 б.

42. Кабулов Э.А. Место долины Сурхан в торговых сношениях России с восточными странами // Universum: Общественные науки: ЭНЖ. – 2015. № 1-2 (12).

43. Кармышева Б.Х. О торговле в восточных бекствах Бухарского ханства в начале XX в. в связи с хозяйственной специализацией // Товарно-денежные отношения на Ближнем и Среднем Востоке в эпоху средневековья. – Москва: Наука, 1979. – С. 114-133.

44. Кармышева Б.Х. Типы скотоводства в южных районах Узбекистана и Таджикистана // Советская этнография. 1969. – №1. – С. 44-49;

45. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы южного Таджикистана. – Сталинабад, 1954. – С. 169.

46. Кастальский Б.Н. Историко-географический образ Сурханской и Ширабадской долины // Вестник ирригации. – Ташкент, 1930. – С. 24-30.

47. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана,-М.: Наука,1977. -С.111-112.

48. Казаков Б.А. Документальные памятники Средней Азии. Ташкент: Узбекистан, 1987. – С. 102.

49. Лакоза И. И. Верблюдоводство. – Москва: Сельхозгиз, 1953. – 312 с.

50. Лакоза И. И. Племенная работа с породами лошадей. – Москва: Колос, 1958. – 312 с.

51. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том I, II. – СПб.: В.Березовский, 1911. – 340. – 354 с.

52. Логофет Д.Н. В забытой стране. Путевые очерки по Средней Азии. – М.: печатня А.И.Снегирева, 1912. – С.176.

53. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Кн.III. Бухарско-афганская граница.-СПб., 1909. – С.6-7.

54. Логофет Д.И. Страна бесправия. – С. 75.

55. Маджлисов А. Аграрные отношения в восточной Бухаре в XIX – начале XX века. – Душанбе – Алма-ата: Ирфон, 1967. – 337 с.

56. Маев Н. Очерки Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.5. – СПб., 1879. – 400 с. Бухоро хонлиги очерклари. Рус тилидан Исмоил Ботиров таржимаси.-Тошкент: Fan va texnologiya, 2012. – Б.67.

57. Мирза Бадиъ Диван. Маджмаъ ал-аркам ("Предписная фиска"): приемы документации в Бухаре XVIII в. (Факсимиле рукописи. Введение, перевод, примечание и прил. А.Б. Вилдановой). — М., 1981. - С.4.

58. Мирзаев К.М. Амляковая форма феодальной-земельной собственности в Бухарском ханстве. – Ташкент: Наука, 1954. – 104 с.

59. Mirzayev Z., Qobulov E. Surxondaryoda paxtachilik va paxta tozalash zavodi tarixi. – Termiz: Jayxun, 1996. – 85-b.

60. Мухаммеджанов А.Р., Нигматов Т. Некоторые источники к истории взаимоотношений Бухары и Хивы с Росией. (Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar). – Toshkent: O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi, 1957. – 224.b.

61. Мухаммаджонов А.Р. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX-нач. XX вв.): Материалы к исторической географии Средней Азии) — Т.: Университет, 2001. — С.5.

62. Мухаммеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса. – Ташкент: Фан, 1978. – 298 с.;

63. Мухаммеджанов А.Р. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехника иншоотлари. – Тошкент: O'збекистон. 1997. -88 б.

64. Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент. Адолат., 2003. -Б.205.

65. Мўминов И. Ўзбекистон ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихидан, Т., 1964.

66. Николаева Л.Ю. Русские в Восточной Бухаре // Восточный архив. — 2008. — № 17.



67. Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иктисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Абу матбуот консалт,- 2008.- 164 б.

68. Покотило Н.Н. Отчет о поездке в пределы Центральной и Восточной Бухары в 1886 г. – Ташкент, 1888. – С. 113.

69. Покотило Н.Н. Путешествие в Центральную и Восточную Бухару в 1886 г. – Ташкент: Окружного штаба, 1888-с.27.

70. Поспелов Е. М. Сурхандарья // Географические названия мира. Топонимический словарь: / отв. ред. Р. А. Агеева. — М.: Русские словари, 1998. — 503 с.

71. Полозов В.А. Узбекское общинное землепользование в Шерабадской долине и Каршинской степи // Народное хозяйство Средней Азии. 1925. – №7. – С. 60-75.

72. Қобулов Э.А. Сурхон воҳаси хўжалиги (XVIII — XX аср бошларида). – Тошкент: Академнашр, 2012. – 408 б.

73. Қабулов Э.А. XVIII асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида Сурхон воҳаси хо'жалиги. –Тошкент: 2019. –Б.49.

74. Қиличев Р. Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик. –Тошкент.: Фан .1996. Б. 19.

75. Ражабов Қ. Бухоро мавжлари. 2005. № 3-11. 37

76. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: Издательство ЦСУ Туркреспублики, 1922. – 132 с

77. Ртвеладзе Э. Пидаев Ш, Кочнев Б. Термиз. – Шарк.Тошкент, 2001. – Б. 34 (Yana qarang: Бартольд В.В. Термиз // Соч. Т. III. М., 1965. -С. 159)

78. Ртвеладзе Э. Аминов М. Сурхондарё. – Тошкент: Қомуслар, 1996-b.127.

79. Рдвеладзе Э, Турсунов С,Никитенко Г. Термиз – буюк йўллар чорраҳасидаги кўҳна ва янги шаҳар. Альбом. Т. Шарк. 2001. - Б. 41.

80. Рўзиев А.Н. Сурхондарё вилояти. – Тошкент: Жайхун, 1996. – 115 б.

81. Семёнов А.А. К истории дипломатических отношений между Россией и Бухарой в начале XIX в. Тошкент: АН УзССР, 1951.

82. Соколов А.Я. Торговая политика России в Средней Азии и развитие русско-афганских торговых отношений. – Ташкент: Фан, 1971. – 172 с.

83. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Историко-этнографические очерки. — Т.: Изд-во АН УзССР, 1958. — С.145;

84. Сухарева О. А. Бухара XIX –начого XX-в. (Позднефеодальныны город и его население). –– М.:1966.-С. 120-121.

85. Tursunov S. Surxondaryo viloyati toponimlari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2008.; 149-b.

86. Турсунов С, Қобулов Э, Муртозоев Б, Пардаев Т, Умаров И. – Термиз шаҳри тарихи:Тошкент: Янгинашр 2019. -Б.193.

87. Турсунов С, Рашидов Қ. Бойсун. -Т.: Akademnashr, 2001. Б. 299.

88. Турсунов С.Н., Қобулов Э. ва б. Сурхондарё тарих ко'згусида (ҳамкорликда). – Тошкент: Шарқ, 2001. – 384 б.

89. Турсунов С.Н., Қобулов Э. ва б. Сурхондарё тарихи (ҳамкорликда). – Тошкент: Шарқ, 2004. – 606 б.

90. Турсунов С, Тўхтаев А. (мархум) Жаркўрғон. – Тошкент: Фан, 2008. – 303 б

91. Турсунов С.Н. Шерободликлар. – Тошкент: Алишер Навоий миллий кутубхонаси, 2007. – 388 б.

92. Турсунов С. ва Турдиев Т.. Денов. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.594.

93. Туркестанские ведомости. 1916., -№ 95. 30 (13 май) апрель. –В.3.

94. Тўхтаев А.Қ. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ва уни "социалистик" асосда саноатлаштиришнинг ижтимоий оқибатлари. (1917-1941 йиллар). Тарих фан. номзоди ... дисс.– Термиз: ЎзМУ, 2001. 159 б.



95. Вохидов Ш, Холикова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан (XIX – XX аср бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 74 б.

96. Хакимова К.З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIV – начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1991. – 114 с.

97. Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально экономические отношения. - Т.: Фан, 1966. - С.7.

98. Хакимова К.З., Кравец Л.Н. Социально-экономические отношения и классовая борьба в дореволюционном Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1980. – 175 с.

99. Хальфин Н.А. Россия и Бухарский эмират на Западном Памире (конец XIX – начало XX вв). – Москва: Восточная литература, 1960. – 127 с;

100. Хальфин Н.А. Россия и ханства Средней Азии. – Москва: Наука, 1974. – 406 с.

101. Хальфин Н.А. Россия и Бухарский эмират на Западном Памире (конец XIX – начало XX вв). – Москва: Восточная литература, 1960. – 127 с.

102. Хакимова К.З. Фонд "Канцелярии кушбеги эмира Бухарского" – источник изучения истории крестьянского движения в Бухарском эмире. Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. Ежегодник (1976-1977).- Москва. Наука. 1984. С.204.

103. Хамраев М. Очерки истории Хиссарского бекства конsа XIX-начала XX вв// Тр. АН Тадж ССР. - Душанбе, 1959. С.93.

104. Хамраев А.Х. К вопросу о земельно-водных отношениях в Бухарском ханстве в XIX веке. – Ташкент: САГУ, 1948. – 147 с.

105. Холикова Р. Россия – Бухоро: тарих чорраҳасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 240 б.

106. Холиков Э.З. Термиз ва Чағониён сўнгги ўрта асрларда (XVI – XIX асрлар, археологик ва ёзма манбалар асосида): Тарих фан. номзоди ... дисс.– Самарқанд: ТерДУ, 2001. — 177 б.

107. Холиқов З. Термез и Чағаниян в позднем средневековъе. Афтореф. дисс... канд. ист. наук. – Самарканд, 2001. – С. 17.

108. Хидоятов И. О характере сельского хозяйство многонациональных районов Сурхандарьинской области в дореволюционное время // Советская этнография. 1970. – №2. - С. 133 – 139.

109. Зиёев Ҳ. . Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш (XVIII – XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 1998. – 478 б

110. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи (милоддан аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). – Тошкент: Шарқ, 2001.

111. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 352 б.

112. Zamonov A., Egamberdiyev A. Buxoro amirligi tarixi (XVIII asr oʻrtalari – XIX asr oʻrtalari) uslubiy qoʻllanma. “Tamaddun” . T., 2022. B. 161.

113. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. – Ташкент: Фан, 1964. – 195 с;

114. Шаниязов К.Ш. Основные отрасли животноводство в дореволюционном Узбекистане // Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1975. – С. 188-193.

115. Щейко К.А. Из истории присоединения Термеза к России // Краеведение Сурхандарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – С. 117-140.

116. Шубинский П.П. Очерки Бухары. // Исторический вестник. – СПб. 1892. № 6-10.

117. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. -Т.:Шарқ, 2002.-Б. 150.

### V. Xorijiy adabiyotlar

1. Анке Фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII – XIX веков). –Алматы: Дайк-Пресса, 2001. – С.272.

2. Bonvalot G. Through the heart of Asia. Over the Pomir to India, Vol. II.



– London, 1889. – P. 220.

3. Holdsworth. Turkestan in the nineteenth century. A Briethistory of the khanates of Bukhara, Kokand and Khiva. – Oxford, 1959. Introduction; Bonvalot G. Through the heart of Asia. Over the Pomir to India. Vol. II. – London, 1889. 249 p.

4. Meyendorf Voyage for Orenburg a Bouckaha fait en 1820.- Paris, 1826. P.300.

5. Selim Serkan Ukten. Buhara hanlig'inin askeri teskilati (1500-1868). Anqara. 2018. S.56

6. Вамбери А. История Бухары. Или Трансоксании с древнейших времен до настоящего.- СПб., 1873. – Т. 1–2. – 274/ 228 с.

7. Wright George Fredorick. Asiatic Russia. – New York, 1903. 2 vols.

### VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar

1. Азизов И.Ш. XIX асрнинг сўнгги чораги XX аср бошида Бухоро амирлигида солиқ тизими.: Тарих фан. ном. ... дис. – Тошкент, 2018. - Б.18.

2. Авазов Й.У. XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро амирлигининг жанубий-шарқий бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий хаёт. Тарих фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 2005. – 168 б.

3. Бўриев С.Д. XX асрда Сурхон – Шеробод воҳасининг суғорилиш тарихи: Тарих фан. номзоди ... дисс. – Термиз, 2008, 177-б.

4. Даминова З.Ш. XIX аср охири – XX асрда Термиз шаҳри тарихи : Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ТерДУ, 2004. -183 б.

5. Dovurova Sh.H. Buxoro amirligi savdo munosabatlari tarixi. Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 54 b.

6. Ибрагимова М.Й. Сурхондарё воҳаси аҳолисининг анъанавий кийимлари ва тақинчоқлари (XIX аср охири ва XX аср бошлари) : Тарих фан. номзоди ... дисс –Тошкент: ЎзРФАТИ, 2004. – 145 б.

7. Kabilov K.E. Mangʻitlar davri savdo aloqalarida Surxon vohasining

tutgan o‘rni. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi, 2024. – 54 b.

8. Мирза Бадиъ Диван. “Мажмаъ ал-аркам” (XVIII аср Бухоросида фискал кўрсатмалар, ҳужжатлаштириш усуллари). Қўлёзма факсимилеси, кириш, таржима, А.Б. Вилданова томонидан тайёрланган изоҳлар ва иловалар. – Москва: Наука, 1981. – 122 (+198) бет.

9. Очилдиев Ф. XIX — XX аср бошларида жанубий Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ҳаёт (Сурхон воҳаси мисолида): Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2007, -172-б.

10. Ochildiyev F.B. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Tarix fanlari doktori (DSc) . – Тошкент, 2022. – 260 b.

11. Razzaqov D.X. Buxoro xonligining tashqi savdo aloqalari (XIX asrning 60-90 yillari).Tarix fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 1994 – 190 b.

12. Таниева Г.М. Қарши вилоятининг Бухоро амирлиги сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни (XVIII асрнинг иккинчи ярми – XIX асрнинг биринчи ярми).: Тарих фан. ном. ... дис. – Т ., 2008. – 41-б.

13. Турсунов Н.Н. Жанубий Сурхон воҳаси аҳолисининг этник хусусиятлари: Тарих фан. номзоди ... дисс. – Тошкент: ЎзРФАТИ, 2007, -224 б.

14. Холиқулов А.Б. XIX-XX аср бошларида Қашқадарё бекликлари. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертацияси. -Тошкент, 2011. -Б.120.

15. Қобулов Э.А. XVIII асрнинг иккинчи ярми ва XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 284 б.

16. Қобулов Э. О. XVIII аср – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Дисс. т.ф.д., (135 б). -Термиз-2019 й. -Б.59

17. Шукуруллаев Й.А. Бухоро амирлигида қўшин ва ҳарбий иши (1756-1920). ).: Тарих фан. ном. ... дис. – Т ., 2006. – 20-б.



## VII. Internet manbalari

1. https://qomus.info/encyclopedia/cat-v/voha-uz/
2. http qomus.info encyclopedia cat-m/mirzo-abdulazim-somiy-bostoniy-uz
3. https: uztext.com 86514-text.html
4. http: komron.info cr risolai-mangitiya
5. https: qomus.info encyclopedia/cat-a/ahmad-donish-uz/
6. https: tadj ru.academic.ru/
7. https: shosh.uz buhoro-amirligi-qushbegisi-arhivining-shakllanish-tarihi/
8. https: qomus.info encyclopedia cat-m/muhammad-rahim-uz/
9. https: /qomus.info encyclopedia cat-n nodirshoh-uz/
10. https: tarjumon.uz buxoro-amiri-amir-nasrulloxon-u-kim-bolgan/

## ATAMALAR VA O'LCHOV BIRLIKLARI IZOHI

1. **Arxiv** - bu davlat idoralari, tashkilotlar yoki shaxslar faoliyati natijasida yuzaga kelgan hujjatlar majmuasini qabul qilish, saqlash, tartibga solish va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish uchun taqdim etish vazifasini bajaruvchi maxsus muassasa hisoblanadi. Arxivlar odatda davlat arxivlari, shaxsiy arxivlar va korporativ arxivlar turlariga bo'linadi.

2. **Amlok** - tarixiy manbalarda katta yer maydonlarini (asosan qishloq xo'jaligi yerlari) ifodalovchi atama bo'lib, ko'pincha davlat tomonidan yuqori martabali amaldorlarga xizmatlari evaziga berilgan yer mulki hisoblangan. Amlok egalari (amlokdorlar) bu yerlardan olingan hosilning ma'lum qismini davlat xazinasi uchun soliq shaklida to'lash majburiyatini olgan.

3. **Amlokdor** (ar. amlok - mulk so'zining ko'pligi, fors-toj. dor - ega) - Buxoro amirligiga qarashli eng kichik ma'muriy bo'linma-amlokni boshqaruvchi kishi. Amlokdorlar boy tabaqa vakillaridan bo'lib, bek tomonidan tayinlangan. Amlokdorga bir necha qishloq qaram bo'lgan. Amlokdor qo'lida kotib, mirob, amin, oqsoqollar xizmat qilganlar. Amlokdorlar o'z yerlarini dehqonlarga ijaraga berganlar. Amlokdorlar xiroj yig'ish, dehqonlar yetishtiradigan hosilni hisobga olish, soliq to'lamaganlarni jazolash, jarima solish kabi ishlar bilan shug'ullanganlar.

4. **Amudaryo** - O'zbekistondagi eng yirik daryo bo'lib, u Vaxsh va Panj daryolarining qo'shilishidan boshlanadi. Vatanimiz hududida o'troq sug'orma dehqonchilik madaniyati va davlatchilikning paydo bo'lishida ushbu daryoning o'rni va ahamiyati juda kattadir. Amudaryo eramizdan avvalgi I ming yillikka oid yozma manbalardayoq tilga olinib, "Avesto"da Vanhvi-Daiti, Yunon-Rim tarixchilarining asarlarida Oksus (Oksos) yoki Araks, Xitoy manbalarida Guy-Shuy, mahalliy turkiy manbalarda O'kuz, Balx, Vaxsh, Omul (Amul), arab manbalarda Jayxun nomi bilan eslanadi.

5. **Amir al-mo'minin** (ar. - mo'minlar amiri) - ilk islom davridagi xalifalarning unvoni. Usha davrda diniy va dunyoviy hokimiyat xalifalarning qo'llarida jamlangan. Bu vazifalarni bajaruvchilar "xalifa", "imom", "amir" unvonlari bilan birga, har uchala mazmunni ifodalovchi yagona amir al-mo'minin unvoni bilan atalgan.



6. **Buxoro qo'shbegi** (Buxoro qo'shbegi) (o'zbekcha: Buxoro qo'shbegisi, Qo'shbegi - 1756-1920 yillarda Buxoro amirligida o'zbek mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida davlat ishlarini boshqargan vazir va oliy mansabdor shaxs unvoniga mos keladigan unvon

7. "**Qo'shbegi**" so'zi turkiy tildan so'zma-so'z tarjima qilganda shtab, qarorgoh boshlig'i degan manoni anglatadi.

8. **Buxoro amiri Qo'shbegi arxivi** - XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi tarixini o'rganish uchun asosiy manba hisoblanadi. Hozirda O'zbekiston Davlat tarix arxivining I-126 fondida saqlanayotgan bu hujjatlar to'plami 2656 ta papkada joylashtirilgan 100 000 dan ortiq hujjatlardan iborat bo'lib, mazmuni jihatidan 11 guruhga bo'lingan. Ushbu arxiv Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy hayoti, iqtisodiyoti va madaniyatini o'rganishda noyob manba vazifasini o'tamoqda.

9. **Jo'yboriy xo'jalari va shayxlari** - Buxorodagi Jo'yboriy qishlog'idan chiqqan naqshbandiylik tariqati vakillari bo'lib, o'z nasablarini otalar tomonidan Muhammad payg'ambarga, onalar tomonidan esa Chingizxon va Jo'jixonga bog'laydilar. XVI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Shayx Muhammad Islom (1493-1563) va uning o'g'li Shayx Abubakr Sa'd kabi Jo'yboriy shayxlari Buxoro xonligida shayxulislom kabi muhim lavozimlarni egallab, mamlakat siyosiy hayotida katta ta'sirga ega bo'lganlar.

10. **Jo'yboriy xo'jalari arxivi** - bu tarixiy manbalarda Jo'yboriy xo'jalari tomonidan sotib olingan mulklar, savdo do'konlari, qishloqlar va boshqa mol-mulk huquqlari qayd etilgan. Ushbu arxiv materiallari naqshbandiylik tariqatining iqtisodiy qudratini va Buxoro amirligidagi ta'sirini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi.

11. **Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi** — Mazkur devonxonaning hujjatlari O'zbekiston Markaziy davlat arxivining I-1 fondida

saqlanadi.

12. **Yagona davlat arxiv fondi (YadAF)** — 1925-yil 22-iyul kuni O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining qarori bilan "O'zSSR Arxiv ishini boshqarish bo'yicha Markaziy Boshqarma to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Ushbu nizom asosida respublikada Yagona davlat arxiv fondi (YadAF) tashkil etildi. Mazkur fond tarkibiga davlat idoralari, savdo-sanoat tashkilotlari, kooperativlar, kasaba uyushmalari, shuningdek, diniy muassasalar va shaxsiy arxivlar kiritildi. 1925-yilda Farg'ona, Samarqand, Toshkent va Zarafshon viloyatlarida, 1926-yilda esa Xorazm, Qashqadaryo hamda Surxondaryoda viloyat arxiv byurolari tashkil etilgan.

13. **Skifat** — bu atama tangalar yuzasida maxsus yumaloq zarb vositasi orqali hosil qilingan chuqurcha (botiqlik)ni bildiradi.

14. **Formulyar** — hujjatning boshlov va tugallash qismlaridagi an'anaviy jumlalardir.

15. **Funt** (lot. pondus — vazn, og'irlik) — 1 F. (savdoda) = 0,409512 kg = 1 qadoq.

16. **Xandaq** - Qal'a himoyasini mustahkamlash uchun devor tashqarisiga qazilgan va suv bilan to'ldirilgan mudofaa inshooti. Qadimgi harbiy muhandislikning muhim elementi hisoblanadi.

17. **Ixrojot** - Saroyning kunlik ehtiyojlari uchun aholidan undiriladigan maxsus soliq turi. Bu yig'im asosan oziq-ovqat mahsulotlari va kundalik foydalanish buyumlaridan iborat bo'lgan.

18. **Chuhra oqosi** - Xonning shaxsiy qo'riqchilar bo'linmasining boshlig'i. Bu lavozim egalari xon shaxsining xavfsizligini ta'minlash bilan birga saroy tartib-intizomini nazorat qilgan.

19. **Dorug'a** - Shaharning harbiy qo'mondoni. U shahar mudofaasini tashkil etish, tartib-intizomni saqlash va xavfsizlikni ta'minlash mas'uliyatini olgan.

20. **Man** - An'anaviy og'irlik o'lchov birligi (1 man = 4,32 kg). Bu o'lchov asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik buyumlari va boshqa savdo mollari uchun qo'llanilgan.



21. **Tanob** (arab. — chilvir, arqon) — 1) O'rta Osiyo hududida qo'llanilgan uzunlik o'lchov birligi. XVII-asrda qiymati 39,9 m ga teng bo'lgan; 2) O'rta Osiyo xonliklarida tomonlari 60 gaz dan iborat bo'lgan maydonga teng, ya'ni ekin maydonini o'lchash uchun qo'llanilgan yuza birligi. 1 T. 60x60 kv. gaz =3600 kv. gaz =0,08194 ga=900 kv. m (1 ga=12 tanob);.

22. **Bek** - o'ziga biriktirilgan ma'lum bir tumanni boshqarib, to'qsoba (hozirgi vaqtda podpolkovnik) unvonidan dodxoh (h.v. general leytenant) unvonigacha ko'tarilish mumkin bo'lgan

23. **Vaqf** (ar. - xayriya maqsadlarida vasiyat qilingan mulk, vaqfiy mulk) - islom huquqida diniy, ma'rifiy yoki xayriya maqsadlarida ajratilgan va abadiy mulk huquqi bekor qilingan mol-mulk.

24. **Darra** (f. - qayish qamchi) - 1) XX asr boshlarigacha Turkiston xonliklarida tan jazosiga hukm qilinganlarni jazolash uchun ishlatilgan qamchining bir turi. Eni 4-5 sm li 2-3 qavat qayish tasmadan tikilib, dastasi yog'ochdan ishlangan. Badanga qattiqroq tegishi uchun tasmalar orasiga qum solib tikilgan; 2) bolalar va o'smirlar o'rtasida o'tkaziladigan darrasoldi o'yinida ishlatish uchun eshib, ikki qavat qilib buralgan belbog' yoki ro'molcha.

25. **Din** (ar. - e'tiqod, ishonch) - Ilohiy kuchga, Xudoga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui.

26. **Yorliq** - biror amal, unvon, suyurg'ol va shu kabilar berilganligi haqidagi rasmiy hujjat, farmon.

27. **Yosol** - qo'shin safi. Yosol tuzish-qo'shinni yurish, ko'rik yoki jang oldidan safga tizish.

28. **Zakot** (ar. tozalanish) - islom dinining besh asosiy talablaridan biri bo'lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson, soliq. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng (2,5 %). Dehqonlar va chorvadorlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo'lgan. Zakot kambag'allar, yetim-esirlar, kasallar va hech kimi yo'q ayollar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan.

29. **Ibn** (ar. - o'g'il) - erkak kishini o'z otasiga nisbat etib ko'rsatuvchi, "o'g'il", "zoda" ma'nolarini bildiruvchi so'z. Masalan, Mansur ibn Nuh -Nuhning o'g'li Mansur demakdir.

30. **Imom** - 1) Shia mazhabidagi musulmonlarning diniy rahbari; 2) masjidlarda namozga rahbarlik qiluvchi ruhoniy.

31. **Mirzaboshi** - Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida saroy devonxona rahbari bo'lgan yuqori martabali amaldor.

*Vazifalari:*

- Saroy mirzalarini boshqarish;
- Davlat hujjatlarini nazorat qilish;
- Amir/xon devonida kotiblik ishlarini tartibga solish.

32. **Miroxur** - O'rta Osiyo xonliklarida otxona va chorvachilik ishlarini boshqargan 4-darajali saroy amaldori.

*Vazifalari:*

- Hukmdor otlarini parvarish qilish;
- Saroy chorva mollari uchun ozuqa ta'minoti;
- Harbiy ot ulovlarini tashkil etish.
- *Martaba tartibi:* Dasturxonchi va parvonaqidan keyingi o'rinda turgan

33. **Mirshab** - (ar. mir - hukmdor va shab - tun) - Shaharning tungi tartib-intizomini ta'minlovchi ma'muriy lavozim.

*Vazifalari:*

- Shahar darvozalarini berkitishni nazorat qilish;
- Tungi tartibni saqlash (kechqurun soat 18:00 dan);
- Qoidabuzarlarni jazolash.
- *Tarixiy o'zgarishlar:*
- 1917 yilgacha "qo'rboshi" deb atalgan;
- Rossiya istilosidan keyin polismeysterlarga bo'ysungan.

34. **Munshiy, munshiy** (ar. kotib, ijodkor) – xonlar va amirlarning shaxsiy kotibi bo'lgan oliy ma'lumotli amaldor.

*Talablar:*



- Ajoyib xat savodiga ega bo'lish;
- She'riyat va adabiyotdan xabardorlik;
- Davlat ishlarini yuritish bilimi.
- *Vazifalari:*
- Hukmdor farmonlarini yozish;
- Xalqaro yozishmalarni olib borish;
- Tarixiy asarlar yozish.

35. **Mang'it, mang'itlar** - O'rta Osiyo, Shimoliy Afg'oniston, Shimoliy Kavkazda keng tarqalgan turkiy qabilalardan biri. 1923-26 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston hududlarida mang'itlarning umumiy soni 130 mingdan ortiq bo'lgan. O'zbekistonda yashovchi mang'itlar bir qancha mayda va yirik urug'larga bo'lingan. Eng yiriklari: oq mangit, och mang'it, qora mang'it, chala mang'it, boygundi, temirxo'ja, isoboy, gaulak, ko'sa, toz, qorabayir, to'q, baqirchi, kula, tamg'ali, gala botir, uz, uvolay va boshqalar. Mang'itlar Buxoro xonligining siyosiy hayotida faol qatnashganlar. 1753-1920 yillarda Buxoroni idora qilib kelgan hukmdorlar mang'itlarning to'q urug'idan bo'lishgan.

36. **Nasta'liq xati** - XIV asrda shakllangan arab mumtoz xati uslublaridan biri bo'lib, XV asrda O'rta Osiyo hududlariga ham keng tarqaladi. Nash va ta'liq xatlari asosida yaratilganligi uchun shunday nomlangan. Nasta'liq xatida yozilgan yozuvlarning 5/6 qismi egri, 1/6 qismi esa to'g'ri chiziqlar asosida yoziladi.

37. **Otaliq** - O'rta asr Osiyo davlatlarida shahzodalarni tarbiyalash va ularning yerlarni boshqarish uchun tayinlangan oliy davlat lavozimi.

*Kelib chiqishi:*

- Dastlab Saljuqiylar davrida (1038-1194) hukmdor ishongan shaxslarga berilgan
- So'ngra Markaziy Osiyo xonliklarida qo'llanila boshlangan

*Asosiy vazifalari:*

1. Shahzodalarni davlat boshqaruvi sirlariga o'rgatish;
2. Yosh hukmdorning yerlarni vaqtincha boshqarish;
3. Davlatning ichki va tashqi siyosatini nazorat qilish.

*Tarixiy misollar:*

- **Balxda** Mahmudbiy otaliq (XVIII asr boshlari);
- **Buxoroda** Muhammad Rahim otaliq (1753-1758).

*Lavozimning ahamiyati:*

- Shahzodalarning siyosiy shaxs sifatida shakllanishida muhim rol;
- Davlatning barqarorligini ta'minlash vositalaridan biri;
- Hukmdor sulolasining davomiyligini kafolatlash.

38. **Saiis** (ar. - otboqar, hayvonlarga qarovchi) – O'rta Osiyo xonliklarida harbiy xizmat va xo'jalik ehtiyojlari uchun saqlangan otlarni parvarish qiluvchi shaxs. Sayislar bevosita otxonalar yoniga qurilgan maxsus uylar -sayisxonalarda istiqomat qilishgan. Sayislar boshlig'i miroxur deb atalgan.

39. **Sayyid** - Islom dunyosida Muhammad payg'ambar (s.a.v.) nabirasi Hazrati Alining farzandlari - Hasan va Husayn avlodlariga beriladigan sharaf unvoni.

*Kelib chiqishi:*

- Arabcha "hukmdor", "janob" ma'nolarini anglatadi'
- Islom dinida maxsus ijtimoiy-ma'naviy maqomga ega.

*Nasab qoidalari:*

1. **Erkaklar orqali:** To'g'ridan-to'g'ri Hasan yoki Husayn avlodidan bo'lish;
2. **Ayollar orqali:** Sayyid qiziga uylangan erkakning farzandlari ham sayyid hisoblanadi.

*Tarixiy ahamiyati:*

- Buxoro amirligida: Mang'itlar sulolasining so'nggi hukmdori Amir Sayyid Olimxon ona tomondan sayyid nasabiga ega bo'lgan;
- Umuman Markaziy Osiyoda sayyidlar maxsus ijtimoiy hurmatga ega bo'lgan.

*Zamonaviy holati:*

- Hozirgi O'zbekistonda sayyidlar nasabnomalari orqali o'z nasillarini aniqlay oladilar;



- Ba'zi diniy marosimlarda maxsus e'tiborga sazovor bo'ladilar.

40. **Tanob** (ar. - chilvir, arqon) - yer o'lchash, uzunlik o'lchash, chiziq tortish va sh.k.larda ishlatiladigan uzun ip; 1) O'rta Osiyoda qo'llanilgan uzunlik o'lchov birligi. XVII asrda qiymati 39,9 m ga teng bo'lgan; 2) O'rta Osiyo xonliklarida ekin maydonini o'lchash uchun qo'llaniladigan yuza birligi. Tomonlari 60 gaz dan iborat bo'lgan maydonga teng. 1 tanob-3600 metr kv. 12 tanob-1 ga yer maydonini tashkil etadi.

41. **Tanobona** - Buxoro amirligida mevazor, tokzor va bedazorlardan yillik asosida undiriladigan yer solig'i turi.

*Soliq miqdori (XIX asr boshlari):*

- **1 tanob** (0.34 gektar) yer uchun:
  - 1 tillo (oltin) **yoki;**
  - 40 tanga (kumush).

*Qo'llaniladigan yer turlari:*

1. Tokzorlar (uzumzorlar);
2. Bog'lar (mevali daraxtzorlar);
3. Bedazorlar (yong'oq plantatsiyalari).

*Tarixiy kontekst:*

- Buxoro amirligining asosiy qishloq xo'jaligi soliqlaridan biri;
- Soliq undirishda "tanob" yer o'lchovi asos qilib olingan;
- Soliq to'lovchilar - yer egalari va ijarachilar.

*Boshqa soliqlar bilan taqqoslash:*

- **Tanobona** - faqat mevali bog'lar uchun.
- **Xiroj** - don yetishtiriladigan yerlardan olinadigan soliq.

*O'lchov birliklari:*

- 1 tanob = 0.34 gektar;
- 1 tillo = 4.8 gramm sof oltin;
- 1 tanga = 4.8 gramm kumush.

42. **Tavochi** - lashkar to'plash ishiga mas'ul shaxs.

*43.* **To'qsoba, to'qsabo** (eski o'zbekcha - o'z tug'iga ega bo'lgan) - harbiy qism sarkardasi, tuqsaboshi. 1) XVI-XIX asrlarda Buxoro amirligida eshikog'o boshi, chig'atoy begi singari mansablardan keyingi, miroxurdan oldingi rutba hisoblanib, uning egasi amir saroyiga otda kirish, lekin hukmdor qabulida o'tirish huquqiga ega bo'lmagan shaxsni anglatgan. Bu mansabdor idishlarga ovqat suzish, kosalarga ichimlik quyish, ularni xizmatkorlar orqali mashvarat yoki kengash ahliga yetkazishga mas'ul hisoblangan; 2) Amir tomonidan katta qal'a va qo'rg'onlardagi harbiy gornizonni boshqarish uchun tayinlagan harbiy masabdor. Qo'qon va Xiva xonliklarida to'qsoba, asosan, bir polqdan tashkil topgan harbiy qism qo'mondoni. Rutba jihatidan chor armiyasining polkovnik unvoniga teng bo'lgan.

**44. Farsang (farsah)** – forscha uzunlik o'lchovidir. Odatda karvonning keyingi dam olish, to'xtash yoki boshqacha aytganda, bir soatda piyoda bosib o'tish mumkin bo'lgan masofasi. 1 farsah = 12000 qadam = 6-7 km.

**45. Ushr** – hosildan o'ndan bir hisobida olinadigan soliq.



## ILOVALAR

**1-ilova.** Davlat xazinasining noqonuniy sarflanishi haqida[295]



***Hujjat raqami: 534***

[295] ازم ا ا، ۱۲۶- سرمایه، ۱- لیست، ۵۳۴- کار، ۱- ورق (O'zMA, I-126-fond, 1-ro'yxat, 534-ish. – V.1.)

***Sanasi: -***

***Yuboruvchi: Rossiyalik siyosiy agentlik vakili***

***Oluvchi: amir Abdulahad (1885–1910)***

**Ey o'z bandalarini suyguvchi zot.**

Sadaqang ketay (qurboning bo'lay), himoyachi qo'rg'on bo'lmish Dehnav viloyati va shahrining soliqchisi Muhammad Ya'qub to'qsoba o'z g'ulom(o'tmishda hukmdorlar saroyidagi yosh xizmatkor)lari bilan amirlik namunasi bo'lmish donishmandlarning sarasi Almosbiy miroxur (davlat nazoratchisi) nomli amlokdorning hovlisiga qo'nib(kelib), uch kecha tunadilar.

Donishmandlarning sarasi bo'lmish ushbu miroxur, to'qsoba (Muhammad Ya'qub) ketayotgan chog'ida, uning g'ulomiga (quliga) bir bosh yaxshi ot, bir tup ro'mol, bir dona farangi(yevropacha) kiyim va bir dona hisoriy ipakdan to'qilgan kiyim berdi. Ammo rostini ayitganda, shunisini aniq bilmadimki, bularning barchasini o'sha keksa duogo'y (to'qsoba Muhammad Ya'qub) g'ulomga topshirdilarmi yoki ul janobning o'zlari avvaliga olib, so'ngra g'ulomlariga topshirdilarmi.

Qurboning bo'lay, Almosbiy g'ulomishon Dehnov va Yurchi va unga qarashli joylarni aminonasini (ya'ni tazvin pulini-solig'i yig'ish ishini) Nazar miroxurga topshirgan. Shu pulni miroxur Nazarbiy muloxiza(o'ylamasdan) qilmay xarju-xarajat qilmoqda, har kecha 30 (o'ttiz) ta otliq unikiga keladi va otlarga yemlarini beradi. Uchta mehmonxonasi bor, hamisha mehmonxona xizmatkor va g'ayri xizmatkorlardan to'la, odamlar kechayu-kunduz shu yerda oshu-non yeydilar. Agar oilaning ichki xarajatidan so'zlasak, har kun bozorga borib ko'p narsalar olib keladi. Qurboning bo'lay mazkur miroxur bunday o'ylamasdan xarajat qilaversa mening fikrimcha kibrnodon va duogo'yman davlatimizning xazinasiga ziyon yetadi. Yana ham oliy mavloyim yaxshiroq biladilar. Bu duogo'y nodonlik ko'zim bilan ko'rgan va eshitganlarimni g'ulomlik va duogo'ylik yuzasidan mavloi olamga buyuk mavlomga arz qildim. Ilohim salomat bo'ling. At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir, At –taqsir.



**2-ilova.** Buxoro amirligini qonunlariga bo'ysunmasdan bir gunohkor mahbusning zindondan ikkita sherigi bilan qochib ketib, olib borilgan boshqaruvni mensimaslik haqida[296]



[296] ( O'zMA, 126-fond, 1-ro'yxat,192 -ish, -V.1.)

***Hujjat raqami: 192***

***Sanasi: hijriy 131-yil6, milodiy 1898-yil***

***Yuboruvchi: Rossiyalik siyosiy agent Charikuf***

***Oluvchi: amir Abdulahad (1885–1910)***

Qurboning bo'lay, Charikuf pochta orqali g'ulomiga xat berib yuborgan edi. Bu xat janobi oliylariga manzur bo'ldi. Hazratim siz yana ham yaxshiroq bilasiz. Xatning mazmuni shundan iboratki, Andijon fuqarosi Darvishxon to'ra eshon o'g'li o'tgan fevral oyida Jizzax zindonidan qochib, Buxoro amirligining Qorategin shahriga kelgan. Darvishxon yaqinda Kobuldan kelgan Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurinboy Umarqulining o'g'lini o'zi bilan birga olib kelgan. Bularning maqsadi, Buxoro davlatini mensimaslik bo'lgan. Gubernatorning noibi bergan topshirig'iga asosan sizni ogohlantiramanki, Darvishxonni qo'lga olib, bog'lab, baquvvat soqchini tayinlab, Rossiyalik amaldorga topshirmoqchiligimni menga telegraf orqali ma'lum qildi.

Yuqoridagi Darvishxonning belgilari: yoshi 45 da, bo'yi baland, bug'doy rang, soqoli uzun, yuzida dog'i bor, ko'zlari qisiq, rangi toza emas, oyoqlari yo'g'on deb, xat qilgan.

Qurboning bo'lay, uning xati bo'yicha Darvishxon Andijonlik Muhammad Karim va Andijonlik Nurunboylar Qorategin tomon ketgan. Ularni mart oyida ushlash uchun askar Rahmonquli parvonachi yuborildi. Rahmonquli parvonachi Darvishxonni ikkita g'ulomi bilan sizning huzuringizga jo'natsinmi yoki Samarqandga jo'natsinmi, sizning roziligingiz bilan bo'ladi.

Sizning javobingizni umid qilaman. Sizga sadoqatimni namoyon etaman.

Janobi oliy yana yaxshiroq bilguvchi, ixtiyorlidur

Taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir, taqsir



**3-ilova. Tashqi ishlar Vazirligi Buxorodagi Rossiya imperatorligining siyosiy agentligidan 1914-yil 11-oktabr sanasida Mirza Nasrullobiy Qo'shbegiga yo'llangan xat**[297]


Срочно.

М. И. Д.

Достопочтенному Мирзе Насрулла-бию Кушбеги.

Препровождая при семъ два письма Головащенко, полученныя ... отъ Термезскаго Воинскаго ... по дружбѣ прошу Васъ, Достопочтенный Кушбеги, сдѣлать ... зависящія распоряженія объ охранѣ ... унтеръ-офицера Головащенко, ... и о послѣдующихъ ... приложенія мнѣ увѣдомить.

Въ ожиданіи отвѣта, желаю ... здоровья и милостей Его Вы-сочества ...

Управляющій ... Агентствомъ

[297] ازم آ.ا ـ ۱۲۶ـ سرمایه، ۲ـ لیست، ۲۶۵ـ کار، ۱ـ ورق ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat,265 -ish, -B.1.)

*Hujjat raqami: 8496*

*Sanasi: 1914-yil 11-oktabr*

*Yuboruvchi: Siyosiy agentlik boshqaruvchisi*

*Oluvchi: Mirza Nasrullabiy Qo'shbegi*

**Shoshilinch hurmatli Mirza Nasrullabiy Qo'shbegiga!**

Hurmatli Qo'shbegi, Sizga yuborayotgan Termiz harbiy rahbaridan olgan ikkita xatimda unter-ofitser Golovashenkoning Denov bekligidagi Yurchi qishlog'ida yashayotgan oilasining xavfsizligini ta'minlash maqsadida farmon chiqarishingizni Sizdan do'stona so'rayman va keyingi qaytadigan ilovada meni xabardor qiling.

Amir janobi oliylari! Xatning javobini kutgan holda, Sizga sog'lik-salomatlik tilayman.

Siyosiy agentlik boshqaruvchisi

**4-ilova.**

**Hijriy yildan milodiy yilga o'tish formulasi**

**Hijriydan milodga**

1443 hijriy yilni 0.97 ga ko'paytiramiz. 0.97 o'zgarmas son.

1443*0.97=1399.71

Chiqqan sonni ixchamlaymiz. Natijada nuqtadan keyingi son 5 va undan katta bo'lsa 1 deb nuqtadan oldingi songa qo'shamiz.

1399+1=1400

Natijani hijriy yil boshlangan sana 622 ga qo'shamiz.

1400+622=2022 chiqadi.

**Miloddan hijriyga**

Milodiy yildan 621 ni ayiramiz. 621 o'zgarmas son.

2022-621=1401 Chiqqan sonni 1.03ga ko'paytiramiz.

1401*1.03=1443.03 Ixchamlasak 1443 hijriy yil chiqadi.



**5-ilova.**



Janobi oliylari Mirbegul qo'shbegi janobi oliylariga! Sizga shuni ma'lum qilamizki, xudoning mehribonligi ila davlatimiz tinch osuda va xotirjammiz. Xatimiz mazmuni shuki, shoh vazirligining 3-raqam bilan 1914-yil 11-oktabrda elchixonadan kelgan № 8496-son xat yuzasidan ish olib borilmoqda, unter-ofitser Golovoshenko Rossiya boshlig'iga arz yetkazgan.

Denovga qarashli Yurchi mavzeyidagi fuqarolar ushbu ishni qasdan, qasdan va yana qasdan qilganliklari uchun qayta qayta ko'rilmoqda, bu ish yuzasidan Termizdagi harbiy boshliqga ikki marotaba xat yuborilgan. Yuborilgan xatning

mazmunida sizlar musulmon bo'lingizlar, sizlarning dinlaringizning vaqti tugadi.

Shuningdek, xatda aybdor fuqarolar va jarimaga tortilganlari, jazolanganlari to'g'risidagi ma'lumot xatga qo'shib jo'natilsin. Bu ma'lumotlar shohga ham yetkazilgan. Ishni to'liq o'rganish uchun shaxsan o'zim borib o'rgandim. Uch fuqarodan biri Yakkabog'lik musofir qassob, ikkinchisi Qarshilik kulol va ularning sheriklarini Yurchi bozorini aylantirib 25 tayoqdan urilib, boshqa bu ishni qilmasliklari tushuntirildi. Bu boradagi ma'lumot harbiy boshliqqa ham yetkazilgan. Bundan keyin biror inson bunday ishga jur'at qilolmasin deb, shu yuzasidan podsho tayin qildi. Xatga 5 nafar jazolangan fuqarolar yozilgan bo'lib, darxol boshqalarni aybdor fuqarolarning oldilariga bormasliklarini tayin qildim.

Shu sababli ancha yillar Yurchida mahalliy aholi bilan birga rus fuqarolari ham aralashib yashab yurdilar. Ruslar o'z e'tiqodicha Yurchi fuqarolari o'z e'tiqodicha ya'ni Yurchi fuqarolari boshlariga sallalarini bog'lagan holda ko'p xursandchilikda birga yashab yurdilar.

Shu jihatdan zikr qilinganlarga nasixat qilindi va har qanday voqealardan habardor bo'lib turdim[298].

[298] ازم ا,ا -۱۲۶- سرمایه, ۲- لیست , ۲۶۵- کار, -۳ ورق. ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, -V.3.).



**6-ilova**

**Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan Denov bekligiga qarashli Yurchi qishlog'ida Rossiya imperatorligining siyosiy agentligidan hududni nazoratda tutib turish uchun Golovashenkoning xatining mazmuni:**



Muhtaram podshohga ma'lum bo'lsinki, biz barchamiz sog'-salomatmiz, sizlar ham sog'-salomat bo'lingizlar. Podshohga ma'lum bo'lsinki, bu taraf Yurchi fuqarolari bizga xavf solib, "Sizlar musulmon bo'lingizlar, sizlarning dinlaringizning vaqti tugadi"-deb bizning savdolarimizga zarar yetkazishmoqda va bizning mazhabimizni va podshohimizni tahqirlashib, bizlarni ko'p haqorat qilishmoqda. Shu sababli sizning ogohlantirishingizga muntazirmiz. Bizning savdomiz yomon bo'lib, pulga zoriqib qolyapmiz. Janobi oliylari, agar mumkin bo'lsa bizning ahvolimizni hokimga yetkazing, mazkur fuqarolarni Rossiya davlatiga zarar yetkazuvchi harakatlardan qaytarishlarini so'raymiz[299].

1) **Chorag'asi** — unter-ofitser, uning o'rniga bekning o'g'illari Qurchi unvonini oladi.

2) **Jevachi** – katta unter ofetser.

3) **Mirzaboshi** - leytenant.

4) **Qoravulbegi** – katta leytenant.

[299] ازم ا,ا -۱۲۶- سرمایه, ۲- لیست , ۲۶۵- کار, -۴ ورق. ( O'zMA, 126-fond, 2-ro'yxat, 265 -ish, -V.4.).

5) ***Miraxur*** *- kapitan.*

6) **To‘qsaba** - podpolkovnik.

7) **Eshikog‘aboshi** - polkovnik.

8) **Biy** – brigadir (polkovnik bilan general o‘rtasidagi harbiy invon).

9) **Dodxoh** - general mayor.

10) **Inoq** - general-leytenant. Aristokratiya qatoriga mansub shaxslar inoq darajasiga ko‘tarilmaydi, balki uni chetlab o‘tib, parvonachi unvonini oladi.

11) **Parvonachi** - to‘liq sarkarda.

12) **Qo‘shbegi** - harbiy qo‘noq, qo‘sh, stavka va lager boshlig‘i.

**Sherobod bekligida hizmat olib borgan beklar ro‘yxati**

1.1-jadval

| T/p | Beklar ismi | Boshqaruv yillari | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1 | Sodiqbekbiy | 1885-yil | |
| 2 | Mirzo Salimbek | 1905-1909-y.y. | |
| 3 | To‘xtamish | 1918-yil | |

**Boysun bekligida hizmat olib borgan beklar ro‘yxati**

1.2-jadval

| T/p | Beklar ismi | Boshqaruv yillari | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1 | Badalbiy | 1757-yil | Muhammad Rahimbiyning Dehnovga yurishi vaqtida |
| 2 | Imomqulibiy[300] | 1757-1758-yil | |
| 3 | *Muhammad Yusuf tortuli* | 1868 yil | 1868 yildan Boysun alohida mustaqil beklik sifatida qayd etiladi. |
| 4 | Sayid Abdulmo‘min (amir Muzaffarning o‘g‘li) | 1886-yil | Amir Abdulahadxon (1885-1910)ning akasi, Sayid Abdulmo‘min Abdulahadxon tomonidan Buxoroga chaqirilib uy qamog‘ida saqlanadi |
| 5 | Mirzo Salimbek | 1902—1905 yy. | |

[300] ١۴٢۶ .(هديه خان). تحفة الخانى. محمد وفوى كرمينا‌گى№ ٢۵۶ .ب.ب (Muhammad Vafoyi Karminagiyning "Xonning tuhfasi") №1426. – V.258.



**Buxoro qo‘shbegilari** 1.3-jadval

| № | Qo‘shbegi | Hayot yillari | Ishlagan yillar | Eslatma |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Abdulla-biy | 1723 | 1702—1710/1711 | |
| 2 | To‘raqulibiy | 1670—1711 | 1710/1711-—1711 | |
| 3 | Javshon | 1680—1711 | 1711—1711 | |
| 4 | Abdulla-biy | 1723 | 1711—1716 | Ikkinchi marta tayinlangan |
| 5 | Sulton biy | 1723 | 1716—1723 | |
| 6 | Muhammad Davlat | 1712—1785 | 1756—1785 | Buxoro amirligining birinchi qo‘shbegi |
| 7 | Utkur-biy | 1743—1812 | 1790—1812 | |
| 8 | Muhammad Hakim-biy | 1769—1840 | 1812—1837 | |
| 9 | Rahmonberdi turkman | | 1837 | |
| 10 | Aziz | 1860 | 1860 | |
| 11 | Muhammad Yoqub-biy | | 1860—1870 | |
| 12 | Muhammad-biy | 1808—1889 | 1870—1889 | |
| 13 | Ostonqul-biy | 1860—1923 | 1889—1910 | |
| 14 | Nasrulla qo‘shbegi | 1860—1918 | 1910—1917 | |
| 15 | Nizomaddin Urganji | 1871—1921 | 1917—1920 | Buxoro amirligining oxirgi qo‘shbegi[301] |

1.4-jadval

**Denov bekligida hizmat olib borgan beklar ro‘yxati**

| T/p | Beklar ismi | Boshqaruv yillari | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1 | | | |
| 2 | Abdulkarim dodxoh[302] | | |
| 3 | Abdurahmonbek | XIX asrning 80-yillari | |
| 4 | Olmosbiy | 1885 | |
| 5 | Qosimbek | 1902-1908 yillar | |
| 6 | Suvonqulbek | 1908-1920 sentabr | |
| | | | |

[301] Elektron resurs [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBshbegi] Murojaat qilingan sana 13.07.2025

[302] Bonvalot. G. Through the heart of Asia. Over the Pomir to India. Vol. II. – London. 1889. – P. 220.

1.5-jadval

**Hisor bekligida hizmat olib borgan beklar ro'yxati**

| T/p | Beklar ismi | Boshqaruv yillari | Izoh |
|---|---|---|---|
| 1 | Muhammad Aminboy | 1758-yil | Shu yılı vafot etgan |
| 2 | Saidbiy otaliq | 1800-yıl | |
| | Yoqubbek qo'shbegi | | Amir Muzaffar (1860-1885) davrıda |
| | Salim dasturxonchi[303] | 1871 | Uning faolıyatı amırga yoqmaganligi sababli o'rniga Sayid Abdulmo'min tayınlanadi |
| 3 | Sayid Abdulmo'min (amir Muzaffarning o'g'li) | 1871-1886-yıllar | |
| | Ostonoqulbek-biy (amir Sayid Abdulahadning amakisi) | 1886-1906-yillar | Amir Muzaffarning tutingan akasi |
| | Avliyoqul parvonachi[304] | 1906-1920 | |
| | Jalil al-Qodir Devonbegi | 1911-y | |
| | Abdulqosimbiy | 1915-yil etgan. | 1915-yıl vafot |
| | Abdalkarim (1845-1866) | 1920 | Hisorning so'nggi mustaqil hukmdori. |
| | | | |

*2.1-jadval*

| № | 1. Sina | Hovli soni | II | Po'stindara | Hovli soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Sina | 600 | 1 | Po'stindara | 40 |
| 2 | Oybarak | 100 | 2 | Degrez | 30 |
| 3 | Kuyov-suvi | 30 | 3 | Buloq | 10 |
| 4 | Hazrat-Vahshuvor | 80 | 4 | Joyti | 25 |
| 5 | Luppa | 50 | 5 | Kuye-paykal | 25 |
| 6 | To'xtamish | 30 | 6 | Bo'z-oynak | 30 |
| 7 | Xo'jasoat | 90 | 7 | Tangis-tepa | 15 |
| 8 | Badigova | 50 | 8 | Yalti-(Jalti) | 5 |
| 9 | Chinor | 50 | 9 | Ala temir | 20 |
| 10 | Zardagul | 20 | 10 | Kultepa | 70 |
| 11 | Obishirin | 30 | 11 | Dalvarzin | 60 |
| | | | 12 | Talli | 25 |
| | **Jami** | **1130** | | **Jami** | **355** |

| № | III.Qarluq | Hovli soni | IV | Durmon | Hovli soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qarluq | 200 | 1 | Poyzova | 70 |
| 2 | Ipak | 30 | 2 | Koni-kon | 15 |
| 3 | Batash | 60 | 3 | Ulanko'l | 30 |

[303] Qobulov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 65b.
[304] Qobulov E.A. Surxon vohasi xo'jaligi. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – 66 b.



| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Shoxchi | 20 | 4 | Arg'anchi | 30 |
| 5 | Karsagon | 20 | 5 | Xo'jaabruostona | 30 |
| 6 | Mirshodi | 20 | 6 | Jangaka | 20 |
| 7 | Alabuloq | 20 | 7 | Jiydabuloq | 100 |
| 8 | Jindibuloq | 20 | | **Jami** | **295** |
| 9 | Baxshitepa | 20 | | **V. idirsho** | **Hovli soni** |
| 10 | Sabjaran | 30 | 1 | Xidirsho | 30 |
| 11 | Kultepa | 70 | 2 | Mo'minqul | 40 |
| 12 | Savur | 20 | 3 | Yabi | 40 |
| 13 | Permaqo'rg'on | 15 | 4 | Dug'oba | 30 |
| 14 | Jarqishloq | 30 | 5 | Sayrak | 50 |
| 15 | Kakaydi | 15 | 6 | Ovchi | 30 |
| 16 | Xo'jamulki | 30 | 7 | Yassitepa | 30 |
| | | | 8 | Shayton | 30 |
| | | | 9 | Qiziljar | 25 |
| | | | 10 | Iqris | 30 |
| | | | 11 | Qutichag'li | 15 |
| | | | 12 | Pargaguzar | 10 |
| | | | 13 | Xo'ja xalqi | 15 |
| | | | 14 | Qulog'li | 30 |
| | | | 15 | Xasantepa | 40 |
| | | | 16 | Sulton Sanjar manzili | 20 |
| | | | 17 | Chuqur | 20 |
| | **Jami** | **620** | | **Jami** | **485** |

| | **VI. Gardi-Qo'rg'on amlokdorligi** | **Xovli soni** |
|---|---|---|
| **№** | **Qishloqlar** | 30 |
| 1 | Denov | 20 |
| 2 | Andijon | 5 |
| 3 | Xolchayon | 8 |
| 4 | Xitayon | 10 |
| 5 | G'urbek | 8 |
| 6 | Yortitepa | 30 |
| 7 | Qorako'z | 10 |
| 8 | Zartepa | 10 |
| 9 | Eshako'ldi | 10 |
| 10 | Tyunishtunash | 10 |
| 11 | Marg'ilon | 5 |
| 12 | Qulbozor | 20 |
| 13 | Qoraxon | 10 |
| 14 | Qora kichkina | 10 |
| 15 | Xo'jakamar | 10 |
| 16 | Chimildiq | 30 |
| 17 | Boqati | 30 |
| 18 | Sho'rchi | **266 hovli[305].** |
| | **Jami: 18 qishloq** | |

[305] Қобилов Э. Сурхон воҳаси хўжалиги. (XIX – XX аср бошларида). –Тошкент: Akademnashr, 2012. – B. 84-86.

**7-ilova**

## Sharqiy Buxoro bekliklari




**8-ilova**

"Buxoro amirligining XX asr boshlaridagi siyosiy-hududiy tuzilmasi va ma'muriy markazlari maxsus xaritada tasvirlangan."






**9-ilova**

## Buxoro orqali Sharqiy Buxoro bekliklari yo'llari (zamonaviy ko'rinishlari)




[106]

---

[106] [Elektron resurs] https://www.google.com/maps/dir/Buxoro,+Buxoro+Viloyati/Hisor,+Tojikiston [Murojaat qilingan sana 04.08.2025]




[307]

**Xarita tavsifi**:

- **Qizil chiziq**: Tarixiy marshrut (taxminiy).
- **Ko'k chiziq**: Zamonaviy avtomobil yo'li.

[307][Elektron resurs]
https://www.google.com/maps/@38.2716961,65.4751187,7.43z?entry=ttu&g_ep=EgoyMDI1MDczMC4wIKX
[Murojaat qilingan sana 05.08.2025]

More Books!



I want morebooks!

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
**www.morebooks.shop**

Kaufen Sie Ihre Bucher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produziert.

Bucher schneller online kaufen
**www.morebooks.shop**

info@omniscriptum.com
www.omniscriptum.com

OMNIScriptum

# SURXON VOHASI BEKLIKLARINING BUXORO AMIRLIGIDA TUTGAN O‘RNI

Ushbu monografiyada Buxoro amirligi tarkibidagi Surxon vohasi bekliklarining XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni birlamchi tarixiy manbalar asosida atroflicha o'rganilgan. Tadqiqotda Buxoro “Qo'shbegi” arxivi hujjatlari, mahalliy muarrixlar asarlari, rus tadqiqotchilari ma'lumotlari hamda voha tarixiga oid qó'lyozma va bosma manbalar kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, Surxon vohasining amirlik má'muriy-hududiy tizimidagi mavqei, bekliklarning boshqaruv shakllari, soliq va xo'jalik tizimining o'ziga xos jihatlari ilmiy asosda yoritilgan.



**Qarshiyev Ahmad Abdulazizovich-Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.**